



ЎЗБЕКISTОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ҚОНУНЧИЛИК  
ТЎПЛАМИ  

---

---

**СОБРАНИЕ**  
ЗАКОНОДАТЕЛЬНОГО  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКISTАН

**№ 2**

---

---

**2026 йил 12 - 17 январь**

Расмий нашр  
Официальное издание

*Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами беш бўлимдан иборат:*

*биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;*

*иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;*

*учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;*

*тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари жойлаштирилади;*

*бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.*

## МУНДАРИЖА

### БИРИНЧИ БЎЛИМ

23. ««Марказий Осиё-Хитой» формати котибияти тўғрисидаги низомни ратификация қилиш ҳақида» Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 12 январдаги [ЎРҚ-1110-сон](#) Қонуни
24. «Пиротехника буюмларининг муомаласи тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 13 январдаги [ЎРҚ-1111-сон](#) Қонуни
25. «Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодексига жазони ижро этиш муассасаларида жазо муддатини ўтаётган маҳкумлар учун масофали видео-учрашувлар ўтказиш имкониятини яратишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 15 январдаги [ЎРҚ-1112-сон](#) Қонуни
26. «Бозор ислохотлари ва Ўзбекистоннинг Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиш жараёнлари янада жадаллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 15 январдаги [ЎРҚ-1113-сон](#) Қонуни
27. «Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикасининг 2026 йил 15 январдаги [ЎРҚ-1114-сон](#) Қонуни

### ИККИНЧИ БЎЛИМ

28. «Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 34 йиллиги ҳамда Ватан ҳимоячилари қуни муносабати билан ҳарбий хизматчилар ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларидан бир гуруҳини мукофотлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 12 январдаги [ПФ-3-сон](#) Фармони
29. «Маҳаллий енгил саноат корхоналарининг халқаро етказиб бериш занжирларида иштирокини кенгайтириш ҳамда ташқи бозорларда ўрнини мустаҳкамлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 12 январдаги [ПФ-4-сон](#) Фармони
30. ««Фарғона» туристик-рекреацион зонасини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 12 январдаги [ПҚ-5-сон](#) қарори
31. «Китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва аҳоли ўртасида китоб ўқишга қизиқишни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 15 январдаги [ПҚ-9-сон](#) қарори
32. «Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16 январдаги [ПҚ-10-сон](#) қарори
33. «Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16 январдаги [ПҚ-12-сон](#) қарори

### БЕШИНЧИ БЎЛИМ

34. ““O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida uchish ishlarini tashkil etish bo‘yicha qoidalar”ga (O‘ZR AQ-92) o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi direktorining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 12-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [1773-4-son](#)*)
35. “Тиббий жихозларнинг турлари бўйича номенклатура классификацияси ва уларни қўллаш хавфи даражасига кўра таснифлаш қоидаларини тасдиқлаш ҳақида” Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирининг буйруғи (*Адлия вазирлиги томонидан 2026 йил 12 январда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами [3751-сон](#)*)
36. “Dori vositalarining farmakologik nazorati va tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 12-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3752-son](#)*)
37. “Инвестиция платформалари соҳасида «Тартибга солиш кумдони» махсус ҳуқуқий режимини тақдим қилиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида” Ўзбекистон Республикаси Истикболли лойиҳалар миллий агентлиги директорининг буйруғи (*Адлия вазирлиги томонидан 2026 йил 12 январда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами [3753-сон](#)*)
38. “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublik Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 12-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3754-son](#)*)
39. “Salomatligi xavfsizlik kamari taqish imkonini bermaydigan kasalliklar ro‘yxatini tasdiqlash haqida” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining buyrug‘i (*Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 13-yanvar ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami [3755-son](#)*)



**БИРИНЧИ БЎЛИМ**  
**ЎЗБЕКISTON РЕСПУБЛИКАСИ**  
**ҚОНУНЛАРИ**



## **О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING QONUNI**

### **«Марказий Осиё – Хитой» формати котибияти тўғрисидаги низомни ратификация қилиш ҳақида**

Қонунчилик палатаси томонидан 2025 йил 18 ноябрда  
қабул қилинган  
Сенат томонидан 2025 йил 19 декабрда  
маъқулланган

«Марказий Осиё – Хитой» формати котибияти тўғрисидаги низом  
ратификация қилинсин.

**Ўзбекистон Республикасининг  
Президенти**



**Ш. Мирзиёев**

Тошкент шаҳри,  
2026 йил 12 январь  
№ ЎРҚ–1110



## **ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING QONUNI**

### **Пиротехника буюмларининг муомаласи тўғрисида**

Қонунчилик палатаси томонидан 2025 йил 29 июлда  
қабул қилинган  
Сенат томонидан 2025 йил 1 ноябрда  
маъқулланган

#### **1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади**

Ушбу Қонуннинг мақсади пиротехника буюмларининг муомаласи билан боғлиқ муносабатларни тартибга солишдан иборат.

#### **2-модда. Пиротехника буюмларининг муомаласи тўғрисидаги қонунчилик**

Пиротехника буюмларининг муомаласи тўғрисидаги қонунчилик ушбу Қонун ва бошқа қонунчилик ҳужжатларидан иборатдир.

Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида пиротехника буюмларининг муомаласи тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилади.

#### **3-модда. Пиротехника буюмлари**

Пиротехник таркибнинг ёниши (портлаши) ёрдамида оптик, акустик, электр ва бошқа визуал эффектларни ҳосил қилиш учун мўлжалланган қурилмалар пиротехника буюмларидир.

Пиротехник таркиб газсимон ва конденсацияланган маҳсулотларнинг ёниши (портлаши) жараёнида иссиқлик энергиясини ҳамда механик энергияни ишлаб чиқарувчи компонентлар аралашмасидир.

Пиротехника буюмлари уларнинг хавфлилик зонаси, шу жумладан атрофдаги фазонинг зарарланиш даражасидан келиб чиқиб, хавфлиликнинг I – V синфларига бўлинади.

Пиротехника буюмларини хавфлиликнинг синфлари бўйича таснифлаш мезонлари техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатлар билан белгиланади.

#### **4-модда. Пиротехника буюмларининг эркин муомаласи**

Ўзбекистон Республикасида хавфлиликнинг I синфига кирувчи пиротехника буюмларини жисмоний ва юридик шахслар томонидан ишлаб чиқариш, тайёрлаш, Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, ташиш, ўтказиш, сотиб олиш, сақлаш ва улардан фойдаланишга рухсат берилади.

Хавфлиликнинг I синфига кирувчи пиротехника буюмларининг муомаласи қонунчилик ҳужжатларида ва техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатларда белгиланган талабларга риоя қилган ҳолда амалга оширилиши лозим.

#### **5-модда. Пиротехника буюмларининг чекланган муомаласи**

Ўзбекистон Республикасида хавфлиликнинг II – V синфларига кирувчи пиротехника буюмларини жисмоний ва юридик шахслар томонидан ишлаб чиқариш, тайёрлаш, Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, ташиш, жўнатиш, ўтказиш, сотиб олиш, сақлаш ва улардан фойдаланиш тақиқланади, бундан ушбу модданинг иккинчи ва учинчи қисмларида назарда тутилган ҳоллар мустасно.

Хавфлиликнинг II – V синфларига кирувчи пиротехника буюмларини давлат иштирокидаги мудофаа саноати корхоналари томонидан ишлаб чиқаришга, тайёрлашга, сақлашга, ташишга ва ўтказишга рухсат берилади.

Хавфлиликнинг III – V синфларига кирувчи пиротехника буюмларини мушакбозлик ташкил этилиши белгиланган оммавий тадбирлар ўтказиш мақсадида, хавфлиликнинг II – V синфларига кирувчи пиротехника буюмларини саноат ва ҳарбий мақсадларда Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб киришга, ташишга, сақлашга ва улардан фойдаланишга рухсат берилади.

#### **6-модда. Пиротехника буюмларининг мушакбозлик ташкил этилиши белгиланган оммавий тадбирлар ўтказиш мақсадидаги муомаласи**

Хавфлиликнинг III – V синфларига кирувчи пиротехника буюмларини Ўзбекистон Республикаси Президентининг ёки Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорларига мувофиқ мушакбозлик ташкил этилиши белгиланган оммавий тадбирлар ўтказиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, ташиш, сақлаш ва улардан фойдаланиш Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги томонидан амалга оширилади.

Пиротехника буюмларини мушакбозлик ташкил этилиши белгиланган оммавий тадбирлар ўтказиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, ташиш, сақлаш ва улардан фойдаланиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

### **7-модда. Пиротехника буюмларининг саноат мақсадидаги муомаласи**

Хавфлиликнинг II синфига кирувчи пиротехника буюмлари саноат мақсадида фойдаланиш учун юридик шахслар томонидан Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кирилиши, ташилиши, сақланиши ва улардан фойдаланилиши мумкин.

Хавфлиликнинг III – V синфларига кирувчи пиротехника буюмларини саноат мақсадида фойдаланиш учун Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, ташиш, сақлаш ҳамда улардан фойдаланиш портловчи ва заҳарли моддаларни, уларни қўллаган ҳолда материаллар ва маҳсулотларни, шунингдек портлатиш воситаларини яратиш, ишлаб чиқариш, ташиш, сақлаш ва реализация қилиш фаолияти учун лицензия доирасида амалга оширилади.

### **8-модда. Пиротехника буюмларининг ҳарбий мақсаддаги муомаласи**

Хавфлиликнинг II – V синфларига кирувчи пиротехника буюмларини ҳарбий мақсадда фойдаланиш учун Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, ташиш, сақлаш ва улардан фойдаланиш Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан белгиланадиган ваколатли ташкилотлар томонидан амалга оширилади.

### **9-модда. Пиротехника буюмларининг муомаласи устидан давлат назорати**

Пиротехника буюмларининг муомаласи устидан давлат назорати Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси, ички ишлар ва божхона органлари томонидан амалга оширилади.

Пиротехника буюмларининг муомаласи устидан давлат назорати бошқа органлар томонидан ҳам ўз ваколатлари доирасида амалга оширилиши мумкин.

Пиротехника буюмларининг муомаласи устидан давлат назоратини амалга оширувчи давлат органлари пиротехника буюмларини қонунга хилоф равишда ишлаб чиқариш, тайёрлаш, Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш ва унинг ҳудудидан олиб чиқиш, ташиш, ўтказиш, сотиб олиш, сақлаш ва улардан фойдаланиш ҳолатларини аниқлаш ҳамда уларга барҳам бериш, шунингдек айбдор шахсларни қонунда белгиланган жавобгарликка тортиш бўйича чора-тадбирларни ўз ваколатлари доирасида амалга оширади.

### **10-модда. Низоларни ҳал этиш**

Пиротехника буюмларининг муомаласи соҳасидаги низолар қонунчиликда белгиланган тартибда ҳал этилади.

**11-модда. Пиротехника буюмларининг муомаласи тўғрисидаги  
қонунчиликни бузганлик учун жавобгарлик**

Пиротехника буюмларининг муомаласи тўғрисидаги қонунчиликни бузганликда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

**12-модда. Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун  
ҳужжатларига ўзгартиришлар киритиш**

Ўзбекистон Республикасининг қуйидаги қонун ҳужжатларига ўзгартиришлар киритилсин:

1. Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрда қабул қилинган 2015–XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси** (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 3, 6-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 9, 193-модда, № 12, 269-модда; 1996 йил, № 5–6, 69-модда, № 9, 144-модда; 1997 йил, № 2, 56-модда, № 4–5, 126-модда, № 9, 241-модда; 1998 йил, № 3, 38-модда, № 5–6, 102-модда, № 9, 181-модда; 1999 йил, № 1, 20-модда, № 5, 124-модда, № 9, 229-модда; 2000 йил, № 5–6, 153-модда, № 7–8, 217-модда; 2001 йил, № 1–2, 23-модда, № 9–10, 165, 182-моддалар; 2002 йил, № 1, 20-модда, № 9, 165-модда; 2003 йил, № 1, 8-модда, № 5, 67-модда, № 9–10, 149-модда; 2004 йил, № 1–2, 18-модда, № 5, 90-модда, № 9, 171-модда; 2005 йил, № 1, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2005 йил, № 9, 312-модда, № 12, 413, 417, 418-моддалар; 2006 йил, № 6, 261-модда, № 9, 498-модда, № 10, 536-модда, № 12, 656, 659-моддалар; 2007 йил, № 4, 158, 159, 164, 165-моддалар, № 9, 416, 421-моддалар, № 12, 596, 604, 607-моддалар; 2008 йил, № 4, 181, 189, 192-моддалар, № 9, 486, 488-моддалар, № 12, 640, 641-моддалар; 2009 йил, № 1, 1-модда, № 9, 334, 335, 337-моддалар, № 10, 380-модда, № 12, 462, 468, 470, 472, 474-моддалар; 2010 йил, № 5, 175, 179-моддалар, № 6, 231-модда, № 9, 335, 339, 341-моддалар, № 10, 380-модда, № 12, 468, 473, 474-моддалар; 2011 йил, № 1, 1-модда, № 4, 104, 105-моддалар, № 9, 247, 252-моддалар, № 12/2, 365-модда; 2012 йил, № 4, 108-модда, № 9/1, 242-модда, № 12, 336-модда; 2013 йил, № 4, 98-модда, № 10, 263-модда; 2014 йил, № 1, 2-модда, № 5, 130-модда, № 9, 244-модда, № 12, 341, 343-моддалар; 2015 йил, № 6, 228-модда, № 8, 310, 312-моддалар, № 12, 452-модда; 2016 йил, № 1, 2-модда, № 4, 125-модда, № 9, 276-модда, № 12, 383, 385-моддалар; 2017 йил, № 4, 137-модда, № 6, 300-модда, № 9, 510-модда, № 10, 605-модда; 2018 йил, № 1, 1, 4, 5-моддалар, № 4, 224-модда, № 7, 430, 431, 432-моддалар, № 10, 671, 673, 679-моддалар; 2019 йил, № 1, 1, 3, 5-моддалар, № 2, 47-модда, № 3, 161, 165, 166-моддалар, № 5, 259, 261, 267, 268-моддалар, № 7, 386-модда, № 8, 469, 471-моддалар, № 9, 591, 592-моддалар, № 10, 674, 676-моддалар, № 11, 787, 791-моддалар, № 12, 880, 891-моддалар; 2020 йил, № 1, 4-модда, № 3, 203, 204-моддалар, № 7, 449-модда, № 9, 539, 540-моддалар, № 10, 593, 596-моддалар, № 11, 651-модда, № 12, 691-модда; 2021 йил, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-моддалар, № 2, 142-модда, № 3, 217-модда, № 4, 290, 293-моддалар, 4-сонга илова, № 8, 800, 802, 803-моддалар, № 9, 903-модда, № 10, 966, 967, 968,

973-моддалар, № 11, 1066-модда; 2022 йил, № 1, 1, 2-моддалар, № 2, 80, 81-моддалар, № 3, 215, 216-моддалар, № 4, 337-модда, № 5, 464, 465, 466, 467-моддалар, № 8, 787-модда, № 10, 981, 984-моддалар, № 12, 1188-модда; 2023 йил, № 3, 184, 185, 188, 189-моддалар, № 4, 265, 266, 268-моддалар, № 5, 319, 320-моддалар, № 7, 533, 534, 535, 537, 539-моддалар, № 8, 634-модда, № 10, 798-модда, № 11, 921, 923, 924-моддалар, № 12, 1004-модда; 2024 йил, № 1, 5, 7, 8, 9-моддалар, № 2, 102, 111, 115, 116-моддалар, № 3, 243, 245-моддалар, № 6, 530, 532-моддалар, № 7, 629-модда, № 8, 826, 829, 831-моддалар, № 9, 954, 964, 965-моддалар, № 10, 1070, 1071, 1073, 1077, 1078, 1083, 1084-моддалар, № 11, 1187, 1188, 1189-моддалар, № 12, 1279, 1280, 1282, 1286, 1287-моддалар; 2025 йил, № 1, 5, 8-моддалар, № 2, 187, 188, 196, 198, 201-моддалар, № 3, 368, 376-моддалар, № 4, 517, 521-моддалар, № 5, 643, 644-моддалар, № 6, 729-модда) **185<sup>1</sup>-моддаси биринчи қисмининг санкциясидаги** «беш бараваридан йигирма бараваригача» деган сўзлар «ўн беш бараваридан йигирма беш бараваригача» деган сўзлар билан алмаштирилсин.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрда қабул қилинган «**Ички ишлар органлари тўғрисида**»ги ЎРҚ–407-сонли Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2016 йил, № 9, 272-модда; 2017 йил, № 6, 300-модда, № 9, 510-модда; 2019 йил, № 2, 47-модда, № 5, 267-модда, № 9, 588, 591-моддалар, № 10, 674-модда, № 12, 891-модда; 2021 йил, 4-сонга илова; 2022 йил, № 3, 216-модда, № 5, 466-модда, № 6, 570-модда, № 10, 984-модда; 2023 йил, № 7, 537-модда; 2024 йил, № 3, 244-модда, № 9, 958, 964-моддалар, № 12, 1291-модда) **17-моддасининг биринчи қисмига** қуйидаги ўзгартиришлар киритилсин:

**ўттиз олтинчи хатбошидаги** «пиротехника буюмларининг» деган сўзлар чиқариб ташлансин;

**ўттиз еттинчи хатбошидаги** «пиротехника буюмларини» деган сўзлар чиқариб ташлансин.

3. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 июлда қабул қилинган «**Қурол тўғрисида**»ги ЎРҚ–550-сонли Қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2019 йил, № 7, 388-модда; 2020 йил, № 10, 593-модда, № 11, 651-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 3, 216-модда, № 5, 466-модда, 2024 йил, № 2, 105-модда) **17-моддасининг учинчи қисмидаги** «ва пиротехника буюмлари» деган сўзлар чиқариб ташлансин.

4. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 6 январда қабул қилинган «**Давлат божи тўғрисида**»ги ЎРҚ–600-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2020 йил, № 1, 1-модда, № 3, 201-модда, № 5, 298-модда, № 10, 593-модда, № 12, 691-модда; 2021 йил, № 1, 13-модда, 4-сонга илова, № 7, 661-модда, № 8, 800, 803-моддалар, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 2, 76-модда, № 3, 214, 216-моддалар, № 4, 340-модда, № 5, 463, 464, 467-моддалар, № 12, 1186-модда; 2023 йил, № 2, 103-модда, № 3, 186-модда, № 4, 265, 269-моддалар, № 6, 444, 445-моддалар, № 7, 538-модда, № 9, 710-модда; 2024 йил, № 1, 5, 6, 7-моддалар, № 2, 101, 105, 107, 108, 111, 112-моддалар, № 7, 628-модда, № 8, 819, 823, 831-моддалар, № 9, 958-модда, № 10, 1076, 1079-моддалар, № 11, 1191-модда, № 12, 1280, 1285-моддалар; 2025 йил, № 1, 4, 6-моддалар, № 2, 188, 189, 195,

197-моддалар, № 4, 519, 520-моддалар, № 5, 648-модда) илованинг 21-банди «б» кичик банди чиқариб ташлансин.

5. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 14 июлда қабул қилинган «Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»ги ЎРҚ–701-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 7, 661-модда; 2022 йил, № 4, 340-модда, № 5, 465-модда; 2023 йил, № 2, 103-модда, № 3, 185-модда, № 7, 533-модда, № 9, 710-модда, № 11, 921, 923-моддалар; 2024 йил, № 1, 5, 7-моддалар, № 2, 105, 112-моддалар, № 7, 628-модда, № 8, 819-модда, № 9, 957, 958-моддалар; 2025 йил, № 1, 3, 6-моддалар, № 2, 189, 197-моддалар, № 3, 376-модда, № 4, 519, 520, 521-моддалар, № 5, 644, 645-моддалар) куйидаги ўзгартиришлар киритилсин:

- 1) 1-илованинг 22-позицияси чиқариб ташлансин;
- 2) 2-илованинг 24-позицияси чиқариб ташлансин;
- 3) 4-илова:  
I бўлимнинг 18-позицияси чиқариб ташлансин;  
II бўлимнинг 24-позицияси чиқариб ташлансин.

### **13-модда. Ушбу Қонуннинг ижросини, етказилишини, моҳияти ва аҳамияти тушунтирилишини таъминлаш**

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги ва бошқа манфаатдор ташкилотлар ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

### **14-модда. Қонунчиликни ушбу Қонунга мувофиқлаштириш**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

Пиротехника буюмларини мушакбозлик ташкил этилиши белгиланган оммавий тадбирлар ўтказиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб кириш, ташиш, сақлаш ва улардан фойдаланиш тартибини ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ичида тасдиқласин;

портловчи ва захарли моддаларни, уларни қўллаган ҳолда материаллар ва маҳсулотларни, шунингдек портлатиш воситаларини яратиш, ишлаб чиқариш, ташиш, сақлаш ва реализация қилиш фаолиятини лицензиялаш тартиби пиротехника буюмларининг саноат мақсадидаги муомаласини тартибга солиш учун такомиллаштирилишини назарда тутувчи қарорни ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ичида қабул қилсин;

ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирасин;

республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

**15-модда. Ушбу Қонуннинг кучга кириши**

Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ўтгач кучга киради.

**Ўзбекистон Республикасининг  
Президенти**



**Ш. Мирзиёев**

Тошкент шаҳри,  
2026 йил 13 январь  
№ ўРҚ–1111



## ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING QONUNI

### Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодексига жазони ижро этиш муассасаларида жазо муддатини ўтаётган маҳкумлар учун масофали видео-учрашувлар ўтказиш имкониятини яратишга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида

Қонунчилик палатаси томонидан 2024 йил 24 декабрда  
қабул қилинган  
Сенат томонидан 2025 йил 21 февралда  
маъқулланган

Кейинги йилларда мамлакатимизда маҳкумларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини кафолатлаш, озодликдан маҳрум этиш жойларида сақланаётган маҳкумларни сақлаш шарт-шароитларини яхшилаш бўйича тизимли ишлар олиб борилмоқда.

Шу билан бирга замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш орқали маҳкумларнинг ҳуқуқларини янада кенгайтириш, жиноят-ижроия қонунчилигини халқаро нормаларга мувофиқлаштириш зарурати мавжуд.

Ушбу Қонун билан Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодексига озодликдан маҳрум этишга ҳукм қилинган маҳкумларнинг масофали видео-учрашувдан фойдаланиш ҳуқуқини белгилашни назарда тутувчи ўзгартириш ва қўшимчалар киритилмоқда.

Мазкур Қонун маҳкумларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини химоя қилишга, уларнинг яқин қариндошлари билан масофадан туриб видео-учрашувлар ўтказиши учун имконият яратишга хизмат қилади.

**1-модда.** Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 25 апрелда қабул қилинган 409–I-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодексига** (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, № 6, 175-модда; 2003 йил, № 9–10, 149-модда; 2004 йил, № 1–2, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси,

2007 йил, № 6, 248-модда, № 9, 422-модда, № 12, 595-модда; 2008 йил, № 4, 187-модда, № 12, 636, 641-моддалар; 2009 йил, № 4, 136-модда, № 12, 470-модда; 2010 йил, № 9, 334-модда; 2012 йил, № 9/1, 238-модда; 2014 йил, № 9, 244-модда; 2015 йил, № 8, 310-модда; 2017 йил, № 3, 47-модда, № 10, 605-модда; 2019 йил, № 3, 165-модда, № 5, 267-модда, № 8, 469-модда, № 9, 588, 592-моддалар, № 12, 880-модда; 2020 йил, № 6, 337-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 11, 1061-модда, № 12, 1193-модда; 2022 йил, № 5, 464-модда; 2023 йил, № 2, 104-модда, № 3, 187-модда, № 4, 269-модда; 2024 йил, № 2, 115-модда, № 8, 818, 823, 828-моддалар) куйидаги ўзгартириш ва кўшимчалар киритилсин:

1) **54-модда иккинчи қисмининг учинчи хатбошиси** куйидаги тахрирда баён этилсин:

«ўз шахсий маблағлари ҳисобидан тўланадиган, ўн беш дақиқа давом этадиган бир марта масофали видео-учрашув ёки телефон орқали сўзлашиш ҳуқуқига эга»;

2) **55-модданинг иккинчи қисмидаги «йўқлов ва бандероллар олиш»** деган сўзлар «йўқлов ва бандероллар олиш, масофали видео-учрашув ёки» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

3) **77-модда** куйидаги тахрирда баён этилсин:

#### **«77-модда. Маҳкумларнинг масофали видео-учрашувлари ёки телефон орқали сўзлашувлари**

Озодликдан маҳрум этишга ҳукм қилинганларга уларнинг ихтиёрига кўра масофали видео-учрашувлар ёки телефон орқали сўзлашувлар ҳуқуқи берилади.

Умумий, қаттиқ, махсус тартибли колонияларда, тарбия колонияларида, турмаларда ва маҳкумлар учун ихтисослашган касалхоналарда жазони ўтаётган маҳкумларнинг масофали видео-учрашувлари ёки телефон орқали сўзлашувлари муассаса маъмурияти назорати остида ўтказилади ҳамда уларнинг ҳақи маҳкумнинг шахсий ҳисобварағидан тўланади.

Масофали видео-учрашувлар ёки телефон орқали сўзлашувлар миқдори жазони ижро этиш муассасасининг тартиб турига ҳамда маҳкум сақланаётган шароитга қараб белгиланади. Маҳкумнинг илтимосига кўра, маҳкум жазони ижро этиш муассасасига етиб келганидан кейин, шунингдек алоҳида ҳолларда унга кўшимча равишда масофали видео-учрашувга ёки телефон орқали сўзлашувга рухсат этилиши мумкин.

Интизомий бўлинмаларда сақланаётган маҳкумларга фақат алоҳида ҳолларда масофали видео-учрашувга ёки телефон орқали сўзлашувга рухсат этилиши мумкин.

Озодликдан маҳрум этиш жойларида сақланаётган маҳкумларнинг масофали видео-учрашувлари ёки телефон орқали ўзаро сўзлашувлари тақиқланади.

Маҳкумларга масофали видео-учрашувларга ёки телефон орқали сўзлашувларга рухсат этиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги томонидан белгиланади»;

4) **87-модданинг тўққизинчи қисмидаги «телефон орқали кўшимча сўзлашишга»** деган сўзлар «кўшимча масофали видео-учрашувга ёки телефон орқали сўзлашувга» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

**5) 102-модда:**

**иккинчи қисмининг олтинчи хатбошиси** «қўшимча учрашув ёки» деган сўзлардан кейин «масофали видео-учрашув ёхуд» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

**учинчи қисмининг:**

**иккинчи хатбошисидаги** «бир марта телефон орқали сўзлашув» деган сўзлар «бир марта масофали видео-учрашув ёки телефон орқали сўзлашув» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

**учинчи хатбошисидаги** «бир марта телефон орқали сўзлашув» деган сўзлар «бир марта масофали видео-учрашув ёки телефон орқали сўзлашув» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

**6) 109-модданинг:**

**тўртинчи қисми** «учрашув» деган сўздан кейин «масофали видео-учрашув» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

**бешинчи қисми** «учрашув» деган сўздан кейин «масофали видео-учрашув» деган сўзлар билан тўлдирилсин;

**7) 114-модданинг иккинчи қисмидаги** «йигирма тўрт марта узоқ муддатли учрашувлар» деган сўзлар «йигирма тўрт марта узоқ муддатли учрашув ва йигирма тўрт марта масофали видео-учрашув» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

**8) 117-модда учинчи қисмининг учинчи хатбошиси** қуйидаги тахрирда баён этилсин:

«ўн икки марта масофали видео-учрашув ёки телефон орқали сўзлашув»;

**9) 119-модда учинчи қисмининг учинчи хатбошиси** қуйидаги тахрирда баён этилсин:

«саккиз марта масофали видео-учрашув ёки телефон орқали сўзлашув»;

**10) 121-модда учинчи қисмининг учинчи хатбошиси** қуйидаги тахрирда баён этилсин:

«олти марта масофали видео-учрашув ёки телефон орқали сўзлашув»;

**11) 123-модда учинчи қисмининг учинчи хатбошиси** қуйидаги тахрирда баён этилсин:

«тўрт марта масофали видео-учрашув ёки телефон орқали сўзлашув»;

**12) 125-модда учинчи қисмининг учинчи хатбошиси** қуйидаги тахрирда баён этилсин:

«йигирма тўрт марта масофали видео-учрашув ёки телефон орқали сўзлашув»;

**13) 137-модданинг:**

**иккинчи қисмидаги** «бир марта телефон орқали сўзлашув» деган сўзлар «бир марта масофали видео-учрашув ёки телефон орқали сўзлашув» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

**учинчи қисмидаги** «икки марта телефон орқали сўзлашув» деган сўзлар «икки марта масофали видео-учрашув ёки телефон орқали сўзлашув» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

**тўртинчи қисмидаги** «уч марта телефон орқали сўзлашув» деган сўзлар «уч марта масофали видео-учрашув ёки телефон орқали сўзлашув» деган сўзлар билан алмаштирилсин;

**14) 139-модданинг биринчи қисми** «учрашиш ёки» деган сўзлардан кейин «масофали видео-учрашув ёхуд» деган сўзлар билан тўлдирилсин.

**2-модда.** Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ва бошқа манфаатдор ташкилотлар ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

**3-модда.** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси: ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсин; республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

**4-модда.** Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Ўзбекистон Республикасининг  
Президенти**



**Ш. Мирзиёев**

Тошкент шаҳри,  
2026 йил 15 январь  
№ ЎРҚ–1112



## О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING QONUNI

### Бозор ислохотлари ва Ўзбекистоннинг Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиш жараёнлари янада жадаллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида

Қонунчилик палатаси томонидан 2025 йил 8 июлда  
қабул қилинган  
Сенат томонидан 2025 йил 4 сентябрда  
маъқулланган

Кейинги йилларда мамлакатимизнинг ўрта ва узок муддатли стратегияларига мувофиқ Ўзбекистоннинг халқаро иқтисодиётга тўлиқ интеграциясини таъминлаш, монополь соҳаларни изчил равишда бозор тамойилларига ўтказиш, иқтисодиётда хусусий сектор улушини ошириш ва тадбиркорларга эркин фаолият юритиши учун қулай шарт-шароитлар яратиш бўйича кенг қўламли ислохотлар амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга миллий қонунчиликни халқаро стандартларга уйғунлаштириш, йирик давлат корхоналарига берилган махсус (экссклюзив) ҳуқуқларни бекор қилиш ҳамда қора ва рангли металл парча ва чиқиндиларини тайёрлаш (харид қилиш), қайта ишлаш ва реализация қилишда, шунингдек табиий газнинг улгуржи ва чакана савдосида хусусий сектор иштирокини кенгайтириш орқали очик ва рақобатбардош бозор муҳитини шакллантириш зарурияти юзага келмоқда.

Ушбу Қонун билан «Давлат божи тўғрисида»ги ҳамда «Лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунларига қора ва рангли металл парча ва чиқиндиларини тайёрлаш (харид қилиш), қайта ишлаш, реализация қилиш, табиий газнинг улгуржи ва чакана савдоси бўйича фаолиятни амалга ошириш учун лицензиялаш тартибини жорий этиш билан боғлиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилмоқда.

Мазкур Қонун қора ва рангли металл парча ва чиқиндилари, табиий газ савдоси соҳасига хусусий секторни ва инновацияларни жалб этишга, шунингдек рақобат ва очик бозор муҳитини яратишга хизмат қилади.

**1-модда.** Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 6 январда қабул қилинган «**Давлат божи тўғрисида**»ги ЎРҚ–600-сонли Қонунининг (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2020 йил, № 1, 1-модда, № 3, 201-модда, № 5, 298-модда, № 10, 593-модда, № 12, 691-модда; 2021 йил, № 1, 13-модда, 4-сонга илова, № 7, 661-модда, № 8, 800, 803-моддалар, № 10, 968-модда; 2022 йил, № 2, 76-модда, № 3, 214, 216-моддалар, № 4, 340-модда, № 5, 463, 464, 467-моддалар, № 12, 1186-модда; 2023 йил, № 2, 103-модда, № 3, 186-модда, № 4, 265, 269-моддалар, № 6, 444, 445-моддалар, № 7, 538-модда, № 9, 710-модда; 2024 йил, № 1, 5, 6, 7-моддалар, № 2, 101, 105, 107, 108, 111, 112-моддалар, № 7, 628-модда, № 8, 819, 823, 831-моддалар, № 9, 958-модда, № 10, 1076, 1079-моддалар, № 11, 1191-модда, № 12, 1279, 1280, 1285-моддалар; 2025 йил, № 1, 4, 6-моддалар, № 2, 188, 189, 195, 197-моддалар, № 4, 519, 520-моддалар, № 5, 648-модда) иловасига қуйидаги ўзгартириш ва қўшимча киритилсин:

**37-банд** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

« **37. Фаолиятнинг айрим турларини Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Электр энергияси, нефть маҳсулотлари ва газдан фойдаланишни назорат қилиш инспекцияси томонидан лицензиялаганлик учун тўланадиган давлат божи:**

|  |                       |
|--|-----------------------|
| нефть, газни (шу жумладан сиқилган табиий ва суюлтирилган углеводород газини) ва газ конденсатини қазиб олиш, қайта ишлаш ҳамда реализация қилиш | – БҲМнинг 10 баравари |
| магистраль газ қувурларини, нефть қувурларини ва нефть маҳсулотлари қувурларини лойиҳалаштириш, қуриш, улардан фойдаланиш ҳамда уларни таъмирлаш | – БҲМнинг 10 баравари |
| табиий газнинг улгуржи ва чакана савдоси   | – БҲМнинг 30 баравари |

»;

қуйидаги мазмундаги **56-банд** билан тўлдирилсин:

« **56. Фаолиятнинг айрим турларини Ўзбекистон Республикаси Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги томонидан лицензиялаганлик учун тўланадиган давлат божи:**

|   |                       |
|---|-----------------------|
| қора металл парча ва чиқиндиларини тайёрлаш (харид қилиш), қайта ишлаш ҳамда реализация қилиш   | – БҲМнинг 30 баравари |
| рангли металл парча ва чиқиндиларини тайёрлаш (харид қилиш), қайта ишлаш ҳамда реализация қилиш | – БҲМнинг 30 баравари |

».

**2-модда.** Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 14 июлда қабул қилинган «Лицензиялаш, рұхсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомиллари тўғрисида»ги ЎРҚ–701-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2021 йил, № 7, 661-модда; 2022 йил, № 4, 340-модда, № 5, 465-модда; 2023 йил, № 2, 103-модда, № 3, 185-модда, № 7, 533-модда, № 9, 710-модда, № 11, 921, 923-моддалар; 2024 йил, № 1, 5, 7-моддалар, № 2, 105, 112-моддалар, № 7, 628-модда, № 8, 819-модда, № 9, 957, 958-моддалар; 2025 йил, № 1, 3, 6-моддалар, № 2, 189, 197-моддалар, № 3, 376-модда, № 4, 519, 520, 521-моддалар, № 5, 644, 645-моддалар) қуйидаги ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин:

1) **1-илова:**

**48-позицияси** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

|       |   |  |   |
|-------|---|--|---|
| « 48. | Нефть, газни (шу жумладан сиқилган табиий ва суюлтирилган углеводород газини) ва газ конденсатини қазиб олиш, қайта ишлаш ҳамда реализация қилиш фаолияти учун лицензия (бундан табиий газнинг улгуржи ва чакана савдоси бўйича фаолиятни амалга ошириш мустасно) | Нефть, газ ва газ конденсатини қазиб олиш;       | Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Электр энергияси, нефть маҳсулотлари ва газдан фойдаланишни назорат қилиш инспекцияси |
|       |   | нефть, газ ва газ конденсатини қайта ишлаш;      |   |
|       |   | нефть, газ ва газ конденсатини реализация қилиш. |   |

»;

қуйидаги мазмундаги **62, 63 ва 64-позициялар** билан тўлдирилсин:

|       |  |  |   |
|-------|--|--|---|
| « 62. | Қора металл парча ва чиқиндиларини тайёрлаш (харид қилиш), қайта ишлаш ҳамда реализация қилиш бўйича фаолиятни амалга ошириш учун лицензия | Қора металл парча ва чиқиндиларини тайёрлаш (харид қилиш); | Ўзбекистон Республикаси Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги |
|       |  | қора металл парча ва чиқиндиларини қайта ишлаш;            |   |
|       |  | қора металл парча ва чиқиндиларини реализация қилиш.       |   |

|     |  |   |  |
|-----|--|---|--|
| 63. | <p>Рангли металл парча ва чиқиндиларини тайёрлаш (харид қилиш), қайта ишлаш ҳамда реализация қилиш бўйича фаолиятни амалга ошириш учун лицензия</p>  | <p>Рангли металл парча ва чиқиндиларини тайёрлаш (харид қилиш);</p> | <p>Ўзбекистон Республикаси Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги</p>   |
|     |  | <p>рангли металл парча ва чиқиндиларини қайта ишлаш;</p>            |  |
|     |  | <p>рангли металл парча ва чиқиндиларини реализация қилиш.</p>       |  |
| 64. | <p>Табиий газнинг улгуржи ва чакана савдоси бўйича фаолиятни амалга ошириш учун лицензия (бундан нефть, газни (шу жумладан сиқилган табиий ва суюлтирилган углеводород газини) ва газ конденсатини казиб олиш, қайта ишлаш ҳамда реализация қилиш бўйича фаолиятни амалга ошириш мустасно)</p> | <p>Табиий газнинг улгуржи савдоси;</p>                              | <p>Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Электр энергияси, нефть маҳсулотлари ва газдан фойдаланишни назорат қилиш инспекцияси</p> |
|     |  | <p>табиий газнинг чакана савдоси.</p>                               |  |

»;

2) 4-илованинг I бўлими қуйидаги мазмундаги 58, 59 ва 60-позициялар билан тўлдирилсин:

|       |   |     |
|-------|---|-----|
| « 58. | <p>Қора металл парча ва чиқиндиларини тайёрлаш (харид қилиш), қайта ишлаш ҳамда реализация қилиш бўйича фаолиятни амалга ошириш учун лицензия</p>   | 300 |
| 59.   | <p>Рангли металл парча ва чиқиндиларини тайёрлаш (харид қилиш), қайта ишлаш ҳамда реализация қилиш бўйича фаолиятни амалга ошириш учун лицензия</p> | 300 |
| 60.   | <p>Табиий газнинг улгуржи ва чакана савдоси бўйича фаолиятни амалга ошириш учун лицензия</p>  | 300 |

».

**3-модда.** Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Электр энергияси, нефть маҳсулотлари ва газдан фойдаланишни назорат қилиш инспекцияси ва бошқа манфаатдор ташкилотлар ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

**4-модда.** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси: ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсин; республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин.

**5-модда.** Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Ўзбекистон Республикасининг  
Президенти



Ш. Мирзиёев

Тошкент шаҳри,  
2026 йил 15 январь  
№ ЎРҚ–1113



## О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASINING QONUNI

### Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида

Қонунчилик палатаси томонидан 2025 йил 15 апрелда  
қабул қилинган  
Сенат томонидан 2025 йил 4 сентябрда  
маъқулланган

Мамлакатимизда жиноятчиликка қарши курашиш, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини самарали ташкил этиш борасида тизимли ишлар олиб борилмоқда.

Бунда маҳкумларни ва илгари ҳуқуқбузарлик содир этган шахсларни ахлоқан тарбиялаш, улар томонидан такроран жиноят ёки ҳуқуқбузарлик содир этилишининг олдини олиш тизимини замон талаблари асосида янада такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Мазкур Қонун билан Ўзбекистон Республикасининг Жиноят, Жиноят-процессуал ҳамда Жиноят-ижроия кодексларига маҳкумларнинг жазони ўташ муддати улар тузалиш йўлига ўтганлиги муносабати билан қисқартирилишини назарда тутувчи қўшимча ва ўзгартиришлар киритилмоқда.

Шунингдек ушбу Қонун билан «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига профилактик ҳисобга олиш асослари мақбуллаштирилишини ҳамда профилактик ҳисобга олинган маъмурий ҳуқуқбузарлик турлари уларнинг ижтимоий хавфлилиқ даражаси, хусусияти, келгусида жиноий қилмиш содир этилиши мумкинлиги каби мезонлардан келиб чиққан ҳолда белгиланишини назарда тутувчи ўзгартиришлар киритилмоқда.

Ушбу Қонун маҳкумларни ахлоқан тузатиш, уларда жамият қоидалари ва анъаналарига нисбатан хурматни шакллантириш борасидаги ишлар самарадорлигини оширишга, профилактик ҳисобга олинган шахслар билан олиб бориладиган чора-тадбирларни янада такомиллаштириш орқали мамлакатимизда жиноятчиликка қарши курашишга ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишга хизмат қилади.

**1-модда.** Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрда қабул қилинган 2012–XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси** (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 1, 3-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, № 9, 144-модда; 1997 йил, № 2, 56-модда, № 9, 241-модда; 1998 йил, № 5–6, 102-модда, № 9, 181-модда; 1999 йил, № 1, 20-модда, № 5, 124-модда, № 9, 229-модда; 2000 йил, № 5–6, 153-модда; 2001 йил, № 1–2, 23-модда, № 9–10, 165-модда; 2002 йил, № 9, 165-модда; 2003 йил, № 1, 8-модда, № 9–10, 149-модда; 2004 йил, № 1–2, 18-модда, № 9, 171-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2005 йил, № 9, 314-модда, № 12, 417, 418-моддалар; 2006 йил, № 6, 261-модда, № 12, 656-модда; 2007 йил, № 4, 158, 166-моддалар, № 6, 248-модда, № 9, 416, 422-моддалар, № 12, 607-модда; 2008 йил, № 4, 187, 188, 189-моддалар, № 7, 352-модда, № 9, 485, 487, 488-моддалар, № 12, 640, 641-моддалар; 2009 йил, № 1, 1-модда, № 4, 128-модда, № 9, 329, 334, 335, 337-моддалар, № 12, 470-модда; 2010 йил, № 5, 176, 179-моддалар, № 9, 341-модда, № 12, 471, 477-моддалар; 2011 йил, № 1, 1-модда; 2012 йил, № 4, 108-модда, № 9/1, 242-модда, № 12, 336-модда; 2013 йил, № 4, 98-модда, № 10, 263-модда; 2014 йил, № 1, 2-модда, № 5, 130-модда, № 9, 244-модда, № 12, 343-модда; 2015 йил, № 6, 228-модда, № 8, 310, 312-моддалар, № 12, 452-модда; 2016 йил, № 4, 125-модда, № 9, 276-модда, № 12, 383, 385-моддалар; 2017 йил, № 3, 47-модда, № 6, 300-модда, № 9, 506, 510-моддалар; 2018 йил, № 1, 4-модда, № 4, 218, 224-моддалар, № 7, 430-модда, № 10, 679-модда; 2019 йил, № 1, 3, 5-моддалар, № 3, 161-модда, № 5, 259, 267, 268-моддалар, № 7, 386-модда, № 8, 471-модда, № 9, 592-модда, № 11, 787-модда, № 12, 880-модда; 2020 йил, № 1, 4-модда, № 3, 204-модда, № 7, 449-модда, № 10, 593-модда, № 11, 651-модда, № 12, 691-модда; 2021 йил, № 1, 5, 14-моддалар, № 2, 142, 144-моддалар, № 3, 217-модда, 4-сонга илова, № 8, 800, 803-моддалар, № 10, 966, 968, 973-моддалар, № 12, 1193-модда; 2022 йил, № 2, 81-модда, № 3, 215, 216-моддалар, № 4, 337-модда, № 5, 464, 466-моддалар, № 6, 575-модда, № 10, 981-модда; 2023 йил, № 3, 184, 185, 187, 188-моддалар, № 4, 265-модда, № 5, 319-модда, № 10, 798-модда, № 11, 921-модда; 2024 йил, № 1, 8-модда, № 2, 111-модда, № 3, 245-модда, № 8, 818-модда, № 9, 954, 964-моддалар, № 10, 1070, 1071, 1073, 1077, 1079, 1083-моддалар, № 11, 1186-модда, № 12, 1280, 1287-моддалар; 2025 йил, № 2, 196-модда, № 3, 376, 377-моддалар) куйидаги мазмундаги **74<sup>1</sup>-модда** билан тўлдирилсин:

**«74<sup>1</sup>-модда. Жазони ўташ муддатини шахс тузалиш йўлига ўтганлиги муносабати билан қисқартириш**

Ушбу Кодекс 73-моддасининг тўртинчи қисмида кўрсатилган шахс (бундан умрбод озодликдан маҳрум қилишга ҳукм этилганлар мустасно)

озодликдан маҳрум қилиш тарзидаги жазони ўташ даврида маҳкумларда тўғри маънавий-ахлоқий кадриятларни шакллантиришга қаратилган, белгиланган тартибда тасдиқланган адабиётлар рўйхатидаги китобларни ўқиганлиги факти тасдиқланган тақдирда, унга нисбатан тайинланган жазони ўташ муддати қисқартирилиши мумкин. Бунда жазони ўташ муддати ҳар бир ўқилган китоб учун уч кунга, бироқ бир йилда кўпи билан ўттиз кунгача қисқартирилиши мумкин».

**2-модда.** Ўзбекистон Республикасининг 1994 йил 22 сентябрда қабул қилинган 2013–XII-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодексига** (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 2, 5-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил, № 12, 269-модда; 1997 йил, № 2, 56-модда, № 9, 241-модда; 1998 йил, № 5–6, 102-модда, № 9, 181-модда; 1999 йил, № 1, 20-модда, № 5, 124-модда, № 9, 229-модда; 2000 йил, № 5–6, 153-модда, № 7–8, 217-модда; 2001 йил, № 1–2, 11, 23-моддалар, № 9–10, 165, 182-моддалар; 2002 йил, № 9, 165-модда; 2003 йил, № 5, 67-модда; 2004 йил, № 1–2, 18-модда, № 9, 171-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2005 йил, № 12, 418-модда; 2006 йил, № 6, 261-модда; 2007 йил, № 4, 166-модда, № 6, 248, 249-моддалар, № 9, 422-модда, № 12, 594, 595, 607-моддалар; 2008 йил, № 4, 177, 187-моддалар, № 9, 482, 484, 487-моддалар, № 12, 636, 641-моддалар; 2009 йил, № 1, 1-модда, № 4, 136-модда, № 9, 335-модда, № 12, 469, 470-моддалар; 2010 йил, № 6, 231-модда, № 9, 334, 336, 337, 342-моддалар, № 12, 477-модда; 2011 йил, № 4, 103, 104-моддалар, № 9, 252-модда, № 12/2, 363-модда; 2012 йил, № 1, 3-модда, № 9/2, 244-модда, № 12, 336-модда; 2014 йил, № 9, 244-модда; 2015 йил, № 8, 310, 312-моддалар, № 12, 452-модда; 2016 йил, № 4, 125-модда, № 9, 276-модда, № 12, 385-модда; 2017 йил, № 3, 47-модда, № 6, 300-модда, № 9, 506, 510-моддалар, № 10, 605-модда; 2018 йил, № 1, 1, 5-моддалар, № 4, 218, 224-моддалар, № 7, 430, 431-моддалар, № 10, 679-модда; 2019 йил, № 1, 3, 5-моддалар, № 2, 47-модда, № 3, 161-модда, № 5, 259, 267-моддалар, № 7, 386-модда, № 8, 469-модда, № 9, 589, 592-моддалар, № 10, 671-модда, № 11, 787, 791-моддалар, № 12, 880, 881, 891-моддалар; 2020 йил, № 3, 204-модда, № 5, 296-модда, № 12, 689-модда; 2021 йил, № 1, 5, 11, 13, 14-моддалар, № 2, 142, 144-моддалар, 4-сонга илова, № 8, 800, 803-моддалар, № 9, 903-модда, № 10, 973-модда, № 12, 1193-модда; 2022 йил, № 2, 81-модда, № 3, 216-модда, № 4, 337-модда, № 6, 575-модда; 2023 йил, № 3, 184, 185-моддалар, № 4, 265, 269-моддалар, № 5, 319-модда, № 9, 713-модда; 2024 йил, № 1, 8-модда, № 2, 115-модда, № 9, 964-модда, № 10, 1070, 1073, 1077, 1083-моддалар, № 12, 1280, 1286, 1292-моддалар; 2025 йил, № 1, 8-модда, № 2, 196, 201-моддалар, № 3, 376-модда) қуйидаги қўшимчалар киритилсин:

1) куйидаги мазмундаги **536<sup>2</sup>-модда** билан тўлдирилсин:

**«536<sup>2</sup>-модда. Жазони ўташ муддатини шахс тузалиш йўлига ўтганлиги муносабати билан қисқартириш тартиби**

Жиноят кодексининг 74<sup>1</sup>-моддасида назарда тутилган ҳолларда маҳкумга нисбатан озодликдан маҳрум қилиш тарзидаги жазони ўташ муддатини қисқартириш жазони ижро этиш муассасаси маъмуриятининг тақдимномасига ёхуд қонунда белгиланган тартибда маҳкумнинг ёки унинг ҳимоячисининг илтимосномасига кўра судья томонидан амалга оширилади»;

2) **541-модданинг иккинчи қисми** «енгилроқ жазо билан алмаштириш тўғрисидаги» деган сўзлардан кейин «жазони ўташ муддатини шахс тузалиш йўлига ўтганлиги муносабати билан қисқартириш тўғрисидаги» деган сўзлар билан тўлдирилсин.

**3-модда.** Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 25 апрелда қабул қилинган 409–I-сонли Қонуни билан тасдиқланган **Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-ижроия кодексига** (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, № 6, 175-модда; 2003 йил, № 9–10, 149-модда; 2004 йил, № 1–2, 18-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2007 йил, № 6, 248-модда, № 9, 422-модда, № 12, 595-модда; 2008 йил, № 4, 187-модда, № 12, 636, 641-моддалар; 2009 йил, № 4, 136-модда, № 12, 470-модда; 2010 йил, № 9, 334-модда; 2012 йил, № 9/1, 238-модда; 2014 йил, № 9, 244-модда; 2015 йил, № 8, 310-модда; 2017 йил, № 3, 47-модда, № 10, 605-модда; 2019 йил, № 3, 165-модда, № 5, 267-модда, № 8, 469-модда, № 9, 588, 592-моддалар, № 12, 880-модда; 2020 йил, № 6, 337-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 11, 1061-модда, № 12, 1193-модда; 2022 йил, № 5, 464-модда; 2023 йил, № 2, 104-модда, № 3, 187-модда, № 4, 269-модда; 2024 йил, № 2, 115-модда, № 8, 818, 823, 828-моддалар, № 11, 1285-модда) куйидаги қўшимчалар ва ўзгартириш киритилсин:

1) **97-модда:**

куйидаги мазмундаги **олтинчи қисм** билан тўлдирилсин:

«Жазони ижро этиш муассасалари адабиётлар билан, шу жумладан маҳкумларда тўғри маънавий-ахлоқий кадриятларни шакллантиришга қаратилган, белгиланган тартибда тасдиқланган адабиётлар рўйхатидаги китоблар билан таъминланиши шарт»;

**олтинчи қисми еттинчи қисм** деб ҳисоблансин;

2) **97<sup>1</sup>-модданинг биринчи қисми** куйидаги мазмундаги **бешинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«маҳкумнинг маҳкумларда тўғри маънавий-ахлоқий кадриятларни шакллантиришга қаратилган, белгиланган тартибда тасдиқланган адабиётлар рўйхатидаги китобларни ўқиганлиги»;

3) куйидаги мазмундаги **164<sup>1</sup>-модда** билан тўлдирилсин:

**«164<sup>1</sup>-модда. Жазони ўташ муддатини маҳкум тузалиш йўлига ўтганлиги муносабати билан қисқартиришга тақдим этиш тартиби**

Жиноят кодекси 73-моддасининг тўртинчи қисмида кўрсатилган маҳкумнинг (бундан умрбод озодликдан маҳрум қилишга ҳукм этилганлар мустасно) озодликдан маҳрум қилиш тарзидаги жазони ўташ даврида китоб ўқиганлиги фактини аниқлаш унинг жазони ижро этиш муассасаси маъмуриятига берган аризасига асосан, жазони ижро этиш муассасаси ходимларидан, шунингдек жамоатчилик вакилларидан иборат комиссия томонидан амалга оширилади.

Комиссия таркибига жамоатчилик вакилларидан, қоида тариқасида, халқ депутатлари маҳаллий Кенгашлари депутатлари, фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг, жамоат ташкилотларининг ҳаётий тажрибага ва аҳоли ўртасида обрў-эътиборга эга бўлган вакиллари киради.

Комиссия йиғилиши йилига камида икки марта ўтказилади.

Имтиҳон натижалари бўйича комиссия томонидан маҳкумнинг китоб ўқиганлиги фактини тасдиқлаш ҳақида хулоса қабул қилинади.

Комиссия хулосаси маҳкумнинг шахсий йиғмажилдига қўшиб қўйилади. Хулосанинг кўчирма нусхаси прокурорга юборилади, маҳкумга имзо қўйдириб топширилади, шунингдек маҳкумнинг ҳимоячисига унинг сўровига кўра берилади.

Маҳкумнинг китоб ўқиганлиги фактини тасдиқлаш ҳақида хулоса қабул қилинганда жазони ижро этиш муассасаси маъмурияти судга жазони ўташ муддатини маҳкум тузалиш йўлига ўтганлиги муносабати билан қисқартириш тўғрисида тақдимнома юборади.

Маҳкум ёки унинг ҳимоячиси комиссия хулосасидан норози бўлган тақдирда илтимоснома билан судга мурожаат қилишга ҳақли.

Маҳкум тузалиш йўлига ўтганлиги муносабати билан унинг жазони ўташ муддатини қисқартириш Жиноят-процессуал кодексининг 536<sup>2</sup>-моддасида белгиланган тартибда суд томонидан амалга оширилади.

Комиссиянинг фаолиятини ташкил этиш, шунингдек маҳкумни имтиҳондан ўтказиш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади».

**4-модда.** Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майда қабул қилинган «**Хукукбузарликлар профилактикаси тўғрисида**»ги ЎРҚ–371-сонли Қонунига (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2014 йил, № 5, 129-модда; 2015 йил, № 8, 310-модда; 2016 йил, № 12, 383-модда; 2017 йил, № 9, 510-модда; 2018 йил, № 1, 1-модда; 2019 йил, № 1, 5-модда, № 2, 47-модда, № 5, 267-модда, № 9, 589, 591-моддалар, № 10, 674-модда; 2021 йил, 4-сонга илова, № 11, 1061-модда; 2022 йил, № 1, 5-модда, № 5, 466-модда; 2023 йил, № 4, 265-модда) қуйидаги қўшимча ва ўзгартиришлар киритилсин:

1) **3-модда:**

қуйидаги мазмундаги **учинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

**«профилактик ҳисоб ахборот тизими – шахсни электрон профилактик ҳисобга олиш ва ҳисобдан чиқариш чоғидаги ахборотни тўплаш, сақлаш, излаш, унга ишлов бериш ҳамда ундан фойдаланиш имконини берадиган, ташкилий жиҳатдан тартибга солинган ахборот ресурслари, ахборот технологиялари ва алоқа воситалари»;**

**учинчи – еттинчи хатбошилари тегишинча тўртинчи – саккизинчи хатбошилар деб ҳисоблансин;**

**2) 9-модда биринчи қисмининг ўн тўртинчи хатбошисидаги «Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси» деган сўзлар «экология ва иқлим ўзгариши соҳасидаги махсус ваколатли давлат органи ва унинг ҳудудий бўлинмалари» деган сўзлар билан алмаштирилсин;**

**3) 19-модда:**

**номидаги «Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси органларининг» деган сўзлар «Экология ва иқлим ўзгариши соҳасидаги махсус ваколатли давлат органининг ва унинг ҳудудий бўлинмаларининг» деган сўзлар билан алмаштирилсин;**

**биринчи қисмининг биринчи хатбошисидаги «Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси органлари» деган сўзлар «Экология ва иқлим ўзгариши соҳасидаги махсус ваколатли давлат органи ва унинг ҳудудий бўлинмалари» деган сўзлар билан алмаштирилсин;**

**иккинчи қисмидаги «Ўзбекистон Республикаси Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш давлат қўмитаси органлари» деган сўзлар «Экология ва иқлим ўзгариши соҳасидаги махсус ваколатли давлат органи ва унинг ҳудудий бўлинмалари» деган сўзлар билан алмаштирилсин;**

**4) 35-модданинг матни қуйидаги таҳрирда баён этилсин:**

**«Профилактик ҳисобга олиш қуйидаги шахсларга нисбатан юритилади:**

**илгари судланганларга улар жиноий жазони ўтаганидан сўнг, бундан ўзига нисбатан маъмурий назорат ўрнатилган шахслар мустасно;**

**Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 59<sup>2</sup>, 183, 184<sup>2</sup>, 184<sup>3</sup>, 184<sup>4</sup>, 189<sup>1</sup>, 190, 201, 202, 202<sup>1</sup>, 240, 241-моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларни содир этганларга;**

**Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 128<sup>10</sup> ва 131-моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларни содир этганлик учун суд томонидан муайян муддатга транспорт воситаларини бошқариш ҳуқуқидан маҳрум этиш жазоси тайинланган шахсларга»;**

**5) 36-модданинг номи ва биринчи қисми қуйидаги таҳрирда баён этилсин:**

**«36-модда. Шахсни профилактик ҳисобга олиш асослари**

**Шахсни профилактик ҳисобга олиш учун қуйидагилар асос бўлади:**

ваколатли органнинг ёки мансабдор шахснинг ушбу Қонун 35-моддасининг учинчи хатбошисида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар бўйича маъмурий жазо қўллаш тўғрисидаги қарори;

суднинг қонуний кучга кирган айблов ҳукми;

шахснинг жазони ижро этиш муассасасидан озод қилинганлиги тўғрисидаги маълумотнома;

пробация ҳисобидан чиқарилган шахсни профилактик ҳисобга олиш тўғрисидаги топшириқ;

ушбу Қонун 35-моддасининг тўртинчи хатбошисида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликлар учун суднинг муайян муддатга транспорт воситаларини бошқариш ҳуқуқидан маҳрум этиш тўғрисидаги қарори»;

б) 37-модда куйидаги таҳрирда баён этилсин:

### **«37-модда. Шахсни профилактик ҳисобга олиш тартиби**

Ушбу Қонун 36-моддасининг биринчи қисмида кўрсатилган асослардан бири мавжуд бўлганда, профилактик ҳисобга олишни амалга ошириш учун масъул бўлган шахс шахсни профилактик ҳисобга олиш тўғрисида туман (шаҳар) ички ишлар органи бошлиғи томонидан тасдиқланадиган қарор чиқаради. Мазкур қарор шахсни профилактик ҳисобга олиш учун асос мавжудлиги тўғрисида далолат берувчи ҳужжатлар мансабдор шахс томонидан олинган кундан эътиборан ўн кун ичида чиқарилади. Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган ёки пробация ҳисобидан чиқарилган шахсларга нисбатан шахсни профилактик ҳисобга олиш тўғрисидаги қарор улар жазони ижро этиш муассасасидан озод қилинганлиги ҳақидаги маълумотнома ёки пробация ҳисобидан чиқарилган шахсни профилактик ҳисобга олиш тўғрисидаги топшириқ яшаш жойидаги ички ишлар органининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмасига келиб тушган кундан эътиборан уч иш куни ичида чиқарилади.

Шахсни профилактик ҳисобга олиш тўғрисидаги қарорда ушбу қарорни чиқарган шахснинг лавозими, фамилияси, исми, отасининг исми, қарор чиқарилган сана ва жой, профилактик ҳисобга олинаётган шахс ҳақидаги маълумотлар (фамилияси, исми, отасининг исми, туғилган санаси, яшаш, иш, ўқиш жойи) ва профилактик ҳисобга олиш учун асослар кўрсатилади. Шахсни профилактик ҳисобга олиш тўғрисидаги қарор мазкур қарорни чиқарган шахс томонидан профилактик ҳисоб ахборот тизими орқали электрон шаклда имзоланади.

Шахсни профилактик ҳисобга олиш тўғрисидаги қарор тасдиқланган пайтдан эътиборан уч иш куни ичида, профилактик ҳисобга олинган шахс яшаш жойида бўлмаган ҳолларда эса, унинг турган жойи аниқланган пайтдан эътиборан уч иш куни ичида таништирилади ва шу пайтдан эътиборан кучга киради.

Қарор билан таништирилганлик фактини тасдиқлаш учун бармоқлар изларини таниб олиш тизимидан фойдаланилади.

Қарор билан таништирилганда, шахсга унинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари тушунтирилиб, бу ҳақда қарорда қайд қилинади.

Шахснинг хулқ-атворини назорат қилиш ва унга нисбатан ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси чора-тадбирлари ўз вақтида қўлланилишини таъминлаш мақсадида шахс профилактик ҳисобга олиш учун профилактик ҳисоб ахборот тизимига киритилган кунда ички ишлар органлари томонидан электрон шаклда профилактика иши очилади»;

**7) 38-модданинг матни** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Шахсни профилактик ҳисобга олиш у профилактик ҳисобга олинган пайтдан эътиборан бир йил мобайнида амалга оширилади.

Агар профилактик ҳисобга олиш даврида ушбу Қонун 36-моддасининг биринчи қисмида назарда тутилган янги асослар вужудга келса, шахсни профилактик ҳисобга олиш муддати шахс янги вужудга келган асослар бўйича профилактик ҳисобга олинган пайтдан эътиборан ҳисобланади»;

**8) 39-модда:**

**биринчи қисми:**

**биринчи хатбошиси** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Қуйидаги асослардан бири мавжуд бўлганда шахс профилактик ҳисобдан чиқарилади»;

қуйидаги мазмундаги **тўққизинчи хатбоши** билан тўлдирилсин:

«шахсни профилактик ҳисобга олиш учун асос бўлган маъмурий ҳуқуқбузарликлар бўйича маъмурий жазо қўллаш тўғрисидаги суд қарорининг бекор қилиниши»;

**иккинчи қисми** қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

«Ушбу модданинг биринчи қисмида кўрсатилган асослардан бири мавжуд бўлганда, профилактик ҳисобга олиш учун масъул бўлган шахс шахсни профилактик ҳисобдан чиқариш тўғрисида туман (шаҳар) ички ишлар органи бошлиғи томонидан профилактик ҳисоб ахборот тизими орқали тасдиқланадиган электрон шаклда қарор чиқаради».

**5-модда.** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ушбу Қонун 3-моддаси 3-бандининг ўн биринчи хатбошисида назарда тутилган комиссиянинг фаолиятини ташкил этиш, шунингдек маҳкумни имтиҳондан ўтказиш тартибини ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан уч ой ичида ишлаб чиқсин ва тасдиқласин;

ҳукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсин;

республика ижро этувчи ҳокимият органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишлари ва бекор қилишларини таъминласин;

ушбу Қонуннинг ижросини, ижрочиларга етказилишини ҳамда моҳияти ва аҳамияти аҳоли ўртасида тушунтирилишини таъминласин.

**6-модда.** Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Ушбу Қонуннинг 1, 2 ва 3-моддалари ушбу Қонун кучга кирган кундан эътиборан уч ой ўтгач амалга киритилади.

Ўзбекистон Республикасининг  
Президенти



Ш. Мирзиёев

Тошкент шаҳри,  
2026 йил 15 январь  
№ ЎРҚ-1114



## ИККИНЧИ БЎЛИМ

### ЎЗБЕКISTОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ФАРМОН ВА ҚАРОРЛАРИ



## ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

2026 yil « 12 » январь

№ ПФ-3

**Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг  
34 йиллиги ҳамда Ватан ҳимоячилари куні муносабати билан ҳарбий  
хизматчилар ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларидан  
бир гуруҳини мукофотлаш тўғрисида**

Мамлакатимиз мудофаа қудратини мустаҳкамлаш, Қуролли Кучларимиз жанговар салоҳиятини юксалтириш, давлат хавфсизлиги ва чегараларимиз дахлсизлигини таъминлаш, профессионал миллий армияни шакллантириш, ҳарбий хизмат нуфузини юксалтиришдаги катта хизматлари, жамиятда тинчлик ва барқарорликни, халқимиз осойишталигини сақлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш борасидаги ибратли фаолияти, шарафли ва муқаддас бурчини бажаришда мардлик ва жасорат кўрсатгани, ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, юқори малакали кадрларни тайёрлашга қўшган муносиб ҳиссаси учун қуйидагилар мукофотлансин:

### **«Мардлик» ордени билан**

- |                                  |   |
|----------------------------------|---|
| Аҳмедов Шерзод<br>Ҳурматжон ўғли | – Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик<br>хизмати Чегара қўшинлари ҳарбий хизматчиси |
| Вапаев Сардарбек<br>Ражаббаевич  | – Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги<br>ҳарбий қисм командири                      |
| Мадиев Ҳаким<br>Абдумурат ўғли   | – Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик<br>хизмати Чегара қўшинлари ҳарбий хизматчиси |

Худайберганов – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси  
Хуршид Хамдамович ҳарбий қисм гуруҳ мутахассиси

**«Дўстлик» ордени билан**

Сайфутдинова Ирина – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси  
Владимировна марказий девони хизмат катта офицери

**«Жасорат» медали билан**

Абдуллаев Алишоҳ – Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги  
Илҳом ўғли ҳарбий қисм гуруҳ мутахассиси

Амонов Нодиржон – Бухоро вилояти Фавқулодда вазиятлар  
Ибодиллоевич бошқармаси Бухоро шаҳар фавқулодда  
вазиятлар бўлими катта йўриқчи-қутқарувчиси

Ибрагимов Азимжон – Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги  
Сиддиқ ўғли ҳарбий қисм гуруҳ мутахассиси

Ким Александра – Тошкент шаҳар Ички ишлар бош бошқармаси  
Владимировна батальони гуруҳ катта мутахассиси

Лапасов Муслумбек – Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик  
Сайфулла ўғли хизмати Чегара қўшинлари ҳарбий хизматчиси

Муминов Вахобжон – Наманган вилояти Ички ишлар бошқармаси  
Абдувалиевич йўл-патруль хизмати катта инспектори  
(марҳум)

Муҳаммадов – Навоий вилояти Ички ишлар бошқармаси  
Жасуржон Расул ўғли йўл-патруль хизмати инспектори  
(марҳум)

Сулейманов Зиёдулло – Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги  
Муродилло ўғли ҳарбий қисм гуруҳ мутахассиси

- Узақов Авазбек  
Тилаволдиевич – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси  
ҳарбий қисм гуруҳ мутахассиси
- Хусаинов Ином  
Тахирович – Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия  
вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитаси  
бошқарма бошлиғи
- Шомуратов Мансур  
Буриевич – Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги  
марказ катта ўқитувчиси
- Эргашев Амирхон  
Бахриддинович – Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги  
ҳарбий қисм командирининг ўринбосари
- Қўшанов Мансур  
Бурхон ўғли – Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик  
хизмати Чегара қўшинлари ҳарбий хизматчиси

**«Содиқ хизматлари учун» медали билан**

- Абдимўминов Аброр  
Исроилович – Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия  
вазирлиги ҳузуридаги Божхона қўмитасининг  
Сурхондарё вилояти бўйича бошқармаси  
“Сариосиё” темир йўл чегара божхона пости  
гуруҳ инспектори
- Алиев Жамшид  
Валижонович – Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар  
вазирлиги Қоровул қўшинлари ҳарбий қисм  
қоровул бошлиғи
- Бадалбоев Феруз  
Юсуфович – Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар  
вазирлиги бошқарма бошлиғи
- Бобоев Миршод  
Муротович – Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси  
марказ бошлиғи
- Буваев Турғунбой  
Мадаминжонович – Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий  
кенгаши суд инспекцияси раҳбари

- Жўраев Мақсуд  
Турсунбоевич – Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги  
ҳарбий қисм гуруҳ катта йўриқчиси
- Исаков Собиржон  
Қодирович – Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик  
хизмати Чегара қўшинлари ҳарбий хизматчиси
- Каримов Абдурауф  
Бобур ўғли – Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги  
ҳарбий қисм взвод командири
- Касимов Рустам  
Гулямович – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси  
“Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик  
лицейи директори
- Мамадалиева  
Санобар Турсуновна – Ўзбекистон Республикаси Олий судининг  
судьяси
- Ниёзов Аваз  
Аминович – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси  
ҳарбий қисм гуруҳ мутахассиси
- Парпиев Акмал  
Норкўзиевич – Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда  
вазиятлар вазирлиги бошқарма бошлиғи
- Шукруллаев  
Муроджон Илёс ўғли – Тошкент вилояти Тошкент тумани  
прокурорининг ўринбосари
- Турсунова Гулчеҳраҳон  
Рахимжоновна – Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий  
прокурорининг катта ёрдамчиси
- Турғанбоев Хамидулла  
Анорбоевич – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси  
ҳарбий қисм гуруҳ мутахассиси
- Эгамбердиев Хасан  
Қуролович – Сирдарё вилояти Фавқулодда вазиятлар  
бошқармаси Боёвут тумани фавқулодда  
вазиятлар бўлими смена бошлиғи
- Эргашев Ойбек  
Ғофиржон ўғли – Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги  
департаменти бўлим бошлиғи

### «Шуҳрат» медали билан

- |                                       |  |
|---------------------------------------|--|
| Абдусаттаров Бахтиёр<br>Абдусамадович | – Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюросининг Тошкент шаҳар Учтепа тумани бўлими давлат ижрочиси                   |
| Адилхаджаев Анвархужа<br>Абдуллаевич  | – Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаментининг Фарғона вилояти бошқармаси бўлим бошлиғи |
| Айтмуратов Руслан<br>Анвар ули        | – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қорақалпоғистон Республикаси бўйича бошқармаси бўлим бошлиғи  |
| Жаксимуратов Мират<br>Маратович       | – Қорақалпоғистон Республикаси Нукус шаҳар ички ишлар бўлими бўлинма бошлиғи   |
| Миртурсунов Хуршид<br>Миркадирович    | – Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси ҳарбий қисм взвод командири   |
| Остонов Мирзохид<br>Ёриевич           | – Қашқадарё вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармаси бошлиғининг биринчи ўринбосари – штаб бошлиғи  |
| Султонов Аслиддин<br>Мухтарович       | – Самарқанд вилояти Пастдарғом тумани ички ишлар бўлими профилактика катта инспектори  |
| Халенов Исахон<br>Маруфжанович        | – Тошкент шаҳар Фавқулодда вазиятлар бошқармаси Ёнғин-қутқарув отряди қутқарувчи-йўриқчиси   |
| Элиев Жохонгир<br>Худойбердиевич      | – Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги ҳарбий қисм гуруҳ мутахассиси  |

Ўзбекистон Республикаси  
Президенти



Ш. Мирзиёев

Тошкент шаҳри



## ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

2026 yil « 12 » январь

ПФ-4 -son

**Маҳаллий енгил саноат корхоналарининг халқаро етказиб бериш занжирларида иштирокини кенгайтириш ҳамда ташқи бозорларда ўрнини мустаҳкамлашга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида**

Енгил саноат корхоналарининг халқаро етказиб бериш занжирларига қўшилишини янада қўллаб-қувватлаш, маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни ташқи бозорлар талабларига мослаштириш асосида экспортда юқори қўшилган қийматли маҳсулотлар улушини ошириш ҳамда соҳани диверсификация қилиш учун қулай шарт-шароит яратиш мақсадида қарор қиламан:

### I. Асосий мақсадлар

1. Қуйидагилар тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатида 2026–2027 йиллар учун асосий мақсадли кўрсаткичлар этиб белгилансин:

- (а) ишлаб чиқариш ҳажми 2026 йилда **9 фоизга** ўсишини таъминлаш ва **146 триллион сўмга**, 2027 йилда **10 фоизга** ўсишини таъминлаш ва **167 триллион сўмга** етказиш;
- (б) соҳага 2026 йилда **2,2 миллиард АҚШ доллари**, 2027 йилда **2,5 миллиард АҚШ доллари** миқдорида хорижий инвестицияларни жалб қилиш;
- (в) экспортни 2026 йилда **4 миллиард АҚШ долларига**, шу жумладан, электрон савдо платформалари орқали **700 миллион АҚШ долларига**, 2027 йилда **4,5 миллиард АҚШ долларига**, шу жумладан, электрон савдо платформалари орқали **1 миллиард АҚШ долларига** етказиш;

- (г) амалга оширилаётган лойиҳалар доирасида 2026–2027 йилларда 80 мингта иш ўринларини яратиш;
- (д) халқаро етказиб бериш занжирларида маҳаллий корхоналар иштирокини кенгайтириш мақсадида 2026–2027 йилларда 40 та хорижий брендлар ва “сорсинг” компаниялар билан ҳамкорлик ўрнатиш.

## II. Енгил саноат соҳаси корхоналарини молиявий соғломлаштиришга қаратилган амалий чора-тадбирлар

2. Енгил саноатни ривожлантириш агентлиги (кейинги ўринларда – Агентлик) 2026–2027 йилларда тўқимачилик тармоғида ишлаб чиқариш жараёнларини стандартлаштириш ва меҳнат унумдорлигини ошириш бўйича ўрта ва йирик корхоналарда **тежамкор ишлаб чиқариш** ва бошқа самарадор бошқарув моделларини жорий этиш дастурини Енгил саноатни қўллаб-қувватлаш жамғармаси (кейинги ўринларда – Жамғарма) маблағлари ҳисобидан молиялаштирсин.
3. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Марказий банк ва Агентликнинг тўқимачилик корхоналарини иқтисодий ва молиявий кўрсаткичларидан келиб чиққан ҳолда **“яшил”, “сарик”** ва **“қизил” тоифаларга** ажратиш ва улар фаолиятига манзилли кўмаклашиш бўйича корхоналарни қўллаб-қувватлаш дастурини амалга ошириш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин. Бунда:
  - (а) корхоналарга тижорат банклари томонидан **2 миллион АҚШ долларигача** миқдорда улар томонидан харид қилинган ва тўловлари тўлиқ амалга оширилган ёки ўзи етиштирган хомашёни (пахта хомашёси ва толасини) гаровга олган ҳолда Агентлик ресурслари ҳисобидан кредитлар ажратишга;
  - (б) соғломлаштириш имконияти мавжуд деб топилган корхоналарнинг аввал олган тижорат кредитлари муддатини 7 йилгача узайтириб беришга;

**(в)** Агентлик томонидан ажратиладиган ресурслар, шу жумладан, Жамғармага жалб қилинадиган хорижий кредит линиялари ҳисобидан энгил саноат корхоналарининг фоиз ставкаси хорижий валютада 7 фоиздан ва миллий валютада 16 фоиздан баланд бўлган амалдаги кредитларини қайта кредитлаш асосида фоиз ставкаларини пасайтиришга;

**(г)** пахта хомашёси хариди учун жалб қилинган кредитлар бўйича 2026–2027 йилларда тўлов графикларида январь-февраль ойлари учун белгиланган тўловларни кредит шартномасига асосан охириги олти ойга тенг тақсимланган ҳолда тўлашга рухсат берилади.

4. Агентлик тижорат банклари, шу жумладан, уларда ташкил этилган **енгил саноат гуруҳлари** билан биргаликда “сарик” ва “қизил” тоифадаги энгил саноат корхоналари фаолиятини доимий ўрганган ҳолда уларни қўллаб-қувватлаш юзасидан тегишли чораларни кўриб борсин.

5. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Энергетика вазирлиги ҳамда Агентликнинг энгил саноат корхоналарида **2026 йил 1 январдан бошлаб** қуввати **5 МВтгача** бўлган қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларидан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқарилган электр энергиясининг корхона эҳтиёжидан ортиқча қисмини сотиш тизимини жорий қилиш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

6. Адлия вазирлиги Бош прокуратура ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси ва Солиқ қўмитаси билан биргаликда энгил саноат корхоналарига **кредитларнинг гаров шартномаларини**, истисно тариқасида, ҳисобварақларига чекловлар бўлган ҳолларда нотариал расмийлаштириш, давлат хизматлари марказлари орқали қурилиш ва бошқа рухсат олиш ҳужжатларига оид хизматлар кўрсатиш ҳамда энергия ресурслари учун тўловларни амалга ошириш имкониятини яратсин.

**7.** Агентликнинг алоҳида кўрсаткич ва мезонлар асосида юқори натижаларга эришган тадбиркорлар ва саноат соҳаси ходимларини давлат ва идоравий мукофотлар билан мунтазам равишда тақдирлаб бориш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

### **III. Хорижий инвестицияларни жалб қилиш ва экспорт ҳажмини оширишга қаратилган амалий чора-тадбирлар**

**8.** Агентлик ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг хорижий давлатларда, шу жумладан, АҚШ, Хитой, Россия, Туркия, Германия, Польша, Бирлашган Араб Амирликлари ва Саудия Арабистонида Жамғарма ҳисобидан молиялаштириладиган Агентлик ваколатхоналари ва вакиллари фаолиятини йўлга қўйиш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

**9.** Қуйидагилар Агентлик ваколатхоналари ва вакилларининг асосий вазифалари этиб белгилансин:

**(а)** хориждаги салоҳиятли инвесторларни Ўзбекистон енгил саноати соҳасига жалб қилиш;

**(б)** экспортни жадаллаштириш учун экспортбоп маҳсулотларга янги харидорлар топиш, амалдаги харидорлар билан ҳамкорликни кенгайтириш, йирик “сорсинг” компаниялар ва брендлар билан ҳамкорликни йўлга қўйиш;

**(в)** маҳаллий корхоналар ходимларининг малакасини ошириш учун хорижий грант маблағлари ва халқаро экспертларни жалб қилиш.

**10.** Бош вазир ўринбосари (Ж.Ходжаев), Ташқи ишлар вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги Агентлик билан биргаликда:

**(а)** 2026–2027 йилларда енгил саноат маҳсулотлари экспортининг мақсадли кўрсаткичларини таъминлаш мақсадида:

**(i)** бир ҳафта муддатда ташқи бозорларнинг салоҳиятидан келиб чиққан ҳолда Ўзбекистоннинг хориждаги ҳар бир дипломатик ваколатхонаси кесимида экспортни оширишга кўмаклашиш бўйича режа топшириқларини тасдиқласин;

(ii) Ўзбекистоннинг хориждаги дипломатик ваколатхоналари билан бирга Ўзбекистон миллий маҳсулотлари шоурумлари, савдо тармоқларини ташкил қилиб, сотув инфратузилмасини шакллантирсин;

(б) ҳар чорак якуни билан Ўзбекистоннинг хориждаги дипломатик ваколатхоналарининг самарадорлик кўрсаткичларини муҳокама қилишда енгил саноат маҳсулотлари экспортини оширишга кўмаклашиш бўйича фаолиятига баҳо бериб борсин.

**11.** Ишлаб чиқариш занжиридаги бўшлиқларни тўлдиришга (тўқимачиликда тўқув ва бўёқ-пардозлаш, чарм-пойабзал ва ипакчилик тармоқларида тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришга) қаратилган инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқиш, салоҳиятли хорижий инвесторлар ва халқаро брендларни жалб қилиш мақсадида Агентлик ҳузурида Жамғарма маблағлари ҳисобидан молиялаштириладиган ва қўшимча ажратиладиган 10 та штат бирлигидан иборат бўлган **Енгил саноат лойиҳа офиси** ташкил этилсин.

**12.** Маҳаллий енгил саноат корхоналари иштирок этиши қўллаб-қувватланадиган 2026 йилда ўтказиладиган халқаро енгил саноат кўргазмалари рўйхати **1-иловага** мувофиқ тасдиқлансин. Бунда Инвестицияларни жалб қилиш, саноатни ривожлантириш ва савдони тартибга солиш масалалари бўйича Ҳукумат комиссиясига, зарур ҳолларда, халқаро кўргазмалар рўйхатига ўзгартириш киритиш ваколоти берилсин.

#### **IV. Имтиёзлар**

**13.** Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳамда Агентликнинг қуйидаги таклифларига розилик берилсин:

(a) 2026 йил 1 январдан 2028 йил 1 январга қадар пахта тайёрлаш пунктлари фаолиятининг мавсумийлигини инобатга олган ҳолда пахта тайёрлаш пунктларига мол-мулк ва ер солиқларини 50 фоизга камайтирилган ставкада тўлашга рухсат бериш;

**(б)** 2026 йил 1 январдан 2029 йил 1 январга қадар:

- (i)** тижорат банклари балансидаги тўқимачилик ва тикув-трикотаж корхоналарининг мол-мулкларини инвесторларга реализация қилишда қўшилган қиймат солиғидан озод қилиш;
- (ii)** тижорат банклари балансидаги тўқимачилик ва тикув-трикотаж корхоналарининг мол-мулкларини харид қилган инвесторларга ушбу корхоналарнинг ишлаб чиқариш фаолиятини 6 ойда тўлиқ тиклаш шарти билан **бир йил муддатга** мол-мулк солиғини 50 фоизга камайтирилган ставкада тўлашга рухсат бериш;
- (iii)** чарм-пойабзал, мўйначилик соҳаси корхоналари ва чорва молларини сўйиш ва терини қайта ишловчи ташкилотлар учун назарда тутилган фойда солиғи, мол-мулк солиғи, ер солиғи, айланмадан олинадиган солиқ ва белгиланган тартибда тасдиқланадиган рўйхатлар бўйича импорт қилинадиган асбоб-ускуналар, бутловчи буюмлар, республикада ишлаб чиқарилмайдиган хомашё, материаллар ва фурнитура учун божхона тўловлари бўйича имтиёзлар муддатини узайтириш.

## **V. Молиялаштириш манбалари ва тизимлари**

- 14.** Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Агентлик билан биргаликда энергия самарадорликни оширишни қўллаб-қувватлаш мақсадида енгил саноат корхоналарида қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини ўрнатишга тижорат банклари орқали кредитлар ажратиш учун халқаро молия ташкилотларидан **100 миллион АҚШ доллари** миқдорида маблағларни Жамғармага жалб қилиш чораларини кўрсин.
- 15.** Белгилансинки, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 10 январдаги “Пахта-тўқимачилик кластерлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини тубдан ислоҳ қилиш ҳамда соҳанинг экспорт салоҳиятини янада ошириш чоратadbирлари тўғрисида”ги ПФ–2-сон Фармони 2-банди “а” кичик банди билан “Савдони ривожлантириш компанияси” АЖга ажратилиши белгиланган **250 миллион АҚШ доллари** миқдоридаги маблағларнинг:

- (а) **200 миллион АҚШ доллари** Агентлик буюртмасига асосан юқоридаги Фармонда белгиланган шартлар асосида енгил саноат корхоналарини айланма маблағлар билан таъминлаш учун 2026–2027 йилларда мутаносиб равишда Жамғармага ажратилади;
- (б) **50 миллион АҚШ доллари** 2026 йилда тижорат банклари орқали енгил саноат корхоналарига қуёш фотоэлектр станциясини қуриш мақсадида 4 йил муддатгача йиллик 6 фоиз ставкада (банк маржаси 1,5 фоиз ва Агентлик харажатлари 0,5 фоиз) кредитлар бериш учун Агентлик буюртмасига асосан Жамғармага ажратилади;
- (в) Тикланиш ва тараққиёт жамғармасига қайтариш муддати 2030 йил 31 декабрга қадар узайтирилади.

## **VI. Фармон ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат**

- 16.** Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раисининг, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимларининг маҳаллий саноатни ривожлантириш масалалари бўйича ёрдамчилари мазкур Фармонда белгиланган мақсадли кўрсаткичларни таъминлашда Агентлик билан бирга масъул этиб белгилансин.
- 17.** Вазирлар Маҳкамаси **икки ой** муддатда:
  - (а) Агентлик томонидан енгил саноат корхоналарида қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини ўрнатиш учун тижорат банклари орқали кредит ажратишга ресурслар жойлаштириш тартибини назарда тутувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатни;
  - (б) “Саноат ривожига қўшган ҳиссаси учун” кўкрак нишонини таъсис этиш ва саноат соҳасида юқори натижаларга эришган тадбиркорлар ва соҳа ходимларини мунтазам равишда тақдирлаб боришни назарда тутувчи тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатни тасдиқласин.

- 18.** Бош вазир ўринбосари Ж.Ходжаев **икки ой муддатда** Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Миллий статистика қўмитаси, Божхона қўмитаси ҳамда Агентлик билан биргаликда электрон савдо платформалари орқали экспортга реализация қилинган маҳсулотлар ҳисобини юритиш ва статистик кўрсаткичларда акс эттириш тартибини ишлаб чиқиб тасдиқласин.
- 19.** Агентлик **уч ой** муддатда Ташқи ишлар вазирлиги билан биргаликда энгил саноат соҳасида нуфузли хорижий таълим ташкилотлари билан ҳамкорликда республикада олий таълим муассасасини ташкил қилиш бўйича таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.
- 20.** Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Солиқ қўмитаси ва Агентлик билан биргаликда **уч ой** муддатда мазкур Фармоннинг 13-бандидан келиб чиқиб, Солиқ кодексига ўзгартириш ва қўшимчалар киритишни назарда тутувчи қонун лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.
- 21.** Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги:
- (а)** Ўзбекистон-Корея ўқув-амалий тўқимачилик технопаркининг 2025 йил 1 декабрь ҳолатига мавжуд иш ҳақи ва унга тенглаштирилган тўловлар, коммунал ҳамда бошқа кредитор қарздорликлари тўлиқ Тошкент тўқимачилик ва энгил саноат институтига қайта расмийлаштирилишини;
- (б)** 2026 йил 1 февралга қадар Ўзбекистон-Корея ўқув-амалий тўқимачилик технопарки Агентликка ўтказиб берилишини таъминласин.
- 22.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг ва Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим ҳужжатларига **2-иловага** мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.
- 23.** Мазкур Фармоннинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Бош вазир ўринбосарлари Ж.А. Қўчқоров ва Ж.А. Ходжаев белгилансин.

**24.** Фармон ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси  
Президенти**



**Ш.Мирзиёев**

Тошкент шаҳри

Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
2026 йил 12 январдаги ПФ–4-сон Фармониغا  
1-илова

**Маҳаллий енгил саноат корхоналари иштирок этиши қўллаб-қувватладиган  
2026 йилда ўтказиладиган халқаро енгил саноат кўрғазмалари  
РЎЙХАТИ**

| <b>Т/р</b>                            | <b>Кўрғазма номи</b>  | <b>Кўрғазма манзили</b>   |
|---------------------------------------|---|---------------------------|
| <b>Тўқимачилик йўналишида - 25 та</b> |   |                           |
| <b>Январь</b>                         |   |                           |
| 1                                     | Heimtextil-2026   | Германия (Франкфурт-Майн) |
| 2                                     | Apparel sourcing, TexWorld  | АҚШ (Нью-Йорк)            |
| <b>Февраль</b>                        |   |                           |
| 3                                     | Pure London-2026  | Буюк Британия (Лондон)    |
| 4                                     | Texworld & Apparel Sourcing Paris 2026  | Франция (Париж)           |
| 5                                     | Текстиль Салон<br>17-Халқаро кўрғазмаси   | Россия (Москва)           |
| <b>Март</b>                           |   |                           |
| 6                                     | Intertextile Shanghai Apparel Fabrics,<br>Intertextile Shanghai Home Textiles & Yarn Expo Spring 2026 | Хитой (Шанхай)            |
| 7                                     | Интерткань-2025 Весна   | Россия (Москва)           |
| 8                                     | International Istanbul Yarn Fair-2026   | Туркия (Истанбул)         |
| <b>Апрель</b>                         |   |                           |
| 9                                     | 11th Morocco Fashion Style & Tex  | Марокаш (Касабланка)      |
| <b>Май</b>                            |   |                           |
| 10                                    | Proposte 2026   | Италия, Черноббио         |
| 11                                    | UzTextileExpo   | Ўзбекистон (Тошкент)      |
| 12                                    | Home Textiles & Accessories<br>Exhibition-2026  | Туркия (Истанбул)         |
| <b>Июнь</b>                           |   |                           |
| 13                                    | Apparel Textile Sourcing Canada-2026  | Канада (Торонто)          |
| 14                                    | "ITM Turkey 2026"   | Туркия (Истанбул)         |
| <b>Июль</b>                           |   |                           |
| 15                                    | Allfashion Sourcing Cape Town 2026  | ЖАР (Кейптаун)            |
| 16                                    | Apparel sourcing, TexWorld,<br>Home Textiles Sourcing Expo-2026                                       | АҚШ (Нью-Йорк)            |

| T/p                                     | Кўргазма номи  | Кўргазма манзили      |
|---|--|-----------------------|
| <b>Август</b>                           |  |                       |
| 17                                      | MAGIC Las Vegas-2026   | АҚШ (Лас Вегас)       |
| 18                                      | Интерткань-2025 Весна  | Россия (Москва)       |
| <b>Сентябрь</b>                         |  |                       |
| 19                                      | Premiere Vision Paris-2026   | Франция (Париж)       |
| 20                                      | HomeTextile & Home Design  | Россия (Москва)       |
| 21                                      | "TexTailor Expo"   | Болгария (Пловдив ш.) |
| <b>Октябрь</b>                          |  |                       |
| 22                                      | Warsaw Home Textile-2026   | Польша (Варшава)      |
| 23                                      | Heimtextil Uzbekistan,<br>Texworld Tashkent va Apparel sourcing Tashkent         | Ўзбекистон (Тошкент)  |
| <b>Ноябрь</b>                           |  |                       |
| 24                                      | Maroc in Mode (MIM) Show-2026  | Марокаш (Касабланка)  |
| 25                                      | Fast Textile Fair-2026   | Польша (Лодзь)        |
| <b>Чарм-пойабзал йўналишида - 15 та</b> |  |                       |
| <b>Февраль</b>                          |  |                       |
| 1                                       | INDIA INTERNATIONAL LEATHER FAIR   | Ҳиндистон (Ченнай)    |
| <b>Март</b>                             |  |                       |
| 2                                       | APLF Leather & Materials+,<br>Fashion Access                                     | Гонконг               |
| <b>Апрель</b>                           |  |                       |
| 3                                       | Japan Grand Shoes Collection   | Япония (Кобе-Нагата)  |
| 4                                       | AYSAF  | Туркия (Истанбул)     |
| <b>Май</b>                              |  |                       |
| 5                                       | Shoes & Leather - Guangzhou 2025   | Хитой (Гуанжоу)       |
| 6                                       | Intershoes Portugal  | Португалия (Порто)    |
| 7                                       | KIOSH  | Қозоғистон (Остона)   |
| <b>Июль</b>                             |  |                       |
| 8                                       | 26th International Shoes & Leather Exhibition - Vietnam<br>(IFLE - Vietnam 2026) | Вьетнам (Хо Ши Мин)   |
| <b>Август</b>                           |  |                       |
| 9                                       | Измайлово Шуз  | Россия (Москва)       |
| <b>Сентябрь</b>                         |  |                       |
| 10                                      | ACLE - All China Leather Exhibition<br>(Shanghai Leather Fair)                   | Хитой (Шанхай)        |
| 11                                      | AYMOD  | Туркия (Истанбул)     |

| Т/р            | Кўргазма номи      | Кўргазма манзили             |
|----------------|--------------------|------------------------------|
| 12             | Lineapelle         | Италия (Милан)               |
| <b>Октябрь</b> |                    |                              |
| 13             | Saudi Shoes Expo   | Саудия Арабистони<br>(Жидда) |
| <b>Ноябрь</b>  |                    |                              |
| 14             | БИОТ-2025          | Россия (Москва)              |
| 15             | APLF ASEAN VIETNAM | Вьетнам (Хо Ши Мин)          |

**Изоҳ:**

- 1). Енгил саноатни ривожлантириш агентлиги ўз сайтида кўргазмаларнинг аниқ саналарини эълон қилиб боради.*
- 2). 2027 йилдан бошлаб маҳаллий енгил саноат корхоналари иштирок этиши қўллаб-қувватланадиган халқаро енгил саноат кўргазмалари рўйхати Инвестицияларни жалб қилиш, саноатни ривожлантириш ва савдони тартибга солиш масалалари бўйича Ҳукумат комиссияси томонидан тасдиқланади.*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
2026 йил 12 январдаги ПФ–4-сон Фармониغا  
2-илова

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг ва Ўзбекистон Республикаси  
Ҳукуматининг айрим ҳужжатларига киритилаётган  
ўзгартириш ва қўшимчалар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 майдаги “Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини қўллаб-қувватлашга доир кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ–5989-сон Фармонининг 4-банди ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 январдаги “Тўқимачилик ва тикув-трикотаж корхоналарида чуқур қайта ишлаш ва юқори қўшилган қийматли тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ҳамда уларнинг экспортини рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–53-сон Фармонининг 1-банди ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 10 январдаги “Пахта-тўқимачилик кластерлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини тубдан ислоҳ қилиш ҳамда соҳанинг экспорт салоҳиятини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–2-сон Фармонида:

(а) 2-бандда:

“а” кичик банднинг иккинчи хатбошисидаги “2028 йил 1 январга қадар” сўзлари “2030 йил 31 декабрга қадар” сўзлари билан алмаштирилсин;

“г” кичик банд ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин;

“д” кичик банд қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“д) Енгил саноатни ривожлантириш агентлиги ҳисобидан савдо операцияларини молиялаштириш учун охириги 12 ой мобайнида амалга оширилган маҳсулотлар реализацияси ҳажмидан келиб чиққан ҳолда 3 йил муддатгача қуйидаги миқдорларда молиявий ресурслар ажратилади:

маҳсулотлар реализацияси ҳажми 5 миллион АҚШ доллари эквивалентигача бўлганда — 1 миллион АҚШ долларигача;

маҳсулотлар реализацияси ҳажми 5 миллион АҚШ доллари эквивалентидан 10 миллион АҚШ доллари эквивалентигача бўлганда — 2 миллион АҚШ долларигача;

маҳсулотлар реализацияси ҳажми 10 миллион АҚШ доллари эквивалентидан 15 миллион АҚШ доллари эквивалентигача бўлганда — 3 миллион АҚШ долларигача;

маҳсулотлар реализацияси ҳажми 15 миллион АҚШ доллари эквивалентидан 20 миллион АҚШ доллари эквивалентигача бўлганда — 4 миллион АҚШ долларигача;

маҳсулотлар реализацияси ҳажми 20 миллион АҚШ доллари эквивалентидан ортиқ бўлганда — 5 миллион АҚШ долларигача;

Бунда 3 йил муддатгача берилган кредитларнинг маълум бир қисми белгиланган муддатларда сўндирилган тақдирда, тадбиркорлик субъектларига кредитнинг сўндирилган қисмига мутаносиб равишда қўшимча кредитлар ажратилади”;

(б) 5-банднинг тўртинчи хатбошисидаги “Экспортни қўллаб-қувватлаш жамғармаси” сўзлари “Енгил саноатни қўллаб-қувватлаш жамғармаси” сўзлари билан алмаштирилсин.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 1 майдаги “Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини ривожлантиришни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ–71-сон Фармони 1-иловасининг матни қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“Ўзбекистон Республикаси ҳудудига олиб киришда божхона божидан озод қилинадиган, тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқариш учун зарур бўлган ва республикада ишлаб чиқарилмайдиган, хомашё ва бошқа материаллар, бутловчи буюмлар ва эҳтиёт қисмлар

**РЎЙХАТИ**

| Т/р                                   | ТИФ ТН коди  | Товар номи   |
|---------------------------------------|--|--|
| <b>I. Хомашё ва бошқа материаллар</b> |  |  |
| 1                                     | 3206190000   | Бошқа ранг берувчи моддалар; 3203, 3204 ёки 3205-товар позицияларидаги препаратлардан фарқланувчи, ушбу гуруҳнинг 3-изоҳида кўрсатилган препаратлар; кимёвий таркиби аниқ ёки ноаниқ бўлган, люминофорлар сифатида ишлатиладиган ноорганик маҳсулотлар; титан диоксида асосида тайёрланган пигментлар ва препаратлар; бошқалар |
| 2                                     | 3208901909   | Синтетик полимерлар ёки кимёвий модификацияланган табиий полимерлар асосидаги, диспергирланган ёки сувсиз муҳитда эритилган бўёқлар ва лаклар (шу жумладан, эмаллар ва политурлар); ушбу гуруҳнинг 4-изоҳида кўрсатилган эритмалар; бошқалар   |
| 3                                     | 3209900000   | Синтетик полимерлар ёки кимёвий модификацияланган табиий полимерлар асосидаги, диспергирланган ёки сувли муҳитда эритилган бўёқ ва лаклар (шу жумладан, эмаль ва политурлар); бошқалар   |
| 4                                     | 3215110000<br>3215190000                             | Полиграфик бўёқ, ёзиш ёки чизиш учун сиёҳ ёхуд туш ва концентрацияланган ёки концентрацияланмаган, қаттиқ ёки қаттиқ бўлмаган бошқа сиёҳлар; қора; бошқалар  |
| 5                                     | 3506100000   | Нетто оғирлиги 1 кг дан кўп бўлмаган, елимлар ёки адгезивлар сифатида чакана савдо учун қадоқланган, елимлар ва адгезивлар сифатида ишлатиш учун яроқли бўлган маҳсулотлар   |
| 6                                     | 5407201900<br>5407209000<br>5407300000<br>5407430000 | Комплекс синтетик иплардан газламалар, шу жумладан, 5404-товар позициясидаги материаллардан тайёрланадиган газламалар  |

|    |            |  |
|----|------------|--|
|    | 5407440000 |  |
|    | 5407510000 |  |
|    | 5407530000 |  |
|    | 5407540000 |  |
|    | 5407710000 |  |
|    | 5407810000 |  |
|    | 5407910000 |  |
| 7  | 5408100000 | Сунъий комплекс иплардан газламалар, шу жумладан, 5405-товар позициясидаги материаллардан тайёрланадиган газламалар  |
|    | 5408210000 |  |
|    | 5408221000 |  |
|    | 5408320000 |  |
|    | 5408330000 |  |
| 8  | 5512110000 | Таркибида синтетик толалар 85 мас.% ёки ундан ортиқ бўлган синтетик толалардан газламалар  |
|    | 5512191000 |  |
|    | 5512910000 |  |
| 9  | 5513119000 | Таркибида синтетик толалар 85 мас.% дан кам, асосан ёки фақат пахта толалари билан аралаштирилган, юза зичлиги 170 г/м <sup>2</sup> дан ортиқ бўлмаган синтетик толалардан газламалар                              |
|    | 5513120000 |  |
|    | 5513130000 |  |
|    | 5513190000 |  |
|    | 5513231000 |  |
|    | 5513239000 |  |
|    | 5513310000 |  |
| 10 | 5514120000 | Таркибида синтетик толалар 85 мас.% дан кам, асосан ёки фақат пахта толалари билан аралаштирилган, юза зичлиги 170 г/м <sup>2</sup> дан ортиқ бўлган синтетик толалардан газламалар                                |
|    | 5514191000 |  |
|    | 5514199000 |  |
|    | 5514230000 |  |
|    | 5514305000 |  |
|    | 5514430000 |  |
| 11 | 5515113000 | Синтетик толалардан бошқа газламалар   |
|    | 5515123000 |  |
|    | 5515131900 |  |
|    | 5515199000 |  |
| 12 | 5516120000 | Сунъий толалардан газламалар   |
|    | 5516210000 |  |
|    | 5516240000 |  |
| 13 | 5810929000 | Бир тўқима бўлагида, лентада ёки алоҳида орнаментлар кўринишида тикилган кашталар: кимёвий иплардан тўқилган   |
| 14 | 5804219000 | Тюль ва бошқа сеткасимон матолар, газлама матолардан ва машинада ёки қўлда тўқилган трикотаж матолардан ташқари; кружева бўлак, лента ёки алоҳида безаклар (орнамент) кўринишида, тюль ва бошқа сеткасимон матолар |
| 15 | 5903209000 | Пластмасса шимдирилган, қопланган ёки иккиланган тўқимачилик материаллари, 5902-товар позициясининг материаллардан ташқари: полиуретан билан: – қопланган ёки иккиланган   |
| 16 | 5801270000 | Тукли газламалар ва бахмал ипдан (синел) тайёрланган газламалар  |
|    | 5801330000 |  |
|    | 5801360000 |  |

|   |            |   |
|---|------------|---|
|   | 5801909000 |   |
| 17  | 5804101000 | Тюль ва бошқа сеткасимон матолар  |
|   | 5804109000 |   |
| 18  | 5806329000 | Тор газламалар, 5807-товар позицияси буюмларидан ташқари; арқоқсиз тор газламалар, елимлаб маҳкамланган (болдюк)  |
| 19  | 5911311100 | Техник мақсадлар учун тўқимачилик материаллари  |
|   | 5911321900 |   |
|   | 5911329000 |   |
| 20  | 6001100000 | Кимёвий иплардан тўқилган тукли трикотаж матолар ёки пахмоқ матолар   |
|   | 6001220000 |   |
|   | 6001920000 |   |
| 21  | 6005210000 | Асоси тўқилган матолар (шу жумладан, галунларни ишлаб чиқариш учун трикотаж машиналарида тўқилганлар), 6001 – 6004-товар позицияларининг трикотаж матоларидан ташқари   |
| 22  | 6006329000 | Машинада ёки қўлда синтетик иплардан тўқилган трикотаж матоларнинг бошқалари: бўялгани  |
| <b>II. Бутловчи буюмлар ва эҳтиёт қисмлар</b> |            |   |
| 23  | 2710198200 | Мотор мойлари, компрессор ёғлаш мойи, турбина ёғлаш мойи  |
|   | 2710199800 |   |
| 24  | 2710198800 | Шестернялар учун мой ва редуктор мойи   |
| 25  | 2710199400 | Электр изоляциялаш мойлари  |
| 26  | 3917290000 | Пластмассадан тайёрланган қувурлар, найчалар, шланглар ва уларнинг фитинглари (масалан, бирикмалар, тирсаклар, гардишлар); бошқа пластмассадан тайёрланган қаттиқ қувурлар, найчалар ва шланглар; бошқалар; чоксиз ва ишлов берилган ёки ишлов берилмаган юзали, узунлиги кўндаланг кесим максимал ўлчамидан ошадиган, лекин ишлов берилмаган фитинглар |
|   | 3917400000 |   |
| 27  | 3919900000 | Пластмассадан тайёрланган ўзи ёпишадиган, рулонларда ёки рулонсиз плиталар, листлар, плёнка, лента, тасма ва бошқа ясси формалар; бошқалар  |
| 28  | 3926909709 | Пластмассалар ва улардан тайёрланган буюмлар; бошқалар  |
| 29  | 8311100009 | Ёйли электр пайвандлашда ишлатиладиган қимматбаҳо бўлмаган металлдан ясалган, қопламали электродлар   |
| 30  | 8415810010 | Махсус ишлаб чиқариш биналарида микроклимни сақлаб туриш учун ҳарорат ва намликни автоматик тарзда ростлайдиган саноат кондиционерлари  |
| 31  | 8481109908 | Қувур ўтказгичлар, қозонлар, резервуарлар, цистерналар, баклар ёки шунга ўхшаш сиғимлар учун кранлар, клапанлар, вентиллар ва шунга ўхшаш арматуралар, шу жумладан редукцион ва ҳароратни тартибга солувчи клапанлар; бошқалар  |
|   | 8481808190 |   |
| 32  | 8481409000 | Сақловчи ёки юк туширувчи клапанлар; бошқалар   |
| 33  | 8481209009 | Пневматик куч трансмиссиялари учун тартибга солувчи клапанлар; бошқалар   |
| 34  | 8504409100 | Электр трансформаторлар, статик электр ўзгартиргичлар (масалан тўғрилагичлар), индуктивлик ғалтаги ва дроселлар; статик ўзгартиргичлар; бошқалар  |
| 35  | 8536900100 | Электр занжирлар учун дастлабки йиғилган элементлар   |
| 36  | 8537109900 | Пультлар, панеллар, консоллар, столлар, тақсимловчи шитлар ва электр токини бошқариш ёки тақсимлаш учун 8535 ёки 8536-товар позицияларидаги икки ёки ундан ортиқ ускуналар билан жиҳозланган, шу жумладан 8517-товар позициясидаги коммутацион қурилмалардан ташқари, 90-гурӯҳдаги асбоблар ёки мосламаларни ва рақамли                                 |

|    |            |  |
|----|------------|--|
|    |            | бошқарув аппаратларини ўз ичига олган электр аппаратуралар учун бошқа асослар; бошқалар  |
| 37 | 8501522009 | Бошқа кўп фазали ўзгарувчан ток двигателлари (АС мотор)  |
| 38 | 8501320002 | Электр двигателлар ва генераторлар (электр генератор қурилмаларидан ташқари) (DC мотор)  |
| 39 | 8538909200 | Электрон модуллар  |
| 40 | 8540890000 | Термокатодли, совуқ катодли ёки фотокатодли лампалар ва электрон найчалар (масалан, вакуум ёки буғ ёхуд газ билан тўлдирилган лампалар ва найчалар, симобли ёй тўғрилагич лампалар ва найчалар ҳамда электрон нурли найчалар, телевизион узатувчи найчалар); электрон лампалар ва бошқа найчалар |
| 41 | 8542319010 | Электрон интеграл микросхемалар; монолит интеграл микросхемалар  |
| 42 | 9032890000 | Автоматик созлаш ва бошқариш учун асбоб-ускуналар ва мосламалар  |
| 43 | 9603500009 | Механизм, асбоб-ускуна ва транспорт воситаларининг қисми бўлган чўткалар; бошқалар   |

”.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 19 сентябрдаги “Енгил саноат соҳасида юқори қўшилган қийматли маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва экспорт ҳажмини ошириш учун қўшимча шарт-шароитлар яратиш тўғрисида”ги ПФ–174-сон Фармонининг 12-банди “а” кичик бандидаги “қўллаб-қувватлаш чоралари” сўзларидан кейин “ҳамда Агентлик фаолиятини ташкил этиш билан боғлиқ сақлаш харажатлари” сўзлари билан тўлдирилсин.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 майдаги “Чарм-пойабзал ва мўйначилик соҳаларини ривожлантириш ва экспорт салоҳиятини оширишни янада рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–3693-сон қарори 9-бандининг биринчи хатбошисидаги “2026 йил 1 январга қадар” сўзлари “2029 йил 1 январга қадар” сўзлари билан алмаштирилсин.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 8 февралдаги “Чарм-пойабзал ва мўйначилик соҳаларини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–4982-сон қарори 3-бандидаги “2026 йил 1 январга қадар” сўзлари “2029 йил 1 январга қадар” сўзлари билан алмаштирилсин.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 26 февралдаги “Чарм-пойабзал ва мўйначилик соҳаларида тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришни қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ–143-сон қарорининг 6-банди “а” кичик бандидаги “2026 йил” сўзлари “2029 йил” сўзлари билан алмаштирилсин.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 14 мартдаги “Ташқи савдо ва ҳудудий саноатни ривожлантиришда тадбиркорлар бирлашмаларининг ролини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–126-сон қарорининг 4-банди қўйидаги мазмундаги хатбоши билан тўлдирилсин:

“Бунда 2026 йил 1 январдан бошлаб Енгил саноатни қўллаб-қувватлаш жамғармасидан белгиланган тартибда тўқимачилик, чарм-пойабзал, ипакчилик ва гиламчилик корхоналари учун қўллаб-қувватлаш чоралари тақдим этиладиган йўналишларга Савдога кўмаклашиш жамғармаси ҳисобидан маблағлар тақдим этилмайди”.

**10.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 20 майдаги “Чарм-пойабзал, ипакчилик ва гиламчилик тармоқларини ривожлантиришни янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–181-сон қарорининг 2-банди “в” кичик банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“в) саноат зоналари ҳудудида қуриладиган ишлаб чиқариш бино-иншоотлари, шу жумладан, Андижон вилояти Олтинкўл туманидаги чарм-пойабзал кичик саноат зонаси ҳудудида қурилган ишлаб чиқариш бино-иншоотлари тадбиркорларга тўғридан-тўғри 7 йилгача муддатга бўлиб-бўлиб тўлаш шarti билан ёки ижара асосида берилади”.

**11.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 августдаги “Ўзчармсаноат” уюшмаси корхоналари томонидан божхона тўловларидан озод қилинган ҳолда олиб кириладиган, республикада ишлаб чиқарилмайдиган импорт асбоб-ускуналар, бутловчи буюмлар, хом ашёлар, материаллар ва фурнитуралар рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги Ф–5350-сон фармойишининг рус тилидаги матнида:

(а) 1-банддаги “до 1 января 2026 года” сўзлари “до 1 января 2029 года” сўзлари билан алмаштирилсин;

(б) илованинг матни қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“Перечень

импортируемого оборудования, комплектующих изделий, сырья, материалов и фурнитуры, не производимых в республике, ввозимых предприятиями ассоциации «Узчармсаноат» для производственных нужд с освобождением от таможенных платежей (кроме сборов за таможенное оформление) сроком до 1 января 2029 года

| № | Наименование товара  | Код ТН ВЭД    |
|---|--|---------------|
| 1 | Масло гидрогенизированное касторовое, так называемый «опаловый воск» | 1516 20 100 0 |
| 2 | Оксид магния   | 2519 90 100 0 |
| 3 | Карбонат магния природный (магнезит)                                 | 2519 10 000 0 |
| 4 | Пек таловый омыленный  | 2708 10 000 0 |
| 5 | Углерод технический (сажа), используемый как наполнитель для резины  | 2803 00 000 0 |
| 6 | Силикагель-абсорбент (поглотитель влаги)                             | 2811 22 000 0 |
| 7 | Каустическая сода  | 2815 11 000 0 |
| 8 | Оксид цинка  | 2817 00 000 0 |

| №  | Наименование товара  | Код ТН ВЭД    |
|----|--|---------------|
| 9  | Хлорид кальция   | 2827 20 000 0 |
| 10 | Полихлорид алюминия  | 2827 32 000 9 |
| 11 | Тиб кат 162 (хлорид олова)   | 2827 39 100 0 |
| 12 | Гидросульфид натрия  | 2830 10 000 0 |
| 13 | Сульфит натрия   | 2832 10 000 0 |
| 14 | Метабисульфит натрия   | 2832 10 000 0 |
| 15 | Сульфиты прочие кроме натрия   | 2832 20 000 0 |
| 16 | Сода метабисульфат (сульфат динатрия)  | 2833 11 000 0 |
| 17 | Сульфаты натрия  | 2833 11 000 0 |
| 18 | Сульфаты хрома   | 2833 29 200 0 |
| 19 | Марганец сернокислый   | 2833 29 800 0 |
| 20 | Алюминиевые квасцы   | 2833 30 000 0 |
| 21 | Кальция гидрод фосфат пищевой (водород фосфат кальция)                           | 2835 26 000 0 |
| 22 | Фосфинаты (гипофосфиты), фосфонаты (фосфиты)                                     | 2835 10 000 0 |
| 23 | Карбонат аммония технический   | 2836 99 170 0 |
| 24 | Пероксокарбонаты (перакарбонаты)   | 2836 99 900 0 |
| 25 | Дихромат натрия  | 2841 30 000 0 |
| 26 | Пероксид водорода  | 2847 00 000 0 |
| 27 | Циклогексан  | 2902 11 000 0 |
| 28 | Метилен хлорид   | 2903 12 000 0 |
| 29 | 2-Этилгексанол   | 2905 16 200 0 |
| 30 | Тетра изопропил титанит (ТИПТ)   | 2905 19 000 0 |
| 31 | Моноэтиленгликоль  | 2905 31 000 0 |
| 32 | 1,4 Бутандиол  | 2905 39 250 0 |
| 33 | Триметилопропан  | 2905 41 000 0 |
| 34 | Пентаэритрит   | 2905 42 000 0 |
| 35 | Диэтиленгликоль  | 2909 41 000 0 |
| 36 | Флотореагент оксаль  | 2909 49 800 0 |
| 37 | Дипропеленгликоль  | 2909 49 800 0 |
| 38 | Пропилен оксид   | 2910 20 000 0 |
| 39 | Альдегидный дубитель для кожи (метаналь)   | 2912 11 000 0 |
| 40 | Циклогексанон  | 2914 22 000 0 |
| 41 | Муравьиная кислота (формиат натрия)  | 2915 11 000 0 |
| 42 | Соли муравьиной кислоты  | 2915 12 000 0 |
| 43 | 2-этилгексанол олова (ИИ) (Станноус Остате)                                      | 2915 90 700 0 |
| 44 | Кислоты ациклические монокарбоновые ненасыщенные                                 | 2916 19 950 0 |
| 45 | Кислоты ароматические монокарбоновые, бензойная кислота, ее соли и сложные эфиры | 2916 31 000 0 |
| 46 | Щавелевая кислота  | 2917 11 000 0 |
| 47 | Адипиновая кислота   | 2917 12 000 0 |
| 48 | Пластификатор ДОФ  | 2917 32 000 0 |
| 49 | Эфиры ортофталевой кислоты сложные (дибутилфталат)                               | 2917 34 000 0 |

| №  | Наименование товара   | Код ТН ВЭД    |
|----|---|---------------|
| 50 | Фталевый ангидрид   | 2917 35 000 0 |
| 51 | Фталевая кислота  | 2917 39 950 0 |
| 52 | Лимонная кислота  | 2918 14 000 0 |
| 53 | Трис-(2хлоризопропилфосфат)   | 2919 90 000 0 |
| 54 | Этиламин  | 2921 19 990 0 |
| 55 | Триэтаноламин (средства для выравнивания морщин кожи)   | 2922 15 000 0 |
| 56 | Средство для зольения на основе триэтаноламин   | 2922 15 000 0 |
| 57 | ДМФ диметилформамид   | 2924 19 000 0 |
| 58 | Азодикарбонимид порофор   | 2927 00 000 0 |
| 59 | Толуолдиизоцианат (ТДИ) (толуилендиизоцианат)   | 2929 10 000 1 |
| 60 | Смягчитель дифенилметандиизоцианата (метилфенилендиизоцианат)   | 2929 10 000 1 |
| 61 | Мономерный метилендифенилдиизоцианат  | 2929 10 000 9 |
| 62 | Тиурам  | 2930 30 000 0 |
| 63 | Тиокарбаматы и дитиокарбаматы   | 2930 20 000 0 |
| 64 | Каптакс (2-меркаптобензотиазол)   | 2934 20 200 0 |
| 65 | Дибензотиазолилдисульфид (ди(бензотиазол-2-ил)дисульфид)  | 2934 20 200 0 |
| 66 | Экстракт Квебрахо   | 3201 10 000 0 |
| 67 | Экстракт акации (мимоза)  | 3201 20 000 0 |
| 68 | Экстракт каштана  | 3201 90 200 0 |
| 69 | Дубители синтетические  | 3202 10 000 0 |
| 70 | Неорганические дубленые вещества  | 3202 90 000 0 |
| 71 | Кислотные красители синтетические   | 3204 12 000 0 |
| 72 | Прямые красители  | 3204 14 000 0 |
| 73 | Красители химически активные и препараты, изготовленные на их основе  | 3204 16 000 0 |
| 74 | Пигменты (синтетические органические красящие вещества)   | 3204 17 000 0 |
| 75 | Органические продукты синтетические, используемые в качества оптических отбеливателей   | 3204 20 000 0 |
| 76 | Красители дисперсные и препараты синтетические органические красящие вещества, изготовленные на их основе   | 3204 11 000 0 |
| 77 | Пигменты (на основе диоксида титана)  | 3206 19 000 0 |
| 78 | Паста красящая  | 3206 49 700 0 |
| 79 | Красящие вещества   | 3206 49 700 0 |
| 80 | Краски и лаки на основе сложных полиэфиров  | 3208 10 900 0 |
| 81 | Краски и лаки (включая эмали и политуры) на основе синтетических полимеров, диспергированные или растворенные в неводной среде                        | 3208 90 910 9 |
| 82 | Краски и лаки (включая эмали и политуры) на основе химически модифицированных природных полимеров, диспергированные или растворенные в неводной среде | 3208 90 990 0 |
| 83 | Краски и лаки на основе синтетических полимеров, диспергированные или растворенные в водной среде (на основе акриловых или виниловых полимеров)       | 3209 10 000 9 |
| 84 | Казеиновая эмульсия (краска)  | 3210 00 900 0 |
| 85 | Лаки для кожи (готовые водные пигменты, используемые для отделки кож)   | 3210 00 900 0 |
| 86 | Вещества ПАВ органические   | 3402 11 900 0 |
| 87 | Вещества ПАВ неионогенные (катионное масло, обезжириватель, средство для замачивания)   | 3402 13 000 0 |
| 88 | Вещества ПАВ органические   | 3402 19 000 0 |

| №   | Наименование товара  | Код ТН ВЭД    |
|-----|--|---------------|
| 89  | Жиры синтетические (средства для обработки кожи)   | 3403 11 000 0 |
| 90  | Жиры синтетические (средства для обработки кожи)   | 3403 91 000 0 |
| 91  | Жирующая композиция (средства для обработки кож)   | 3403 91 000 0 |
| 92  | Средства для обработки кожи  | 3403 91000 0  |
| 93  | Воски искусственные  | 3404 90 000 9 |
| 94  | Средства для обработки кожи  | 3405 10 000 0 |
| 95  | Казеин для отделки кожи  | 3501 10 500 0 |
| 96  | Адгезивы   | 3506 91 000 0 |
| 97  | Клей гранулированный, готовый клей   | 3506 99 000 0 |
| 98  | Мягчительные средства (панкреатические ферменты, энзим для смачивание, энзим для размягчения)                            | 3507 90 900 0 |
| 99  | Воск обувной (воск для вощения ниток при производстве обуви)   | 3807 00 900 0 |
| 100 | Антисептик, средства от плесени  | 3808 59 000 0 |
| 101 | Фунгицид   | 3808 92 900 0 |
| 102 | Средства дезинфицирующие   | 3808 59 000 0 |
| 103 | Средства дезинфицирующие на основе четвертичных аммониевых солей   | 3808 94 100 0 |
| 104 | Средства дезинфицирующие на основе галогенированных соединений   | 3808 94 200 0 |
| 105 | Средства дезинфицирующие (кроме средств на основе четвертичных аммониевых солей и на основе галогенированных соединений) | 3808 94 900 0 |
| 106 | Средства отделочные, средства для ускорения крашения или фиксации красителей и продукты прочие                           | 3809 91 000 0 |
| 107 | Средства отделочные  | 3809 93 000 0 |
| 108 | Стабилизаторы  | 3812 39 000 0 |
| 109 | Компоненты полиуретанов «С» (катализаторы, кросслинкеры, активаторы)   | 3815 90 900 0 |
| 110 | Стеариновая кислота (не более 90%)   | 3823 11 000 0 |
| 111 | Азодикарбонимид порофор смешанный с другими компонентами   | 3824 99 960 8 |
| 112 | Сополимер этилена с винилацетатом  | 3901 30 000 0 |
| 113 | Смола ПВХ  | 3904 10 000 1 |
| 114 | Поливинилхлорид (смола ПВХ)  | 3904 10 000 9 |
| 115 | ПВХ в гранулах (поливинилхлорида) непластифицированный   | 3904 21 000 0 |
| 116 | ПВХ в гранулах (поливинилхлорида) пластифицированный   | 3904 22 000 0 |
| 117 | Сополимеры винилхлорида и винилацетата   | 3904 30 000 0 |
| 118 | Компоненты полиуретана   | 3907 99 900 0 |
| 119 | Компоненты полиуретана   | 3909 50 900 0 |
| 120 | Дубители синтетические (смолы меламиновые)   | 3909 20 000 0 |
| 121 | ТРУ термопластический полиуретан   | 3909 50 900 0 |
| 122 | Силиконовое масло  | 3910 00 000 9 |
| 123 | Ионообменная смола   | 3914 00 000 0 |
| 124 | Клейкая пленка (используется при заготовке декоративных элементов для украшений (бусин) в рулонах шириной более 20 см.   | 3919 90 000 0 |
| 125 | Плита полипропиленовая, Полипропиленовая упаковочная лента   | 3920 20 800 0 |
| 126 | Пленка из пористых полиуретанов, гибкая  | 3921 13 100 0 |
| 127 | Дерматин трехслойный (пленка из сложных полиэфиров, в рулонах)   | 3921 90 100 0 |
| 128 | Поролоновые губки из полиуретана   | 3921 13 100 0 |
| 129 | Тентовый материал из слоистых полимеров  | 3921 90 600 0 |

| №   | Наименование товара   | Код ТН ВЭД    |
|-----|---|---------------|
| 130 | Колодки обувные, ранты пластмассовые<br>Фиксатор для сапог с длинной голенью, пластиковый шнурок для ярлыка,<br>Ранты женских тапочек из термопластичной пластмассы, декоративные стразы<br>для обуви | 3926 90 970 9 |
| 131 | Латекс каучуковый натуральный   | 4001 10 000 0 |
| 132 | Каучук для чистки   | 4001 29 000 0 |
| 133 | ТЭП (термопластопласт-термопластичный материал в виде гранул)   | 4002 19 200 0 |
| 134 | Каучук бутадиенстирольный (СБР) в первичных формах  | 4002 19 900 0 |
| 135 | Каучук (галогенированный изобутиленизопреновый)   | 4002 39 000 0 |
| 136 | Хлоропреновый каучук НТ   | 4002 49 000 0 |
| 137 | Каучук бутадиеннитрильный   | 4002 59 000 0 |
| 138 | Каучук синтетический изопреновый (с содержанием ЦИС в первичных формах)   | 4002 60 000 0 |
| 139 | Латекс  | 4002 91 000 0 |
| 140 | ТПР термопластическая резинка (каучук)  | 4002 99 900 0 |
| 141 | Пластины резиновые пористые   | 4008 11 000 0 |
| 142 | Пластины резиновые не пористые  | 4008 21 900 0 |
| 143 | Шланг армированный металлом (без фитингов)  | 4009 21 000 0 |
| 144 | Клиновый ремень бесконечный   | 4010 34 000 0 |
| 145 | Уплотнительное кольцо   | 4016 93 000 8 |
| 146 | Маслоуплотнитель из резины  | 4016 93 000 8 |
| 147 | Необработанные шкуры крупного рогатого скота  | 4101 20 300 0 |
| 148 | Необработанные шкуры крупного рогатого скота  | 4101 20 500 0 |
| 149 | Необработанные шкуры крупного рогатого скота  | 4101 20 800 0 |
| 150 | Необработанные шкуры крупного рогатого скота  | 4101 50 300 0 |
| 151 | Необработанные шкуры крупного рогатого скота  | 4101 50 500 0 |
| 152 | Необработанные шкуры крупного рогатого скота  | 4101 50 900 0 |
| 153 | Необработанные шкуры овец   | 4102 10 900 0 |
| 154 | Необработанные шкуры овец   | 4102 29 000 0 |
| 155 | Необработанные шкуры козлят   | 4103 90 000 0 |
| 156 | Кожкартон (кожа композиционная на основе натуральной кожи или<br>кожевенных волокон в пластинах, листах или полосах, или лентах, в рулонах<br>или не в рулонах)                                       | 4115 10 000 0 |
| 157 | Необработанные шкуры ягнят следующих пород: астраханской, курдючной,<br>каракульской, персидской и аналогичных пород  | 4301 30 000 0 |
| 158 | Мех натуральный (овчина меховая)  | 4302 19 801 0 |
| 159 | Мех искусственный   | 4304 00 000 0 |
| 160 | Картон бумажный, пропитанный, прессованный для стельки обуви  | 4811 90 000 0 |
| 161 | Нитки швейные синтетические из химических нитей, не расфасованные   | 5401 10 120 0 |
| 162 | Нитки швейные синтетические из химических нитей, не расфасованные   | 5401 10 140 0 |
| 163 | Нитки швейные синтетические из химических нитей, не расфасованные   | 5401 10 160 0 |
| 164 | Нитки швейные синтетические из химических нитей, не расфасованные   | 5401 10 180 0 |
| 165 | Нитки швейные из искусственных химических нитей, не расфасованные   | 5401 20 100 0 |
| 166 | Нити комплексные синтетические, текстурированные полиэфирные  | 5402 33 000 0 |
| 167 | Ткани из синтетических комплексных нитей, включая ткани, изготавливаемые<br>из материалов товарной позиции 54.04:   | 5407 10 001 0 |
| 168 | Ткани из синтетических комплексных нитей, включая ткани, изготавливаемые<br>из материалов товарной позиции 54.04:   | 5407 94 000 0 |

| №   | Наименование товара  | Код ТН ВЭД    |
|-----|--|---------------|
| 169 | Нитки швейные из химических, синтетических волокон, расфасованные  | 5508 10 900 0 |
| 170 | Ткань капроновая (из синтетических полиэфирных волокон)  | 5512 19 900 0 |
| 171 | Ткань капроновая (из синтетических полиэфирных волокон)  | 5515 11 900 0 |
| 172 | Нетканые материалы из химических нитей   | 5603 11 100 0 |
| 173 | Нетканые материалы из натуральных нитей  | 5603 94 900 0 |
| 174 | Нетканые материалы из химических нитей, с поверхностной плотностью более 150 г/м2, с покрытием, прочие   | 5603 14 100 9 |
| 175 | Нетканые материалы из химических нитей   | 5603 14 900 0 |
| 176 | Резиновые нить и шнур, с текстильным покрытием   | 5604 10 000 0 |
| 177 | Тесьма плетеная в куске  | 5808 10 000 0 |
| 178 | Отделочные материалы без вышивки в куске   | 5808 90 000 0 |
| 179 | Текстильные материалы с покрытием или дублированные (или триплированные) поливинилхлоридом   | 5903 10 900 9 |
| 180 | Текстильные материалы с покрытием или дублированные полиуретаном   | 5903 20 900 0 |
| 181 | Термопластический материал (текстильные материалы пропитанные пластмассами)  | 5903 90 100 0 |
| 182 | Синтетическая кожа (текстильные материалы с покрытием или дублированные производными целлюлозы или другими пластмассами, с материалом, образующим лицевую сторону)           | 5903 90 910 0 |
| 183 | Текстильные материалы с покрытием пластмассой  | 5903 90 990 0 |
| 184 | Клейкие ленты шириной не более 20см (текстильные материалы прорезиненные)  | 5906 10 000 0 |
| 185 | Полировальный круг из х/б тканей для полировальной машины обуви  | 5911 31 900 0 |
| 186 | Длинноворсовое трикотажное полотно   | 6001 10 000 0 |
| 187 | Полотно основоязное из химических нитей, окрашенное  | 6005 37 900 0 |
| 188 | Формованная подошва из резины,<br>Формованная подошва из термопластической резины  | 6406 20 100 0 |
| 189 | Подошва и каблук из пластмассы и профилита, формованная подошва из пластмассы  | 6406 20 900 0 |
| 190 | Вкладная стелька сменная,<br>Стельки на внутреннюю поверхность подошвы   | 6406 90 500 0 |
| 191 | Металлический подносок   | 6406 90 900 0 |
| 192 | Стельки основные для женской обуви, застежки, ремешки, ремешки для мужской обуви, внутренний задник обуви из термопластического нетканого материала, супинатор металлический | 6406 90 900 0 |
| 193 | Основная стелька несменная, затяжная   | 6406 90 900 0 |
| 194 | Супинатор металлический  | 6406 90 900 0 |
| 195 | Подошвы из композиционной кожи   | 6406 99 600 0 |
| 196 | Абразивный шлифовальный круг для резачки строгальной машины  | 6804 22 120 0 |
| 197 | Наждачка, абразивный порошок на тканной основе   | 6805 10 000 0 |
| 198 | Наждачка, абразивный порошок на бумажной основе  | 6805 20 000 0 |
| 199 | Разветвление железное для сточных труб   | 7307 998 00 9 |
| 200 | Опора подмостков   | 7308 40 900 0 |
| 201 | Цепь роликовая для двоильных и мездрильных машин   | 7315 11 900 0 |
| 202 | Гвозди обувные из черных металлов  | 7317 00 800 9 |
| 203 | Стальной шпиндель (в разобранном виде, часть комплекта), винты для двоильных машин, винты  | 7318 15 900 9 |
| 204 | Шпонки   | 7318 24 000 9 |
| 205 | Пружина (возвратная)   | 7320 20 810 9 |

| №   | Наименование товара   | Код ТН ВЭД    |
|-----|---|---------------|
| 206 | Гвозди обувные из меди  | 7415 10 000 0 |
| 207 | Кусачки для растяжения кожи   | 8203 20 000 9 |
| 208 | Дыропробивной инструмент  | 8203 40 000 0 |
| 209 | Насос масляный педальный (смазочный шприц)                                    | 8205 59 809 9 |
| 210 | Шпатель для кожи  | 8205 59 909 9 |
| 211 | Ножницы   | 8213 00 000 0 |
| 212 | Металлические скобы для изготовления обуви                                    | 8305 20 000 0 |
| 213 | Крючки, колечки и блочки  | 8308 10 000 0 |
| 214 | Пряжки, пряжки-застежки, застежки декоративные металлические                  | 8308 90 000 0 |
| 215 | Водяной насос, насос центробежный одноступенчатый.                            | 8413 70 810 0 |
| 216 | Иглы швейные  | 8452 30 000 0 |
| 217 | Шлифовальная машина   | 8453 10 000 0 |
| 218 | Шлифовальный станок   | 8453 10 000 0 |
| 219 | Части для обувного и кожевенно-перерабатывающего оборудования                 | 8453 90 000 0 |
| 220 | Прессформы для литья резины и пластмасс,<br>Прессформы для производства обуви | 8480 71 000 0 |
| 221 | Камеры для мячей  | 9506 69 900 0 |
| 222 | Кнопки-зашелки  | 9606 10 000 0 |

”.

**12.** Вазирлар Маҳкамасининг 2009 йил 28 январдаги “Енгил саноат маҳсулотлари ярмарка савдосини ташкил этиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги 25-сон қарори ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

**13.** Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 17 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Енгил саноатни ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 729-сон қарори 4-илоvasи 19-бандининг йигирма еттинчи хатбоши қуйидаги таҳрирда баён этилсин:

“Бунда ушбу бандда назарда тутилган йўналишлар (кўргазма-ярмарка тадбирларида иштирок этиш, хорижий мамлакатларда бўлиб ўтадиган ўқув-семинар, бизнес-семинар, тренинг, савдо миссиялари ва бизнес-форумларда иштирок этиш, мутахассисларни ўқитиш ва савдо уйлари очиш ва сақлаш, офис, савдо ва омбор биноларини ижарага олиш билан боғлиқ чет элдаги харажатларни қоплаб бериш йўналишлар бундан мустасно) бўйича тадбиркорлик субъектларининг ихтиёрига кўра товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб берувчи (бажарувчи, кўрсатувчи)лар билан тўғридан-тўғри шартнома тузилиб, харажатлар амалга оширилган ҳолатларда молиявий ёрдам миқдорларидан келиб чиқиб 2028 йил 1 январга қадар 100 фоиз миқдорда ва 2028 йил 1 январдан бошлаб:”.





## О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2026 yil «12» январь

№ ПҚ–5

### “Фарғона” туристик-рекреацион зонасини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида

Фарғона туманининг туризм салоҳиятидан самарали фойдаланиш, тоғли ҳудудларнинг захира имкониятларини ишга тушириш, аҳолини хизмат кўрсатиш ва тадбиркорлик фаолиятига кенг жалб қилиш, тумanning инвестициявий жозибадорлигини ошириш, туристлар ва тадбиркорлик субъектлари учун инфратузилма яратиш, мастер режа асосида хизмат кўрсатиш мажмуаларини ташкил қилиш, халқаро курорт зонасини ривожлантириш ҳамда янги иш ўринларини яратиш мақсадида қарор қиламан:

#### I. Туристик зона ташкил этиш

1. Фарғона вилояти ҳокимлиги ва Туризм қўмитасининг қуйидаги таклифларига **розилик берилсин:**

(а) умумий майдони **2 396 гектар** бўлган, **1-иловадаги** лойиҳаларни ўз ичига олувчи **“Фарғона” туристик-рекреацион зонасини** (кейинги ўринларда – Туристик зона) ташкил этиш;

(б) Фарғона вилояти ҳокимлиги ҳузуридаги **“Шоҳимардон – Ёрдон”** туризмни ривожлантириш дирекцияси фаолияти тугатилиб, унинг негизида Фарғона вилояти ҳокимлиги ҳузурида давлат муассасаси шаклида **“Фарғона” туристик-рекреацион зонаси** дирекцияси (кейинги ўринларда – Дирекция) фаолиятини йўлга қўйиш;

- (в) Фарғона вилоятининг туристик салоҳиятга эга бошқа ҳудудларини, шу жумладан, лойиҳаларни Дирекция маъмурий-хўжалик бошқарувиغا бериш;
- (г) Фарғона вилояти Ёзёвон туманида жойлашган Фарғона давлат ўрмон хўжалиги ҳудудида ер тоифасини ўзгартирмаган ҳолда 20 гектар ер майдонида экотуризм маскани ва овчилик хўжалигини ташкил этиш учун инвестор жалб этиш. Бунда инвесторга ҳудудда жойлашган Ёзёвон табиий ёдгорлиги атрофини сим тўсиқ билан ўраш орқали ов қилиш учун ёпиқ бўлган ёввойи ҳайвонларни такрор кўпайтириш участкасини ташкил этиш мажбуриятини белгилаш.

## 2. Қўйидагилар:

(а) Туристтик зона чегараларининг тавсифи:

- (i) “Шоҳимардон – Ёрдон” умуммавсумий халқаро курорт зонаси бўйича 1.1-иловага мувофиқ;
- (ii) “Чимён” санаторий-курорт зонаси бўйича 1.2-иловага мувофиқ;
- (iii) “Водил” агротуризм кластери бўйича 1.3-иловага мувофиқ;
- (iv) “Аввал” кўнгилочар туризм мажмуаси бўйича 1.4-иловага мувофиқ;

(б) Туристтик зонани ривожлантириш, муҳандислик-коммуникация тармоқларини барпо этиш, манзилли ва истиқболли инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш бўйича:

- (i) “Фарғона” туристик-рекреацион зонасини ривожлантириш чора-тадбирлари дастури 2-иловага мувофиқ;
- (ii) 2026–2028 йилларда “Фарғона” туристик-рекреацион зонаси учун зарур муҳандислик-коммуникация тармоқларини барпо этиш бўйича манзилли дастур 3-иловага мувофиқ;
- (iii) 2026–2029 йилларда “Фарғона” туристик-рекреацион зонаси ҳудудида амалга ошириладиган инвестиция лойиҳалари рўйхати 4-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

### 3. Белгилаб қўйилсинки:

- (а) Туристик зона фаолият кўрсатиш муддатини кейинчалик узайтириш имконияти билан **30 йилга ташкил қилинади** ва ушбу давр мобайнида:
- (i) Туристик зонага ташқи муҳандислик-коммуникация тармоқларини тортиш, йўлларни қуриш ва таъмирлаш, инфратузилма объектларини ташкил қилиш билан боғлиқ харажатлар Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастури доирасида ажратилган маблағлар ҳамда қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан қопланади;
  - (ii) Туристик зона инфратузилмасининг қурилишини молиялаштириш харажатлари белгиланган тартибда тасдиқланган **лойиҳа-смета ҳужжатлари асосида амалга оширилади**;
- (б) Туристик зонада қуриладиган объектлар ҳудудига қадар ташқи муҳандислик-коммуникация тармоқларини етказиб бериш, кўчириш ҳамда зарур инфратузилмани яратиш мақсадида тасдиқланган лойиҳа-смета ҳужжатларига мувофиқ қуйидагилар:
- (i) **электр тармоқларини қуриш ишлари** – “Ҳудудий электр тармоқлари” АЖ;
  - (ii) **ичимлик ва оқова сув тизимини қуриш ишлари** – “Ўзсувтаъминот” АЖ таркибидаги “Сув таъминоти ва оқова сув объектлари қурилиши бўйича инжиниринг компанияси” УК;
  - (iii) **алоқа ва интернет тармоқларини қуриш ишлари** – “Ўзбектелеком” АК;
  - (iv) **автомобиль йўлларини қуриш ва таъмирлаш ишлари** – Автомобиль йўллари қўмитасининг тизим корхоналари буюртмачилигида амалга оширилади;
- (в) Туристик зонадаги туристик инфратузилмани яратиш имконияти бўлган ер участкалари кейинчалик самарали фойдаланиш ва (ёки) инвесторларга реализация қилиш учун **доимий фойдаланиш ҳуқуқи** билан **Дирекцияга ўтказилади** ва ушбу ер участкаларини:

- (i) реализация қилишдан ва ижарага беришдан келиб тушган маблағлар аукцион харажатлари чегириб ташланган ҳолда Дирекциянинг шахсий ҳисобварағига ўтказилади;
  - (ii) реализация қилишдан тушган маблағлар (савдога чиқариш ва сотиш билан боғлиқ харажатлардан ташқари) тўлиқлигича **Дирекцияга йўналтирилади;**
  - (iii) реализация қилишдан тушган маблағлар Дирекция фаолиятини молиялаштириш ҳамда тоғ туризми лойиҳаларини амалга ошириш, шу жумладан, **муҳандислик-коммуникация тармоқларини қуриш ва таъмирлаш чора-тадбирларини молиялаштиришга йўналтирилади;**
- (г) Туристлик зона ҳудудида туристик объектларни қуриш ва улардан фойдаланиш, ушбу объектларнинг Туристлик зонанинг бош режасига мувофиқлиги Дирекция томонидан назорат қилинади.

## II. Туристлик зонада замонавий туризм инфратузилмасини барпо этиш

4. Фарғона вилояти ҳокимлиги Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси, Туризм қўмитаси, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Кадастр агентлиги ҳамда манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда:

(а) Туристлик зонада туристик инфратузилмани яратиш мақсадида:

- (i) **икки ой муддатда** Туристлик зона ҳудудидаги ер участкалари, бино ва иншоотлар ҳамда дарахт ва буталар тўлиқ хатловдан ўтказилишини, мавжуд дарахт ва буталар белгиланган тартибда муҳофазага олинишини;
- (ii) **уч ой муддатда** ер участкалари олиб қўйилиши ва (ёки) бино ҳамда иншоотлари бузилиши натижасида мулкдорларга етказилдиган зарарлар миқдорига аниқлик киритилишини;
- (iii) баҳолаш ишларини ташкил этиш учун зарур ҳужжатлар, шу жумладан ер участкасига бўлган ҳуқуқларнинг давлат рўйхатидан ўтказилганлигини тасдиқловчи ҳужжатлар тўплами тайёрланиши, баҳоловчи ташкилотлар жалб қилиниши ва баҳолаш тўғрисидаги ҳисоботлар экспертизадан ўтказилишини;

(iv) ер участкалари олиб қўйилишидан аввал мулкдорларга компенсация тўловлари тўлиқ ҳажмда тўлаб берилишини таъминласин. Бунда:

ер участкалари эгаларига етказилган зарар қонунчиликда белгиланган тартибда қоплаб берилади;

Туристлик зона ҳудудида амалга ошириладиган лойиҳалар учун ажратиладиган ер участкаларида қишлоқ хўжалиги ва ўрмон хўжалиги ишлаб чиқариши нобудгарчиликлари ўрнини қоплаш бўйича компенсация тўловлари лойиҳа ташаббускорлари томонидан қоплаб берилади;

**(б) 2026 йил 1 мартга қадар** Туристлик зонанинг батафсил режалаштириш лойиҳалари, **2026 йил 1 апрелга қадар** Дирекция томонидан Туристлик зонани ривожлантириш мастер режаси қўйидагиларни назарда тутган ҳолда ишлаб чиқилиши ва тасдиқланишини **таъминласин:**

(i) Туристлик зона ҳамда уни бошқа ҳудудлар билан боғловчи йўлларда махсус пиёдалар ва велосипед йўлакларини белгилаш;

(ii) электромобиллар ва бошқа турдаги транспорт воситалари (қувват олувчи гибрид транспорт воситалари) учун қувватланиш станциялари нуқталарини белгилаш;

(iii) ҳудудда ўрнатилган тартибда аэронавигация воситалари ва кичик сиғимдаги ҳаво кемалари (вертолётлар) учун учиш-қўниш майдончаларини, шунингдек, замонавий дор йўлларини жойлаштиришни белгилаш;

(iv) спортнинг экстремал турлари (парапланлар ва дельтапланлар), шу жумладан, зиплайн, фотосуратлар олиш учун манзарали жойларда селфи зоналар каби объектларни жойлаштириш;

(v) йўл кўрсаткичлари ва санитария-гигиена шохобчаларини жойлаштириш;

(vi) туристик, ижтимоий, хизмат кўрсатиш ва саноат объектларини барпо этиш жойлари, транспорт-логистика йўналишларини белгилаш;

- (vii) қаттиқ маиший чиқиндиларни ташлаш, уларни йиғиш нуқталарини белгилаш ва ташиб кетиш йўналишларини кўрсатиш;
  - (viii) қуриладиган пиёдалар йўлакчалари бўйида тунги ёритиш чироқлари (қуёш панелли) ўрнатиш нуқталарини белгилаш;
  - (ix) тадбиркорлик ва ишбилармонлик тадбирларини (MICE туризм) ўтказишга мўлжалланган конгресс холл, инвесторларни жалб қилишга қаратилган “Investor show room”, шунингдек, туристларга хизмат кўрсатишга мўлжалланган “Visitor center” жойларини белгилаш;
  - (x) туристик кўчаларни, шу жумладан, замонавий сувенир ва озиқ-овқат маҳсулотлари савдоси, овқатланиш объектлари жойлашувини белгилаш;
- (в) **икки ой муддатда** Туристик зона фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари юзасидан Ҳукумат қарори лойиҳасини белгиланган тартибда Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

5. Белгилансинки, Туристик зона ҳудудидаги **291 гектар ер майдони** учун дастлабки **мастер режа** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 8 июлдаги “Ҳудудларнинг иқтисодий салоҳиятини рўёбга чиқариш ва бўш ер участкаларидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–245-сон **қарорига мувофиқ ишлаб чиқилади.**

6. Фарғона вилояти ҳокимлиги **бир ой муддатда** Дирекция фаолиятини ташкил қилиш, шу жумладан, унинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, жойлаштириш, асосий воситалар, анжомлар ва транспорт воситалари билан таъминлаш учун қонунчиликда тақиқланмаган манбалар ҳисобидан зарур маблағларни ажратсин.

### III. Туристик зонада туризм хизматларини ривожлантириш

7. Фарғона вилояти ҳокимлиги (Х.Бозаров):

(а) Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ва Дирекция билан биргаликда:

(i) **икки ой муддатда** Фарғона тумани Туристик зона ҳудуди доирасида **5-иловада** белгиланган ер участкаларининг ер фонди тоифаларини ўзгартириш масаласини кўриб чиқиш юзасидан Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ва ўрмон фонди ерларининг ер фонди тоифаларини ўзгартириш масалаларини кўриб чиқиш бўйича Ҳукумат комиссиясига таклиф киритсин;

(ii) Фарғона туманида **“Водил” малина агротуризм кластерини** туристик объектга айлантириш учун зарур инфратузилмани яратсин ва салоҳиятли тадбиркорларни жалб этган ҳолда малина боғлари (плантациялари) ҳудудида енгил конструкцияли хизмат кўрсатиш объектларини ташкил қилсин;

**(б) 2026–2027 йилларда** Ёзёвон тумани Марказий Фарғона сув омбори атрофидаги ер майдонларида туризм хизматларини ташкил қилиш орқали иш ўринларини яратсин.

8. Фарғона вилояти ҳокимлиги, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги ва “Туронбанк” АТБнинг:

**(а) Фарғона тумани “Саноат” ва “Ҳосилот” МФЙ ҳудудларида хорижий мамлакатларнинг ижобий тажрибаси асосида** малина плантацияларини ташкил қилиш, музлаткичлар ва чуқур қайта ишлаш цехларини қуриш орқали **агротуризм хизматларини** йўлга қўйиш;

**(б) Фарғона тумани ҳокимлиги захирасидаги 25 гектар ер майдонини “Туронбанк” АТБга қонунчиликда белгиланган тартибда 30 йилга ижара ҳуқуқи асосида бериш;**

**(в) “Туронбанк” АТБ ушбу ер майдонида томчилатиб суғориш технологияси ёрдамида малина плантацияларини ташкил қилиб, ишсизлар, камбағал оилаларга 15 сотихдан 5 йил муддатга белгиланган тартибда бизнес ижараси асосида ажратиш чораларини кўриши тўғрисидаги таклифлари маъқуллансин.**

#### **IV. Туристтик зонанинг инвестициявий жозибадорлигини ошириш**

9. Туризм қўмитаси ва Фарғона вилояти ҳокимлиги:

**(а) Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги билан биргаликда:**

**(i) Туристтик зона ҳудудида туристик инфратузилма объектларини барпо этиш, шу жумладан, икки босқичда Шоҳимардон–Ёрдон ва Ёрдон–Дугоба йўналишларида замонавий кабинали дор йўллари, осма кўприк, зиплайнни лойиҳалаштириш ва қуриш учун нуфузли ташкилотларни, салоҳиятли хорижий ва маҳаллий инвесторларни жалб қилиш;**

(ii) истиқболли лойиҳалар портфелини шакллантириш, Туристик зона ҳудудида, биринчи навбатда, йўл-транспорт инфратузилмаси ҳамда коммуникация тармоқларини ривожлантириш учун халқаро молия институтларининг имтиёзли кредитлари ва грантларини жалб қилиш чораларини кўрсин;

(б) Ташқи ишлар вазирлиги ҳамда Маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармаси билан биргаликда **2026 йил 1 мартга қадар** Туристик зона **брендни** яратиб, республика ҳудудида ҳамда хорижий давлатларда кенг тарғиб қилиш чораларини кўрсин;

(в) Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси, Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги билан биргаликда **икки ой муддатда** Туристик зонадаги объектларнинг қурилишига салоҳиятли инвесторларни жалб этиш мақсадида ушбу ҳудудларнинг туристик жозибадорлиги ва имкониятларига оид видеоролик ва тарғибот материалларини тайёрлаб, медиарежага мувофиқ маҳаллий ва хорижий оммавий ахборот воситаларида кенг ёритиб борсин;

(г) алоҳида режа-график асосида Туристик зона ҳудудида тадбиркорлик субъектлари ва аҳоли учун меҳмондўстлик ва хизмат кўрсатиш этикаси бўйича, шу жумладан, масофавий ўқув семинарларини ташкил этсин.

**10.** Фарғона вилояти ҳокимлиги Фавқулудда вазиятлар вазирлиги, Сув хўжалиги вазирлиги, Туризм қўмитаси ва Энергетика вазирлиги билан биргаликда **икки ой муддатда** қуйидагиларни назарда тутувчи **чора-тадбирлар дастурини** ишлаб чиқиб, Вазирлар Маҳкамасига тасдиқлаш учун киритсин:

(а) “Шоҳимардон” ва “Ёрдон” МФЙ ҳудудидан оқиб ўтадиган Шоҳимардонсойнинг қирғоқлари ва ўзанларини мустаҳкамлаш, шу жумладан, туризм объектлари ва аҳоли яшаш пунктларини сел хавфидан ҳимоялаш;

(б) “Шоҳимардон” ва “Ёрдон” МФЙдаги аҳолига хизмат кўрсатиш объектларидан чиқадиган маиший чиқиндиларни режа-график асосида ташиш хизматини йўлга қўйиш;

- (в) аҳолини суюлтирилган газ билан узлуксиз таъминлаш учун “Шоҳимардон” МФЙ Порсин кўчасида жойлашган Давлат активларини бошқариш агентлиги балансидаги (собиқ “Водийгазтаъминот” УК) дам олиш маскани ҳудудида бўш турган 30 сотих ер майдонини “Ҳудудгаз Фарғона” газ таъминоти филиали балансига мулк ҳуқуқи асосида ўтказиш ва “Ҳудудгазтаъминот” АЖ маблағлари ҳисобидан газ тўлдириш шохобчасини қуриш;
  - (г) “Аввал” ва “Мозортаги” МФЙлар ҳудудида 4 км узунликда канализация тармоғини тортиш;
  - (д) Туристик зонада энергия сақлаш ва қайта тикланувчи энергия манбалари қурилмаларини (мини ва микро қуёш станциялари) қуриш;
  - (ж) аҳоли ва бошқа истеъмолчиларни (тиббий муассасалар, меҳмонхоналар ва туризм объектлари) электр энергияси билан узлуксиз таъминлаш учун подстанция, трансформаторлар ва тармоқларни мослаштириш;
  - (з) Туризм ахборот марказини ташкил қилиш, туризм харитасини ва йўл белгиларини ўрнатиш.
- 11.** Ташқи ишлар вазирлиги, Давлат хавфсизлик хизмати Чегара қўшинлари ва Божхона қўмитаси Фарғона туманининг “Водил” ва “Оққия” чегара ўтказиш пунктларига халқаро мақом бериш масаласида таклифлар ишлаб чиқишда Шоҳимардон, Ёрдон қишлоқларига ҳамда Қурбон кўли ва “Дугоба” дам олиш масканига ташриф буюрувчиларнинг тўсиқсиз ўтишларини таъминлашни назарда тутсин.
- 12.** Ички ишлар вазирлиги (А.Ташпулатов):
- (а) Фарғона вилояти ҳокимлиги билан биргаликда 2026–2028 йилларда Туристик зонада Хавфсиз туризмни таъминлаш концепцияси доирасида “Хавфсиз туризм” аппарат-дастурий комплексини тўлиқ жорий этиш бўйича ташкилий-техник тадбирларни амалга оширсин;
  - (б) Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда ички ишлар бўлимининг бино-иншоотлари ҳолатини ва моддий-техника таъминотини замонавий ечимларни татбиқ этиш орқали тубдан яхшилашга қаратилган дастур ишлаб чиқиб, 2026–2028 йиллар давомида Ички ишлар вазирлигининг бюджетдан ташқари маблағлари ва қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан амалга ошириш чораларини кўрсин.

**13.** Туристик зонада объектларни лойиҳалаш, қуриш ва жиҳозлаш ишларини амалга ошириш доирасида хорижий ташкилотлар вакиллари, инвесторлар ҳамда хорижий мутахассисларни жалб этиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш мақсадида Дирекция буюртманомалари асосида қисқа муддатда:

**(а) Ташқи ишлар вазирлиги** — жалб қилинадиган хорижий мутахассислар ҳамда уларнинг оила аъзолари учун кириш визалари белгиланган тартибда расмийлаштирилишини;

**(б) Ички ишлар вазирлиги** — жалб қилинадиган хорижий мутахассислар, шунингдек, уларнинг оила аъзолари учун кўп марталик визалар расмийлаштирилиши, берилиши (муддати узайтирилиши) ҳамда вақтинча турган жойи бўйича рўйхатдан ўтказилишини (муддати узайтирилишини);

**(в) Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги** — хорижий мутахассисларга (Ўзбекистон Республикаси фуқаролари орасида бундай мутахассислар бўлмаган тақдирда) республика ҳудудида меҳнат фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқи учун тасдиқномалар берилишини (муддати узайтирилишини) таъминласин.

**14.** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 16 декабрдаги “Фарғона вилоятини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш ҳамда инвестиция ва тадбиркорлик муҳитини янада яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–440-сон қарорининг 14-банди “б” кичик банди ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

## **V. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат қилиш**

**15.** Қарор ижросини самарали ташкил қилишнинг қуйидаги тартиби белгилансин:

**(а)** қарор ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Туризм қўмитаси раиси **А.Ў. Аққулов** ҳамда Фарғона вилояти ҳокими **Х.Х. Бозаров** белгилансин;

**(б)** Туристик зонани ривожлантириш, муҳандислик-коммуникация тармоқларини барпо этиш, манзилли ва истиқболли инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш доирасида қуйидагилар **масъул этиб** белгилансин:

(i) **Фарғона вилояти ҳокимлиги** (Х.Бозаров), **Туризм қўмитаси** (А.Аққулов), **Транспорт вазирлиги** (И.Махкамов), **Энергетика вазирлиги** (Ж.Мирзамаҳмудов), **“Ўзсувтаъминот” АЖ** (А.Сувонқулов) Туристик зона инфратузилмасини ривожлантириш ҳамда муҳандислик-коммуникация тармоқларини барпо этишга;

(ii) **Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги** (Л.Кудратов) манзилли ва истиқболли инвестиция лойиҳаларини амалга оширишга;

(iii) **Марказий банк** (Т.Ишметов) ва **Иқтисодиёт ва молия вазирлиги** (И.Норқулов) Туристик зонага тижорат банклари, халқаро молия институтлари ва донор мамлакатларнинг имтиёзли кредитлари ва молиявий ресурсларини манзилли жалб этишга;

(в) қарор ижроси натижаларини **ҳар чоракда** танқидий муҳокама қилиш ва Туристик зонани ривожлантириш чораларини белгилаб бориш Бош вазир ўринбосарлари А.Ж. Раматов, Ж.А. Қўчқоров ва Ж.А. Ходжаев зиммасига юклансин.

**16.** Ушбу қарор ижросини назорат қилиш ва ижро учун масъул ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси департамент бошлиғи Г.О. Умерова зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси  
Президенти**



**Ш. Мирзиёев**

Тошкент шаҳри

Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
2026 йил 12 январдаги ПҚ–5-сон қарорига  
1-илова

**“Фарғона” туристик-рекреацион зонаси лойиҳалари  
ТАРКИБИ**

| <b>Т/р</b>   | <b>Лойиҳанинг ихтисослиги (йўналиши)</b>                   | <b>Майдони (гектар)</b> |
|--------------|--|-------------------------|
| 1.           | “Шоҳимардон – Ёрдон” умуммавсумий<br>халқаро курорт зонаси | 924                     |
| 2.           | “Чимён” санаторий-курорт зонаси                            | 786                     |
| 3.           | “Водил” агротуризм кластери                                | 549                     |
| 4.           | “Аввал” кўнгилочар туризм мажмуаси                         | 137                     |
| <b>Жами:</b> |  | <b>2 396</b>            |

Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
2026 йил 12 январдаги ПҚ–5-сон қарорига  
1.1-илова

## **“Шоҳимардон – Ёрдон” умуммавсумий халқаро курорт зонаси чегараларининг тавсифи**

Фарғона вилоятининг Фарғона тумани “Шоҳимардон” МФЙ ҳудудида жойлашган “Шоҳимардон-Ёрдон” туристик маркази чегарасидаги автомобиль йўлининг чап томонида жойлашган нуқта бошланғич 1-нуқта деб қабул қилинди (WGS-84 координаталари тизимида шимолий кенглик координаталари  $N40^{\circ}00'28.7467''$ , шарқий узунлик координаталари  $E71^{\circ}47'34.0190''$ ).

**1-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб “Шоҳимардон-Ёрдон” автомобиль йўлининг чап томонига шимоли-шарқий йўналишда 874 метр масофадаги 2-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $40^{\circ}0'11.35''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}48'18.75''B$* ).

**2-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шарқий йўналишда 940 метр масофада тоғ чўққисидаги 3-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $39^{\circ}59'45.33''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}48'34.96''B$* ).

**3-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб шимоли-шарқий йўналишда 582,1 метр масофада тоғ чўққисидаги 4-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $39^{\circ}59'25.78''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}48'37.73''B$* ).

**4-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб шимоли-шарқий йўналишда 604 метр масофада тоғ чўққисидаги 5-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $39^{\circ}59'6.61''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}48'43.02''B$* ).

**5-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб шарқи-жанубий йўналишда 420,75 метр масофада тоғ чўққисидаги 6-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $N39^{\circ}57'27.0957$ , шарқий узунлик  $E71^{\circ}50'23.5924''$* ).

**6-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб жануби-ғарбий йўналишда 493,5 метр масофада тоғ чўққисидаги 7-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $39^{\circ}58'54.97''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}48'58.27''B$* ).

**7-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб шарқи-ғарбий йўналишда 134,1 метр масофада тоғ чўққисидаги 8-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $39^{\circ}58'51.72''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}48'53.46''B$* ).

**8-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб шарқи-ғарбий йўналишда 112 метр масофада тоғ чўққисидаги 9-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 39°58'49.04"С, шарқий узунлик 71°48'56.35"В*).

**9-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий ғарбий йўналишда 326.7 метр масофада тоғ чўққисидаги 10-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 39°58'47.65"С, шарқий узунлик 71°49'14.80"В*).

**10-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шимолий йўналишда 560 метр масофада тоғ чўққисидаги 11-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 39°58'38.18"С, шарқий узунлик 71°49'33.15"В*).

**11-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шимолий шарқий йўналишда 324,6 метр масофада тоғ чўққисидаги 12-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 39°58'31.58"С, шарқий узунлик 71°49'23.15"В*).

**12-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 264 метр масофада тоғ чўққисидаги 13-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 39°58'25.79"С, шарқий узунлик 71°49'31.69"В*).

**13-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 161 метр масофада 14-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 39°58'27.91"С, шарқий узунлик 71°49'37.76"В*).

**14-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 175,2 метр масофада 15-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 39°58'23.59"С, шарқий узунлик 71°49'43.42"В*).

**15-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 96 метр масофада 16-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 39°58'20.89"С, шарқий узунлик 71°49'41.66"В*).

**16-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 205 метр масофада 17-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 39°58'15.63"С, шарқий узунлик 71°49'46.84"В*).

**17-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 329 метр масофада 18-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 39°58'15.15"С, шарқий узунлик 71°49'59.50"В*).

**18-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 224 метр масофада 19-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 39°58'8.99"С, шарқий узунлик 71°49'52.99"В*).

**19-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 782 метр масофада 20-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}58'3.16''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}50'3.52''В$ ).

**20-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 1 200 метр масофада 21-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}57'41.26''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}50'32.69''В$ ).

**21-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 260 метр масофада 22-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}57'36.42''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}50'24.16''В$ ).

**22-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 290 метр масофада 23-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}57'27.00''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}50'28.48''В$ ).

**23-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 523 метр масофада 24-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}57'31.79''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}50'20.59''В$ ).

**24-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 1 340 метр масофада 25-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}58'4.64''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}49'46.15''В$ ).

**25-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 730 метр масофада 26-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}58'15.59''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}49'28.78''В$ ).

**26-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 253 метр масофада 27-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}58'20.71''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}49'19.72''В$ ).

**27-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 1 800 метр масофада 28-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}59'2.31''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}48'27.36''В$ ).

**28-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 1 020 метр масофада 29-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}58'29.07''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}48'10.11''В$ ).

**29-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 1 677 метр масофада 30-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}58'6.19''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}47'6.63''В$ ).

**30-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 1 329 метр масофада 31-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}57'43.26''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}46'19.12''В$ ).

**31-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 1 533 метр масофада 32-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}57'0.13''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}45'52.82''В$ ).

**32-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 2 104 метр масофада 33-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}56'11.95''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}44'48.87''В$ ).

**33-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 1 430 метр масофада 34-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}56'59.73''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}45'21.92''В$ ).

**34-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 783 метр масофада 35-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}57'17.66''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}45'41.00''В$ ).

**35-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 807 метр масофада 36-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}57'36.73''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}45'16.43''В$ ).

**36-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 1 993 метр масофада 37-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}58'10.76''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}46'33.54''В$ ).

**37-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 3 010 метр масофада 38-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}59'8.68''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}48'15.63''В$ ).

**38-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 1 223 метр масофада 39-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $39^{\circ}59'40.75''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}47'39.40''В$ ).

**39-нуқтадан** чегара чизиғи Шоҳимардон тоғлари ёнбағридан тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 472 метр масофада 1-нуқтага туташади (шимолий кенглик  $40^{\circ}0'19.37''С$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}47'28.15''В$ ).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
2026 йил 12 январдаги ПҚ–5-сон қарорига  
1.2-илова

### **“Чимён” санаторий-курорт зонаси чегараларининг тавсифи**

Фарғона вилоятининг Фарғона тумани “Лангар” МФЙ ҳудудида жойлашган “Чимён” санаторий-рекреацион курорт зонаси туристик маркази чегарасидаги автомобиль йўлининг чап томонида жойлашган нуқта бошланғич 1-нуқта деб қабул қилинди (WGS-84 координаталари тизимида шимолий кенглик координаталари  $N40^{\circ}15'59.5336''$ , шарқий узунлик координаталари  $E71^{\circ}32'34.9147''$ ).

**1-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб автомобиль йўлининг чап томонидан ғарбдан-шарқ йўналишда 4 781,2 метр масофадаги 2-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $40^{\circ}15'59.00''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}35'59.80''B$* ).

**2-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб ғарби-шарқий йўналишда 788,2 метр масофадаги 3-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $40^{\circ}16'12.20''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}36'27.67''B$* ).

**3-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб шимоли-жанубий йўналишда 1 685,3 метр масофадаги 4-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $N40^{\circ}15'28.3787''$ , шарқий узунлик  $E71^{\circ}36'54.4050''$* ).

**4-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб шарқи-ғарбий йўналишда 530,2 метр масофадаги 5-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $40^{\circ}16'2.06''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}36'46.19''B$* ).

**5-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб шарқи-ғарбий йўналишда 853 метр масофадаги 6-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $40^{\circ}15'30.75''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}36'45.27''B$* ).

**6-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб шарқи-ғарбий йўналишда 413 метр масофадаги 7-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $40^{\circ}15'22.76''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}36'30.80''B$* ).

**7-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 831,2 метр масофадаги 8-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $40^{\circ}15'19.42''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}35'56.25''B$* ).

**8-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 370 метр масофадаги 9-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $40^{\circ}15'7.76''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}35'55.63''B$* ).

**9-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 296 метр масофадаги 10-нуқтага туташади (*шимолий кенглик  $40^{\circ}15'6.15''C$ , шарқий узунлик  $71^{\circ}35'43.22''B$* ).

**10-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 284 метр масофадаги 11-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°14'57.34"С, шарқий узунлик 71°35'43.01"В*).

**11-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 242 метр масофадаги 12-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°14'53.55"С, шарқий узунлик 71°35'52.07"В*).

**12-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 250 метр масофадаги 13-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°14'45.46"С, шарқий узунлик 71°35'51.97"В*).

**13-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 475 метр масофадаги 14-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°14'56.58"С, шарқий узунлик 71°35'38.41"В*).

**14-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 802 метр масофадаги 15-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°15'5.73"С, шарқий узунлик 71°35'7.02"В*).

**15-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 164 метр масофадаги 16-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°15'0.56"С, шарқий узунлик 71°35'10.07"В*).

**16-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 463 метр масофадаги 17-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°14'57.57"С, шарқий узунлик 71°34'50.67"В*).

**17-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 85 метр масофадаги 18-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°14'54.69"С, шарқий узунлик 71°34'49.96"В*).

**18-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 145 метр масофадаги 19-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°14'54.55"С, шарқий узунлик 71°34'43.48"В*).

**19-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 172,3 метр масофадаги 20-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°14'58.74"С, шарқий узунлик 71°34'43.52"В*).

**20-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 310,1 метр масофадаги 21-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°15'0.44"С, шарқий узунлик 71°34'31.15"В*).

**21-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 608 метр масофадаги 22-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°15'19.12"С, шарқий узунлик 71°34'24.28"В*).

**22-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 1 540,1 метр масофадаги 23-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°15'12.64"С, шарқий узунлик 71°33'19.39"В*).

**23-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 512 метр масофадаги 24-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°15'28.95"С, шарқий узунлик 71°33'21.92"В*).

**24-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 492 метр масофадаги 25-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°15'35.02"С, шарқий узунлик 71°33'2.76"В*).

**25-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 449 метр масофадаги 26-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°15'39.59"С, шарқий узунлик 71°32'44.44"В*).

**26-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 209 метр масофадаги 27-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°15'40.10"С, шарқий узунлик 71°32'35.32"В*).

**27-нуқтадан** чегара чизиғи тўғри чизиқ бўйлаб жануби-шимолий йўналишда 574 метр масофадаги 1-нуқтага туташади (*шимолий кенглик 40°15'58.89"С, шарқий узунлик 71°32'35.54"В*).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
2026 йил 12 январдаги ПҚ–5-сон қарорига  
1.3-илова

### **“Водил” агротуризм кластери чегараларининг тавсифи**

| 78  | Охунов Иброхимжон Содикжонович         | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 79  | Қайнарова Муножатхон Холмахамадова     | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 80  | Тешабоев Дилшоджон Муминович           | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 81  | Асқаров Ёркинжон Абдуллаевич           | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 82  | Қобилжонов Саиджамол Холиқжон ўғли     | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 83  | Нематжоннова Гулзодаҳон Абдурахимовна  | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 84  | Хамралиев Орифжон Амонжонович          | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 85  | Мадалиева Дилрабо Бахромовна           | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 86  | Эминова Мафтуна Ғафоровна              | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 87  | Атаджоннова Нафиса Сохижоннова         | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 88  | Умаралиева Хуснидаҳон Усмонали қизи    | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 89  | Нишонбоева Зулфира Облоберди қизи      | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 90  | Қобилжонов Ёдгаржон Қобилжон ўғли      | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 91  | Хайитова Гулзода Низомиддиновна        | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 92  | Дадабоев Улугбек Абдубаннопович        | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 93  | Рахимова Муаттар Ярдмжон қизи          | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 94  | Эминова Умидаҳон Усмоналиевна          | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 95  | Эминова Умидаҳон Усмоналиевна          | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 96  | Умирзаков Исмаилов Турсунбоевич        | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 97  | Зиёбидинов Абдуғани Турдиматович       | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 98  | Абдусуфонов Шерзод Шерматиллоевич      | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 99  | Рузиева Фотима Исмоиловна              | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 100 | Азимова Гулбахор Махмудовна            | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 101 | Мирзарайимов Азаматжон Турсуналиевич   | деҳқон хўжалиги | 892           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 102 | Тожибоев Дониёржон Абдуҷаббор ўғли     | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 103 | Ахмадалиев Дилшоджон Рахимжонович      | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 104 | Мамажонов Бахтиёр Валижонович          | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 105 | Тожибоев Комилжон Орифжон ўғли         | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 106 | Бутабоев Махсуджон Мадаминович         | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 107 | Муқаддасов Абдувоҳид Абдулазиз ўғли    | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 108 | Муқаддасов Абдуҷалил Абдулазиз ўғли    | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 109 | Эшимов Ниятжон Мухирдин ўғли           | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 110 | Қодирбердиев Мақсаджон Хаётжон ўғли    | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 111 | Мадрахимов Бобомурод Ахмадович         | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 112 | Ортиқов Фахриёр Абдусаттор ўғли        | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 113 | Зокиров Халимжон Умаржон ўғли          | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 114 | Сайдуллаев Шухратжон Убайдуллаевич     | деҳқон хўжалиги | 891           | 0,15                   | 0,2            |       |                          |            | 0,15                         |                  | 71                  |   |                                      |
| 115 | Иброҳимова Доноҳон Мухаммат қизи       | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 116 | Юлдашева Гулчехра Мўминовна            | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 117 | Зокиров Мухаммадсўф Мухсинжон ўғли     | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 118 | Лаълиев Икромжон Давронович            | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 119 | Суяров Мамиржон Муминжонович           | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 120 | Киргизова Мавлудаҳон Абдуламитовна     | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 121 | Рўзमतова Рашидаҳон Эргашовна           | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 122 | Тешабоев Охунжон Азимович              | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 123 | Тешабоев Охунжон Азимович              | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 124 | Тешабоев Охунжон Азимович              | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 125 | Нишоннова Гулчехра Абдурахимовна       | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 126 | Мусахоннова Сарвинозхон Раҳматжон қизи | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 127 | Собирова Мўяссархон Абдумўхторовна     | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |
| 128 | Бахромова Оқибатхон Эркиновна          | деҳқон хўжалиги | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                          |            | 0,16                         |                  | 61                  |   |                                      |

Саноат, транспорт, алоқа, мудофаа ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар

Туристтик-рекреацион зонани ташкил этиш учун

| Т/р                             | Ердан фойдаланувчилар номи                         | Йўналиши                 | Контур рақами | Умумий ер майдони (га) | Шундан:        |       |                           |              | Қишлоқ хўжалиги ерлари, жами | Бошқа ерлар (га) | Тупроқ бонитет бали | Ўзгартириш таклиф этилаётган ер фонди тоифаси                             | Таклиф этилаётган фойдаланиш мақсади        |
|---------------------------------|--|--------------------------|---------------|------------------------|----------------|-------|---------------------------|--------------|------------------------------|------------------|---------------------|---|---|
|                                 |  |                          |               |                        | экин ерлари    |       | кўп йиллик дарахтзор (га) | яйлов (га)   |                              |                  |                     |   |   |
|                                 |  |                          |               |                        | суғорилади-ган | лалми |                           |              |                              |                  |                     |   |   |
| 129                             | Умиржонов Махаматжон Мўминжонович                  | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                           | 0,16         |                              | 61               |                     |   |   |
| 130                             | Разаков Камолидин Машрабович                       | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                           | 0,16         |                              | 61               |                     |   |   |
| 131                             | Хомидова Озодахон Хамидиллоевна                    | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                           | 0,16         |                              | 61               |                     |   |   |
| 132                             | Мухаджонова Лазокатхон Тожибоевна                  | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,16                   | 0,2            |       |                           | 0,16         |                              | 61               |                     |   |   |
| 133                             | Минаматова Наргиза Абдурахмоновна                  | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,15                   | 0,2            |       |                           | 0,15         |                              | 61               |                     |   |   |
| 134                             | Бахромова Насибохон Курваналиевна                  | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,15                   | 0,2            |       |                           | 0,15         |                              | 61               |                     |   |   |
| 135                             | Ёрматова Раънохон Бакирджоновна                    | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,15                   | 0,2            |       |                           | 0,15         |                              | 61               |                     |   |   |
| 136                             | Яхудаева Санобар Мелибоевна                        | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,15                   | 0,2            |       |                           | 0,15         |                              | 61               |                     |   |   |
| 137                             | Ахмаджонов Авазбек Алижон ўғли                     | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,15                   | 0,2            |       |                           | 0,15         |                              | 61               |                     |   |   |
| 138                             | Рустамова Нафисахон Музарафовна                    | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,15                   | 0,2            |       |                           | 0,15         |                              | 61               |                     |   |   |
| 139                             | Умурзақова Махбуба Каримовна                       | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,15                   | 0,2            |       |                           | 0,15         |                              | 61               |                     |   |   |
| 140                             | Абдулазизов Қудратилло Рахматович                  | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,15                   | 0,2            |       |                           | 0,15         |                              | 61               |                     |   |   |
| 141                             | Уринбаева Мадина Рахимжоновна                      | деҳқон хўжалиги          | 905           | 0,15                   | 0,2            |       |                           | 0,15         |                              | 61               |                     |   |   |
|                                 | <b>Жами</b>  |                          | <b>5 та</b>   | <b>20,32</b>           | <b>20,3</b>    |       |                           | <b>20,32</b> |                              |                  |                     |   |   |
| <b>Бўш ер майдонлари</b>        |  |                          |               |                        |                |       |                           |              |                              |                  |                     |   |   |
| 142                             | "Ю.Водил" қишлоғи ҳудуди, Фарғона тумани ҳокимлиги | стадион                  | 518           | 0,35                   |                |       |                           |              | 0,35                         |                  |                     | Саноат, транспорт, алоқа, муҳофаа ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар | Туристик-рекреацион зонани ташкил этиш учун |
| 143                             | "Водил" қишлоғи ҳудуди, Фарғона тумани ҳокимлиги   | стадион                  | 933           | 0,10                   |                |       |                           |              | 0,10                         |                  |                     |   |   |
|                                 | <b>Жами</b>  |                          | <b>2 та</b>   | <b>0,45</b>            |                |       |                           |              | <b>0,45</b>                  |                  |                     |   |   |
| <b>"Чимён", "Х.Хувайдо" МФЙ</b> |  |                          |               |                        |                |       |                           |              |                              |                  |                     |   |   |
| 144                             | Фарғона тумани ҳокимлиги                           | деҳқон хўжалиги          | 109           | 2,99                   | 3,0            |       |                           | 2,99         |                              | 77               |                     | Саноат, транспорт, алоқа, муҳофаа ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар | Туристик-рекреацион зонани ташкил этиш учун |
| 145                             | "ЧИМЁН КУЙИ АРЧА" ф/х                              | фермер хўжалиги          | 111, 114      | 12,68                  | 12,68          |       |                           | 12,68        |                              | 77               |                     |   |   |
| 146                             | "ХУРШИДБЕК СУЛТОНМУРОД ОТАБОЕВ" ф/х                | боғдорчилик              | 183, 205      | 2,07                   |                | 2,1   |                           | 2,07         |                              | 72               |                     |   |   |
| 147                             | "Дилижон Сарбон" ф/х                               | боғдорчилик              | 59, 60, 61    | 4,13                   |                | 1,20  |                           | 1,20         | 2,93                         | б-н              |                     |   |   |
| 148                             | "АХМЕДОВ АХЛИДДИН БОҒИ" ф/х                        | боғдорчилик              | 183қ          | 1,00                   |                | 1,0   |                           | 1,00         |                              | 72               |                     |   |   |
| 149                             | "Сой бўйи Мўйдинжон Файзи" ф/х                     | боғдорчилик              | 105, 104      | 6,18                   |                | 3,3   |                           | 3,29         | 2,9                          | 47               |                     |   |   |
| 150                             | "Боқижон ота" ф/х                                  | боғдорчилик              | 102қ          | 1,00                   |                |       |                           |              | 1,0                          | б-н              |                     |   |   |
| 151                             | "ЮСУФ ХАБИБИДДИН ОРЗУСИ" ф/х                       | боғдорчилик              | 208қ          | 2,10                   |                | 2,0   |                           | 2,00         | 0,1                          | 72               |                     |   |   |
| 152                             | "Сирожиддинов Илхом Боғлари" ф/х                   | боғдорчилик              | 180қ          | 4,80                   |                | 4,8   |                           | 4,80         |                              | 72               |                     |   |   |
| 153                             | "ЧИМЁН МЕВАЛАР РОХАТИ" ф/х                         | боғдорчилик              | 208қ          | 2,80                   |                | 2,8   |                           | 2,80         |                              | 72               |                     |   |   |
| 154                             | "СОБИР ОЙБЕК-ФОЗИЛОВ" ф/х                          | боғдорчилик              | 106қ, 183қ    | 4,06                   |                | 4,06  |                           | 4,06         |                              | 72-47            |                     | Саноат, транспорт, алоқа, муҳофаа ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар | Туристик-рекреацион зонани ташкил этиш учун |
| 155                             | "НУР-АЛИ" ф/х                                      | фермер хўжалиги          | 120           | 1,00                   | 1,0            |       |                           | 1,00         |                              | 77               |                     |   |   |
| 156                             | "АБДУСАТТОР ШАРОФИДДИН НОНВОЙ" ф/х                 | боғдорчилик              | 178           | 3,07                   | 2,81           |       |                           | 2,81         | 0,26                         | 77               |                     |   |   |
|                                 | <b>Жами</b>  |                          | <b>19 та</b>  | <b>47,88</b>           | <b>19,48</b>   |       | <b>21,22</b>              | <b>40,70</b> | <b>7,18</b>                  |                  |                     |   |   |
| <b>"Шифокор" МФЙ</b>            |  |                          |               |                        |                |       |                           |              |                              |                  |                     |   |   |
| 157                             | "Коинот кавсари олами" МЧЖ                         | ишлаб чиқариш объектлари | контурсиз     | 2,40                   |                |       |                           |              | 2,4                          | б-н              |                     | Саноат, транспорт, алоқа, муҳофаа ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар | Туристик-рекреацион зонани ташкил этиш учун |
|                                 | <b>Жами</b>  |                          |               | <b>2,40</b>            |                |       |                           |              | <b>2,4</b>                   |                  |                     |   |   |
| <b>"Х.Хувайдо" массиви</b>      |  |                          |               |                        |                |       |                           |              |                              |                  |                     |   |   |
| 158                             | Туман ҳокимлиги                                    | бўш ер майдони           | 295           | 0,20                   |                |       |                           |              | 0,2                          | б-н              |                     | Саноат, транспорт, алоқа, муҳофаа ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар | Туристик-рекреацион зонани ташкил этиш учун |
|                                 | <b>Жами</b>  |                          |               | <b>0,20</b>            |                |       |                           |              | <b>0,2</b>                   |                  |                     |   |   |

| Т/р                                | Ердан фойдаланувчилар номи       | Йўналиши                  | Контур рақами  | Умумий ер майдони (га) | Шундан:        |       |                           |            | Қишлоқ хўжалиги ерлари, жами | Бошқа ерлар (га) | Тупроқ бонитет бали | Ўзгартириш таклиф этилаётган ер фонди тоифаси                             | Таклиф этилаётган фойдаланиш мақсади        |
|------------------------------------|----------------------------------|---------------------------|--|------------------------|----------------|-------|---------------------------|------------|------------------------------|------------------|---------------------|---|---|
|                                    |                                  |                           |  |                        | экин ерлари    |       | кўп йиллик дарахтзор (га) | яйлов (га) |                              |                  |                     |   |   |
|                                    |                                  |                           |  |                        | сўғорилади-ган | лалми |                           |            |                              |                  |                     |   |   |
| <b>"Шоҳимардон", "Ёрдон" МФЙ</b>   |                                  |                           |  |                        |                |       |                           |            |                              |                  |                     |   |   |
| 159                                | "СОБИТЖОН ФАЙЗИ" ф/х             | сабзавотчилик-боғдорчилик | 151қ 152қ  | 1,10                   | 1,1            |       |                           |            | 1,10                         |                  | 50                  | Саноат, транспорт, алоқа, муҳофаа ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар | Туристик-рекреацион зонани ташкил этиш учун |
| 160                                | "ЁРДОН ХАСАНБОЙ РАСУЛ ЗАМИН" ф/х | боғдорчилик               | 150қ, 151қ, 152, 153, 171қ, 173, 174, 175, 176, 177қ | 13,30                  | 10,5           |       |                           |            | 10,50                        | 2,8              | 50                  |   |   |
| 161                                | "ДАДАБОЕВ БОЛТАБОЙ" ф/х          | боғдорчилик               | 173қ, 151қ   | 1,16                   | 0,50           |       | 0,60                      |            | 1,10                         | 0,06             | 50                  |   |   |
| 162                                | "ЁРДОН БУЊЁД ШЕРЗОД" ф/х         | боғдорчилик               | 146қ,147қ,154қ,171қ,190қ,168қ,186қ                   | 7,31                   |                |       | 6,10                      |            | 6,10                         | 1,21             | 50                  |   |   |
| 163                                | "АБДУЛЛОХ САИДЖОН ЗАМИНИ" ф/х    | боғдорчилик               | 177қ, 204, 205, 206, 207, 208                        | 4,90                   |                |       | 4,2                       |            | 4,20                         | 0,7              | 50                  |   |   |
| 164                                | "ЁРДОН ЁДГОРБОЙ НИШОҲБОЙ" ф/х    | боғдорчилик               | 163, 169   | 3,30                   |                |       | 2,7                       |            | 2,70                         | 0,6              | 50                  |   |   |
| 165                                | "ТОШПЎЛАТ" ф/х                   | боғдорчилик               | 145қ,148қ  | 5,60                   |                |       | 4,9                       |            | 4,90                         | 0,7              | 50                  |   |   |
| 166                                | "ЁРДОН МАРВАРИДИ" ф/х            | боғдорчилик               | 150, 151қ  | 2,30                   | 0,9            |       | 0,7                       |            | 1,60                         | 0,7              | 50                  |   |   |
|                                    | <b>Жами</b>                      |                           | <b>31 та</b>   | <b>38,97</b>           | <b>13,00</b>   |       | <b>19,20</b>              |            | <b>32,20</b>                 | <b>6,77</b>      |                     |   |   |
| <b>Бўш ер майдонлари</b>           |                                  |                           |  |                        |                |       |                           |            |                              |                  |                     |   |   |
| 167                                | Туман ҳокимлиги                  | Бўш ер майдони            | контур рақамисиз                                     | 0,15                   |                |       |                           |            |                              | 0,15             |                     | Саноат, транспорт, алоқа, муҳофаа ва бошқа мақсадларга мўлжалланган ерлар | Туристик-рекреацион зонани ташкил этиш учун |
|                                    | <b>Жами</b>                      |                           |  | <b>0,15</b>            |                |       |                           |            |                              | <b>0,15</b>      |                     |   |   |
| <b>Фарғона тумани бўйича жами:</b> |                                  |                           | <b>69 та</b>   | <b>167,68</b>          | <b>98,61</b>   |       | <b>45,54</b>              |            | <b>144,15</b>                | <b>23,53</b>     |                     |   |   |





## ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2026 yil « 15 » январь

№ ПҚ–9

### **Китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва аҳоли ўртасида китоб ўқишга қизиқишни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида**

Мамлакатимизда китоб ўқиш маданиятини кенг тарғиб қилиш, янги нашрлар ва таржималарни йўлга қўйиш ҳамда аҳоли орасида китобга қизиқишни кучайтириш, кутубхоналар ва таълим даргоҳларини касбий ва соҳавий адабиётлар билан таъминлаш мақсадида **қарор қиламан:**

#### **I. Асосий мақсад**

**1.** Ушбу қарорни қабул қилишдан кўзланган асосий мақсад этиб 2026 – 2030 йилларда аҳолининг китобхонлик даражаси (бир одам ўқийдиган китоб сони)ни йилига ўртача **10 та китобга** етказиш белгилансин.

#### **II. Китобхонлик маданиятини ривожлантириш ишларини ташкил этиш**

**2.** Ёшлар ишлари агентлиги ҳузурида юридик шахс мақомисиз **Китобхонлик маданиятини ривожлантириш жамғармаси** (кейинги ўринларда – Жамғарма) ташкил этилсин ва унинг васийлик кенгаши 1-иловага мувофиқ таркибда тасдиқлансин.

**3.** Жамғарма маблағларини шакллантириш манбалари 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин ва унинг маблағлари қуйидаги тадбирларни молиялаштириш учун йўналтирилиши белгилансин:

- (а)** танлов орқали ёш ёзувчилар учун **грантлар ажратиш** ва асарларини нашр этиш, **болалар адабиёти** йўналишидаги лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш;
  - (б)** танлов орқали **истеъдодли муаллифларни аниқлаш** ва уларга ижод қилиш учун шароит яратиш мақсадида бир йилгача базавий ҳисоблаш миқдорининг **50 баравари миқдорида ҳар ой ҳақ тўлаш**;
  - (в)** энг сара хорижий адабиётларни ўзбек тилига ва миллий адабиётларни хорижий тилларга таржима қилишда **нашрга тайёрлаш ва чоп этиш харажатларининг 50 фоизи ҳамда муаллифлик ҳуқуқи учун харажатларнинг 80 фоизини қоплаш**;
  - (г)** васийлик кенгаши аъзоларига **ҳар чоракда базавий ҳисоблаш миқдорининг 50 бараваригача миқдорда мукофот тўлаш**;
  - (д)** китобхонлик рейтингини шакллантириш билан боғлиқ харажатларни амалга ошириш.
- 4.** Иқтисодиёт ва молия вазирлиги **2026 йилдан бошлаб** Ўзбекистон Республикаси республика бюджетидан Ёшлар ишлари агентлигига китобларни таржима қилиш, нашрга тайёрлаш ва чоп этиш харажатлари учун **ҳар йили ажратиладиган маблағлар миқдорини 20 миллиард сўмга** етказсин ва уларнинг Жамғармага йўналтирилишини таъминлансин.
- 5.** Ёшлар ишлари агентлиги **бир ой муддатда** грантлар ажратиш, истеъдодли муаллифларни аниқлаш ва ўзбек тилига таржима қилиш учун энг сара хорижий адабиётларни танлаш тартибини тасдиқласин.
- 6.** Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ:
- (а)** Китобхонлик маданиятини ривожлантириш жамғармаси васийлик кенгаши (кейинги ўринларда – Кенгаш)нинг мажлислари бир ойда камида бир марта ўтказилади;
  - (б)** Жамғарма маблағлари Кенгаш қарорлари асосида ажратилади, бунда қарорлар Кенгаш аъзолари умумий сонининг **кўпчилик овози** билан қабул қилинади;
  - (в)** Кенгаш 3-иловага мувофиқ асосий вазифаларни амалга оширади.

### **III. Аҳоли ўртасида китоб ўқишга қизиқишни ошириш юзасидан амалга ошириладиган чора-тадбирлар**

#### **7. Белгилансинки, 2026 йил 1 февралдан бошлаб:**

- (а)** аҳоли, айниқса, ёшлар ўртасида китобхонликни тарғиб қилиш бўйича 4-иловага мувофиқ **“Китоб – маърифат манбаи”** дастури амалга оширилади;
- (б)** давлат органларининг китоб ва китобхонлик ҳақидаги рекламалари ижтимоий ахборот (реклама) сифатида тан олинади;
- (в)** транспорт инфратузилмаси объектлари ва транспорт воситаларида (автобус, метро, самолёт, поездлар) симсиз ёки мобил интернет тармоғи орқали **“Mutolaa”** платформасидан фойдаланиш имкониятлари яратилади, қулайлик учун QR кодлар ўрнатилади.

#### **8. Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги тизимидаги умумтаълим муассасаларида икки ой муддатда “Жадидлар изидан” китобхонлик клублари ташкил этилсин. Бунда:**

- (а)** “Жадидлар изидан” китобхонлик клуби аъзолари ўртасида китоб таҳлилига бағишланган дебатлар ўтказилади;
- (б)** мактабларда “Жадидлар изидан” клуби аъзоларига йилига камида **20 та китоб** ўқитиб борилади;
- (в)** ҳар чоракда туман(шаҳар) кесимида энг фаол “Жадидлар изидан” китобхонлик клублари аъзолари Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги томонидан рағбатлантирилади.

#### **9. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ барча вазирлик ва идораларда:**

- (а)** **2026 йил 1 мартга қадар** тегишли соҳа бўйича тавсия этиладиган касбий фаолиятга оид адабиётлар рўйхати шакллантирилади;

**(б) ҳар йили камида 3 тадан касбий фаолиятга оид хорижий адабиётларни маҳаллий нашриётлар орқали ўзбек тилига таржима қилиб, малакали мутахассислар иштирокида уларни изоҳлар, луғат ва мисоллар билан бойитиш амалиёти жорий этилади;**

**(в) 2026 йил 1 апрелга қадар ўзида ва тизимидаги ташкилотларда “Китоб бурчаги” ташкил этилади ва ходимлар учун ҳар ойда “Китоб ўқиш соати” йўлга қўйилади;**

**(г) китобхонлик бўйича ички рейтинг тизими жорий этилади;**

**(д) танлов асосида энг кўп китоб ўқиган ходимга Бюджет ташкилотлари ходимларини моддий рағбатлантириш махсус фонди ҳисобидан бир ойлик иш ҳақи миқдорида пул мукофоти берилади.**

**10. Ёшлар ишлари агентлиги вазирлик ва идоралар билан биргаликда икки ой муддатда энг кўп китоб ўқиган топ-100 таликка кирадиган ўқувчи ва талабаларни аниқлаш тартибини тасдиқласин. Бунда топ-100 таликка кирган ўқувчи ва талабаларнинг ҳар бирига Жамғарма маблағлари ҳисобидан базавий ҳисоблаш миқдорининг 25 баравари миқдорида пул мукофоти берилиши назарда тутилсин.**

**11. Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси Миллий кутубхона, Ёшлар ишлари агентлиги, Республика Маънавият ва маърифат маркази, Марказий банк билан ҳамкорликда 2026 йил давомида “Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар)” мақомини олган ҳудудларда намунали 330 та маҳалла кутубхоналари ташкил қилсин ҳамда йил якунида мазкур ташаббус кўламини кенгайтириш бўйича Вазирлар Маҳкамасига таклиф киритсин.**

#### **IV. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат**

**12. Ёшлар ишлари агентлиги икки ой муддатда:**

**(а) республика бўйича мавжуд барча кутубхоналарни тўлиқ хатловдан ўтказиш ва уларнинг ҳолатини яхшилаш, замонавий кўриниш бериш бўйича чора-тадбирлар дастурини;**

**(б)** манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

**13.** Мазкур қарорнинг ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Ёшлар ишлари агентлиги директори А.З. Саъдуллаев белгилансин.

**14.** Қарор ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси  
Президенти**



**Ш. Мирзиёев**

Тошкент шаҳри

Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
2026 йил 15 январдаги ПҚ–9-сон қарорига  
1-илова

**Китобхонлик маданиятини ривожлантириш жамғармаси  
васийлик кенгашининг**

**ТАРКИБИ**

1. А. Саъдуллаев — Ёшлар ишлари агентлиги директори, *Васийлик кенгаши раиси*
2. У.Тешабаева — Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси директори, *Васийлик кенгаши раисининг ўринбосари*
3. О. Давлатов — Ижтимоий-маънавий тадқиқотлар институти директори
4. Э. Асанов — Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Миллий археология маркази катта илмий ходими
5. Ш. Сагатова — адлия вазирининг маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, давлат тили тўғрисидаги қонун ҳужжатларига риоя этилишини таъминлаш масалалари бўйича маслаҳатчиси
6. Б.Каримов — Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети Адабиёт назарияси ва замонавий адабий жараён кафедраси мудир, филология фанлари доктори
7. Ҳ.Жумаев — АТ “Алоқабанк” матбуот котиби, муҳаррир
8. С.Олимов — Республика ёш ижодкорлар кенгаши ННТ “Мутолаа” лойиҳаси менежери
9. Ж.Аҳмедов — Болалар контентини ривожлантириш маркази директори
10. М.Абдуллаева — таржимон
11. Э.Норпўлатов — Ёшлар ишлари агентлиги бўлим бошлиғи, *Васийлик кенгаши котиби*

**Изоҳ:** Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси раҳбари *Васийлик кенгаши таркибига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳуқуқига эга.*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
2026 йил 15 январдаги ПҚ–9-сон  
қарорига 2-илова

**Китобхонлик маданиятини ривожлантириш жамғармаси  
маблағларини шакллантириш манбалари  
РЎЙХАТИ**

- 1. Ўзбекистон Республикасининг республика бюджетидан ажратиладиган маблағлар.**
- 2. Жамғарманинг вақтинча бўш маблағларини жойлаштиришдан олинладиган даромадлар.**
- 3. Жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳомийлик хайриялари.**
- 4. Халқаро молия институтлари ва бошқа хорижий донорларнинг грантлари.**
- 5. Қонунчиликда тақиқланмаган бошқа даромадлар.**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
2026 йил 15 январдаги ПҚ–9-сон қарорига  
3-илова

**Китобхонлик маданиятини ривожлантириш жамғармаси  
васийлик кенгашининг асосий вазифалари**

- 1. Илмий, тарихий, бадий ва илмий-оммабоп йўналишларда хорижий адабиётларни ўзбек тилига ва миллий адабиётларни хорижий тилларга таржима қилишда танловлар ўтказиш, энг сараларини танлаш ва молиялаштириш бўйича қарор қабул қилиш.**
- 2. Таржималарнинг ҳуқуқий асосларини таъминлаш ва муаллифлик ҳуқуқига риоя этилишини назорат қилиш.**
- 3. Ёш ёзувчилар учун грантлар ажратиш ва асарларини нашр этиш, танлов орқали истеъдодли муаллифлар номзодларини кўриб чиқиш ва уларга ижод қилиш учун қулай шароит яратишни молиялаштириш бўйича қарор қабул қилиш.**
- 4. Давлат органлари, нашриётлар, муаллифлар, илмий доиралар, китоб сотувчилари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари ўртасида самарали ҳамкорликни таъминлаш.**
- 5. Вазирлик ва идоралар томонидан мазкур қарор ижроси самарали ва ўз вақтида таъминланишини назорат қилиш.**
- 6. Қарор ижроси таъминлашда тўсиқ бўлаётган муаммоларни бартараф этиш бўйича таклифларни ишлаб чиқиш ҳамда Вазирлар Маҳкамасига ва ваколатли давлат органларига тақдим этиш.**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг  
2026 йил 15 январдаги ПҚ–9-сон қарорига  
4-илова

**“Китоб – маърифат манбаи”  
ДАСТУРИ**

| Т/р | Чора-тадбирлар номи   | Амалга ошириш механизми  | Муддати                          | Ижро учун масъуллар   | Тадбирлар мақсади   |
|-----|---|--|----------------------------------|---|---|
| 1.  | “Бир кунда бир саҳифа” номли умуммиллий онлайн ташаббусни йўлга қўйиш                         | “Мутолаа” платформаси ва мобил иловаси орқали фойдаланувчилар китоб ўқиш даражасининг кунлик рейтингини юритиш (очиқ маълумот бўлади)  | Доимий                           | Рақамли технологиялар вазирлиги,<br>Ёшлар ишлари агентлиги  | Ёшларда ҳар куни китоб ўқиш одатини шакллантириш                      |
| 2.  | Ҳудудлар бўйича китоб сотуви ва кутубхона ташрифлари асосида Китобхонлик индексини жорий этиш | 1. Ҳар йили ҳудудлар кесимида китоблар сотуви, кутубхона ташрифлари ва танловларда иштирокчилар сони асосида индекс шакллантириш<br>2. Натижаларини оммавий ахборот воситаларида эълон қилиб бориш | 2026 йил<br>1 март<br><br>Доимий | Ёшлар ишлари агентлиги,<br>Республика Маънавият ва маърифат маркази,<br>Рақамли технологиялар вазирлиги | Китобхонлик даражаси бўйича ҳудудлар ўртасида соғлом рақобатни яратиш |

|    |  |  |                                |  |  |
|----|--|--|--------------------------------|--|--|
| 3. | <p><b>“Транспорт инфратузилмаси объектлари ва транспорт воситаларида китоб”</b> лойиҳасини амалга ошириш</p> | <p>Йўловчиларга қулайлик яратиш учун <b>транспорт инфратузилмаси объектлари ва транспорт воситаларида (автобус, метро, самолёт, поездлар) Wi-fi ёки мобил интернет орқали “Mutolaa”</b> платформасига уланиш имконияти яратилади</p> | <p>2026 йил<br/>1 сентябрь</p> | <p>Транспорт вазирлиги, Республика Маънавият ва маърифат маркази, <b>“Uzbekistan Airways” АЖ, “Uzbekistan Airports” АЖ, “O‘zbekiston temir yo‘llari” АЖ, “Toshshahartansxizmat” АЖ</b></p> | <p>Аҳолининг вақтдан унумли фойдаланиш, саёҳатда ҳам китоб ўқиш имкониятига эга бўлиши</p> |
| 4. | <p><b>“Китоб бурчаклари”</b>ни ташкил этиш</p>   | <p>Барча давлат идораларида <b>“китоб бурчаклари”</b>ни яратиш. Бунда китоблар соҳага оид илмий ва маънавий адабиётлардан танланади</p>  | <p>2026 йил<br/>1 март</p>     | <p>Вазирлик ва идоралар</p>  | <p>Давлат хизматчиларида <b>китоб ўқиш кўникмасини</b> шакллантириш</p>                    |
| 5. | <p><b>“Оилавий китобхонлик”</b> дастурини амалга ошириш</p>  | <p>1. Ҳар бир маҳаллада <b>оилалар ўртасида</b> китоб мутолааси танловларини ташкил этиб бориш<br/>2. Ғолибларга маҳаллий бюджет ҳисобидан <b>пул мукофотини бериш</b></p>   | <p>Доимий</p>                  | <p>Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси, Ёшлар ишлари агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари</p>                                      | <p>Оилаларда <b>китобхонлик анъаналарини</b> мустаҳкамлаш</p>                              |
| 6. | <p>Китоб ярмаркалари ва фестиваллар ўтказиш</p>  | <p>Ҳар йили ҳар бир ҳудудда жаҳон даражасидаги <b>“Китоб FEST”</b> (Франкфурт китоб ярмаркаси намунасидаги)</p>  | <p>Доимий</p>                  | <p>Ёшлар ишлари агентлиги, Маданият вазирлиги, Республика Маънавият ва маърифат маркази</p>  | <p>Китобхонликни тарғиб этувчи <b>оммавий анъанани</b> шакллантириш</p>                    |

|     |   |   |                  |  |   |
|-----|---|---|------------------|--|---|
|     |   | китоб ярмаркалари ва фестивалларини ўтказиш   |                  |  |   |
| 7.  | Ижтимоий реклама ва медиа дастурни амалга ошириш          | Оммавий ахборот воситалари, интернет тармоқлари ва жамоат жойларида қисқа видеороликлар орқали китобхонлик тарғиботини кучайтириш   | Доимий           | Республика Маънавият ва маърифат маркази, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари         | Китоб мутолаасини аҳолининг кундалик маданиятига айлантириш         |
| 8.  | “Кутубхона инфратузилмаси – 2030”                         | Янги замонавий дизайнда кутубхоналар ташкил қилиш ва уларда рақамли кутубхона портални яратиш   | 2026–2030 йиллар | Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Қурилиш вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари | Ҳар бир туман ва шаҳарда замонавий кутубхона фаолиятини йўлга қўйиш |
| 9.  | Давлат хизматчилари учун “Китоб ўқиш соати”ни йўлга қўйиш | Ҳар ойда ташкилотларда китоб мутолааси ва фикр алмашиш соатини ўтказиш  | Доимий           | Вазирлик ва идоралар   | Маънавий савия ва тафаккурни ошириш                                 |
| 10. | Қисқа тарғибот шиорларини жорий этиш                      | Телевизион ва радио эфирлар, газеталар, интернет сайтлар, баннерлар, LED-экранлар орқали “Ҳар куни 20 дақиқа китоб”, “Китоб – ақл драйвери” ва “Китоб ўқиган инсон – фикрли инсон” каби | 2026–2030 йиллар | Ёшлар ишлари агентлиги, Республика Маънавият ва маърифат маркази   | Китобхонликни тарғиб этувчи оммавий анъанани шакллантириш           |

|     |                                     | қисқа тарғибот шиорларини жорий этиш  |                    |  |   |
|-----|-------------------------------------|---|--------------------|--|---|
| 11. | Болалар адабиётини қўллаб-қувватлаш | <p><b>Болалар адабиёти йўналишида ўтказилган ижодий танловларда ғолиб бўлган лойиҳаларни молиялаштириш ва қўллаб-қувватлаш тартибини ишлаб чиқиш.</b></p> <p>Бунда Китобхонлик маданиятини ривожлантириш жамғармаси ҳисобидан ғолиб лойиҳа муаллифларига БҲМнинг 100 баравари миқдорида мукофот пулини тўлаб бериш ва уларнинг асарларини 5 000 нусхада чоп этиш харажатларини қоплаб бериш назарда тутилади.</p> | 2026 йил<br>1 март | Болалар контентини ривожлантириш маркази | <b>Болалар контентини ривожлантириш</b> |





## ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2026 yil «16» январь

№ ПК-10

### Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида

“Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 22-моддасига мувофиқ қарор қиламан:

1. 2025 йил 22 май куни Любляна шаҳрида имзоланган Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Словения Республикаси Ҳукумати ўртасида таълим, фан ва маданият соҳаларида ҳамкорлик тўғрисидаги битим тасдиқлансин.
2. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳамда Маданият вазирлиги мазкур халқаро шартномани амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли органлар этиб белгилансин.
3. Ташқи ишлар вазирлиги Ўзбекистон Республикаси томонидан мазкур халқаро шартноманинг кучга кириши учун зарур бўлган давлат ички тартиб-таомиллари бажарилганлиги ҳамда уни амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли органлар тўғрисида Словения томонига тегишли билдиришнома юборсин.
4. Вазирлар Маҳкамаси ҳамда тегишли вазирлик ва идораларнинг раҳбарлари мазкур халқаро шартнома кучга киргандан кейин унинг қоидалари бажарилиши устидан белгиланган тартибда назоратни таъминласин.

5. Ушбу қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси  
Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси  
Президенти



Ш. Мирзиёев

Тошкент шаҳри



## ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2026 yil «16» январь

№ ПҚ-12

### Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида

“Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 22-моддасига мувофиқ қарор қиламан:

1. 2025 йил 2 июль куни Боку шаҳрида имзоланган Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати билан Озарбайжон Республикаси Ҳукумати ўртасида илм-фан, касбий ва олий таълим соҳасида ҳамкорлик тўғрисидаги битим тасдиқлансин.
2. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ушбу халқаро шартномани амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган этиб белгилансин.
3. Ташқи ишлар вазирлиги Ўзбекистон Республикаси томонидан мазкур халқаро шартноманинг кучга кириши учун зарур бўлган давлат ички тартиб-таомиллари бажарилганлиги ҳамда уни амалга ошириш учун масъул бўлган ваколатли орган тўғрисида Озарбайжон томонига тегишли билдиришнома юборсин.
4. Вазирлар Маҳкамаси ҳамда тегишли вазирлик ва идораларнинг раҳбарлари мазкур халқаро шартнома кучга киргандан кейин унинг қоидалари бажарилиши устидан белгиланган тартибда назоратни таъминласин.

5. Ушбу қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси  
Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикаси  
Президенти



Ш. Мирзиёев

Тошкент шаҳри



## **БЕШИНЧИ БЎЛИМ**

**ВАЗИРЛИКЛАР, ДАВЛАТ ҚЎМИТАЛАРИ  
ВА ИДОРЛАРИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН  
РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИДА  
ДАВЛАТ РЎЙХАТИДАН ЎТКАЗИЛГАН  
НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАРИ**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 1773-4  
2026 - yil 12 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI  
FUQARO AVIATSIYASI AGENTLIGI DIREKTORINING  
BUYRUG'I

**“O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida uchish ishlarini tashkil etish bo‘yicha qoidalar”ga (O‘ZR AQ-92) o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va 2024-yil 7-sentabrdagi O‘RQ–957-son “Ma’muriy islohotlar doirasida ta’lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-apreldagi 337-son “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Parvozlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘ining 2008-yil 30-yanvardagi 16-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 1773, 2008-yil 26-fevral) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 8-9-son, 50-modda) bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida uchish ishlarini tashkil etish bo‘yicha qoidalar”ga (O‘zR AQ-92) ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil hamda O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor  
2025-yil 26-dekabr  
6-n-son



NAZAROV TAXIR  
ALIMJANOVICH

**Kelishildi:**

Vazir  
2025-yil 28-noyabr



MAXKAMOV ILXOM  
RUSTAMOVICH

Rais  
2025-yil 19-noyabr



VAXABOV DAVRON  
ABDUJALALOVICH

Vakil o‘rinbosari  
2025-yil 18-noyabr



URUNOV JAMSHID  
OLIMOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi  
huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi direktorining  
2025-yil 26-dekabrda 6-n-son buyrug‘iga  
ILOVA

**“O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida uchish ishlarini tashkil etish bo‘yicha  
qoidalar”ga (O‘z AQ-92) kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. Muqaddimadagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlarini tasniflash va guvohnomalar berish” (O‘zR AQ-61) (ro‘yxat raqami 1349, 2004-yil 7-may)ga” degan so‘zlar “Fuqaro aviatsiyasining aviatsiya xodimi guvohnomasini berish” O‘zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalariga (O‘ZR AQ-61) (ro‘yxat raqami 3609, 2025-yil 24-fevral)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

2. 52-bandning “b” kichik bandidagi, 53-banddagi, 226-bandning birinchi xatboshisidagi, 338 va 388-bandlardagi “o‘quv yurtlari” degan so‘zlar “ta‘lim tashkilotlari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

3. 55-banddagi “Aviatsiya qoidalari “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlarini tasniflash va guvohnomalar berish” (O‘zR AQ-61) (ro‘yxat raqami 1349, 2004-yil 7-may)” degan so‘zlar “Fuqaro aviatsiyasining aviatsiya xodimi guvohnomasini berish” O‘zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalari (O‘ZR AQ-61) (ro‘yxat raqami 3609, 2025-yil 24-fevral)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

4. 58-bandning “a” va “b” kichik bandlaridagi, 59 va 66-bandlar, 303-bandning birinchi xatboshisidagi “o‘quv yurtlarida” degan so‘zlar “ta‘lim tashkilotlarida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

5. 60-banddagi “o‘quv yurtiga” degan so‘zlar “ta‘lim tashkilotiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

6. 62-band va 99-bandning “a” kichik bandidagi “o‘quv yurtini” degan so‘zlar “ta‘lim tashkilotini” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

7. 63-banddagi “O‘zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalari “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlarini tasniflash va guvohnomalar berish” (O‘zR AQ-61) (ro‘yxat raqami 1349, 2004-yil 7-may)” degan so‘zlar “Fuqaro aviatsiyasining aviatsiya xodimi guvohnomasini berish” O‘zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalari (O‘ZR AQ-61) (ro‘yxat raqami 3609, 2025-yil 24-fevral)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

8. 68-banddagi “Davavianazorat” inspeksiyasi” degan so‘zlar “O‘zaviatsiya” agentligi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

9. 87-banddagi “Aviatsiya qoidalari “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlarini tasniflash va guvohnomalar berish” (O‘zR AQ-61) (2004-yil 7-may, ro‘yxat raqami 1349)ga” degan so‘zlar “Fuqaro aviatsiyasining aviatsiya xodimi guvohnomasini berish” O‘zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalariga (O‘ZR AQ-61) (ro‘yxat raqami 3609, 2025-yil 24-fevral)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

10. 88-bandning “d” kichik bandidagi “Aviatsiya qoidalari “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlarini tasniflash va guvohnomalar berish” (O‘zR AQ-61) (ro‘yxat raqami 1349, 2004-yil 7-may)da” degan so‘zlar “Fuqaro aviatsiyasining aviatsiya xodimi guvohnomasini berish” O‘zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalarida (O‘ZR AQ-61)

(ro'yxat raqami 3609, 2025-yil 24-fevral)" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**11.** 170-banddagi "O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlarini tasniflash va guvohnomalar berish" (O'ZR AQ-61) (ro'yxat raqami 1349, 2004-yil 7-may) O'zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalari" degan so'zlar "Fuqaro aviatsiyasining aviatsiya xodimi guvohnomasini berish" O'zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalari (O'ZR AQ-61) (ro'yxat raqami 3609, 2025-yil 24-fevral)" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**12.** 172-bandning to'qqizinchi xatboshisidagi "Davavianazorat" inspeksiyasining" degan so'zlar "O'zaviatsiya" agentligining" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**13.** 318-bandda:

"a" kichik banddagi "o'quv yurtida" degan so'zlar "ta'lim tashkilotida" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

"b" kichik banddagi "o'quv yurti" degan so'zlar "ta'lim tashkiloti" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**14.** 325-bandning "e" kichik bandidagi va 331-bandning "d" kichik bandidagi "o'quv yurtlarining" degan so'zlar "ta'lim tashkilotlarining" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**15.** 328-bandning "v" kichik bandidagi "o'quv yurtining" degan so'zlar "ta'lim tashkilotining" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**16.** 337-bandning birinchi xatboshisidagi "o'quv yurtida" degan so'zlar "ta'lim tashkilotida" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**17.** 349-bandda:

"b" kichik banddagi "o'quv yurtlari" degan so'zlar "ta'lim tashkilotlari" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

"m" kichik banddagi "o'quv yurtlarida" degan so'zlar "ta'lim tashkilotlarida" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**18.** 356-bandning "a" kichik bandidagi "O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlarini tasniflash va guvohnomalar berish" (O'ZR AQ-61) (ro'yxat raqami 1349, 2004-yil 7-may) aviatsiya qoidalari, 1 paragraf 2-moddasining talablari" degan so'zlar "Fuqaro aviatsiyasining aviatsiya xodimi guvohnomasini berish" O'zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalari (O'ZR AQ-61) (ro'yxat raqami 3609, 2025-yil 24-fevral) bilan tasdiqlangan 3-ilovaning 2-bandi" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**19.** 359-bandning birinchi xatboshisidagi "O'zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi aviatsiya xodimlarini tasniflash va guvohnomalar berish" aviatsiya qoidalari" (O'ZR AQ-61) (ro'yxat raqami 1349, 2004-yil 7-may) Aviatsiya qoidalarida" degan so'zlar "Fuqaro aviatsiyasining aviatsiya xodimi guvohnomasini berish" O'zbekiston Respublikasining aviatsiya qoidalarida (O'ZR AQ-61) (ro'yxat raqami 3609, 2025-yil 24-fevral)" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

**20.** 392-banddagi "o'quv yurti" degan so'zlar "ta'lim tashkiloti" degan so'zlar bilan almashtirilsin.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3751  
2026 - yil 12 - Yanvar

## ЎЗБЕКISTОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРИНИНГ БУЙРУҒИ

### Тиббий жиҳозларнинг турлари бўйича номенклатура классификацияси ва уларни қўллаш хавфи даражасига кўра таснифлаш Қоидаларини тасдиқлаш Ҳақида

Ўзбекистон Республикасининг “Дори воситалари ва фармацевтика фаолияти тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 19 августдаги ПФ–137-сон “Дори воситалари ва тиббий жиҳозлар муомаласини тартибга солишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги [Фармони](#)га мувофиқ буюраман:

1. Тиббий жиҳозларнинг турлари бўйича номенклатура классификацияси ва уларни қўллаш хавфи даражасига кўра таснифлаш Қоидалари 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.
2. Айрим идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар 2-иловага мувофиқ ўз кучини йўқотган деб топилсин.
3. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил, Ўзбекистон Савдо-саноат палатаси билан келишилган.
4. Мазкур буйруқ 2026 йил 26 февралдан эътиборан кучга киради.

Vazir  
24-Dekabr 2025-yil  
16 son



XUDAYAROV ASILBEK  
ANVAROVICH

Kelishildi:

Vazir  
12-Dekabr 2025-yil



KUCHKAROV DJAMSHID  
ANVAROVICH

Vakil o'rinbosari  
17-Noyabr 2025-yil



URUNOV JAMSHID  
OLIMOVICH

Rais  
17-Noyabr 2025-yil



VAXABOV DAVRON  
ABDUJALALOVICH

Ўзбекистон Республикаси  
соғлиқни сақлаш вазирининг  
2025 йил 24 декабрдаги  
16-сон буйруғига  
1-ИЛОВА

**Тиббий жиҳозларнинг турлари бўйича номенклатура классификацияси  
ва уларни қўллаш хавфи даражасига кўра таснифлаш  
ҚОИДАЛАРИ**

Мазкур Қоидалар тиббий жиҳозларнинг турлари бўйича номенклатура классификацияси ва уларни қўллаш хавфи даражасига кўра таснифлаш тартибини белгилайди.

**1-боб. Умумий қоидалар**

1. Мазкур Қоидаларда қуйидаги тушунчалар қўлланилади:

**тиббий жиҳозлар** – касалликлар профилактикаси, ташхис қўйиш, даволаш, беморларни реабилитация қилиш ва (ёки) санаб ўтилган жараёнларни таъминлаш учун, шунингдек одам организмнинг ҳолати ва функцияларини аниқлаш, тиклаш, алмаштириш ҳамда ўзгартириш, мониторинг қилиш, ҳомиладорликнинг олдини олиш учун тиббиёт амалиётида қўлланилишига рухсат этилган, қўлланилиши натижасида одам организмига фармакологик, иммунологик ёки метаболик таъсир кўрсатмайдиган, айрим ҳолда, мажмуа ёки тизимлар сифатида қўлланиладиган жиҳозлар, аппаратлар, ускуналар, приборлар, асбоблар, қурилмалар, мажмуалар ва дастурий таъминотлар;

**фаол ташхис тиббий жиҳозлар** – ташхис қўйиш, даволаш жараёнини назорат қилиш ёки физиологик ҳолатни, касаллик ҳолатини ёхуд туғма нуқсонларни аниқлаш ва (ёки) уларнинг ҳолатига таъсир кўрсатиш мақсадида маълумот тақдим этишга мўлжалланган фаол тиббий жиҳозлар;

**фаол тиббий жиҳозлар** – алоҳида ҳолда ёки бошқа тиббий жиҳозлар билан биргаликда қўлланиладиган, ишлаши учун инсон томонидан ҳосил қилинадиган энергия ёки тортишиш кучидан фарқли энергия манбаини талаб этадиган тиббий жиҳозлар (энергияни ёки моддаларни беморга сезиларли ўзгаришларсиз етказиб бериш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар бундан мустасно);

**фаол терапевтик тиббий жиҳозлар** – касаллик, жароҳат ёки ногиронликни даволаш, енгиллаштириш билан боғлиқ биологик функциялар ёки тузилмаларни сақлаш, ўзгартириш, алмаштириш ёки тиклашга мўлжалланган фаол тиббий жиҳозлар;

**аналит** – таҳлил қилинаётган намуна таркибида мавжуд бўлган ва ўлчаниши мумкин бўлган хусусиятга эга алоҳида компонент;

**аферез** – қоннинг алоҳида таркибий қисмларини ажратиб олиш усули;

**имплантация қилинадиган тиббий жиҳозлар** – инвазив тиббий жиҳозлар бўлиб, жумладан организмда қисман ёки тўлиқ сўриладиган, инсон танасига тўлиқ киритилладиган, жарроҳлик йўли билан эпителиал юзани ёки кўз юзасини алмаштирадиган ва жарроҳлик амалиётидан сўнг киритилган жойда қоладиган, шунингдек жарроҳлик йўли билан инсон танасига қисман киритилиб, жарроҳлик амалиётидан кейин киритилган жойда 30 суткадан ортиқ муддат сақланиб қоладиган тиббий жиҳозлар;

**инвазив тиббий жиҳозлар** – инсон танасига унинг юзаси ёки тана тешиги орқали тўлиқ ёки қисман киритиш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар;

**вақтинчалик қўллаш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар** – маълум вақт давомида (60 дақиқадан 30 суткагача) узлуксиз қўллаш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар;

**қисқа муддатли қўллаш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар** – 60 дақиқадан ортиқ бўлмаган муддат давомида узлуксиз қўллаш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар;

**узоқ муддат қўллаш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар** – 30 суткадан ортиқ узлуксиз қўллаш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар;

**наноматериал** – таркибида боғланмаган ҳолатдаги заррачалар ёки агрегатлар ёки агломератлар кўринишидаги заррачалар мавжуд бўлиб, уларнинг камида 50 фоизи 1-100 нм оралигидаги ўлчамларга эга бўлган материал;

**инвазив бўлмаган тиббий жиҳозлар** – инсон танасига унинг юзаси ёки тана тешиклари орқали тўлиқ ёки қисман киритиш учун мўлжалланмаган тиббий жиҳозлар.

2. Тиббий жиҳозларнинг гуруҳлар ва кичик гуруҳлар бўйича номенклатура классификацияси рўйхати мазкур Қоидаларнинг иловасида келтирилган.

## **2-боб. Тиббий жиҳозларни таснифлаш**

### **1-§. Тиббий жиҳозларни қўллаш хавф даражасига кўра таснифлаш**

3. Тиббий жиҳозлар уларни қўллаш хавфи даражасига кўра 4 та синфга [бўлинади](#):

I синф – хавф даражаси паст бўлган тиббий жиҳозлар;

II а синф – хавф даражаси ўртача бўлган тиббий жиҳозлар;

II б синф – хавф даражаси юқори бўлган тиббий жиҳозлар;

III синф – хавф даражаси энг юқори бўлган тиббий жиҳозлар.

Ҳар бир тиббий жиҳоз фақат битта синфга киритилиши зарур.

4. Тиббий жиҳозларни таснифлашда уларнинг вазифаси ва қўлланилиш шартлари, шунингдек қуйидагилар ҳисобга олиниши лозим:

тиббий жиҳозларнинг қўллаш муддати;

тиббий жиҳозларнинг инвазивлик даражаси;

тиббий жиҳозларнинг инсон танаси билан алоқаси ёки ўзаро таъсири мавжудлиги;

тиббий жиҳозларнинг инсон танасига киритиш усули (тана тешиги орқали ёки жарроҳлик йўли билан);

тиббий жиҳозларнинг ҳаётий муҳим аъзолар ва тизимлар (юрак, марказий қон айланиш тизими, марказий асаб тизими) учун қўлланилиши;

тиббий жиҳозларнинг энергия манбаларидан фойдаланиши.

### **2-§. Инвазив бўлмаган тиббий жиҳозларни таснифлаш**

5. Инвазив бўлмаган тиббий жиҳозларга нисбатан ушбу Қоидаларнинг 6 – 8-бандларида белгиланган талаблар қўлланилмаганда, улар I синфга киритилиши керак (ушбу Қоидаларнинг 8-банди иккинчи хатбошиси бундан мустасно).

6. Инсон организмнинг аъзоларини ва (ёки) уларнинг қисмларини сақлаш, шунингдек қон, бошқа суюқликлар, газлар, буғлар ёки тўқималарни сақлаш ёхуд инсон организмга киритиш учун мўлжалланган инвазив бўлмаган тиббий жиҳозлар II а синфга киритилади.

Бунда инвазив бўлмаган тиббий жиҳозлар II а синф ёки ундан юқори синфга мансуб фаол тиббий жиҳозлар билан биргаликда қўлланилган ҳолларда ҳам мазкур синфга киритилиши зарур.

**7.** Инсон организмнинг қони, тўқималари, хужайралари, бошқа физиологик суюқликлари ёки инсон организмга киритилиши лозим бўлган суюқликларнинг биологик ёки физик-кимёвий таркиби ҳамда хусусиятларини ўзгартириш учун мўлжалланган инвазив бўлмаган тиббий жиҳозлар II б синфга киритилиши лозим.

Агар инвазив бўлмаган тиббий жиҳозларнинг таъсири фақат заррачаларни филтрлаш, центрифугалаш, газ алмашинуви ёки иссиқлик алмашинуви билан чекланса, улар II а синфга киритилиши керак.

**8.** Шикастланган тери билан бевосита алоқада бўладиган инвазив бўлмаган тиббий жиҳозлар қуйидагича таснифланади:

I синф – механик тўсиқ сифатида, эксудатни сиқиш ёки сўриб олиш мақсадида қўлланилганда;

II б синф – иккиламчи битиш орқали даволаниши мумкин бўлган яраларни даволаш учун қўлланилганда;

II а синф – бошқа ҳолларда (тиббий жиҳозлар асосан жароҳатларнинг микромуҳитига таъсир этиш учун мўлжалланган бўлса).

### **3-§. Инвазив тиббий жиҳозларни таснифлаш**

**9.** Инсон тана тешиклари орқали қўлланиладиган ҳамда фаол тиббий жиҳозга уланиш учун мўлжалланмаган инвазив тиббий жиҳозлар (I синфга мансуб фаол тиббий жиҳозлар, шунингдек жарроҳлик инвазив тиббий жиҳозлар бундан мустасно) қуйидагича таснифланади:

I синф – қисқа муддатли қўллаш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар;

II а синф – вақтинчалик қўллаш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар (ушбу тиббий жиҳозлар оғиз бўшлиғида ҳалқумгача, эшитиш йўлида ноғора пардагача ёки бурун бўшлиғида вақтинча қўлланилса, улар I синфга киритилиши керак);

II б синф – узоқ муддат қўллаш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар (мазкур тиббий жиҳозлар оғиз бўшлиғида ҳалқумгача, эшитиш йўлида ноғора пардагача ёки бурун бўшлиғида узоқ вақт қўлланилса ва шиллик қават томонидан сўрилмаса, улар II а синфга киритилиши лозим).

Инсон тана тешиклари орқали қўлланиладиган ва II а синф ёки ундан юқори синфга мансуб фаол тиббий жиҳозга уланиш учун мўлжалланган инвазив тиббий жиҳозлар (жарроҳлик инвазив тиббий жиҳозлар бундан мустасно) II а синфга киритилиши керак.

**10.** Қисқа муддатли ва вақтинчалик қўллаш учун мўлжалланган жарроҳлик инвазив тиббий жиҳозлар II а синфга киритилиши лозим. Бунда, мазкур тиббий жиҳозлар қуйидаги ҳолатларда:

юрак, марказий қон айланиши, марказий асаб тизими патологияларини ташхислаш, кузатиш, назорат қилиш, тузатиш учун мўлжалланганда ҳамда ушбу тизимларнинг аъзолари ёки қисмлари билан бевосита алоқада бўлганда, улар III синфга киритилиши;

икки ёки ундан ортиқ марта фойдаланилганда, улар I синфга киритилиши;

энергияни ионлаштирувчи нурланиш шаклида узатиш учун мўлжалланганда, улар II б синфга киритилиши;

биологик таъсир кўрсатишга ёки инсон организмида тўлиқ ёхуд сезиларли даражада сўрилишга мўлжалланганда, улар II б синфга киритилиши (вақтинчалик қўллаш учун мўлжалланган жарроҳлик инвазив тиббий жиҳозлар III синфга киритилиши керак);

дори воситаларини мутахассис бўлмаган фойдаланувчилар томонидан киритиш учун мўлжалланганда, II б синфга ҳамда вақтинчалик қўллаш учун мўлжалланган жарроҳлик инвазив тиббий жиҳозлар эса инсон танасида кимёвий ўзгаришларга учраганда, улар II б синфга (тишларга имплантация қилиш ёки дори воситаларини юбориш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар бундан мустасно) киритилиши лозим.

**11.** Имплантация қилинадиган, шунингдек узоқ муддатли қўллаш учун мўлжалланган жарроҳлик инвазив тиббий жиҳозлар II б синфга киритилиши лозим. Бунда, мазкур тиббий жиҳозлар қуйидаги ҳолатларда:

тишга имплантация қилиш учун мўлжалланганда, улар II а синфга киритилиши;  
юрак, марказий қон айланиш тизими ёки марказий асаб тизими билан бевосита алоқада бўлганда, улар III синфга киритилиши;

биологик таъсир кўрсатишга ёки инсон организмида тўлиқ ёхуд сезиларли даражада сўрилишга мўлжалланганда, улар III синфга киритилиши;

инсон танасида кимёвий ўзгаришларга учраса, улар III синфга киритилиши (тишга имплантация қилиш ёки дори воситаларини киритиш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар бундан мустасно);

фаол имплантация қилинадиган тиббий жиҳозлар ва уларнинг имплантация қилинадиган бутловчи (аксессуарлари) бўлганда, улар III синфга киритилиши;

чаноқ-сон, тизза ёки елка бўғимининг тўлиқ ёки қисман протезлари, кўкрак беги имплантлари, шунингдек умуртқалараро диск протезлари ёки умуртқа поғонаси билан алоқага (контактга) киришувчи имплантация қилинадиган тиббий жиҳозлар бўлганда, улар III синфга киритилиши лозим.

#### **4-§. Фаол тиббий, фаол терапевтик ва ташхис тиббий жиҳозларни таснифлашнинг ўзига хос хусусиятлари**

**12.** Фаол тиббий ҳамда фаол терапевтик тиббий жиҳозлар қуйидаги хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда таснифланиши зарур:

энергия узатиш ёки энергия алмашинуви учун мўлжалланган фаол терапевтик тиббий жиҳозлар II а синфга, агар инсон организмига энергия узатиш ёки алмашинуви фаол тиббий жиҳознинг (масалан, ионлаштирувчи нурланиш ҳосил қилиш, нур терапияси учун мўлжалланган фаол тиббий жиҳозлар) ўзига хос хусусиятлари (тана қисмларига таъсири, зичлиги ва жойи) сабабли хавф туғдирса, улар II б синфга киритилиши;

II б синфдаги фаол терапевтик тиббий жиҳозларни назорат қилиш ёки бошқариш учун мўлжалланган фаол терапевтик тиббий жиҳозлар II б синфга, агар фаол имплантация қилинадиган тиббий жиҳозларни назорат қилиш ёки бошқариш учун мўлжалланганда, улар III синфга киритилиши.

**13.** II а синфга қуйидагилар учун мўлжалланган фаол ташхис тиббий жиҳозлар киритилиши керак:

инсон организми томонидан ютиладиган энергияни узатишга мўлжалланган фаол ташхис тиббий жиҳозлар (бемор танасини спектрда кўринадиган диапазонда ёритадиган тиббий жиҳоз I синфга киритилиши керак);

инсон организмига юборилган радиофармацевтик дори воситаларининг тақсимланишини кўрсатишга мўлжалланган фаол ташхис тиббий жиҳозлар;

инсон организмининг ҳаётий муҳим функцияларини бевосита ташхислаш ёки назоратини таъминлашга мўлжалланган фаол ташхис тиббий жиҳозлар (ушбу тиббий жиҳозлар ўзгариши бемор учун бевосита хавф туғдириши мумкин бўлган ҳаётий муҳим физиологик параметрларни назорат қилиш учун мўлжалланганда (юрак фаолияти, нафас олиш ёки марказий асаб тизими фаолиятининг ўзгариши), улар II б синфга киритилиши керак).

**14.** Ионлаштирувчи нурланишни ҳосил қилувчи ва радиологик ташхис ҳамда терапия учун мўлжалланган фаол тиббий жиҳозлар ҳамда уларни назорат қилиш ёки бошқариш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар II б синфга киритилиши зарур.

**15.** Инсон организмига дори воситалари, физиологик суюқликлар ёки бошқа моддаларни юбориш ва (ёки) уларни организмдан чиқариш учун мўлжалланган фаол тиббий жиҳозлар II а синфга киритилиши керак.

Агар бундай юбориладиган (ёки чиқариш) дори воситалари, физиологик суюқликлар ёки бошқа моддалар қўлланилишига мувофиқ бемор учун хавф юзага келишига олиб келиши мумкин бўлса, мазкур тиббий жиҳозлар II б синфга киритилиши керак.

Ушбу Қоидаларнинг 12–14-бандлари ҳамда мазкур банднинг биринчи ва иккинчи хатбошиларида белгиланган талаблар татбиқ этилмайдиган фаол тиббий жиҳозлар I синфга киритилиши керак.

### **5-§. Алоҳида турдаги тиббий жиҳозларни таснифлашнинг ўзига хос хусусиятлари**

**16.** Алоҳида турдаги тиббий жиҳозларнинг таркибида мустақил қўлланиладиган дори воситаларининг моддаларини (инсон қони ёки плазмасидан олинган маҳсулотлар) сақловчи тиббий жиҳозлар III синфга киритилиши лозим.

Тиббиёт ходимларининг қўлларига, шунингдек жарроҳлик ва инъекция соҳаларига ишлов бериш учун мўлжалланган антисептик сalfеткалар эса II а синфга киритилиши керак.

**17.** Алоҳида турдаги тиббий жиҳозлар ҳомиладорликни назорат қилиш ёки жинсий йўл билан юқадиган касалликлардан ҳимоя қилиш учун мўлжалланганда II б синфга киритилиши лозим.

Алоҳида турдаги тиббий жиҳозлар узоқ муддат қўллаш учун мўлжалланган имплантация қилинадиган ёки инвазив тиббий жиҳозлар бўлса, улар III синфга киритилиши керак.

**18.** Инвазив тиббий жиҳозларни зарарсизлантириш, шунингдек контакт линзаларни тозалаш, ювиш, зарарсизлантириш, намлаш учун мўлжалланган алоҳида турдаги тиббий жиҳозлар II б синфга киритилиши лозим.

Тиббий жиҳозларни дезинфекциялаш ёки стерилизация қилиш учун мўлжалланган алоҳида турдаги тиббий жиҳозлар II а синфга киритилиши зарур.

**19.** Рентген, магнит-резонанс, ультратовуш ва бошқа ташхис қурилмаларидан олинган тасвирларни қайд этиш учун мўлжалланган алоҳида турдаги тиббий жиҳозлар II а синфга киритилиши керак.

20. Ҳайвонларнинг ўлик тўқималари ёки хужайралари ёхуд уларнинг ҳосилаларидан фойдаланиб тайёрланган алоҳида турдаги тиббий жиҳозлар III синфга киритилиши лозим.

Алоҳида турдаги тиббий жиҳозлар фақат шикастланмаган тери юзаси билан алоқа қилиш учун мўлжалланганда I синфга киритилиши лозим.

21. Қон учун пакетлар (полимер идишлар) II б синфга киритилиши керак.

22. Таркибида наноматериал мавжуд бўлган алоҳида турдаги тиббий жиҳозлар III синфга киритилиши зарур.

Агар наноматериал бемор ёки фойдаланувчи организмга кириб боришининг олдини оловчи изоляцияланган ёки боғланган ҳолатда бўлса, бундай алоҳида турдаги тиббий жиҳозлар I синфга киритилиши керак.

23. Афerez учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар, жумладан тўпламлар, улагичлар ва эритмалар III синфга киритилиши лозим.

24. Алоҳида турдаги тиббий жиҳозлар бошқа тиббий жиҳозлар билан биргаликда қўллаш учун мўлжалланганда, биргаликда қўлланиладиган ҳар бир тиббий жиҳоз ушбу Қоидаларда белгиланган тартибда алоҳида синф бўйича таснифланади.

25. Алоҳида турдаги тиббий жиҳоз қўллаш хавфи даражасига кўра бир нечта синфга кирганда, энг юқори хавф синфи олинishi керак.

### **3-боб. In vitro ташхис тиббий жиҳозларни таснифлаш**

26. In vitro ташхис тиббий жиҳозни таснифлашда қуйидаги ҳолатлар инobatга олинishi лозим:

in vitro ташхис тиббий жиҳознинг йўриқномасида белгиланган вазифаси ва уни қўллаш кўрсатмалари;

фойдаланувчининг (мутахассис ёки мутахассис бўлмаган фойдаланувчи) техник, илмий ёки тиббий билимлари;

in vitro ташхис тиббий жиҳоздан олинган натижанинг (тўғри ёки нотўғри) алоҳида шахс ва (ёки) жамоат соғлиғига таъсири.

27. In vitro ташхис тиббий жиҳоз уни қўллаш хавфи даражасига кўра бир нечта синфга кирганда, энг юқори хавф синфи олинishi керак.

28. In vitro ташхис тиббий жиҳозларни калибрлаш ва назорат материаллари улар билан бирга қўллаш учун мўлжалланган реагент (реагентлар тўплами) билан бир хил синфга киритилиши керак.

In vitro ташхис тиббий жиҳозлар қон, қон компонентлари, қон маҳсулотлари, аъзолар, тўқималар ёки хужайралардаги юқумли агентларни аниқлаш ҳамда уларни кўчириш ёки трансплантация қилиш имкониятини аниқлаш мақсадида қўлланилганда, шунингдек узоқ муддатли ногиронликка ёки ўлимга олиб келиши мумкин бўлган, тарқалиш хавфи юқори ёки эҳтимоли катта бўлган юқумли агентларни аниқлаш учун мўлжалланган бўлса, III синфга киритилиши керак.

29. Қон гуруҳларини, она ва ҳомила қон гуруҳининг мос эмаслигини аниқлаш ёки тўқима турларини белгилаш учун қўлланиладиган in vitro ташхис тиббий жиҳозлари, қон, қон компонентлари, хужайралар, тўқималар ёки кўчириш ва трансплантация қилиш учун мўлжалланган аъзоларнинг иммунологик мослигини таъминлаш мақсадида қўлланилганда, II б синфга киритилиши керак.

Бироқ, АВ0 тизими (А (АВ01), В (АВ02), АВ (АВ03)), резус тизими (Rh1 (D), Rh2 (C), Rh3 (E), Rh4 (c), Rh5 (e) ва кучсиз ёки қисман Rh (D)), Келл тизими (Kell (K), Кидд тизими (JK1 (Jka), JK2 (Jkb)) ҳамда Даффи тизими (FY1 (Fya), FY2 (Fyb)) антигенларини ёки антитаналарини аниқлаш учун қўлланилганда III синфга киритилиши керак.

**30.** In vitro ташхис тиббий жиҳозлар қўйидаги ҳолларда II б синфга киритилиши керак:

жинсий йўл билан юқадиган касалликларнинг юқумли агентларини аниқлаш учун мўлжалланганда;

орқа мия суюқлиги ёки қонда тарқалиш хавфи ўртача бўлган юқумли агентларни аниқлаш учун мўлжалланганда;

ташхиснинг нотўғри натижаси сабабли бемор ёки ҳомиланинг вафотига ёки меҳнатга лаёқатсиз ҳолатга тушиб қолишига сабаб бўлиш хавфи мавжуд инфекция агентларини аниқлаш учун мўлжалланганда;

ҳомилдорлик даврида аёлларнинг инфекцияларга нисбатан иммунитет ҳолатини аниқлаш мақсадида скрининг ўтказиш учун мўлжалланганда;

даволаш бўйича қарорга таъсир этадиган ташхиснинг нотўғри натижаси сабабли бемор ёки унинг авлодининг ногиронликка олиб келадиган ёки ҳаёти учун хавфли вазият юзага келишига сабаб бўлиши мумкин ҳоллардаги инфекция касаллик ёки иммунологик ҳолатини аниқлаш учун мўлжалланганда;

онкологик касалликни скрининг қилиш, ташхислаш ёки унинг босқичини аниқлаш учун мўлжалланганда;

генетик тест ўтказиш учун мўлжалланганда;

даволаш бўйича қарорга таъсир этадиган ташхиснинг нотўғри натижаси сабабли бемор ёки унинг авлодининг ногиронликка олиб келиши ёки ҳаёти учун хавфли вазият юзага келишига сабаб бўлиши мумкин ҳоллардаги дори воситалари, моддалар ёки биологик компонентлар даражасини назорат қилиш учун мўлжалланганда;

ҳомила ёки эмбрионнинг туғма касалликларини скрининг қилиш учун мўлжалланганда;

касаллик ташхисининг нотўғри эканлиги натижасида ёки даволамаслик сабабли янги туғилган чақалоқларда ногиронликка олиб келиши ёки ҳаёти учун хавфли вазият юзага келишига сабаб бўлганда ҳамда туғма касалликларни скрининг қилиш учун мўлжалланганда;

танлаб даволаш учун беморларни саралаш ва ёндош ташхис сифатида олиб бориш учун скрининг ўтказиш мўлжалланганда.

**31.** Мутахассис бўлмаган фойдаланувчилар томонидан ишлатиш учун мўлжалланган in vitro ташхис тиббий жиҳозлар II б синфга киритилиши лозим.

Агар мазкур in vitro ташхис тиббий жиҳозларни қўллаш натижасида олинган таҳлил натижалари муҳим тиббий аҳамиятга эга бўлмаса ёки улар дастлабки хусусиятга эга бўлиб, кейинчалик тегишли лаборатория текширувлари билан тасдиқлашни талаб этса, бундай тиббий жиҳозлар II а синфга киритилиши керак.

Мазкур in vitro ташхис тиббий жиҳозлари ушбу Қоидаларнинг 28-банди иккинчи хатбошиси ва 29-бандида назарда тутилган мақсадлар учун мўлжалланганда, улар III синфга киритилиши керак.

**32.** Ўлчов функциясига эга бўлмаган, ўзининг объектив хусусиятларига кўра лаборатория мақсадларида қўлланилиши мумкин бўлган, бироқ *in vitro* ташхис муолажаларида фойдаланиш учун мўлжалланган, лаборатория тестлари (аналитлар)нинг аниқ турлари кўрсатилмаган махсус хусусиятларга эга *in vitro* ташхис тиббий жиҳозлари, шунингдек биосинов намуналарини йиғиш ва (ёки) сақлаш учун мўлжалланган идишлар I синфга киритилиши керак.

Ушбу Қоидаларнинг 28-банди иккинчи хатбошиси, 29–31-бандлари ҳамда мазкур банднинг биринчи ва иккинчи хатбошилари татбиқ этилмайдиган *in vitro* ташхис тиббий жиҳозлари, шу жумладан ташхиснинг хатолиги натижасида беморнинг ногиронлигига ёки ўлимига олиб келиши хавфи мавжуд бўлмаган ҳолларда кам учрайдиган юқумли агентларни аниқлаш учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар, микдорий ёки сифат жиҳатидан белгиланган қийматларга эга бўлмаган назорат материаллари, шунингдек қўлланиладиган реагентлар тўпламларига (тест-тизимларга) боғлиқ ҳолда бажариладиган лаборатория тадқиқотларининг ўзгарувчан рўйхатига эга бўлган ўлчов функцияли аналитик тиббий жиҳозлар (анализаторлар) II а синфига киритилиши керак.

**33.** Дастурий таъминот *in vitro* ташхис мақсадларида қўлланилса, мазкур бобда белгиланган талабларга мувофиқ таснифланиши керак.

#### **4-боб. Тиббий жиҳоз ҳисобланган дастурий таъминотни таснифлаш**

**34.** Ҳар бир дастурий таъминот фақат битта синфга киритилиши зарур.

Дастурий таъминотнинг қўллаш хавфи даражасига кўра синфини таснифлаш, у биргаликда ишлайдиган тиббий жиҳознинг хавф синфидан қатъи назар, ушбу Қоидаларга мувофиқ белгиланади.

Дастурий таъминотни таснифлаш (сунъий интеллект технологиялари қўлланилган дастурий таъминот бундан мустасно) тақдим этиладиган ахборот турига асосланган ҳолда, дастурий таъминот натижаларининг тиббий қарор қабул қилишга таъсирини аниқлаш ҳамда дастурий таъминотни қўллаш шартларини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги жадвалга мувофиқ амалга оширилади:

| Дастурий таъминотдан фойдаланиш шартлари унинг мақсадига кўра | Олинган дастурий таъминот натижаларининг тиббий қарор қабул қилишга таъсирига кўра ахборотлар турлари бўйича хавф синфлари |                            |                           |
|---|--|----------------------------|---------------------------|
|   | биринчи турдаги ахборотлар   | иккинчи турдаги ахборотлар | учинчи турдаги ахборотлар |
| “А” тоифаси   | III  | II б                       | II а                      |
| “Б” тоифаси   | II б   | II а                       | I                         |
| “В” тоифаси   | II а   | I                          | I                         |

**35.** Сунъий интеллект технологиялари қўлланилган дастурий таъминот III синфга киритилиши лозим.

**36.** Дастурий таъминотни қўллаш шартларини унинг вазифасига кўра тоифалардан бирига киритиш қуйидаги талабларга мувофиқ амалга оширилади:

а) дастурий таъминот қуйидаги мақсадлар учун мўлжалланган бўлса, уни қўллаш шартлари “А” тоифага киритилиши лозим:

шошилич тиббий ёрдам кўрсатиш (тўсатдан ўткир касалликлар ёки ҳолатлар юзага келганда, шунингдек беморнинг ҳаётига хавф туғдирувчи сурункали касалликлар кўзгалганда);

жарроҳлик аралашувини ва (ёки) комплекс терапияни ўтказишда қўллаш ёки уларни ўтказиш зарурлигини аниқлаш;

жамоат саломатлиги учун юқори хавф туғдирувчи ва (ёки) алоҳида шахс учун юқори хавфга эга бўлган касалликлар ёки беморнинг ҳолатларига ташхис қўйиш ва (ёки) уларни даволаш;

б) дастурий таъминот қуйидаги мақсадлар учун мўлжалланган бўлса, уни қўллаш шартлари “Б” тоифага киритилиши зарур:

шошилич тиббий ёрдам кўрсатиш (тўсатдан ўткир касалликлар ёки ҳолатлар юзага келганда, сурункали касалликлар зўрайганда, бироқ беморнинг ҳаётига бевосита хавф туғдирувчи аниқ белгилар мавжуд бўлмаганда);

жарроҳлик аралашувисиз тиббий ёрдам кўрсатиш;

жамоат саломатлиги учун ўртача хавф туғдирадиган касалликлар ёки беморнинг ҳолатларини аниқлаш ва даволаш;

в) дастурий таъминот қуйидаги мақсадлар учун мўлжалланган бўлса, уни қўллаш шартлари “В” тоифага киритилиши лозим:

режали тиббий ёрдам кўрсатиш (профилактика тадбирлари ўтказилганда, беморнинг ҳаётига хавф туғдирмайдиган, шошилич ёки кечиктириб бўлмайдиган тиббий ёрдамни талаб этмайдиган касалликлар ва ҳолатлар мавжуд бўлганда ҳамда тиббий ёрдам кўрсатишнинг муайян муддатга кечиктирилиши беморнинг аҳволи ёмонлашувига, унинг ҳаёти ва соғлиғига хавф туғдирмас);

инвазив бўлмаган усуллардан фойдаланган ҳолда тиббий ёрдам кўрсатиш ва (ёки) узоқ муддатли парваришда қўллаш;

жамоат саломатлиги учун паст хавфга эга бўлган касаллик ёки касалликларни ёхуд беморнинг ҳолатларини ташхислаш ёки даволаш.

**37.** “А” ва “Б” тоифаларга кирувчи дастурий таъминот, унинг қўллаш шартларида зарур тайёргарликдан ўтган тиббиёт ходими томонидан фойдаланилиши белгиланганда, фақат мазкур тиббиёт ходими томонидан қўлланилиши лозим.

“В” тоифага кирувчи дастурий таъминот, унинг қўллаш шартларида эса тиббиёт ходими ёки бемор ёхуд бошқа жисмоний шахс томонидан тиббиёт ходимининг кўрсатмаси ва (ёки) назорати остида фойдаланилиши белгиланганда, мазкур шахслар томонидан қўлланилиши мумкин.

**38.** Дастурий таъминот томонидан тақдим этилган натижаларнинг тиббий қарор қабул қилишга таъсирига кўра ахборот қуйидаги талабларга мувофиқ турларга ажратилади:

биринчи турдаги ахборот – клиник (шифокор) қарор қабул қилиш учун қўшимча аниқлаштириш ва (ёки) тўлдиришни талаб қилмайдиган, кечиктириб бўлмайдиган ҳамда ўз вақтида ҳаракатларни амалга ошириш зарурлигини кўрсатадиган ахборотлар;

иккинчи турдаги ахборот – клиник (шифокор) қарор қабул қилиш учун қўшимча аниқлаштириш ва (ёки) тўлдиришни талаб қиладиган ахборотлар;

учинчи турдаги ахборот – кечиктириб бўлмайдиган ҳаракатларни амалга ошириш зарурлигини кўрсатмайдиган ахборотлар.

**39.** Дастурий таъминотни қўллаш хавфи даражасига кўра уни синфга киритишда ушбу дастурий таъминотдан фойдаланиш натижасида олинган ахборотнинг турлари ва (ёки) уни қўллаш шартларида тоифаларни бирлаштириш мумкин бўлса, дастурий таъминот қўллаш хавфининг энг юқори даражасига мувофиқ синфга киритилиши керак.

Ташхис қўйиш ва (ёки) терапия бўйича қарор қабул қилиш учун мўлжалланган дастурий таъминот II а синфидан паст бўлмаган синфга киритилиши лозим.

Агар дастурий таъминотнинг ишлашидаги хатолар беморнинг ўлимига ёки унинг соғлигини тиклаб бўлмас даражада ёмонлашишига олиб келиши мумкин бўлса, бундай дастурий таъминот III синфга киритилиши керак.

#### **5-боб. Яқуний қоида**

**40.** Мазкур Қоидалар талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавобгар бўладилар.

Тиббий жиҳозларнинг турлари бўйича  
номенклатура классификацияси ва уларни  
қўллаш хавфи даражасига кўра  
таснифлаш қоидаларига  
ИЛОВА

**Тиббий жиҳозларнинг гуруҳлар ва кичик гуруҳлар бўйича  
номенклатура классификацияси  
РЎЙХАТИ\***

| <b>Т/р</b>  | <b>Гуруҳлар/кичик гуруҳлар</b>                                |
|---|---|
| <b>1-боб. Анестезиология ва респиратор тиббий жиҳозлар</b>  |   |
| 1.  | Алгезиметрлар   |
| 2.  | Анестезиология ва респиратор газ анализаторлари               |
| 3.  | Қон газлари анализаторлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар          |
| 4.  | Нафас олиш функцияси анализаторлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар |
| 5.  | Анестезиология системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар          |
| 6.  | Бронхоскоплар   |
| 7.  | Нафас олиш вентиляторлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар           |
| 8.  | Қизилўнгач интубацияси детекторлари                           |
| 9.  | Анестезиология игналари                                       |
| 10.   | Ингаляторлар  |
| 11.   | Анестезия буғлантиргичлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар          |
| 12.   | Нафас олиш канюллари  |
| 13.   | Анестезиология учун катетерлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар      |
| 14.   | Нафас олиш магистраллари ва уларга боғлиқ жиҳозлар            |
| 15.   | Нафас олиш/анестезия ниқоблари ва уларга боғлиқ жиҳозлар      |
| 16.   | Анестезия/респиратор мониторлари ва кузатув системалари       |
| 17.   | Анестезия тўпламлари  |
| 18.   | Анестезия ва респиратор газларни етказиш ускуналари           |
| 19.   | Оксиметрлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                         |
| 20.   | Ҳаво тозалагичлар   |
| 21.   | Пульмонология учун катетерлар                                 |
| 22.   | Ўпкани вентиляциялаш системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар    |
| 23.   | Бронхиал стентлар   |
| 24.   | Қизилўнгач стетоскоплари                                      |
| 25.   | Сунъий вентиляциялаш системалари қурилмалари                  |
| 26.   | Бошқа анестезиология ва респиратор тиббий жиҳозлар            |
| <b>2-боб. Ёрдамчи умумий касалхона учун тиббий жиҳозлар</b> |   |
| 27.   | Тиббиёт ванналари   |
| 28.   | Лаборатория инкубаторлари                                     |
| 29.   | Инфузион насослар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                   |
| 30.   | Дори воситалари/вакциналар учун инъекторлар                   |

|  |  |
|--|--|
| 31.  | Лаборатория камералари   |
| 32.  | Хавфли тиббий чиқиндилар учун контейнерлар   |
| 33.  | Тиббий каравотлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар  |
| 34.  | Ламинар системалар   |
| 35.  | Ланцетлар  |
| 36.  | Тиббий матраслар ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 37.  | Тиббий мебеллар  |
| 38.  | Тери ости инъекциялари учун тўпламлар  |
| 39.  | Тиббий замбиллар   |
| 40.  | Тиббий стерил жарроҳлик ёпинғичлар/кўрпалар  |
| 41.  | Универсал жарроҳлик столлари   |
| 42.  | Жарроҳлик ёритгичлари  |
| 43.  | Тиббий кўлқоплар   |
| 44.  | Тиббий печлар  |
| 45.  | Тиббий стол стерил қопламалари   |
| 46.  | Тиббий чиқиндиларни майдалагичлар  |
| 47.  | Тиббий лаваболар/ювиш мосламалари  |
| 48.  | Тиббий асбобларни санитар ишлов бериш/хизмат кўрсатиш учун эритмалар, газлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар |
| 49.  | Ионофорез тизимлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар  |
| 50.  | Глюкоза даражасини мониторинг қилиш системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                              |
| 51.  | Жарроҳлик столи системалари  |
| 52.  | Беморларни кўтариш/кўчириш системалари   |
| 53.  | Иссиқлик/криотерапия системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 54.  | Стерилизаторлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар  |
| 55.  | Инфузион эритмалар учун тиргаклар/ушлагичлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                 |
| 56.  | Тиббий тиргаклар/штативлар   |
| 57.  | Кўрик/терапевтик столлар   |
| 58.  | Тиббий аравачалар  |
| 59.  | Тиббий термометрлар  |
| 60.  | Транспортёрлар   |
| 61.  | Беморларни жойлаштириш қурилмалари   |
| 62.  | Тиббий стерил жарроҳлик халатлари  |
| 63.  | Совутгич/музлаткич камералари ва уларга боғлиқ жиҳозлар  |
| 64.  | Тиббий центрифугалар   |
| 65.  | Тиббий қоплама   |
| 66.  | Тиббий шкафлар/бокслар   |
| 67.  | Бошқа ёрдамчи ва умумий шифохона тиббий жиҳозлари  |
| <b>3-боб. Гастроэнтерология учун тиббий жиҳозлар</b> |  |
| 68.  | Физиологик параметрларни таҳлил қилувчи гастроэнтерологик  |

|  |   |
|--|---|
|  | анализаторлар   |
| 69.  | Гастроэнтерологик детоксикантлар  |
| 70.  | Пневмоперитонеум учун игналар   |
| 71.  | Озуқа моддаларини сўриш ингибиторлари                                       |
| 72.  | Гастроэнтерологик катетерлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                      |
| 73.  | Перитониал катетерлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                             |
| 74.  | Гастроэнтерологик мониторлар/мониторинг системалари                         |
| 75.  | Проктологик жарроҳлик столлари  |
| 76.  | Қизилўнгач кенгайтиргичлари   |
| 77.  | Меъда рестрикторлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                              |
| 78.  | Билиар/панкреатик стентлар  |
| 79.  | Қизилўнгач стентлари  |
| 80.  | Гастроэнтерологик трубкалар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                       |
| 81.  | Стомировкалар ва уларга боғлиқ маҳсулотлар                                  |
| 82.  | Гастроэнтерологик эндоскоплар   |
| 83.  | Бошқа гастроэнтерологик тиббий маҳсулотлар                                  |
| <b>4-боб. Акушер ва гинекология учун тиббий жиҳозлар</b> |   |
| 84.  | Акушерлик/гинекологик физиологик параметрларни таҳлил қилувчи анализаторлар |
| 85.  | Вагинал кўзгулар  |
| 86.  | Янги туғилган чақалоқлар учун инкубаторлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар        |
| 87.  | Бачадон ичи катетерлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                           |
| 88.  | Бачадон бўйни (цервикал) қалпоқчалари                                       |
| 89.  | Бачадон ичи контрацептивлари  |
| 90.  | Акушер мониторлар/мониторинг системалари                                    |
| 91.  | Акушерлик/гинекологик жарроҳлик муолажалари учун тўпламлар                  |
| 92.  | Амниоцентез учун тўпламлар  |
| 93.  | Акушерлик/гинекологик қайчилар  |
| 94.  | Пессарийлар   |
| 95.  | Аёллар презервативлари  |
| 96.  | Бачадон бўйни (цервикал) каналини кенгайтиргичлар                           |
| 97.  | Гинекологик жарроҳлик сеткалари   |
| 98.  | Вагинал ички воситалари   |
| 99.  | Вагинал стентлари   |
| 100.   | Акушерлик столлари  |
| 101.   | Гинекологик жарроҳлик столлари  |
| 102.   | Фетал электродлар   |
| 103.   | Акушерлик/гинекологик эндоскоплар   |
| 104.   | Акушерлик ва гинекология учун бошқа тиббий жиҳозлар                         |
| <b>5-боб. In vitro ташхиси учун тиббий жиҳозлар</b>      |   |
| 105.   | In vitro ташхис учун анализаторлар  |

|  |   |
|--|---|
| 106.   | In vitro ташхис учун намуналар учун идишлар/контейнерлар                                      |
| 107.   | In vitro ташхис учун аналитларни аниқлаш реагентлари/тўпламлари                               |
| 108.   | In vitro ташхис учун умумий лаборатория реагентлари/ускуналар/сарф материаллари               |
| 109.   | In vitro ташхис учун озуқа муҳитлари  |
| <b>6-боб. Одамнинг тўқималари ва органларини манипуляция қилиш/тиклаш учун тиббий жиҳозлар</b> |   |
| 110.   | Адгезия жиҳозлари/клейлар   |
| 111.   | Биологик суюқликлар/тўқималарни йиғиш/ишлов бериш/ташиш учун маҳсулотлар                      |
| 112.   | Тўқималарни реконструкция қилиш материаллари  |
| 113.   | Қон/суюқлик иситгичлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 114.   | Қон нурлантиргичлари  |
| 115.   | Боғламлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 116.   | Жарроҳлик сеткалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 117.   | Донор органларини сақлаш/ташиш системалари  |
| 118.   | Тери юзаси терапияси системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                    |
| 119.   | Яра терапияси системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 120.   | Экстракорпорал зарб-тўлқинли терапия системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                    |
| 121.   | Стентлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар  |
| 122.   | Тикув аппаратлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 123.   | Трансплантатлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 124.   | Суюқликлар/тўқималарни дренажлаш/олиб ташлаш қурилмалари                                      |
| 125.   | Тикув материаллари ва уларга боғлиқ жиҳозлар  |
| 126.   | Одамнинг тўқималари ва органларини манипуляция қилиш/тиклаш учун тиббий бошқа тиббий жиҳозлар |
| <b>7-боб. Оториноларингология учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар</b>                            |   |
| 127.   | Эшитиш аппаратлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар  |
| 128.   | Аудиометрлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар  |
| 129.   | Кулоқ воронкалари   |
| 130.   | Ўрта кулоқ декомпрессорлари   |
| 131.   | Овоз боғламларини медиализация қилиш имплантатлари  |
| 132.   | Кохлеар имплантация системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                     |
| 133.   | Оториноларингологик канюлалар   |
| 134.   | Бурун катетерлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 135.   | Оториноларингологик катетерлар  |
| 136.   | Тиннитус маскерлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 137.   | Оториноларингологик жарроҳлик тўпламлари  |
| 138.   | Оториноларингологик пичоқлар/скалпеллар   |
| 139.   | Оториноларингологик қайчилар  |

|  |  |
|--|--|
| 140.   | Қулоқ учун эритмалар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                               |
| 141.   | Ринометрлар/риноманометрлар  |
| 142.   | Бурун нафас олишини енгиллаштириш қурилмалари                                |
| 143.   | Оториноларингологик оптик визуализация қурилмалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар |
| 144.   | Бурун шиналари   |
| 145.   | Оториноларингология учун бошқа тиббий жиҳозлар                               |
| <b>8-боб. Пластик жарроҳлиги, дерматология ва косметология учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар</b> |  |
| 146.   | Кўкрак имплантатлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                               |
| 147.   | Косметик жарроҳлик учун ишлар  |
| 148.   | Чандиқларни даволаш учун боғламлар/кийимлар                                  |
| 149.   | Дерматологик лазер системалари   |
| 150.   | Лазер бўлмаган дерматологик системалар ва уларга боғлиқ жиҳозлар             |
| 151.   | Тери контурини шакллантириш системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар            |
| 152.   | Пластик жарроҳлик, дерматология ва косметология учун бошқа тиббий жиҳозлар   |
| <b>9-боб. Неврология учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар</b>                                       |  |
| 153.   | Сезги функцияларини таҳлил қилувчи анализаторлар                             |
| 154.   | Неврологик физиологик параметрларни таҳлил қилувчи анализаторлар             |
| 155.   | Неврологик жарроҳлик жиҳозлари   |
| 156.   | Неврологик катетерлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                              |
| 157.   | Нерв локаторлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                   |
| 158.   | Неврологик мониторлар/мониторинг системалари                                 |
| 159.   | Оғриқни йўқотиш учун электр стимуляция системалари                           |
| 160.   | Диафрагма нервини электр стимуляция қилиш системалари                        |
| 161.   | Периферик нервларни электр стимуляция қилиш системалари                      |
| 162.   | Марказий нерв тизимини электр стимуляция қилиш системалари                   |
| 163.   | Неврологик эндоскоплар   |
| 164.   | Эстеziометрлар   |
| 165.   | Бошқа неврологик тиббий жиҳозлар   |
| <b>10-боб. Ортопедия учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар</b>                                       |  |
| 166.   | Артроскоплар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                       |
| 167.   | Суяк михлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                       |
| 168.   | Суяк дистракторлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                |
| 169.   | Бўғимларни иммобилизация қилувчи жиҳозлар                                    |
| 170.   | Ортопедик протезларни имплантация қилиш учун асбоблар                        |
| 171.   | Суяк каналида резьба ҳосил қилиш учун асбоблар                               |
| 172.   | Суяк кейджлари   |
| 173.   | Иммобилизация материаллари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                         |
| 174.   | Ортопедик имплантация тўпламлари   |

|  |  |
|--|--|
| 175.   | Ортопедик жарроҳлик тўпламлари   |
| 176.   | Ортопедик йўналтиргичлар   |
| 177.   | Ортопедик жарроҳлик столлари   |
| 178.   | Ортопедик ортезлар   |
| 179.   | Кўллар учун осмалар  |
| 180.   | Имплантиция учун бўғим протезлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                          |
| 181.   | Ортопедик кенгайтиргичлар  |
| 182.   | Умуртқа поғонасини фиксация қилиш системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар              |
| 183.   | Экстракорпорал ортопедик зарб-тўлқинли терапия системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар |
| 184.   | Тракцион системалар ва уларга боғлиқ маҳсулотлар                                     |
| 185.   | Ортопедик фиксация системалари   |
| 186.   | Ортопедик цементлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар  |
| 187.   | Бошқа ортопедик тиббий жиҳозлар  |
| <b>11-боб. Офтальмология учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар</b> |  |
| 188.   | Офтальмологик таҳлил қилувчи анализаторлар   |
| 189.   | Диоптриметрлар   |
| 190.   | Офтальмологик канюлалар  |
| 191.   | Кератомлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 192.   | Офтальмологик ҳалқалар   |
| 193.   | Офтальмологик илгаклар   |
| 194.   | Офтальмологик диагностик линзалар  |
| 195.   | Интраокуляр линзалар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                       |
| 196.   | Контакт линзалар ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 197.   | Кўзойнак линзалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар   |
| 198.   | Экстраокуляр катталаштирувчи линзалар  |
| 199.   | Офтальмологик жарроҳлик тўпламлари   |
| 200.   | Офтальмологик пичоқлар   |
| 201.   | Офтальмологик қайчилар   |
| 202.   | Офтальмологик жарроҳлик столлари   |
| 203.   | Офтальмологик лазер системалари  |
| 204.   | Офтальмоскоплар ва уларга боғлиқ жиҳозлар  |
| 205.   | Офтальмологик пинцетлар  |
| 206.   | Интраокуляр протезлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                      |
| 207.   | Мугуз пардасининг трепанацияси системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                 |
| 208.   | Офтальмологик криожарроҳлик системалари  |
| 209.   | Факоемулсификация/витректомия системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                  |
| 210.   | Кўз юзаси ҳимоя воситалари   |
| 211.   | Офтальмологик тонометрлар ва уларга боғлиқ маҳсулотлар                               |
| 212.   | Кўз ёш каналлари учун эндоскоплар  |

|   |  |
|---|--|
| 213.  | Офтальмологик эндоскоплар  |
| 214.  | Бошқа офтальмологик тиббий жиҳозлар                              |
| <b>12-боб. Радиология учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар</b>                                   |  |
| 215.  | Гентри ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                 |
| 216.  | Нурланиш ўлчагичлари   |
| 217.  | Коллиматорлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                          |
| 218.  | Радиологик ташхис/терапия учун бемор креслолари                  |
| 219.  | Кўчма радиологик модуллар  |
| 220.  | Рентген плёнкалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                     |
| 221.  | Беморларни жойлаштириш системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар     |
| 222.  | Радиологик ташхис системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар          |
| 223.  | Радиологик терапевтик системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар      |
| 224.  | Контраст воситалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                    |
| 225.  | Радиологик столлар   |
| 226.  | Фантомлар  |
| 227.  | Экранлар/ҳимоя/нурланиш чеклагичлари                             |
| 228.  | Бошқа радиологик тиббий жиҳозлар                                 |
| <b>13-боб. Ногиронлиги бўлган шахслар учун реабилитация ва мослаштирилган тиббий жиҳозлар</b> |  |
| 229.  | Мослаштирилган маиший жиҳозлар                                   |
| 230.  | Мослаштирилган дам олиш жиҳозлари                                |
| 231.  | Мослаштирилган уй жиҳозлари/ускуналари                           |
| 232.  | Ташқи протезлар/ортезлар   |
| 233.  | Мослаштирилган шахсий тиббий воситалар                           |
| 234.  | Мослаштирилган ҳаракатланиш воситалари                           |
| 235.  | Мослаштирилган шахсий парвариш воситалари                        |
| 236.  | Мослаштирилган алоқа ва ахборот қурилмалари                      |
| 237.  | Мослаштирилган жиҳозларни манипуляция қилиш/фиксация қурилмалари |
| 238.  | Мослаштирилган уй-рўзғор кўникмаларини ўргатиш қурилмалари       |
| 239.  | Мослаштирилган иш кўникмаларини ўргатиш қурилмалари              |
| 240.  | Мослаштирилган ташқи муҳитни бошқариш қурилмалари                |
| 241.  | Бошқа реабилитация ва мослаштирилган тиббий жиҳозлар             |
| <b>14-боб. Юрак-қон томири учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар</b>                              |  |
| 242.  | Ангиоскоплар   |
| 243.  | Артериоскоплар   |
| 244.  | Ички қон томир филтрлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар               |
| 245.  | Гемостатик воситалар   |
| 246.  | Дефибрилляторлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                       |
| 247.  | Қон тўхтатувчи жгутлар/манжетлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар       |
| 248.  | Эмболизация қилувчи имплантатлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар       |
| 249.  | Инфузион/аспирацион катетерлар                                   |

|   |  |
|---|--|
| 250.  | Кардиостимуляторлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                            |
| 251.  | Кардиологик катетерлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                         |
| 252.  | Гемодинамикани таҳлил қилиш учун тиббий жиҳозлар                         |
| 253.  | Кардио-реанимация учун тиббий жиҳозлар                                   |
| 254.  | Юрак физиологик параметрларни аниқлаш/хариталаш учун тиббий жиҳозлар     |
| 255.  | Юрак-қон томир жарроҳлиги учун тиббий жиҳозлар                           |
| 256.  | Кардиологик мониторлар/мониторинг системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар  |
| 257.  | Инфузион тўпламлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                             |
| 258.  | Кардиостимуляторлар/дефибрилляторлар отводлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар |
| 259.  | Юрак-қон томир протезлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                      |
| 260.  | Ангиопластика системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                      |
| 261.  | Сон артериясини сиқиш системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар              |
| 262.  | Эмболоэктомия/тромбоэктомия системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар        |
| 263.  | Сунъий қон айланиш системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                 |
| 264.  | Веналарни сиқиш системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                    |
| 265.  | Веналарни локализация қилиш қурилмалари                                  |
| 266.  | Бошқа юрак-қон томир жиҳозлари   |
| <b>15-боб. Стоматология учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар</b> |  |
| 267.  | Стоматологик аппликаторлар   |
| 268.  | Бормашиналар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                   |
| 269.  | Тиш кариесини аниқлаш детекторлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар             |
| 270.  | Стоматологик зондлар   |
| 271.  | Пломба юзасини моделлаштириш учун жиҳозлар                               |
| 272.  | Тиш тошини олиб ташлаш учун жиҳозлар                                     |
| 273.  | Ортодонтик жиҳозлар  |
| 274.  | Стоматологик имплантатлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                      |
| 275.  | Пломбалаш материални киритиш учун асбоблар                               |
| 276.  | Стоматологик канюлалар   |
| 277.  | Стоматологик креслолар   |
| 278.  | Стоматологик материаллар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                       |
| 279.  | Стоматологик жарроҳлик тўпламлари  |
| 280.  | Стоматологик ёритгичлар  |
| 281.  | Стоматологик боғламлар   |
| 282.  | Тиш протезлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                 |
| 283.  | Стоматологик протезлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                         |
| 284.  | Стоматологик рашпиллар   |
| 285.  | Стоматологик ретракторлар  |
| 286.  | Стоматологик лазер системалари   |
| 287.  | Алоқа системаларини етказиб бериш системалари/консоллар                  |

|  |  |
|--|--|
| 288.   | Стоматоскоплар   |
| 289.   | Стоматологик шиналар   |
| 290.   | Стоматологик шприцлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                            |
| 291.   | Стоматологик қискичлар   |
| 292.   | Бошқа стоматологик тиббий жиҳозлар   |
| <b>16-боб. Урология учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар</b>                            |  |
| 293.   | Аёлларда пешоб ушламасликни даволаш ва тўсиқ бўлиши учун уретрал барьерлар |
| 294.   | Уретрал бужилар  |
| 295.   | Тошларни олиб ташлаш учун асбоблар   |
| 296.   | Урологик катетерлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                              |
| 297.   | Нефроскопик жарроҳлик тўпламлари   |
| 298.   | Урологик жарроҳлик тўпламлари  |
| 299.   | Урологик жарроҳлик столлари  |
| 300.   | Эркаклар презервативлари   |
| 301.   | Пенис протезлари   |
| 302.   | Гемодиализ системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                           |
| 303.   | Литотрипция системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                          |
| 304.   | Урологик стентлар  |
| 305.   | Урологик эндоскоплар   |
| 306.   | Бошқа урологик тиббий жиҳозлар   |
| <b>17-боб. Физиотерапия учун мўлжалланган тиббий жиҳозлар</b>                        |  |
| 307.   | Терапевтик ванналар  |
| 308.   | Массаж қурилмалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                               |
| 309.   | Совук/иссиқлик терапияси пакетлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар               |
| 310.   | Диатермик терапия системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                    |
| 311.   | Физиотерапия столлари  |
| 312.   | Реабилитация тренажёрлари  |
| 313.   | Бошқа физиотерапевтик тиббий жиҳозлар                                      |
| <b>18-боб. Жарроҳлик асбоблари/системалар ва жарроҳликка тегишли тиббий жиҳозлар</b> |  |
| 314.   | Жарроҳлик адгезивлар/клей аппликаторлари                                   |
| 315.   | Клипса/қисқич аппликаторлари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                     |
| 316.   | Аппроксиматорлар   |
| 317.   | Бужлар   |
| 318.   | Тиббий бурлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                    |
| 319.   | Жарроҳлик видеокамералари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                        |
| 320.   | Остеосинтез учун винтлар   |
| 321.   | Жарроҳлик тишлаб узиб олгичлар   |
| 322.   | Остеосинтез учун михлар  |
| 323.   | Жарроҳлик гупкалари  |

|      |  |
|------|--|
| 324. | Депрессорлар   |
| 325. | Дерматомлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                            |
| 326. | Диссекторлар   |
| 327. | Тиббий долото ва уларга боғлиқ жиҳозлар                          |
| 328. | Жарроҳлик дреллари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                     |
| 329. | Жарроҳлик дренажлари   |
| 330. | Жарроҳлик қисқичлари   |
| 331. | Жарроҳлик зондлари   |
| 332. | Кератомлар   |
| 333. | Жарроҳлик илгақлар   |
| 334. | Ўткир жағли омбирлар (қусачкилар)                                |
| 335. | Кюретлар   |
| 336. | Лигаторлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                             |
| 337. | Жарроҳлик манипуляторлари  |
| 338. | Жарроҳлик микроскоплари  |
| 339. | Тиббий эговлар   |
| 340. | Йўналтиргичлар   |
| 341. | Жарроҳлик пичоқлари/скалпеллар                                   |
| 342. | Жарроҳлик қайчилари  |
| 343. | Остеотомлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                            |
| 344. | Жарроҳлик бурагичлари (торнавида)                                |
| 345. | Жарроҳлик перфораторлари   |
| 346. | Жарроҳлик петлялари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                    |
| 347. | Тиббий аррачалар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                       |
| 348. | Разверткалар/риммерлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                 |
| 349. | Распаторлар  |
| 350. | Кенгайтиргичлар ва уларга боғлиқ маҳсулотлар                     |
| 351. | Тиббий рашпиллар   |
| 352. | Ретракторлар/петлялар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                  |
| 353. | Абляция системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                    |
| 354. | Криожарроҳлик системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар              |
| 355. | Жарроҳлик лазер системалари                                      |
| 356. | Жарроҳлик ультратовуш системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар      |
| 357. | Шайвер системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар                     |
| 358. | Диатермик электрожарроҳлик системалари ва уларга боғлиқ жиҳозлар |
| 359. | Тиббий совкалар/скребкалар                                       |
| 360. | Тиббий степлерлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                      |
| 361. | Жарроҳлик зичлагичлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                  |
| 362. | Трепанлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                              |
| 363. | Трокарлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                              |
| 364. | Жарроҳлик шпателлари   |

|   |   |
|---|---|
| 365.  | Тиббий қисқичлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                |
| 366.  | Экскаваторлар   |
| 367.  | Жарроҳлик экстракторлар   |
| 368.  | Элеваторлар   |
| 369.  | Электрокаутерлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                |
| 370.  | Бошқа жарроҳлик асбоблари/системалари ва уларга боғлиқ тиббий жиҳозлар    |
| <b>19-боб. Эндоскопия учун тиббий жиҳозлар</b>                |   |
| 371.  | Эндоскопик видеокамералар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                       |
| 372.  | Эндотерапевтик игналар  |
| 373.  | Эндотерапевтик канюлалар  |
| 374.  | Эндоскопик клапанлар  |
| 375.  | Лапароскоплар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                   |
| 376.  | Ларингоскоплар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                  |
| 377.  | Эндотерапевтик лигаторлар   |
| 378.  | Эндотерапевтик қайчилар   |
| 379.  | Эндоскопик кенгайтириш системалари/ирригаторлар ва уларга боғлиқ жиҳозлар |
| 380.  | Ресектоскоплар ва уларга боғлиқ жиҳозлар                                  |
| 381.  | Эндоскопик степлерлар   |
| 382.  | Эндотерапевтик қисқичлар  |
| 383.  | Диатермик электрожарроҳлик эндотерапевтик системаларининг электродлари    |
| 384.  | Эндоскоплар   |
| 385.  | Бошқа эндоскопик тиббий жиҳозлар  |
| <b>20-боб. Тиббий жиҳоз ҳисобланувчи дастурий таъминотлар</b> |   |
| 386.  | Ташхис учун мўлжалланган дастурий таъминотлар                             |
| 387.  | Клиник қарорлар қабул қилишда ёрдам берувчи дастурий таъминотлар          |
| 388.  | Терапевтик дастурий таъминотлар   |
| 389.  | Бошқа тиббий жиҳоз ҳисобланувчи дастурий таъминотлар                      |

*Изоҳ: \* Тиббий жиҳозларнинг мазкур классификация бўйича гуруҳлари, қўйи гуруҳлари ва турлари “Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази” давлат муассасасининг расмий веб-сайтида электрон шаклда жойлаштирилади ва ҳар ойда мунтазам равишда янгилаб борилади.*

Ўзбекистон Республикаси  
соғлиқни сақлаш вазирининг  
2025 йил 24 декабрдаги  
16-сон буйруғига  
2-ИЛОВА

**Ўз кучини йўқотган деб топилаётган идоравий норматив ҳуқуқий ҳужжатлар  
РЎЙХАТИ**

1. Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирининг 2016 йил 29 июндаги 60-сон “Тиббий буюмлар рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи (рўйхат рақами 2809, 2016 йил 12 июль) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 28-сон, 341-модда).

2. Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирининг 2020 йил 20 мартдаги 114-сон “Тиббий буюмлар рўйхатига ўзгартириш киритиш тўғрисида”ги буйруғи (рўйхат рақами 2809-1, 2020 йил 20 март) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.03.2020 й., 10/20/2809-1/0355-сон).



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3752  
2026 - yil 12 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

### **Dori vositalarining farmakologik nazorati va tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida”gi [Qonuni](#) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19- avgustdagi PF-137-son “Dori vositalari va tibbiy jihozlar muomalasini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi [Farmoniga](#) muvofiq buyuraman:

1. Dori vositalarining farmakologik nazorati va tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2018-yil 9-martdagi 13-son “Dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar aniqlangan holatlar to'g'risida xabardor qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi [buyrug'i](#) (ro'yxat raqami 3000, 2018-yil 16-aprel) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2018-y., 10/18/3000/1076-son) o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.
3. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.
4. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

Vazir  
30-Dekabr 2025-yil  
18 son



XUDAYAROV ASILBEK  
ANVAROVICH

Kelishildi:

Vakil o'rinbosari  
21-Noyabr 2025-yil



URUNOV JAMSHID  
OLIMOVICH

Rais  
18-Noyabr 2025-yil



VAXABOV DAVRON  
ABDUJALALOVICH

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining  
2025-yil 30-dekabrda 18-son buyrug'iga

ILOVA

**Dori vositalarining farmakologik nazorati va tibbiy  
jihozlarning xavfsizligi monitoringini amalga oshirish tartibi  
to'g'risidagi  
NIZOM**

Mazkur Nizom dori vositalarining farmakologik nazorati va tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom talablari davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar hamda dori vositalari va tibbiy jihozlarni ishlab chiqaruvchilar, dori vositalari va tibbiy jihozlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari, dori vositalari va tibbiy jihozlarni realizatsiya qiluvchi, ularni qo'llovchi va saqlovchi tashkilotlarga nisbatan tatbiq etiladi.

**1-bob. Umumiy qoida**

1. Mazkur Nizomda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

**dori vositalari** – kasalliklar profilaktikasi, ularga tashxis qo'yish va ularni davolash, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini o'zgartirish uchun tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori moddalari (substansiyalar) va yordamchi moddalar asosida olingan vositalar, dori moddalari (substansiyalar), dori preparatlari;

**farmakologik nazorat** – dori vositalaridan ularning qo'llanilishiga doir yo'riqnomaga muvofiq foydalanilganda odamda kuzatiladigan, organizm uchun bexosdan va noxush ta'sir ko'rsatadigan nojo'ya reaksiyalarni aniqlashga, baholashga va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyat;

**farmakologik nazorat tizimi** – davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar hamda dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar, dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari, dori vositalarini realizatsiya qiluvchi, ularni qo'llovchi va saqlovchi tashkilotlar hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi "Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi" davlat muassasasi (bundan buyon matnda vakolatli organ deb yuritiladi) tomonidan farmakologik nazoratni amalga

oshirish maqsadida dori vositalarining xavfsizligini monitoring qilish, ularning “foyda-xavf” nisbatini baholash, foyda xavfdan ustun bo‘lgan hollarda dori vositalarining qo‘llanilishini ta‘minlashga qaratilgan choralarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga mo‘ljallangan tizim;

**birlamchi tibbiy hujjatlar** – bemorlarning sog‘lig‘i, ularga qo‘llangan dori vositalari hamda o‘tkazilgan diagnostika-davolash tadbirlarini to‘liq qayta tiklash va tekshirish imkonini beruvchi, klinik tadqiqot, farmakologik nazorat, tibbiy jihozlarning xavfsizlik monitoringi va boshqa sog‘liqni saqlash jarayonlarida dalil sifatida saqlanadigan va taqdim etiladigan asl hujjatlar, ma‘lumotlar va yozuvlar;

**nojo‘ya reaksiya** – dori vositalari yoki tibbiy jihozlarning qo‘llanilishi natijasida insonning o‘limiga olib keladigan yoki uning hayoti uchun xavf tug‘diradigan, insonni davolash-profilaktika muassasasiga yotqizishni yoki yotqizish muddatini uzaytirishni talab etadigan, uning mehnat layoqatsizligiga yoki nogironlikka, tug‘ma anomaliyalarga yoxud rivojlanish nuqsonlariga olib keladigan nojo‘ya ta‘sirlar;

**xavf belgisi (signal)** – bu dori vositalarini qo‘llash jarayonida aniqlangan, avval noma‘lum bo‘lgan yoki yetarlicha o‘rganilmagan nojo‘ya reaksiya haqida ma‘lumot;

**xavf belgisini (signalni) baholash** – farmakologik nazorat doirasida aniqlangan xavf belgisining (signalning) haqiqiyliги, ishonchliligi, klinik ahamiyati va sabab–oqibat bog‘liqligini tizimli ravishda tahlil qilish jarayoni;

**tibbiy jihozlar** – kasalliklar profilaktikasi, tashxis qo‘yish, davolash, bemorlarni rehabilitatsiya qilish va (yoki) sanab o‘tilgan jarayonlarni ta‘minlash uchun, shuningdek odam organizmining holati va funksiyalarini aniqlash, tiklash, almashtirish hamda o‘zgartirish, monitoring qilish, homiladorlikning oldini olish uchun tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishiga ruxsat etilgan, qo‘llanilishi natijasida odam organizmiga farmakologik, immunologik yoki metabolik ta‘sir ko‘rsatmaydigan, ayrim holda, majmua yoki tizimlar sifatida qo‘llaniladigan jihozlar, apparatlar, uskunalar, priborlar, asboblari, qurilmalar, majmualar va dasturiy ta‘minotlar;

**tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringi** – bu tibbiy jihozlarning ishlab chiqarilishi, amalda qo‘llanilishi va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf omillarini aniqlash, ularni baholash, hisobga olish va bartaraf etish choralari ko‘rishga qaratilgan tizimli faoliyat;

**tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida aniqlangan noxush holatlar (insident)** – tibbiy jihozlarning nosozligi (funktsiyalarini buzilishi) va xususiyatlarini yomonlashishi natijasida insonning hayoti uchun xavf tug'diradigan yoki uning sog'lig'ining yomonlashishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar.

## **2-bob. Dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida aniqlangan nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik to'g'risida xabardor qilish**

2. Davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar hamda dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar, dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari, dori vositalarini realizatsiya qiluvchi, ularni qo'llovchi va saqlovchi tashkilotlar dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik aniqlangan barcha holatlar to'g'risida vakolatli organni mazkur bobda belgilangan muddatlarda quyidagilar orqali yozma yoki elektron shaklda xabardor qilishi shart:

a) davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar hamda dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar, dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari, dori vositalarini realizatsiya qiluvchi, ularni qo'llovchi va saqlovchi tashkilotlar tomonidan mazkur Nizomning 1-ilovasida keltirilgan shakldagi Dori vositasi qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik aniqlangan barcha holatlar to'g'risidagi xabarnoma;

b) davolash-profilaktika muassasalari tomonidan dori vositalarining klinik tadqiqotlari o'tkazilganda mazkur Nizomning 2-ilovasida keltirilgan shakldagi Dori vositasining klinik tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik aniqlangan barcha holatlar to'g'risidagi xabarnoma;

d) O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar aniqlangan taqdirda dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan mazkur Nizomning 3-ilovasida keltirilgan "Xalqaro standartlashtirilgan format – CIOMS" shaklidagi xabarnoma.

3. Davolash-profilaktika muassasasida davolanayotgan (shu jumladan, statsionar yoki ambulator sharoitda davolanayotgan) shaxsga nisbatan dori vositasini qo'llash chog'ida yoki dori vositasi qo'llanilgandan keyin unda nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik kuzatilgan holatlarda ushbu holatlarni aniqlagan tibbiyot xodimi bu bo'yicha quyidagi

muddatlarda Dori vositasi qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik aniqlangan barcha holatlar to'g'risidagi xabarnomani rasmiylashtiradi va uni vakolatli organga yuborilishini ta'minlaydi:

nojo'ya reaksiyalar (insonning o'limiga olib kelganda yoki uning hayoti uchun xavf tug'dirganda) aniqlanganda – ushbu holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 1 kun ichida;

nojo'ya reaksiyalar (insonni davolash-profilaktika muassasasiga yotqizishni yoki yotqizish muddatini uzaytirishni talab etadigan, uning mehnatga layoqatsizligiga yoki nogironlikka, tug'ma anomaliyalarga yoxud rivojlanish nuqsonlariga olib keladigan) aniqlanganda – mazkur holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 3 kun ichida;

nojo'ya reaksiyalar (inson organizmi uchun zararli bo'lgan boshqa holatlarda) yoki samarasizlik aniqlanganda – ushbu holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 10 kun ichida.

4. Davolash-profilaktika muassasalari tomonidan dori vositalarini klinik tadqiqotdan o'tkazish jarayonida yoki dori vositalari klinik tadqiqotdan o'tkazilganidan keyin bemorlarda nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik kuzatilgan holatlarda ushbu holatlarni aniqlagan tibbiyot xodimi bu bo'yicha mazkur Nizomning 3-bandida belgilangan muddatlarda Dori vositasining klinik tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik aniqlangan barcha holatlar to'g'risidagi xabarnomani rasmiylashtiradi va uni vakolatli organga yuborilishini ta'minlaydi.

5. Uy sharoitida davolangan bemor o'zi iste'mol qilgan dori vositasining nojo'ya reaksiyasi yoki samarasizligi yuzasidan davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda, bemorni qabul qilgan tibbiyot xodimi unda kuzatilgan nojo'ya reaksiyaning aynan u qo'llagan dori vositasining qo'llanilishi oqibatida yuzaga kelganligiga yoki dori vositalarining samarasizligiga ishonch hosil qilsa, ushbu holatlar bo'yicha mazkur Nizomning 3-bandida belgilangan muddatlarda Dori vositasi qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik aniqlangan barcha holatlar to'g'risidagi xabarnomani rasmiylashtiradi va uni vakolatli organga yuborilishini ta'minlaydi.

6. Dorixonalar va dori vositalarini saqlovchi, ularni realizatsiya qiluvchi hamda qo'llovchi tashkilotlar dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida yoki dori vositasi qo'llanilgandan keyin bemorlarda nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik aniqlanganligi haqida ma'lumot olganda, bu haqda ularning ma'sul xodimlari tomonidan mazkur

Nizomning 3-bandida belgilangan muddatlarda Dori vositasi qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik aniqlangan barcha holatlar to'g'risidagi xabarnomani rasmiylashtiradi va uni vakolatli organga yuborilishini ta'minlaydi.

7. Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari O'zbekiston Respublikasi hududida dori vositasining qo'llanilishi chog'ida yoki dori vositasi qo'llanilgandan keyin unda nojo'ya reaksiyalar yoxud samarasizlik aniqlanganligi haqida ma'lumot olganda, bu haqda ularning ma'sul xodimlari tomonidan quyidagi muddatlarda Dori vositasi qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik aniqlangan barcha holatlar to'g'risidagi xabarnomani rasmiylashtiradi va uni vakolatli organga yuborilishini ta'minlaydi:

nojo'ya reaksiyalar (insonning o'limiga olib kelganda yoki uning hayoti uchun xavf tug'dirganda) aniqlanganda – ushbu holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 1 kun ichida;

nojo'ya reaksiyalar (insonni davolash-profilaktika muassasasiga yotqizishni yoki yotqizish muddatini uzaytirishni talab etadigan, uning mehnat layoqatsizligiga yoki nogironlikka, tug'ma anomaliyalarga yoxud rivojlanish nuqsonlariga olib keladigan) aniqlanganda – mazkur holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 15 kun ichida;

nojo'ya reaksiyalar (inson organizmi uchun zararli bo'lgan boshqa holatlarda) aniqlanganda – ushbu holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 60 kun ichida;

samarasizlik aniqlanganda – ushbu holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 30 kun ichida.

8. Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida yoki ular qo'llanilgandan keyin nojo'ya reaksiyalar aniqlanganligi haqida ma'lumot olganda, bu haqda ularning mas'ul xodimlari tomonidan nojo'ya reaksiyalar aniqlangan vaqtdan boshlab 15 kun ichida “Xalqaro standartlashtirilgan format – CIOMS” shaklidagi xabarnomani rasmiylashtiradi va uni vakolatli organga yuborilishini ta'minlaydi.

9. Xabarnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi hamda uning o'z vaqtida rasmiylashtirilishi va yuborilishi uchun xabarnomani imzolagan shaxs mas'ul hisoblanadi.

**3-bob. Davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar, dori vositalarini saqlovchi, realizatsiya qiluvchi hamda qo‘llovchi tashkilotlar tomonidan farmakologik nazoratni tashkil etish**

10. Farmakologik nazoratni tashkil etish, ushbu nazoratni samarali yuritilishini ta'minlash maqsadida davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar, dori vositalarini saqlovchi, ularni realizatsiya qiluvchi hamda qo‘llovchi tashkilotlarning rahbarlari tomonidan quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

farmakologik nazorat talablarini bajarish uchun oliy tibbiy yoki farmatsevtik ma'lumotli, farmakologik nazorat bo'yicha tegishli malakaga ega bo'lgan (sertifikat) mas'ul shaxs tayinlanishi;

farmakologik nazorat bo'yicha standart operatsion protseduralarni (SOP) tasdiqlanishi, joriy etilishi va ularning bajarilishining doimiy nazorat qilinishi.

11. Davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar, dori vositalarini saqlovchi, ularni realizatsiya qiluvchi hamda qo‘llovchi tashkilotlar tomonidan farmakologik nazoratni amalga oshirishda doimiy ravishda monitoring ishlari olib boriladi.

Monitoring ishlari natijasida quyidagi holatlar aniqlangan taqdirda ular ro'yxatga olinadi va bu haqida vakolatli organ ular ro'yxatga olingan kundan boshlab 7 kun ichida xabardor qilinadi:

bakteriologik tekshiruvlar natijalariga muvofiq mikroorganizmlarning antibiotiklarga sezuvchanligining kamayishi yoki antibiotiklarga rezistentlikning rivojlanishi;

kontratseptiv dori vositalarining tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnoma, shuningdek dori vositasining umumiy va (yoki) qisqacha tavsifida ko'rsatilgan talablarga muvofiq qo'llanilganiga qaramay, uning samarasizligi;

dori vositalarining qo'llanilishi jarayonida aniqlangan, dori vositalarining avval qayd etilmagan o'zaro ta'sirlari.

**4-bob. Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvoohnomasi egalari tomonidan farmakologik nazoratni tashkil etish**

12. Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan farmakologik nazoratni tashkil etish quyidagilarni ta'minlash orqali amalga oshiriladi:

dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tegishli dori vositalari bo'yicha nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik holatlari va dori vositasini qo'llashdagi xatoliklar haqidagi ma'lumotlarni yig'ib borish (umumlashtirish) va ularni "Medical Dictionary for Regulatory Activities" (MedDRA) tizimiga muvofiq kodlash hamda ushbu ma'lumotlarni vakolatli organga har chorakda taqdim etib borish;

dori vositalariga nisbatan boshqa davlatlarda joriy etilgan har qanday taqiqlar yoki cheklovlar, shuningdek dori vositasining "foйда-xavf" nisbatini baholashga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar aniqlanganda, ushbu ma'lumotlar aniqlangan kundan boshlab 10 kun ichida vakolatli organni xabardor qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida nojo'ya reaksiya holatlari aniqlangan bo'lsa, ushbu holatlar haqida ma'lumotlar xavfsizlik bo'yicha davriy yangilanadigan hisobotda (bundan buyon matnda XDYaH deb yuritiladi) aks ettirish orqali vakolatli organni "Zarur farmakonazorat amaliyoti – GVP" milliy standarti talablariga muvofiq xabardor qilish;

original, jenerik, biologik, biosimilyar, biotexnologik hamda immunologik dori vositalari uchun xavflarni boshqarish rejasini ishlab chiqish hamda dori vositasi bo'yicha yangi xavflar vujudga kelgan taqdirda vakolatli organga xavflar aniqlangan kundan boshlab xavflarni boshqarish rejasini 30 kun ichida taqdim etish;

O'zbekiston Respublikasi hududida farmakologik nazorat talablarini bajarish uchun farmakologik nazorat bo'yicha tegishli malakaga (sertifikatga) ega bo'lgan, oliy tibbiy yoki farmatsevtika ma'lumotiga ega bo'lgan mas'ul shaxsni tayinlash;

mas'ul shaxs o'zgargan taqdirda u haqidagi ma'lumotlar bo'yicha 30 kun ichida vakolatli organni xabardor qilish;

farmakologik nazorat tizimi master-fayli yangilangan taqdirda uning yangi tahririni vakolatli organga 30 kun ichida taqdim etish;

farmakologik nazorat tizimini “Zarur farmakonazorat amaliyoti – GVP” milliy standarti talablariga muvofiq ikki yilda kamida bir marta auditdan o‘tkazish va audit natijalarini farmakologik nazorat tizimi master-fayliga kiritish.

13. Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik guvohnomasi egalari har yili birinchi chorak yakuniga qadar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan guvohnomasi muddatsiz berilgan dori vositalari bo‘yicha “foyda–xavf” nisbatini baholash yillik hisobotini mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq tuzishi va vakolatli organga 2030-yil yakunigacha taqdim etib borishi shart.

14. Davlat ro‘yxatidan o‘tgan dori vositalarining qo‘llanilishi bilan bog‘liq qo‘shimcha o‘rganishni talab qiluvchi xavflar aniqlangan hollarda, dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik guvohnomasi egalari o‘zlarining tashabbusi yoki vakolatli organ talabi asosida qo‘shimcha tadqiqot ishlarini o‘tkazishni tashkil etishi lozim.

Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan qo‘shimcha tadqiqot ishlari o‘tkazilishi yakunlanganidan so‘ng, qo‘shimcha tadqiqot ishlari natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlanadi va hisobot tayyorlangan kunning o‘zida vakolatli organga taqdim etiladi.

15. Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan farmakologik nazorat o‘tkazish natijasida o‘zlariga tegishli dori vositalarida nojo‘ya reaksiyalar aniqlangan yoki vakolatli organning rasmiy veb-saytida ushbu dori vositalarida nojo‘ya reaksiyalar aniqlanganligi haqida ma’lumotlar e’lon qilingan taqdirda, dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik guvohnomasi egalari dori vositalarining tibbiyotda qo‘llanilishiga doir yo‘riqnomalariga nojo‘ya reaksiyalar aniqlangan kundan boshlab 30 kun ichida zarur o‘zgartirishlar kiritishi lozim.

#### **5-bob. Vakolatli organ tomonidan farmakologik nazoratni tashkil etish**

16. Vakolatli organ tomonidan dori vositalarining qo‘llanilishi chog‘ida nojo‘ya reaksiyalar aniqlangan barcha holatlar haqida xabar kelib tushgan kundan boshlab 60 kun ichida (insonning o‘limiga olib kelgan yoki hayot uchun xavf tug‘dirgan holatlarda 30 kun ichida) o‘rganib chiqiladi.

Bunda, o‘rganib chiqish davomida quyidagilar amalga oshiriladi:

xabarnomalarni ro'yxatga olish, ulardagi ma'lumotlarni validatsiya va verifikatsiya qilish;

nojo'ya reaksiyalar bo'yicha axborotni ma'lumotlar bazasiga kiritish;

xabarnomalarning takroriy ekanligini o'rganish;

dori vositalarini klinik tadqiqot o'tkazish jarayonida unda aniqlangan nojo'ya reaksiyalarni ro'yxatga olish;

davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar hamda dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari, realizatsiya qiluvchi va qo'llovchi tashkilotlar taqdim etgan qo'shimcha ma'lumotlarni (farmakologik, tibbiy, epidemiologik, ilmiy va klinik ma'lumotlar, dori vositasining davlat ro'yxatidan o'tkazish hujjatlari, tibbiy adabiyotlardagi maqolalar va boshqalar) tahlil qilish;

ma'lumotlar yetarli bo'lmagan hollarda mazkur bandning yettinchi xatboshisidagi tashkilotlarga gumon qilinayotgan dori vositasining namunalari hamda dori vositalariga tegishli ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborish;

zarur hollarda, dori vositasi namunalarining standart talablariga muvofiqligini aniqlash va uning natijalarini baholash;

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Yevropa dori vositalari agentligi, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqining rasmiy veb-saytlarini, VigiBase ma'lumotlar bazasini hamda xorijiy va mahalliy ilmiy-tibbiy nashrlaridagi ma'lumotlarni kuzatish, o'rganish va tahlil qilish;

dori vositasi qo'llanishi bilan nojo'ya reaksiya o'rtasidagi mumkin bo'lgan sabab-oqibat bog'liqligini Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining WHO-UMC tizimiga muvofiqligi bo'yicha baholash;

insonning o'limiga olib kelgan yoki hayot uchun xavf tug'dirgan hamda boshqa nojo'ya reaksiyalar aniqlangan holatlarni baholash;

nojo'ya reaksiyaning klinik ko'rinishlarini, dori vositasining qo'llanilishi va nojo'ya reaksiya o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini, shuningdek kutilayotgan foydaning dori vositalari qo'llanilishining ehtimol tutilgan xavfiga nisbatini aniqlash.

17. Vakolatli organ tomonidan dori vositalarining qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar aniqlangan barcha holatlar o'rganib chiqilishi tugallangan kunning o'zida quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

agar nojo'ya reaksiyalar dori vositalarining qo'llanilishiga doir yo'riqnomada ko'rsatilgan klinik ahamiyati yengil, qisqa muddatli bo'lsa hamda inson hayoti va sog'lig'i uchun jiddiy xavf tug'dirmasa, dori vositalarini farmakologik nazorat doirasida kuzatishda qoldirish;

dori vositalarining qo'llanilishi va nojo'ya reaksiya o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligi mavjud bo'lgan holda dori vositalarining qo'llanilishiga doir yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga tavsiya etish;

dori vositalaridan uning qo'llanilishiga doir yo'riqnomaga muvofiq foydalanilganda nojo'ya reaksiyaning oldini olish yoki xavfini kamaytirish imkoniyati mavjud bo'lgan hollarda dori vositasida xavflarni kamaytirish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazishga tavsiya etish;

dori vositalari qo'llanilganda dori vositalarining xavfsizligi va samaradorligiga doir belgilangan talablarga ularning nomuvofiqligi to'g'risidagi dalillar aniqlangan taqdirda bunday dori vositasini muomaladan chiqarish yoki uning qo'llanilishini [to'xtatib turish](#).

18. Vakolatli organ dori vositalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyingi davrda dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan taqdim etilgan quyidagi hujjatlarni "Zarur farmakonazorat amaliyoti – GVP" milliy standarti talablariga muvofiqligini ular taqdim etilgan kundan boshlab 60 kun ichida o'rganib chiqadi:

farmakologik nazorat tizimi master-faylini;

xavflarni boshqarish rejasini;

XDYaHni;

oliy tibbiy yoki farmatsevtik ma'lumotli, farmakologik nazorat bo'yicha tegishli malakaga ega bo'lgan (sertifikat), farmakologik nazorat talablarini bajarish uchun tayinlangan mas'ul shaxs haqidagi ma'lumotlarni.

19. Vakolatli organ tomonidan mazkur Nizomning 18-bandida keltirilgan hujjatlarni “Zarur farmakonazorat amaliyoti – GVP” milliy standarti talablariga muvofiqligini o‘rganish natijasida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik guvohnomasi egalari qo‘shimcha tushuntirishlar yoki qo‘shimcha hujjatlarni taqdim etish bo‘yicha so‘rovnoma yuboriladi yoki aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

20. Vakolatli organ o‘zining rasmiy veb-saytida “Yevropa Ittifoqining rasmiy ro‘yxatida xavfsizlik bo‘yicha davriy yangilanadigan hisobotlari”dagi maxsus davriylikda taqdim etish talab etiladigan dori vositalarining xalqaro patentlanmagan nomi (XPN) yoki ularning guruhlashgan nomlari ro‘yxatini e‘lon qilib boradi.

Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik guvohnomasi egalari XDYaHni “Yevropa Ittifoqining rasmiy ro‘yxatida xavfsizlik bo‘yicha davriy yangilanadigan hisobotlari” bo‘yicha vakolatli organga taqdim etishi shart.

Bunda dori vositalari “Yevropa Ittifoqining rasmiy ro‘yxatida xavfsizlik bo‘yicha davriy yangilanadigan hisobotlari”ga kiritilmagan taqdirda dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan XDYaH quyidagi muddatlarda vakolatli organga taqdim etishi lozim:

dori vositasi xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazilgan sanadan boshlab dastlabki ikki yil mobaynida – har 6 oyda bir marta;

keyingi ikki yil davomida – har yili 1 marta;

keyingi yillarda – har uch yilda 1 marta.

21. Vakolatli organ xavf belgisini (signalni) aniqlashda va baholash jarayonida dori vositalarining xavfsizligiga doir aniqlangan barcha ma‘lumotlarni (farmakologik, tibbiy, epidemiologik) o‘rganadi va baholaydi.

Xavf belgisiga (signalga) oid ma‘lumotlar quyidagi manbalardan olinadi:

mavjud ilmiy, klinik dori vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlar to‘plami;

tibbiy adabiyotlarda e‘lon qilingan maqolalar;

xabarnomalar;

dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar.

Bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlar mavjud bo'lgan hollarda, ularning ishonchlilik va isbotlanganlik darajasi hisobga olinadi.

22. Vakolatli organ dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan taqdim etiladigan dori vositalarining "foйда-xavf" nisbatiga tegishli hujjatlarni "Zarur farmakonazorat amaliyoti – GVP" milliy standartiga muvofiqligi yuzasidan "foйда-xavf" nisbatiga tegishli hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 60 kun ichida baholaydi va baholash natijasi bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qiladi:

dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan xavf belgisini (signalni) qo'shimcha baholash uchun zarur bo'lgan ishlarni amalga oshirish va ularning natijalarini vakolatli organga taqdim etish;

xavf belgisiga (signalga) oid ma'lumotlarni hamda ularni baholash natijalarini XDYaHga kiritish;

xavf belgisi (signal) aniqlangan hollarda dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalaridan bu bo'yicha xavfni boshqarish rejasini taqdim etishni talab etish;

dori vositasini xavfsiz va samarali qo'llanilishini ta'minlash maqsadida xavfni minimallashtirish choralari ko'rish, shu jumladan maxsus axborot dasturlarini joriy etish yoki sog'liqni saqlash xodimlarini bevosita xabardor qilish;

dori vositalarining xavfsizligi bilan bog'liq holatlarda dori vositasini muomaladan chiqarish yoki uning qo'llanilishini to'xtatib turish.

23. Vakolatli organ tomonidan dori vositalarining "foйда-xavf" nisbatini baholashdagi o'zgarishlar asosida quyidagilar amalga oshiriladi:

dori vositalarining umumiy va qisqacha tavsifidagi va tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomadagi o'zgarishlar va qo'shimchalarni tasdiqlaydi;

dori vositasining klinik tadqiqotlarini yoki ularning alohida bosqichlarini o'tkazilishini to'xtatadi, shuningdek qo'shimcha klinik oldi va (yoki) klinik sinovlarni zarurat bo'lganida tayinlashga tavsiya beradi.

24. Vakolatli organ tomonidan dori vositalarining "foyda-xavf" nisbatini baholash yakunlaganidan so'ng, mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakldagi xulosani rasmiylashtiradi va bu haqida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligini hamda dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalarini, xulosani rasmiylashtirilgan kundan boshlab 10 kun ichida xabardor qiladi.

25. Xavfsizlik nazoratini xavf darajasiga mutanosib amalga oshirish maqsadida vakolatli organ, dori vositalari davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin xavfsizlik bo'yicha kengaytirilgan ma'lumot yig'ilishini talab etadigan dori vositalari ro'yxatini shakllantiradi hamda ushbu ro'yxatga kiritilgan dori vositalariga qo'shimcha monitoring tartibi joriy etiladi.

Vakolatli organ qo'shimcha monitoring joriy etilgan dori vositalarining yagona ro'yxatini tuzadi, yangilaydi va o'zining rasmiy veb-saytida e'lon qilib boradi.

26. Xavf belgisini (signalni) baholash bo'yicha tavsiyalar va natijalar vakolatli organ tomonidan internet tarmog'ida e'lon qilib boriladi.

**6-bob. Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalarining farmakologik nazorat tizimini vakolatli organ tomonidan o'rganish**

27. Vakolatli organ tomonidan dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalarining farmakologik nazorat tizimi "Zarur farmakonazorat amaliyoti – GVP" milliy standartiga muvofiqligi 30 kun ichida o'rganiladi va o'rganish tadbirlari esa quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalarining arizasiga asoslanib;

dori vositalarida nojo'ya reaksiyalar aniqlangan taqdirda.

Bunda vakolatli organ tomonidan o'rganish tadbirlarini o'tkazish uchun o'rganish dasturlari ishlab chiqiladi.

28. Vakolatli organ tomonidan ishlab chiqilgan o'rganish dasturlari asosida quyidagilar baholanadi:

farmakologik nazorat tizimining tashkil etilganligi;

nojo'ya reaksiyalarni yig'ish, qayd etish, baholash va xabardor qilish tartibi ishlab chiqilganligi;

xavflarni boshqarish rejalarining mavjudligi va ularning bajarilishi holati;

farmakologik nazorat bo'yicha mas'ul shaxs faoliyati;

jalb etilgan uchinchi shaxslar tomonidan majburiyatlarning bajarilishi;

farmakologik nazorat tizimining "Zarur farmakonazorat amaliyoti – GVP" milliy standartiga muvofiqlik darajasi.

29. Vakolatli organ tomonidan o'rganish tadbirlari yakunlanidan so'ng, 10 kun ichida o'rganish tadbirlari natijalari bo'yicha xulosa shakllantiriladi.

Xulosa asosida dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalarining farmakologik nazorat tizimi "Zarur farmakonazorat amaliyoti – GVP" milliy standartiga muvofiq deb topiladi yoki aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar keltiriladi.

30. Vakolatli organ tomonidan o'rganish tadbirlari natijalari bo'yicha berilgan xulosa asosida dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar va dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari o'zlarining farmakologik nazorat tizimini qayta ko'rib chiqadi va aniqlangan nomuvofiqliklarni (agar mavjud bo'lsa) bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi va buning natijasi yuzasidan hisobot tayyorlaydi hamda xulosa berilgan kundan boshlab 30 kun ichida uni vakolatli organga taqdim etadi.

**7-bob. Tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar aniqlangan holatlar to'g'risida vakolatli organni xabardor qilish**

31. Davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar va tibbiy jihozlarni ishlab chiqaruvchilar, tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari, tibbiy jihozlarni saqlovchi, ularni realizatsiya qiluvchi hamda qo'llovchi tashkilotlar tibbiy jihozlardan foydalanish chog'ida ularda noxush holatlar (insident) yoki reaksiyalar

aniqlangan barcha holatlar to'g'risida vakolatli organni mazkur bobda belgilangan muddatlarda ushbu Nizomning 6-ilovasida keltirilgan shakldagi Tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar aniqlangan holatlar to'g'risidagi xabarnoma orqali yozma yoki elektron shaklda xabardor qilishi lozim.

32. Davolash-profilaktika muassasasida davolanayotgan (shu jumladan, statsionar yoki ambulator sharoitda davolanayotgan) shaxsga nisbatan tibbiy jihozlarning foydalanish chog'ida ularda noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar kuzatilgan hollarda ushbu holatlarni aniqlagan tibbiyot xodimi mazkur holatlar bo'yicha quyidagi muddatlarda xabarnomani rasmiylashtiradi va uni vakolatli organga yuborilishini ta'minlaydi:

tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida aniqlangan noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar (insonning o'limiga olib kelganda yoki uning hayoti uchun xavf tug'dirganda) aniqlanganda – ushbu holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 2 kun ichida;

tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida aniqlangan noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar (insonni davolash-profilaktika muassasasiga yotqizishni yoki yotqizish muddatini uzaytirishni talab etadigan, uning mehnat layoqatsizligiga yoki nogironlikka, tug'ma anomaliyalarga yoxud rivojlanish nuqsonlariga olib keladigan) aniqlanganda – mazkur holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 3 kun ichida;

tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida aniqlangan noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar (inson organizmi uchun zararli bo'lgan boshqa holatlarda) aniqlanganda – ushbu holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 10 kun ichida.

33. Tibbiy jihozlarni klinik tadqiqotdan o'tkazgan davolash-profilaktika muassasasida shaxsga nisbatan tibbiy jihozlarning foydalanish chog'ida yoki tibbiy jihozlardan foydalanilgandan keyin unda noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar kuzatilgan yoki aniqlangan hollarda ushbu holatlarni aniqlagan tibbiyot xodimi ushbu holatlar bo'yicha mazkur Nizomning 32-bandida keltirilgan muddatlarda Tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida noxush holatlar (insident) yoki reaksiyalar aniqlangan holatlar to'g'risidagi xabarnoma rasmiylashtiradi va uni vakolatli organga yuborilishini ta'minlaydi.

34. Uy sharoitida davolangan bemor o'zi qo'llagan tibbiy jihozlarning noxush holatlari (insidenti) yoki nojo'ya reaksiyalari yuzasidan davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda, bemorni qabul qilgan tibbiyot xodimi unda kuzatilgan yoki aniqlangan

noxush holatlari (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar aynan u qo'llagan tibbiy jihozlarning qo'llanilishi oqibatida yuzaga kelganligiga ishonch hosil qilsa, ushbu holatlar bo'yicha mazkur Nizomning 32-bandida belgilangan muddatlarda Tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar aniqlangan holatlar to'g'risidagi xabarnomani rasmiylashtiradi va uni vakolatli organga yuborilishini ta'minlaydi.

35. Dorixonalar va tibbiy jihozlarni saqlovchi, ularni realizatsiya qiluvchi hamda foydalanuvchi tashkilotlar tibbiy jihozlarning foydalanilishi chog'ida yoki tibbiy jihozlardan foydalanilgandan keyin bemorlarda noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar kuzatilganligi yoki aniqlanganligi haqida ma'lumot olganda, bu haqda ularning mas'ul xodimlari tomonidan mazkur Nizomning 32-bandida belgilangan muddatlarda Tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar aniqlangan holatlar to'g'risidagi xabarnoma rasmiylashtiriladi va uni vakolatli organga yuborilishini ta'minlaydi.

36. Tibbiy jihozlarni ishlab chiqaruvchilar va tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tibbiy jihozlarning foydalanilishi chog'ida yoki foydalanilgandan keyin ularda noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar aniqlanganligi haqida ma'lumot olganda, bu haqda ularning mas'ul xodimlari tomonidan quyidagi muddatlarda Tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar aniqlangan holatlar to'g'risidagi xabarnoma rasmiylashtiriladi va uni vakolatli organga yuborilishi ta'minlanadi:

tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida aniqlangan noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar (insonning o'limiga olib kelganda yoki uning hayoti uchun xavf tug'dirganda) aniqlanganda – ushbu holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 2 kun ichida;

tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida aniqlangan noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar (insonni davolash-profilaktika muassasasiga yotqizishni yoki yotqizish muddatini uzaytirishni talab etadigan, uning mehnat layoqatsizligiga yoki nogironlikka, tug'ma anomaliyalarga yoxud rivojlanish nuqsonlariga olib keladigan) aniqlanganda – mazkur holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 15 kun ichida;

tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida aniqlangan noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar (inson organizmi uchun zararli bo'lgan boshqa holatlarda) aniqlanganda – ushbu holat qayd etilgan vaqtdan boshlab 60 kun ichida.

37. Xabarnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi hamda uning o'z vaqtida rasmiylashtirilishi va yuborilishi uchun xabarnomani imzolagan shaxs mas'ul hisoblanadi.

### **8-bob. Vakolatli organ tomonidan tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringining amalga oshirilishi**

38. Vakolatli organ tomonidan tibbiy jihozlardan foydalanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar aniqlangan barcha holatlar haqida xabar kelib tushgan kundan boshlab 60 kun ichida (insonning o'limiga olib kelgan yoki hayot uchun xavf tug'dirgan holatlarda 30 kun ichida) o'rganib chiqiladi. Bunda, o'rganib chiqish davomida quyidagilar amalga oshiriladi:

xabarnomalarni ro'yxatga olish, ulardagi ma'lumotlarni validatsiya va verifikatsiya qilish;

xabarnomalarning takroriy ekanligini o'rganish;

davolash-profilaktika muassasalari, dorixonalar hamda tibbiy jihozlarini ishlab chiqaruvchi, tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari, tibbiy jihozlarni realizatsiya qiluvchi va qo'llovchi tashkilotlar taqdim etgan qo'shimcha ma'lumotlarni (texnik, tibbiy, epidemiologik, ilmiy va klinik ma'lumotlar, tibbiy jihozning davlat ro'yxatidan o'tkazish hujjatlari, tibbiy adabiyotlardagi maqolalar va boshqalar) tahlil qilish;

qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etilmagan hollarda davolash-profilaktika muassasalaridan birlamchi tibbiy hujjatlarning nusxasini, dorixonalar va tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalariidan qo'shimcha ravishda birlamchi tibbiy hujjatlar, zarur hollarda gumon qilinayotgan tibbiy jihozning namunalari hamda tibbiy jihozlarga tegishli boshqa ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yuborish;

tibbiy jihoz namunalarini o'ziga tegishli standart talablariga muvofiqligini aniqlash va uning natijalarini baholash;

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Yevropa tibbiy jihozlari agentligi, Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqining rasmiy veb-saytlarini, xorijiy va mahalliy ilmiy-tibbiy nashrlaridagi ma'lumotlarni kuzatish, o'rganish va tahlil qilish;

insonning o'limiga olib kelgan yoki hayot uchun xavf tug'dirgan tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar holatini baholash;

noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalarning klinik ko'rinishlarini, tibbiy jihozning qo'llanilishi va noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini, shuningdek kutilayotgan foydaning tibbiy jihozlar qo'llanilishining ehtimol tutilgan xavfiga nisbatini aniqlash.

39. Vakolatli organ tomonidan tibbiy jihozlardan foydalanilishi chog'ida noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar aniqlangan holatlar o'rganib chiqilishi tugallangan kunning o'zida quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

agar noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar tibbiy jihozning qo'llanilishiga doir yo'riqnomasida ko'rsatilgan klinik ahamiyati yengil, qisqa muddatli bo'lsa hamda inson hayoti va sog'lig'i uchun jiddiy xavf tug'dirmasa, doimiy monitoring doirasida kuzatishda qoldirish;

tibbiy jihozlarning qo'llanilishi va noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligi mavjud bo'lgan holda tibbiy jihozning foydalanish yoki qo'llanilishiga doir yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga tavsiya etish;

tibbiy jihozlar qo'llanilganda tibbiy jihozlarning xavfsizligi va samaradorligiga doir belgilangan talablarga uning nomuvofiqligi to'g'risidagi dalillar aniqlangan taqdirda bunday tibbiy jihozni muomaladan chiqarish yoki uning qo'llanilishini to'xtatib turish.

### **9-bob. Tibbiy jihozlarning “foйда-xavf” nisbatini baholash monitoringi**

40. Tibbiy jihozlarni muomalaga kiritish va foydalanish jarayonida kutilayotgan foyda hamda inson hayoti va sog'lig'iga yetkazilishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash, baholash va doimiy nazorat qilish maqsadida tibbiy jihozlarni ishlab chiqaruvchilar hamda tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan tibbiy jihozlarning “foйда-xavf” nisbatini baholash monitoringi doimiy ravishda amalga oshirib borilishi lozim.

41. Tibbiy jihozlarni ishlab chiqaruvchilar hamda tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan tibbiy jihozlarning “foйда-xavf” nisbatini baholash monitoringi doirasida tibbiy jihozlardan foydalanish bilan bog'liq

noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar, jiddiy asoratlar, nosozliklar, foydalanishdagi xatoliklar, shikoyatlar va boshqa xavfsizlikka ta'sir etuvchi holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi.

Yig'ilgan ma'lumotlar tizimli ravishda tahlil qilinib, tibbiy jihozlarning real sharoitdagi xavfsizligi, samaradorligi hamda "foйда-xavf" nisbatining tibbiy jihozlarning amaldagi standartlar va foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar yoki qo'llanmalarga mosligi baholanadi.

42. Tibbiy jihozlardagi xavflarni kamaytirish, ularning oldini olish maqsadida xavfni boshqarish rejasi ishlab chiqiladi. Xavfni boshqarish rejasida aniqlangan har bir xavf bo'yicha texnik, tashkiliy choralar belgilanadi hamda ularni amalga oshirish muddati va mas'ul shaxslar ko'rsatiladi.

Xavfni boshqarish rejasi ijrosi monitoring qilinadi, ko'rilgan choralar samaradorligi baholanadi hamda rejaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

43. Monitoring va xavfni boshqarish jarayonlari natijalari asosida tibbiy jihozlar bo'yicha xavflarni tahlil qilish yuzasidan mazkur Nizomning 7-ilovasida ko'rsatilgan shakldagi Xavfni boshqarish va tahlil qilish davriy hisoboti tayyorlanadi.

Tayyorlangan xavfni boshqarish va tahlil qilish davriy hisoboti tibbiy jihozlarni ishlab chiqaruvchilar hamda tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan 3 yil davomida har yili vakolatli organga taqdim etib borilishi kerak.

44. Vakolatli organ tibbiy jihozlarni ishlab chiqaruvchilar hamda tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari tomonidan amalga oshirilgan "foйда-xavf" nisbatini monitoring o'tkazish orqali baholaydi.

Baholashda vakolatli organ:

ishlab chiqaruvchilar hamda tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari taqdim etilgan xavfsizlik monitoring hujjatlari to'plamini ular taqdim etilgan kundan boshlab 60 kun ichida ekspertizadan o'tkazadi va tahlil qiladi;

tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyingi davrda hayot uchun xavf tug'dirgan noxush holatlar (insident) yoki reaksiyalar, xavfsizligi va samarasizligi aniqlangan vaqtda xavfsizlik monitoring tizimini "Tibbiy buyumlar – Sifat menejmenti tizimlari –

Tartibga solish maqsadlari uchun talablar” milliy standartidagi audit talablariga muvofiq o‘rganish o‘tkazadi.

45. Vakolatli organ baholash yakunlangan kundan boshlab 10 kun ichida quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

tibbiy jihozdan foydalanishni davom ettirish;

tibbiy jihozni foydalanish yoki qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnomaga tegishli o‘zgartirishlar kiritish;

agar xavf yuqori bo‘lsa, tibbiy jihozdan foydalanishni xavfni kamaytirilgunga qadar vaqtincha to‘xtatish yoki cheklash;

tibbiy jihozlar qo‘llanilganda tibbiy jihozlarning xavfsizligi va samaradorligiga doir belgilangan talablarga uning nomuvofiqligi to‘g‘risidagi dalillar aniqlangan taqdirda bunday tibbiy jihozni muomaladan chiqarish yoki uning qo‘llanilishini to‘xtatib turish.

#### **10- bob. Yakuniy qoida**

46. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Dori vositalarining farmakologik nazorati  
va tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringini  
amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga  
1-ILOVA

**Dori vositasi qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar yoki  
samarasizlik aniqlangan barcha holatlar to'g'risidagi  
XABARNOMA**

| <b>Xabarnomaning turi:</b><br><input type="checkbox"/> spontan <input type="checkbox"/> adabiyot ma'lumotlari  |  |                      |                              |   |                            |                         |                |
|--|--|----------------------|------------------------------|---|----------------------------|-------------------------|----------------|
| <b>Dori vositasining nojo'ya reaksiyalari yoki samarasizligini kuzatgan yoki aniqlagan shaxs:</b><br>F.I.O: _____ Lavozimi: _____<br>Ish joyi: _____<br>Telefon raqami: _____<br>Elektron pochta manzili (e-mail): _____   |  |                      |                              |   |                            |                         |                |
| <b>Dori vositasining nojo'ya reaksiyalari yoki samarasizligi kuzatilgan bemor haqidagi ma'lumotlar:</b><br>F.I.O (bemorning kodi) _____<br>Ambulator karta yoki kasallik tarixi raqami: _____<br>Jinsi: <input type="checkbox"/> Erkak <input type="checkbox"/> Ayol Tug'ilgan vaqti: "____" _____ yil Tana vazni (kg): _____<br>Bo'yi (sm): _____<br>Homiladorligi: <input type="checkbox"/> homiladorlik muddati _____ hafta<br>Allergiyaning mavjudligi: <input type="checkbox"/> yo'q <input type="checkbox"/> ha<br>Allergiya haqida ma'lumot: _____<br>_____<br>_____<br>Davolanish: <input type="checkbox"/> ambulator <input type="checkbox"/> statsionar <input type="checkbox"/> uy sharoitida |  |                      |                              |   |                            |                         |                |
| <b>Dori vositasini qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik aniqlangan holatlar haqida ma'lumotlar:</b>  |  |                      |                              |   |                            |                         |                |
| T/r  | Savdo nomi (xalqaro patentlanmagan nomi) | Ishlab chiqaruvchisi | Seriya va yaroqlilik muddati | Dori vositasining qo'llanilgan dozasi   | Davolanish boshlangan sana | Davolanish tugagan sana | Qo'llash usuli |
| 1.   |  |                      |                              |   |                            |                         |                |
| 2.   |  |                      |                              |   |                            |                         |                |
| ...  |  |                      |                              |   |                            |                         |                |
| <b>Dori vositasining qo'llanilishi bo'yicha ko'rsatmalar:</b><br>_____<br>_____  |  |                      |                              |   |                            |                         |                |
| <b>Nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik haqida qisqacha ma'lumot:</b><br>_____<br>_____<br>_____<br>_____<br>_____  |  |                      |                              | <b>Nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik boshlangan sana:</b><br>"____" _____ 20__-yil.<br><b>Nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik tugagan sana:</b><br>"____" _____ 20__-yil. |                            |                         |                |

**Nojo'ya reaksiyalar yoki samarasizlik haqida to'liq ma'lumot (laborator va instrumental ko'rsatkichlar):**

**Nojo'ya reaksiyaning oqibatlari:**

- o'lim holati bilan yakunlangan
- hayotga jiddiy xavf solgan
- davolash-profilaktika muassasasiga statsionar tibbiy yordam ko'tsatish uchun yotqizilgan yoki statsionar tibbiy yordamni ko'satish muddati uzaytirilgan
- nogironlik holati vujudga kelgan
- tug'ma anomaliyalar paydo bo'lgan
- klinik ahamiyatli hodisalarni yuzaga kelgan
- dori vositasining ta'siri yo'qligi aniqlangan

**Nojo'ya reaksiyaning oldini olish bo'yicha ko'rilgan choralar:**

- davolashning imkoni yo'qligi
- dori vositasini qabul qilishning bekor qilinishi
- dori vositasining dozasini kamaytirilishi
- dori vositasi bilan davolashni davom ettirilishi
- dori vositasiz davolashni davom etilishi, shu jumladan jarrohlik aralashuvi

**Nojo'ya reaksiyaning oldini olish bo'yicha ko'rilgan choralarning natijasi:**

- holati yaxshilangan
- holati yomonlashgan
- holati o'zgarishsiz qolgan
- asoratlar bilan sog'aygan
- asoratsiz sog'aygan
- tug'ma nuqsonlar vujudga kelgan
- davolash-profilaktika muassasasiga statsionar tibbiy yordam ko'tsatish uchun yotqizilgan
- noma'lum holatlar vujudga kelgan
- o'lim holati bilan yakunlangan

**Dori vositasining bekor qilinganidan keyin nojo'ya reaksiyaning yo'qolishi kuzatilganmi?**

- ha  yo'q

**Dori vositasi takroran qabul qilinganmi?**

- ha (uning natijasi \_\_\_\_\_)
- yo'q

**Oxirgi 3 oy davomida qabul qilingan boshqa dori vositalari, shu jumladan bemor tomonidan o'z xohishiga ko'ra mustaqil ravishda qabul qilingan dori vositalari haqida ma'lumot:**

| T/r | Savdo nomi (xalqaro patentlangan nomi) | Ishlab chiqaruvchisi | Seriyasi va yaroqlilik muddati | Dori vositasining qo'llanilgan dozasi | Davolanish boshlangan sana | Davolanish tugagan sana | Qo'llash usuli |
|-----|--|----------------------|--------------------------------|---------------------------------------|----------------------------|-------------------------|----------------|
| 1.  |  |                      |                                |                                       |                            |                         |                |
| 2.  |  |                      |                                |                                       |                            |                         |                |
| ... |  |                      |                                |                                       |                            |                         |                |

**Qo'shimcha ma'lumotlar (nojo'ya reaksiyalar bilan bog'liq bo'lgan klinik, laboratoriya, rentgenologik tadqiqotlar va otopsiya ma'lumotlari, shuningdek qonda (to'qimalarda) dori vositalarining konsentratsiyasini aniqlash (mazkur ma'lumotlar sanasi bilan ko'rsatiladi):**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Anamnez ma'lumotlari:**

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

Shubha qilinayotgan dori vositalarining o'zaro ta'sirlari:

Tug'ma anomaliyalar uchun homiladorlik davrida qabul qilingan boshqa dori vositalarini sanab o'ting va oxirgi hayz sanasini ko'rsating:

Boshqa qo'shimcha ma'lumotlar (aniqlansa):

Nojo'ya reaksiyaning rivojlanishi bilan dori vositalari orasida sabab-oqibatlarining bog'liqligi:

aniq (isbotlangan)  ehtimoliy  bo'lishi mumkin  shubhali  bog'liq emas

Mazkur xabarnoma rasmiylashtirgan shaxsning imzosi \_\_\_\_\_

sanasi \_\_\_\_\_

------(qirqish chizig'i agarda mazkur xabarnoma yozma shaklda berilsa)-----

**Dori vositasining qo'llanilishi chog'ida nojo'ya reaksiya aniqlangan holatlar haqidagi xabarnoma kartasini qabul qiluvchi shaxs haqidagi ma'lumotlar:**

F.I.O: \_\_\_\_\_; Lavozimi: \_\_\_\_\_

Xabarnoma qabul qilingan sana: "\_\_\_" \_\_\_\_\_ 20\_\_\_-yil; Telefon raqami: \_\_\_\_\_

Imzosi: \_\_\_\_\_

Dori vositalarining farmakologik nazorati  
va tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringini  
amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga  
2-ILOVA

**Dori vositasining klinik tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida nojo'ya reaksiyalar  
yoki samarasizlik aniqlangan barcha holatlar to'g'risidagi  
XABARNOMA**

|  |  |
|--|--|
| Davolash-profilaktika muassasasining nomi  |  |
| Klinik tadqiqot bayonnomasining nomi   |  |
| Klinik tadqiqot bayonnomasining raqami   |  |
| Klinik tadqiqot o'tkazishga ruxsat berilgan qarorning raqami   |  |
| Klinik tadqiqotning identifikatsion raqami   |  |
| Dori vositasining nomi   |  |
| <b>Dori vositasining nojo'ya reaksiya yoki samarasizligi haqida ma'lumot:</b>  |  |
| 1. Bemorning F.I.O   |  |
| 2. Bemorning yashash joyi  |  |
| 3. Bemorning tug'ilgan sanasi  |  |
| 4. Bemorning yoshi   |  |
| 5. Bemorning jinsi   |  |
| 6. Nojo'ya reaksiya yoki samarasizlikning boshlanish sanasi  |  |
| 7. Nojo'ya reaksiyaning oqibatlari:<br><input type="checkbox"/> o'lim holati bilan yakunlangan<br><input type="checkbox"/> hayotga jiddiy xavf solgan<br><input type="checkbox"/> davolash-profilaktika muassasasiga statsionar tibbiy yordam ko'tsatish uchun yotqizilgan yoki statsionar tibbiy yordamni ko'satish muddati uzaytirilgan<br><input type="checkbox"/> nogironlik holati vujudga kelgan<br><input type="checkbox"/> tug'ma anomaliyalar paydo bo'lgan<br><input type="checkbox"/> klinik ahamiyatli hodisalar yuzaga kelgan<br><input type="checkbox"/> dori vositasining ta'siri yo'qligi aniqlangan |  |
| 8. Nojo'ya reaksiya yoki samarasizlik haqida to'liq ma'lumot (laborator va instrumental ko'rsatkichlar):<br>_____<br>_____   |  |
| <b>Gumon qilinayotgan dori vositasi haqida ma'lumot:</b>   |  |
| 9. Savdo nomi (xalqaro patentlanmagan nomi)  |  |
| 10. Dori vositasining qo'llanilgan dozasi (sutkalik)   |  |
| 11. Qo'llash ko'rsatmasi   |  |
| 12. Qo'llash usuli   |  |
| 13. Davolash sanasi (davolashning boshlangan vaqti bilan tugash vaqti)   |  |
| 14. Davolash davomiyligi (kun)   |  |
| 15. Dori vositasi qabul qilish to'xtatilganidan so'ng, nojo'ya reaksiya yo'qoldimi?<br><input type="checkbox"/> ha <input type="checkbox"/> yo'q <input type="checkbox"/> noaniq   |  |

|   |  |
|---|--|
| 16. Dori vositasi qayta qabul qilganda, nojo‘ya reaksiya paydo bo‘ldimi?<br><input type="checkbox"/> ha <input type="checkbox"/> yo‘q <input type="checkbox"/> noaniq |  |
| <b>Yondosh dori terapiyasi va anamnezi haqida ma’lumot:</b>   |  |
| 17. Yondosh dori vositasi va yuborish sanalari (nojo‘ya reaksiyani davolash uchun qo‘llanilgan dori vositalari bundan mustasno)                                       |  |
| 18. Anamnezning boshqa tegishli ma’lumotlari (masalan, tashxislar, allergiyalar, oxirgi hayz ko‘rish sanasini ko‘rsatilishi bilan homiladorlik)                       |  |
| <b>Dori vositasining ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasi egasi haqida ma’lumot:</b>   |  |
| 19. Dori vositasining ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasi egasining nomi, manzili hamda elektron pochta manzili   |  |
| 20. Dori vositasini ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomasi egasi tomonidan nojo‘ya reaksiya haqida ma’lumot olingan sana   |  |
| 21. Xabarning turi va sanasi “ ___ ” _____ 20__-yil<br><input type="checkbox"/> birinchi marta <input type="checkbox"/> takroran                                      |  |
| 22. Mazkur xabarnoma rasmiylashtirgan shaxsning F.I.O _____<br>Lavozimi: _____; Telefon raqami: _____<br>Imzosi: _____; Sanasi: “ ___ ” _____ 20__-yil.               |  |

Dori vositalarining farmakologik nazorati  
va tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringini  
amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga  
3-ILOVA

CIOMS SHAKLI/CIOMS FORM

|   |  |
|---|--|
| Nojo'ya reaksiya haqida hisobot/<br>Suspect adverse reaction report |  |
|   |  |
|   |  |

I. Nojo'ya reaksiya haqida ma'lumot/Reaction information

|   |                        |                                     |          |          |                                  |               |   |          |          |   |
|---|------------------------|-------------------------------------|----------|----------|----------------------------------|---------------|---|----------|----------|---|
| 1. Bemorning ismi va familiyasi / patient initials (first, last)  | 1a. Mamlakat / Country | 2. Tug'ilgan sanasi / Date of birth |          |          | 2a. Yoshi (yillarda) / Age years | 3. Jins / Sex | 4-6 Nojo'ya ta'sir boshlangan sanasi / Reaction onset |          |          | 8-12 Nojo'ya reaksiyaga tegishli holatlarni belgilang / Check all appropriate to adverse reaction |
|   |                        | Kun/Day                             | Oy/Month | Yil/Year |                                  |               | Kun/Day   | Oy/Month | Yil/Year |   |
| 7-13 Nojo'ya reaksiyani tavsiflang (tegishli testlar/laboratoriya ma'lumotlarini qo'shgan holda) / Describe reaction(s) (including relevant tests/lab data) |                        |                                     |          |          |                                  |               |   |          |          |   |

II. Nojo'ya reaksiyaga shubha qilinayotgan dori vositasi haqida ma'lumot /suspect drug(s) information

|   |   |  |  |
|---|---|--|--|
| 14. Nojo'ya reaksiyaga shubha qilinayotgan dori vositasi(lar) (umumiy nomini ham ko'rsating)/suspect drug(s) (include generic name) |   | 20. Dori vositasini to'xtatgandan so'ng nojo'ya ta'sir yo'qoldi-mi? /Did reaction abate after stopping drug?<br><input type="checkbox"/> ha / yes <input type="checkbox"/> yoq / no<br><input type="checkbox"/> tegishli emas / na |  |
| 15. Kunlik doza(lar)/ daily dose(s)   | 16. Qo'llash yo'li(lar)/ Route(s) of administration | 21. Qayta qo'llanganidan keyin reaksiya yana paydo bo'ldimi? / Did reaction reappear after reintroduction?<br><input type="checkbox"/> ha / yes <input type="checkbox"/> yoq / no <input type="checkbox"/> tegishli emas / na      |  |
| 17. Qo'llanish ko'rsatmasi(lar)/ Indication(s) for use  |   |  |  |
| 18. Davolash sanalari (dan/gacha)/ Therapy dates (from/to)  |   | 19. Davolash muddati /Therapy duration   |  |

III. Bir vaqtning o'zida qo'llanilgan dori vositalari va tarixi / concomitant drug(s) and history

|  |
|--|
| 22. Bir vaqtning o'zida qo'llanilgan dori vositalari va ularni qo'llash sanalari (nojo'ya ta'sirni davolash uchun qo'llanganlarini kiritmang) / Concomitant drug(s) and dates of administration (exclude those used to treat reaction)             |
| 23. Boshqa tegishli tarixiy ma'lumotlar (masalan, diagnostika natijalari, allergiyalar, homiladorlik va oxirgi hayz oyining sanasi va boshqalar) / Other relevant history (e.g. diagnostics, allergies, pregnancy with last month of period, etc.) |

IV. Ishlab chiqaruvchi haqida ma'lumot / Manufacturer information

|   |  |
|---|--|
| 24a. Ishlab chiqaruvchining nomi va manzili / Name and address of manufacturer        | 24b. Ishlab chiqaruvchi nazorat raqami / Mfr control no.   |
| 24c. Ishlab chiqaruvchi tomonidan qabul qilingan sana / Date received by manufacturer | 24d. Hisobot manbasi / Report source<br><input type="checkbox"/> tadqiqot / study<br><input type="checkbox"/> adabiyot / literature<br><input type="checkbox"/> tibbiy mutaxassis /health professional |
| Ushbu hisobot tuzilgan sana / date of this report                                     | 25a. Hisobot turi /Report type<br><input type="checkbox"/> dastlabki / initial<br><input type="checkbox"/> qo'shimcha (yangilangan) / followup   |

Dori vositalarining farmakologik nazorati  
va tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringini  
amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga  
4-ILOVA

**Dori vositalarining “foйда–xavf” nisbatini baholash bo'yicha  
HISOBOT**

| <b>1. Dori vositasi haqida umumiy ma'lumotlar</b>   |  |
|---|--|
| Dori vositasining savdo nomi  |  |
| Xalqaro patentlanmagan nomi   |  |
| Farmakoterapevtik guruh (ATX-kodi)  |  |
| Dori shakli va konsentratsiyalari   |  |
| Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar / dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari                       |  |
| Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasining raqami  |  |
| Qiyosiy dori vositasi (agar mavjud bo'lsa)  |  |
| O'zbekiston Respublikasida birinchi marta davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana   |  |
| <b>2. Farmakologik nazorat tizimi</b>   |  |
| Farmakologik nazorat tizimi master-faylining formati va mazmuni   |  |
| Farmakologik nazorat bo'yicha mas'ul xodim haqida ma'lumot ( <i>F.I.O, lavozimi va ma'lumoti</i> )  |  |
| Farmakologik nazorat majburiyatlarining bajarilishi   |  |
| Farmakologik nazorat tizimi holati bo'yicha xulosa  |  |
| <b>3. Xavfsizlik bo'yicha ma'lumotlarini tahlil qilish</b>  |  |
| XDYaH formati va mazmuni  |  |
| Barcha kelib tushgan nojo'ya reaksiyalar va samaradorlik haqidagi xabarlarini ko'rib chiqish (jiddiy va kutilgan reaksiyalar bilan birga) |  |
| Aniqlangan xavf belgilari (signallar) va ularning tahlili   |  |
| Xavfsizlik nuqtayi nazaridan qo'shimcha choralar bo'yicha tavsiyalar  |  |
| <b>4. Xavflarni boshqarish rejasi</b>   |  |
| Xavflarni boshqarish rejasining tavsifi   |  |
| Mavjud va ehtimoliy xavflarni identifikatsiya qilish  |  |
| Xavflarni minimallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan yoki rejalashtirilgan choralar   |  |
| Amalga oshirilgan choralarning samaradorligini baholash   |  |
| Xavflarni boshqarish rejasini o'zgartirish bo'yicha xulosa va takliflar (agar zarur bo'lsa)   |  |
| <b>5. Xalqaro manbalardan olingan ma'lumotlarni baholash</b>  |  |
| Boshqa mamlakatlardan xavfsizlik bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish (vakolatli organlar, ilmiy nashrlar, xalqaro ma'lumot bazalari)     |  |
| Olingan ma'lumotlarning sifati va muvofiqligini tahlil qilish   |  |
| Mahalliy foydalanish uchun xulosalar  |  |
| <b>6. Milliy baza ma'lumotlarida xavfsizlik monitoringi</b>   |  |
| Milliy bazada ro'yxatga olingan nojo'ya reaksiyalar haqidagi xabarlar soni  |  |

|   |  |
|---|--|
| Hisobga olingan reaksiyalar xususiyati va jiddiyligi  |  |
| Dori vositasining iste'moli (savdo hajmi, ekspozitsiyasi) haqidagi ma'lumotlar  |  |
| <b>7. Original dori vositalari bilan qiyosiy tahlil</b>   |  |
| Mahalliy ma'lumotni original dori vositalari bilan taqqoslash natijalari  |  |
| Xavfsizlik va qo'llanilish bo'yicha asosiy parametrlarga muvofiqligi  |  |
| Umumiy xulosalar va tavsiyalar  |  |
| <b>8. Xulosalar va tavsiyalar</b>   |  |
| "Foyda-xavf" nisbati bo'yicha umumiy baho   |  |
| Xavflarni boshqarish rejasi yoki dori vositalarining tibbiyotda qo'llanilishiga doir yo'riqnomaga o'zgarishlar kiritish zarurligi bo'yicha tavsiyalar |  |
| Qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurligi bo'yicha takliflar   |  |
| Dori vositasining xavfsizligi va samaradorligiga oid boshqa takliflar   |  |

**Farmakologik nazorat bo'yicha mas'ul xodim**

\_\_\_\_\_ (F.I.O) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (sana)

**Korxonra rahbari**

\_\_\_\_\_ (F.I.O) \_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (sana)

Dori vositalarining farmakologik nazorati  
va tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringini  
amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga  
5-ILOVA

**Dori vositasining “foйда-xavf” nisbati to'g'risida  
XULOSA**

|  |  |
|--|--|
| <b>1. Asosiy ma'lumotlar</b>   |  |
| Dori vositalarining savdo nomi   |  |
| Xalqaro patentlanmagan nomi  |  |
| Farmakoterapevtik guruh (ATX-kodi)   |  |
| Dori shakli va konsentratsiyalari  |  |
| Dori vositalarini ishlab chiqaruvchilar yoki dori vositalarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasi egalari                   |  |
| Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik guvohnomasining raqami   |  |
| Qiyosiy dori vositasi (agar mavjud bo'lsa)   |  |
| O'zbekiston Respublikasida birinchi marta davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana  |  |
| <b>2. Xavf va foyda nisbatini baholash</b>   |  |
| <b>Farmakologik nazorat tizimining master-fayli</b>  |  |
| Farmakologik nazorat tizimi master-faylining formati va mazmuni  |  |
| Farmakologik nazorat bo'yicha mas'ul xodim haqida ma'lumot ( <i>F.I.O, lavozimi va ma'lumoti</i> )                                       |  |
| Farmakologik nazorat bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi tahlili  |  |
| Farmakologik nazorat tizimi holati bo'yicha xulosa   |  |
| <b>Xavfsizlik bo'yicha davriy yangilanadigan hisobot</b>   |  |
| Xavfsizlik bo'yicha davriy yangilanadigan hisobot formati va mazmuni   |  |
| Barcha kelib tushgan nojo'ya reaksiyalar va samaradorlik haqidagi xabarlarni ko'rib chiqish (jiddiy va kutilgan reaksiyalar bilan birga) |  |
| Aniqlangan xavf belgilari (signallar) va ularning tahlili  |  |
| Xavfsizlik nuqtai nazaridan qo'shimcha choralar bo'yicha tavsiyalar  |  |
| <b>Xavflarni boshqarish rejasi</b>   |  |
| Xavflarni boshqarish rejasining tavsifi  |  |
| Mavjud va ehtimoliy xavflarni identifikatsiya qilish   |  |
| Xavflarni minimallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan yoki rejalashtirilgan choralar  |  |
| Amalga oshirilgan choralarning samaradorligini baholash  |  |
| Xavflarni boshqarish rejasini o'zgartirish bo'yicha xulosa va takliflar (agar zarur bo'lsa)  |  |
| <b>Xalqaro manbalardan olingan ma'lumotlarni baholash</b>  |  |
| Boshqa mamlakatlardan xavfsizlik bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish (vakolatli organlar, ilmiy nashrlar, xalqaro ma'lumot bazalari)    |  |
| Olingan ma'lumotlarning sifati va muvofiqligini tahlil qilish  |  |
| Mahalliy foydalanish uchun xulosalar   |  |
| <b>Milliy bazadagi vositalar xavfsizligi monitoringi</b>   |  |

|  |  |
|--|--|
| Milliy bazada ro'yxatga olingan nojo'ya reaksiyalar haqidagi xabarlar soni     |  |
| Hisobga olingan reaksiyalar xususiyati va jiddiyliigi                          |  |
| Dori vositasining iste'moli (savdo hajmi, ekspozitsiyasi) haqidagi ma'lumotlar |  |
| <b>3. Yakuniy xulosa</b>   |  |
| _____  |  |
| _____  |  |
| _____  |  |
| _____  |  |

**Dori vositasining "foйда-xavf" nisbati to'g'risida xulosani to'lirgan shaxs:**

\_\_\_\_\_ (F.I.O)                      \_\_\_\_\_ (imzo)                      \_\_\_\_\_ (sana)

**Tarkibiy bo'lim rahbari:**

\_\_\_\_\_ (F.I.O)                      \_\_\_\_\_ (imzo)                      \_\_\_\_\_ (sana)

Dori vositalarining farmakologik nazorati  
va tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringini  
amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga  
6-ILOVA

**Tibbiy jihozlarning qo'llanilishi chog'ida noxush holatlar (insident) yoki nojo'ya reaksiyalar  
aniqlangan holatlar to'g'risidagi  
XABARNOMA**

|    |   |  |
|----|---|--|
| 1. | a) xabarnoma yuboruvchi shaxsning F.I.O. (tibbiy jihozlarni muomala qilgan shaxs)   |  |
|    | b) manzil   |  |
|    | v) aloqa telefoni, faks   |  |
| 2. | a) tibbiy jihozning nomi  |  |
|    | b) modeli   |  |
|    | g) seriya raqami  |  |
|    | d) partiya yoki seriya raqami   |  |
|    | e) ro'yxatdan o'tkazilganlik guvoohnomasining raqami  |  |
| 3. | a) ishlab chiqaruvchining nomi  |  |
|    | b) manzili (ma'lumot mavjud bo'lganda)  |  |
| 4. | a) yetkazib beruvchining nomi (ma'lumotlar mavjud bo'lganda)  |  |
|    | b) kontaktlar (manzil, telefon)   |  |
| 5. | Tibbiy jihoz ishlab chiqarilgan sana (kun/oy/yil)   |  |
| 6. | Yaroqlilik muddatining tugash sanasi (kun/oy/yil) (ma'lumot mavjud bo'lsa)  |  |
| 7. | Ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan kafolat muddati va foydalanish muddatining tugash sanasi (kun/oy/yil) (ma'lumot mavjud bo'lsa)         |  |
| 8. | Jiddiy va (yoki) kutilmagan nojo'ya reaksiyalar, nojo'ya ta'sirlar, kamchiliklar, nosozliklar yoki nomuvofiqliklar aniqlangan sana (kun/oy/yil) |  |
| 9. | Tibbiy jihozni qo'llash bilan bog'liq noxush holat/reaksiya (insident) toifasi (keraklisini tanlash):   |  |
|    | <input type="checkbox"/> tibbiy jihozni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma yoki qo'llanmada ko'rsatilmagan jiddiy va (yoki) kutilmagan nojo'ya ta'sir |  |
|    | <input type="checkbox"/> tibbiy jihozni qo'llashdagi nojo'ya ta'sir   |  |
|    | <input type="checkbox"/> tibbiy jihozlarning o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari  |  |

|     |  |  |
|-----|--|--|
|     | <input type="checkbox"/> tibbiy jihozning sifatsizligi   |  |
|     | <input type="checkbox"/> tibbiy jihozlarni qo'llash va ulardan foydalanishda aholi hamda tibbiyot xodimlarining hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diruvchi holatlar |  |
|     | <input type="checkbox"/> noxush hodisa (insident) ning boshqa holatlari  |  |
| 10. | Foydalanuvchi yoki tibbiy tashkilot tomonidan nojo'ya holatni (insidentni) bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar                                     |  |
| 11. | Yetkazilgan zarar  |  |
| 12. | Izoh   |  |

Ushbu xabarnomada keltirilgan ma'lumotlarning ishonchliligini kafolatlayman.

Nojo'ya holatdan (insident) dalolat beruvchi hujjatlar nusxasi, \_\_\_ varaqda 1 nusxada.  
Xabarnoma yuboruvchi shaxs:.

\_\_\_\_\_ (lavozim) \_\_\_\_\_ (Imzo) \_\_\_\_\_ (F.I.O)

"\_\_" \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.

Dori vositalarining farmakologik nazorati  
va tibbiy jihozlarning xavfsizligi monitoringini  
amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga  
7-ILOVA

**Xavfni boshqarish va tahlil qilish davriy hisoboti**

|  |  |
|--|--|
| 1. Axborot   |  |
| Tashkilotning nomi   | Belgilash joyi<br>davlat organi (sana, ro'yxatdan<br>o'tkazish raqami) |
| Tashkilotning manzili  |  |
| Hisobot turi:  |  |
|  | <input type="checkbox"/> Dastlabki hisobot                             |
|  | <input type="checkbox"/> Davriy hisobot                                |
|  | <input type="checkbox"/> Yakuniy hisobot                               |
| Hisobot sanasi   |  |
| Hisobotning raqami   |  |
| 2. Hisobot taqdim etuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar:                 |  |
|  |  |
|  |  |
|  |  |
| 3. Ishlab chiqaruvchi haqidagi ma'lumotlar                                 |  |
| Ishlab chiqaruvchi nomi  |  |
| Aloqada bo'lgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo'lsa) |  |
| Manzil   |  |
| Indeks   | Shahar   |
| Telefon  | Faks (mavjud bo'lsa)   |
| Elektron pochta  | Mamlakat   |
| 4. Vakolatli vakilning ma'lumotlari (mavjud bo'lganda)                     |  |
| Vakolatli vakilning nomi   |  |
| Aloqada bo'lgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo'lsa) |  |
| Manzil   |  |
| Indeks   | Shahar   |
| Telefon  | Faks (mavjud bo'lsa)   |
| Elektron pochta  | Mamlakat   |
| 5. Tibbiy jihoz to'g'risidagi ma'lumotlar                                  |  |
| Tibbiy jihozni qo'llashning potensial xavfi sinfi:                         |  |
|  |  |
| Tibbiy jihozlar nomenklaturasiga muvofiq tibbiy jihoz turining kodi:       |  |

|   |
|---|
| Tibbiy jihozning nomi:  |
| Tibbiy jihozning (modifikatsiyalash) variantlari:   |
| 6. Tibbiy jihoz bilan bog'liq aniqlangan qoldiq xavflar ro'yxati:   |
| 7. Tibbiy jihoz xavfsizligi va samaradorligining ro'yxatdan o'tkazilgandan keyingi monitoringining maqsad va vazifalari:  |
| 8. Hisobot davrida olingan klinik ma'lumotlar:  |
| 9. Hisobot davrida olingan klinik ma'lumotlarni baholash:   |
| 10. Tibbiy jihoz xavfsizligi va samaradorligining davlat ro'yxatidan o'tgandan keyingi monitoringi davrida olingan barcha ma'lumotlarni baholash natijalari:  |
| 11. Rejaga tuzatishlar kiritish zarurligi (zarur emasligi) to'g'risida xulosa tibbiy jihoz xavfsizligi va samaradorligining ro'yxatdan o'tgandan keyingi klinik monitoringi                                 |
| 12. Tibbiy jihoz xavfsizligi bo'yicha tuzatish harakatlarini bajarish zarurligi (zarur emasligi) to'g'risida xulosa   |
| 13. Tibbiy jihoz xavfsizligi bo'yicha tuzatish harakatlari tavsifi (mavjud bo'lganda)   |
| 14. Tibbiy jihozning klinik xavfsizligi va samaradorligi to'g'risidagi xulosa (asos)  |
| 15. Tibbiy jihoz xavfsizligi va samaradorligining davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyingi xavfsizlik monitoringi siklini uzaytirish zarurligi (zarur emasligi) to'g'risida xulosa (yakuniy hisobot uchun) |
| 16. Izohlar   |

Xavfni boshqarish va tahlil qilish davriy hisobotini to'ldirgan shaxs:

\_\_\_\_\_ (lavozimi)      \_\_\_\_\_ (imzo)      \_\_\_\_\_ (F.I.O)

“\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3753  
2026 - yil 12 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISTIQBOLLI LOYIHALAR MILLIY  
AGENTLIGI DIREKTORINING BUYRUG'I

**Investitsiya platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni”  
maxsus huquqiy rejimini taqdim qilish tartibi to‘g‘risidagi  
nizomni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ–3150-son “O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi va 2025-yil 21-avgustdagi PQ–255-son “Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan investitsiya faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlariga muvofiq buyuraman:

1. Investitsiya platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini taqdim qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil va Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.
3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.
4. Mazkur buyruq 2026-yil 1-oktabrgacha amal qiladi.

Direktor  
09-Dekabr 2025-yil  
21-son



LI DMITRIY ROMANOVICH

Kelishildi:

Rais  
15-Oktabr 2025-yil



VAXABOV DAVRON  
ABDUJALALOVICH

Vazirning birinchi o'rinbosari  
14-Oktabr 2025-yil



UMAROV OLIMJON  
MUXAMADJANOVICH

Vakil o'rinbosari  
14-Oktabr 2025-yil



URUNOV JAMSHID  
OLIMOVICH

O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar  
milliy agentligi direktorining 2025-yil  
9-dekabrda 21-son buyrug‘iga  
ILOVA

**Investitsiya platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus  
huquqiy rejimini taqdim qilish tartibi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

Ushbu Nizom investitsiya platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini (bundan buyon matnda maxsus huquqiy rejim deb yuritiladi) taqdim etish, maxsus huquqiy rejim ishtirokchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish, ularning faoliyatini monitoring qilish, maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum etish, investitsiya platformalari operatorlari reyestrini yuritish, shuningdek investitsiya platformalari faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**investitsiyalarni jalb etishni tashkil etish faoliyati** – investitsiya platformasidan foydalangan holda investitsiyalarni jalb qilish hamda investitsiya kiritishga ko‘maklashish xizmatlarini ko‘rsatish;

**investitsiya kiritish shartnomasi** – investor va investitsiyalarni jalb qiluvchi shaxs o‘rtasida tuziladigan, investitsiya platformasidan foydalangan holda investitsiya kiritishni amalga oshiruvchi shartnoma;

**arizachi** – O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan yuridik shaxs;

**investor** – investitsiya platformasi operatori xizmatidan foydalangan holda investitsiya kiritish faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidenti;

**investitsiya platformasi** – investitsiyalarni jalb etishni tashkil etish faoliyatini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan dasturiy-texnologik majmua;

**investitsiyalarni jalb qiluvchi shaxs** – O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lib, unga investitsiyalarni jalb qilish xizmatlarini investitsiya platformasi operatori ko‘rsatadi;

**investitsiya platformasi operatori** – maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi bo‘lib, investitsiyalarni jalb etishni tashkil etish faoliyatini amalga oshiruvchi, investorga va investitsiyalarni jalb qiluvchi shaxsga investitsiya platformasiga (jumladan, veb-sayt va mobil ilova orqali) kirish imkoniyatini taqdim etuvchi hamda vakolatli davlat organi tomonidan investitsiya platformalari operatorlari reyestriga kiritilgan yuridik shaxs;

**maxsus huquqiy rejim** – investitsiya platformasi orqali investitsiyalarni jalb etishni tashkil etish faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik shaxslarga alohida tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish;

**investitsiya platformalari operatorlari reyestri** (bundan buyon matnda reyestr deb yuritiladi) – investitsiya platformasi operatori faoliyatini amalga oshirayotgan, ro‘yxatdan o‘tgan maxsus huquqiy rejim ishtirokchilari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks ettiriladigan ochiq axborot resursi;

**vakolatli davlat organi** – O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi;

**maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi** – O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan va maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxs.

2. Maxsus huquqiy rejim ishtirokchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish vakolatli davlat organi tomonidan ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema asosida amalga oshiriladi.

3. Maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun taqdim etilgan arizalarni qabul qilish va ko‘rib chiqish bo‘yicha vakolatli davlat organining ishchi organi funksiyalarini vakolatli davlat organining Kapital bozorini rivojlantirish departamenti (bundan buyon matnda ishchi organ deb yuritiladi) amalga oshiradi.

4. Ishchi organ:

arizachilarning maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun taqdim qilingan arizalarini qabul qiladi va ko‘rib chiqadi;

arizachilar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha vakolatli davlat organi rahbariga (rahbar o'rinbosariga) maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish to'g'risida xulosa kiritadi;

investitsiya platformalari operatorlari reyestrini yuritadi;

maxsus huquqiy rejim ishtirokchilari tomonidan ushbu Nizom va qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshiradi;

maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum etish bo'yicha vakolatli davlat organi rahbariga (rahbar o'rinbosariga) takliflar kiritadi.

5. Arizachilar tomonidan taqdim etilgan ariza va hujjatlarni ko'rib chiqish hamda maxsus huquqiy rejim ishtirokchisini ro'yxatdan o'tkazish uchun yig'im undirilmaydi.

## **2-bob. Maxsus huquqiy rejim ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazish talablari va shartlari**

6. Maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish talablari va shartlari quyidagilardan iborat:

a) investitsiyalarni jalb etishni tashkil etish faoliyati faqat O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilishi;

b) investitsiya platformasining O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan serverlarda mavjud bo'lishi;

c) investitsiya platformasining dasturiy ta'minoti va texnik vositalari amaldagi qonunchilikda belgilangan shaxsga doir ma'lumotlarni, mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish talablariga muvofiq bo'lishi;

d) investitsiya platformasi quyidagi asosiy funksiyalarni uzluksiz bajarishi:

investitsiyalarni jalb qilish (investitsiya taklifi) va investitsiyalarni joylashtirish bo'yicha arizalarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, qayta ishlash va monitoringini olib borish;

investitsiya platformasi operatorining investitsiyalarni jalb qiluvchi shaxs va investor bilan tuzadigan elektron shartnomalarini, shuningdek investitsiyalarni jalb

qiluvchi shaxs va investor o'rtasidagi investitsiya shartnomalarni tuzish va qayta ishlash;

investitsiya platformasi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov (komissiya) undirish;

statistik ma'lumotlar va hisobot hujjatlarini tayyorlash hamda shakllantirish;

investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashish xizmatlarini ko'rsatish va investitsiya shartnomalarini investitsiya platformasi orqali tuzilgan holda hisobga olish reyestrini yuritish;

qonunchilik talablariga muvofiq axborotni saqlash, qayta ishlash va oshkor etish;

davlat organlari va tijorat banklarining axborot tizimlari bilan elektron hamkorlik qilish;

e) jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish hamda shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanish sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etishi;

f) investitsiyalarni jalb qilish, investitsiya platformasi ishtirokchilarining identifikatsiya ma'lumotlari, investitsiya platformasi ishtirokchilari (jumladan, ular o'rtasida) bilan munosabatlarga oid materiallar, shuningdek ish yuritish yozishmalari bo'yicha axborotni besh yil davomida saqlashi;

g) vakolatli davlat organining so'rovi bo'yicha investitsiya platformasi faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq axborotni bepul taqdim etishi;

h) investitsiya platformasi operatori tomonidan tasdiqlangan investitsiya platformasi xizmatlarini ko'rsatish tartibi va tariflari o'zining veb-saytida joylashtirishi;

i) quyidagi shaxslarning investitsiya platformasi operatorining direktori, direktor o'rinbosarlari va bosh buxgalteri bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi:

terroristik faoliyatda yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishda ishtirok etgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar;

iqtisodiy jinoyatlar, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni

moliyalashtirish, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar sodir etganlik uchun sudlanganligi tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar;

moliya-iqtisod, yuridik, matematika yoki axborot texnologiyalari mutaxassisliklaridan kamida bittasi bo'yicha oliy ma'lumotli bo'lmagan shaxslar;

qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlarda, fond birjalarida yoxud iqtisodiy, moliyaviy va yuridik faoliyat sohasida, axborot texnologiyalari sohasida yoki ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lmagan shaxslar;

j) mazkur bandning "i" kichik bandi ikkinchi va uchinchi xatboshilarida ko'rsatilgan shaxslarning platforma operatorining ustav fondida (kapitalida) ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasligi;

k) investitsiyalarni jalb qiluvchi shaxslar va investorlarning so'rov va takliflarini qabul qilish, investitsiyalarni jalb etishni tashkil etish bo'yicha shartnomalarni hisobga olish vazifasi yuklatilgan kamida bitta xodimning mavjud bo'lishi;

l) vakolatli davlat organiga va (yoki) investorlarga ataylab noto'g'ri axborot tarqatmasligi (taqdim etmasligi).

### **3-bob. Arizani taqdim etish va ko'rib chiqish**

7. Maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun arizachi ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi arizani quyidagi ma'lumotlar va hujjatlar bilan birga vakolatli davlat organiga taqdim etadi:

ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda anketa;

ushbu Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda arizachining rahbariyati (rahbar, uning o'rinbosarlari) va ta'sischilari to'g'risidagi ma'lumotlar;

arizachining xorijiy fuqarolari bo'lgan rahbarlari va ta'sischilari uchun — tegishli chet davlat vakolatli organi tomonidan belgilangan tartibda legallashtirilgan yoki apostil qo'yilgan, ushbu Nizomning 6-bandining "i" kichik bandida ko'rsatilgan jinoyatlar bo'yicha sudlanmaganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma va uning O'zbekiston Respublikasi davlat tiliga notarial tasdiqlangan tarjimasi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari – arizachining rahbarlari (rahbar, uning o‘rinbosarlari) va ta‘sischilariga nisbatan ushbu Nizomning 6-bandi “i” kichik bandida nazarda tutilgan ma‘lumotlarni vakolatli davlat organi mustaqil ravishda tekshiradi.

Ushbu bandeda ko‘rsatilgan hujjatlar arizachining rahbari tomonidan imzolangan (tasdiqlangan) bo‘lishi lozim.

Ariza va hujjatlar vakolatli davlat organiga qog‘oz shaklida yoki elektron shaklda yoxud vakolatli davlat organining elektron pochta manziliga yuborish orqali taqdim etiladi.

8. Elektron shaklda taqdim etiladigan ma‘lumotlar yuqori sifatli bo‘lishi va “PDF”, “PNG” yoki “JPEG” formatida bo‘lishi lozim.

#### **4-bob. Arizani ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish**

9. Vakolatli davlat organi ariza qabul qilingan kundan boshlab yigirma ish kuni ichida arizachini maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish yoki ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Agar ariza va taqdim etilgan hujjatlarni qo‘shimcha tekshirish zarurati tug‘ilsa, tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda ishchi organning taklifi asosida vakolatli davlat organi rahbari (yoki uning o‘rinbosari) tomonidan arizani ko‘rib chiqish muddati o‘n ish kunigacha uzaytirilishi mumkin. Bu haqda arizachiga o‘sha kuni xabar beriladi.

10. Ishchi organ ariza va taqdim etilgan hujjatlarni o‘n besh ish kuni davomida, zarur hollarda qo‘shimcha o‘rganish lozim bo‘lsa, yigirma besh ish kuni davomida ko‘rib chiqadi hamda ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha xulosa tayyorlab, vakolatli davlat organi rahbariga (yoki uning o‘rinbosariga) taqdim etadi.

11. Vakolatli davlat organi rahbari (yoki uning o‘rinbosari) ishchi organ xulosasi taqdim etilgan kundan boshlab besh ish kuni ichida arizachini maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish yoki ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

12. Arizachini maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish uchun asoslar quyidagilardan iborat:

arizachi ushbu Nizomning 6-bandida belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmaganda;

mazkur Nizomning 7-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlar va hujjatlar to'liq taqdim etilmaganda yoxud noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar taqdim etilganda;

arizachining mansabdor shaxslari va ta'rischilari iqtisodiy jinoyatlar, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar ishtirok etganligi yoki ishtirok etishda gumon qilinayotganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lganda.

13. Maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan taqdirda, ishchi organ tomonidan arizachiga rad etish sabablari ko'rsatilgan xabarnoma bir ish kuni ichida yuboriladi.

14. Arizachi xabarnoma olingan kundan boshlab o'ttiz kun ichida rad etish asoslarini bartaraf etgan holda takroran ariza berishi mumkin.

Takroran berilgan ariza bo'yicha o'n ish kuni ichida arizachini maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etish haqida qaror qabul qilinadi.

Mazkur bandning birinchi xatboshisida ko'rsatilgan muddat o'tgandan so'ng takroran topshirilgan arizalar ushbu Nizomda belgilangan tartibda umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

15. Maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ishchi organ bir ish kuni ichida reyestrغا tegishli ma'lumotlarni kiritadi va arizachiga xabarnoma yuboradi.

Ishchi organ ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida arizachini ushbu qaror bilan yozma shaklda tanishtiradi.

#### **5-bob. Maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi faoliyatini monitoring qilish va maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish**

16. Investitsiya platformasining faoliyati ushbu Nizomning 5-ilovasida belgilangan Investitsiya platformasi faoliyatini amalga oshirish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

17. Ishchi organ maxsus huquqiy rejim ishtirokchilarining faoliyati hamda maxsus huquqiy rejim talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan doimiy monitoring olib boradi.

18. Maxsus huquqiy rejim ishtirokchilari har oyning beshinchi sanasiga qadar vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan shaklga muvofiq o'z faoliyati to'g'risida vakolatli davlat organiga hisobot taqdim etadi.

19. Maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

maxsus huquqiy rejim ishtirokchisining maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi maqomidan voz kechish to'g'risidagi arizasi;

maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilganligi aniqlanganda;

maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi tomonidan vakolatli davlat organiga ketma-ket ikki oy davomida hisobot taqdim etilmaganda;

maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi to'lovga qobiliyatsiz deb topilganda;

maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi tomonidan mazkur Nizomning 5-ilovasi bilan tasdiqlangan Investitsiya platformasi faoliyatini amalga oshirish tartibi talablariga rioya qilinmaganda;

maxsus huquqiy rejim ishtirokchisining mazkur Nizomning 6-bandida belgilangan talablarga muvofiq emasligi faktlari aniqlanganda.

20. Vakolatli davlat organi ushbu Nizomning 19-bandida ko'rsatilgan holatlar aniqlangan kundan boshlab uch ish kuni ichida maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

21. Ishchi organ maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan boshlab bir ish kuni ichida reyestrda tegishli ma'lumotlarni kiritadi va bu haqda yuridik shaxsni xabardor qiladi.

### **6-bob. Investitsiya platformalari operatorlari reyestrini yuritish**

22. Ishchi organ tomonidan reyestr yuritiladi va unda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

maxsus huquqiy rejim ishtirokchisining to'liq nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan joyi (pochta manzili), elektron pochta manzili, telefon raqami;

investitsiya platformasining nomi va Internet jahon axborot tarmog'idagi manzili;

litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

maxsus huquqiy rejim ishtirokchisining ro'yxatdan o'tkazilgan raqami va sanasi;

maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish asoslari va sanasi.

23. Reyestrda mavjud ma'lumotlar vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

### **7-bob. Yakuniy qoidalar**

24. Reyestrda kiritilmagan shaxslar mazkur Nizomga muvofiq investitsiyalarni jalb etishni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga haqli emas.

25. Manfaatdor shaxslar vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilingan qarorlar yuzasidan belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishlari mumkin.

26. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

Investitsiya  
platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus  
huquqiy rejimini taqdim qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
1-ILOVA

**Investitsiya platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus  
huquqiy rejimi ishtirokchilarini ro‘yxatdan o‘tkazish  
SXEMASI**

| <b>Bosqichlar</b> | <b>Mas’ullar</b>        | <b>Tadbirlar</b>  | <b>Ijro muddati</b>  |
|-------------------|-------------------------|---|--|
| 1-bosqich         | Arizachi                | <p>1. Investitsiya platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimining (bundan buyon matnda maxsus huquqiy rejim deb yuritiladi) ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun ariza va hujjatlarni tayyorlaydi.</p> <p>2. Ariza va hujjatlarni O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga (bundan buyon matnda vakolatli davlat organi deb yuritiladi) taqdim etadi.</p> | O‘z xohishiga ko‘ra  |
| 2-bosqich         | Vakolatli davlat organi | Ariza va hujjatlarni ko‘rib chiqadi hamda arizachini maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro‘yxat o‘tkazish yoki ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.  | 20 ish kuni, uzaytirilgan taqdirda - 30 ish kuni                   |
|                   | Vakolatli davlat organi | <p>1. Ishchi organ ariza va hujjatlarni ko‘rib chiqadi hamda arizachini maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish yoki ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida xulosa tayyorlaydi.</p> <p>2. Ishchi organ xulosasi asosida maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazish yoki ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.</p>                       | 15 ish kuni, uzaytirilgan taqdirda - 25 ish kuni<br><br>5 ish kuni |

|           |                                    |   |   |
|-----------|------------------------------------|---|---|
| 3-bosqich | Ishchi organ                       | Arizachini maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan taqdirda, bu haqda arizachiga rad etish asoslarini ko'rsatgan holda xabarnoma yuboradi.   | 1 ish kuni                              |
| 4-bosqich | Arizachi                           | Maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatga o'tkazishni rad etish asoslarini bartaraf etgan holda takroran ariza beradi.  | 30 kun                                  |
|           | Vakolatli davlat organi            | <p>1. Takroran berilgan ariza bo'yicha arizachini maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatga o'tkazish yoki ro'yxatga o'tkazishni rad etish haqida qaror qabul qiladi.</p> <p>2. Mazkur muddat o'tganidan so'ng takroran taqdim etilgan arizalarni ushbu Nizomda belgilangan tartibda umumiy asoslarda ko'rib chiqadi.</p> | 10 ish kuni<br><br>Belgilangan muddatda |
| 5-bosqich | Ishchi organ                       | <p>1. Maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, tegishli ma'lumotlar reyestrغا kiritiladi va arizachiga xabarnoma yuboriladi.</p>   | 1 ish kuni                              |
|           |                                    | <p>2. Arizachini maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi qaror bilan yozma ravishda tanishtiradi hamda maxsus huquqiy rejimning talablari va shartlariga rioya qilinmagan taqdirda, maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum qilinishi to'g'risida ogohlantiradi.</p>               | 3 ish kuni                              |
| 6-bosqich | Maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi | Nomi yoki yashash joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgargan taqdirda vakolatli davlat organiga ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi   | 5 ish kuni                              |

|            |                         |  |            |
|------------|-------------------------|--|------------|
|            |                         | tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda ariza beradi.  |            |
|            | Vakolatli davlat organi | Arizani qabul qilgandan so'ng reyestrda tegishli o'zgartirishlar kiritadi.   | 1 ish kuni |
| 7- bosqich | Vakolatli davlat organi | Mazkur Nizomda ko'rsatilgan holatlar aniqlangan taqdirda, maxsus huquqiy rejim ishtirokchisini maqomidan mahrum qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.   | 3 ish kuni |
|            | Ishchi organ            | Ishchi organ maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish to'g'risidagi qaror asosida reyestrda tegishli ma'lumotlarni kiritadi hamda bu haqda tegishli yuridik shaxsni xabardor qiladi. | 1 ish kuni |

Investitsiya platformalari  
sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini  
taqdim qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomga

2-ILOVA

**ARIZA**

|    |  |  |
|----|--|--|
| 1. | <b>Yuridik shaxsning (arizachining) nomi:</b>  |  |
| 2. | <b>Yuridik manzili (pochta manzili):</b>   |  |
| 3. | <b>Elektron pochta manzili:</b>  |  |
| 4. | <b>Telefon raqami:</b>   |  |
| 5. | <b>Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR):</b>  |  |
| 6. | <b>Xizmat ko‘rsatuvchi bank:</b>   |  |
| 7. | <b>Rahbarning familiyasi va ismi:</b>  |  |
| 8. | <b>Ariza topshirishga vakolatli shaxsning familiyasi, ismi, telefon raqami, elektron pochta manzili:</b> |  |

Sizdan, investitsiya platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimi doirasida

---

*(murojaat maqsadi: maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tish)*

ruxsat berishingizni so‘raymiz.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

1. Anketa \_\_ varaqda.
2. Yuridik shaxs (arizachi) ustavi va boshqa ta'sis hujjatlari nusxasi.
3. Yuridik shaxsning rahbariyati (rahbar, uning o'rinbosarlari) va ta'sischilari to'g'risidagi ma'lumotlar.

**Yuridik shaxs rahbarining imzosi**

20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

Investitsiya  
platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus  
huquqiy rejimini taqdim qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
3-ILOVA

**Investitsiya platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus  
huquqiy rejimi ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun  
arizachining  
ANKETASI**

**1-bob. Arizachi haqida ma’lumot**

|  |  |
|--|--|
| Yuridik shaxsning (arizachining) nomi  |  |
| Joylashgan joyi (manzili)  |  |
| Telefon raqami   |  |
| Elektron pochta manzili  |  |
| Rasmiy veb-sayti   |  |
| Yuridik shaxs (arizachi) ro‘yxatdan o‘tgan davlat  |  |
| Doimiy faoliyat yuritish joyi  |  |
| Yuridik shaxsning (arizachining) davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanasi (kun/oy/yil) va raqami |  |

**2-bob. Arizachining faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar**

|  |  |
|--|--|
| 1. Arizachi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shu jumladan tashkilot tuzilmasi, ilgari erishilgan yutuqlar va faoliyat yo‘nalishi   |  |
| 2. Arizachining yirik ta‘sischilari (aksiyalarining/ulushlarining kamida 25 foiziga egalik qiluvchi) va ijro organi/boshqaruv a‘zolari(boshqaruv raisi, bosh direktor, direktorlar) ning ushbu sohadagi bilim va ish tajribasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar |  |
| 3. Arizachining moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar (oxirgi moliyaviy yil holatiga arizachining moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilgan yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha)  |  |
| 4. Arizachining litsenziya yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar   |  |

**3-bob Investitsiya platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimi doirasida amalga oshirilishi mo‘ljallangan faoliyat haqidagi ma’lumotlar:**

|  |
|--|
| 1. Amalga oshirilishi mo‘ljallangan faoliyat haqidagi ma’lumotlar, shu jumladan, arizachining mazkur faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha boshqa bozorlardagi tajribasi va investitsiya platformalarining rivojlanishiga yordam berishi to‘g‘risidagi obyektiv tahlil |
|  |
|  |
|  |
| 2. Arizachi tomonidan faoliyatni amalga oshirish uchun foydalaniladigan texnik tizimlar va yechimlar   |
|  |
| 3. Amalga oshirilishi mo‘ljallangan faoliyatni boshlashning taxminiy sanasi  |
|  |

**4-bob. Deklaratsiyalash**

|   |         |
|---|---------|
| 1. Arizachi:<br>har qanday jinoyat uchun tergovda qatnashgan, ayblanayotgan, sudlangan yoxud har qanday jinoiy ta‘qib ostida bo‘lganmi yoki hozirda mavjudmi yoxud so‘nggi 5-yil ichida tan olingan xorijiy yurisdiksiyadagi biron bir tartibga soluvchi yoki litsenziyalovchi organ tomonidan intizomiy javobgarlikka tortilganmi? | Ha Yo‘q |
| 2. Arizachiga sud tartibida to‘lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo‘llanilganmi?  | Ha Yo‘q |
| (Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan savollarga ijobiy javob berilgan taqdirda, quyida batafsil ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozim)  |         |

Mazkur anketa va unga ilova qilingan hujjatlardagi ma’lumotlarning haqiqiyliigi va to‘g‘riligini hamda noto‘g‘ri yoki buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlar berilmaganligini tasdiqlayman.

Arizam qanoatlanirilganidan keyin taqdim etgan hujjatlarimda noto‘g‘ri yoki buzib ko‘rsatilgan ma’lumotlar aniqlangan taqdirda, maxsus huquqiy rejim ishtirokchisi maqomidan mahrum etilishim mumkinligini tushunaman.

|                          |
|--------------------------|
| Vakolatli shaxsning ismi |
|                          |
| Lavozimi                 |

|  |                         |
|--|-------------------------|
|  |                         |
| Telefon raqami   | Elektron pochta manzili |
|  |                         |
| Vakolatli shaxs imzosi                                       |                         |
| Sana:  |                         |
| Qo‘shimcha aloqa uchun shaxs (agar yuqoridagidan farq qilsa) |                         |
|  |                         |
| Lavozimi   |                         |
|  |                         |
| Telefon raqami   | Elektron pochta manzili |
|  |                         |

Investitsiya  
platformalari sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus  
huquqiy rejimini taqdim qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomga  
4-ILOVA

**Yuridik shaxs (arizachining) rahbariyati (rahbari va  
o‘rinbosarlari) va ta‘sischilari haqidagi**

**MA’LUMOT**

1-jadval

| Yuridik shaxs rahbariyati (rahbari va o‘rinbosarlari) |                     |            |                             |                     |  |                              |
|---|---------------------|------------|-----------------------------|---------------------|--|------------------------------|
| Lavozimi  | Familiyasi,<br>ismi | Fuqaroligi | Shaxsni tasdiqlovchi hujjat |                     |  |                              |
|   |                     |            | Hujjat<br>turi              | Seriya va<br>raqami | Berilgan<br>vaqti va amal<br>qilish<br>muddati | Kim<br>tomonidan<br>berilgan |
| 1   | 2                   | 3          | 4                           | 5                   | 6  | 7                            |
|   |                     |            |                             |                     |  |                              |
|   |                     |            |                             |                     |  |                              |

2-jadval

| Yuridik shaxs ta‘sischilari                       |                  |  |  |                        |  |                              |
|---|------------------|--|--|------------------------|--|------------------------------|
| Familiyasi,<br>ismi yoki<br>yuridik shaxs<br>nomi | Ulush<br>miqdori | Fuqaroligi<br>(jismoniy<br>shaxslar uchun)<br>yoki davlat<br>ro‘yxatidan<br>o‘tgan joyi<br>(yuridik<br>shaxslar uchun) | Shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki davlat<br>ro‘yxatdan o‘tkazilganligi haqidagi<br>guvohnoma |                        |  |                              |
|   |                  |  | Hujjat<br>turi   | Seriya<br>va<br>raqami | Berilgan<br>vaqti va amal<br>qilish<br>muddati | Kim<br>tomonidan<br>berilgan |
| 1   | 2                | 3  | 4  | 5                      | 6  | 7                            |
|   |                  |  |  |                        |  |                              |
|   |                  |  |  |                        |  |                              |

2-jadval

| Yuridik shaxs ta‘sischilari |                  |                         |   |
|-----------------------------|------------------|-------------------------|---|
| Familiyasi,<br>ismi yoki    | Ulush<br>miqdori | Fuqaroligi<br>(jismoniy | Shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki davlat<br>ro‘yxatdan o‘tkazilganligi haqidagi |
|                             |                  |                         |   |

| yuridik shaxs<br>nomi |   | shaxslar<br>uchun) yoki<br>davlat<br>ro'yxatidan<br>o'tgan joyi<br>(yuridik<br>shaxslar<br>uchun) | guvohnoma      |                        |  |                              |
|-----------------------|---|---|----------------|------------------------|--|------------------------------|
|                       |   |   | Hujjat<br>turi | Seriya<br>va<br>raqami | Berilgan<br>vaqti va<br>amal qilish<br>muddati | Kim<br>tomonidan<br>berilgan |
| 1                     | 2 | 3   | 4              | 5                      | 6  | 7                            |
|                       |   |   |                |                        |  |                              |
|                       |   |   |                |                        |  |                              |

Investitsiya platformalari sohasida “Tartibga solish  
qumdoni” maxsus huquqiy rejimini taqdim qilish tartibi  
to‘g‘risidagi nizomga  
5-ILOVA

**Investitsiya platformasi faoliyatini amalga oshirish  
TARTIBI**

Mazkur Tartib investitsiya platformasida faoliyatni amalga oshirish, investitsiya platformasi operatori, investorlar va investitsiyalarni jalb qiluvchi shaxslarning o‘zaro hamkorligi tartibini, shuningdek, investitsiya platformasi ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Tartibda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**investitsiya platformasi qoidalari** (bundan buyon matnda Qoidalar deb ataladi) - investitsiya platformasida xizmat ko‘rsatish, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini, investitsiya jalb qilish va kiritish, hisob-kitob qilish va ma‘lumotlarni oshkor qilish tartibini belgilovchi investitsiya platformasi operatori (bundan buyon matnda operator deb yuritiladi) tomonidan tasdiqlanadigan hujjat;

**investitsiya platformasi ishtirokchilari** (bundan buyon matnda ishtirokchilar deb yuritiladi) – operator, investorlar, investitsiyalarni jalb qiluvchi shaxslar, shuningdek, qoidalarda nazarda tutilgan hollarda investitsiya platformasida operatsiyalarga qo‘yilgan boshqa shaxslar;

**investitsiyalarni jalb qiluvchi shaxs** (bundan buyon matnda loyiha egasi deb yuritiladi) – O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor bo‘lib, unga investitsiyalarni jalb qilish xizmatlarini operator ko‘rsatadi;

**investitsiya taklifi** – loyiha egasining investitsiya shartnomasini tuzish to‘g‘risidagi taklifi;

**investitsiya shartnomasi** – investor va loyiha egasi o‘rtasida investitsiya platformasidan foydalangan holda tuziladigan, investitsiya amalga oshiriladigan hamda tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilaydigan shartnoma;

**raqamli elektron guvohnoma** – investitsiya platformasi tomonidan shakllantiriladigan, investitsiya shartnomasi bo'yicha investitsiya amalga oshirilganligini tasdiqlaydigan va quyidagi rekvizitlarni o'z ichiga olgan elektron hujjat:

noyob identifikator;

shakllantirish sanasi va vaqti;

investitsiya shartnomasining tomonlari;

investitsiya summasi va obyektiga to'g'risidagi ma'lumotlar;

ijro holati;

mazkur Nizomda nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar;

**shartnomalar reyestri** – operator tomonidan investitsiya platformasida yuritiladigan, barcha investitsiya shartnomalari va ular bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar xronologik tartibda shakllantiriladigan elektron baza;

**nominal hisobvaraq** – investorlarning pul mablag'larini alohida hisobga olish va hisob-kitob qilish hamda ushbu Tartib va qoidalarga muvofiq loyihalar egalariga to'lovlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi bankida ochilgan operatorning bank hisobvarag'i;

**eskrou-hisobvaraq** – operator yoki loyiha egasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi bankida ochiladigan hisobvaraq bo'lib, unda investorlarning pul mablag'lari ularni loyiha egasiga o'tkazish yoki investorlarga qaytarish shartlari yuzaga kelguniga qadar saqlanadi.

## **2-bob. Investitsiya platformasining ishlash tartibi**

2. Investitsiyalarni jalb qilishni tashkil etish bo'yicha faoliyat operator tomonidan investitsiya platformasi orqali elektron shaklda tuziladigan ikki turdagi xizmat ko'rsatish shartnomalari asosida amalga oshiriladi:

loyiha egasi bilan investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma, unga ko'ra operator investitsiya takliflarini joylashtirish va investitsiya shartnomalarini tuzish uchun zarur bo'lgan harakatlarni amalga oshirish uchun investitsiya platformasiga kirishni ta'minlash majburiyatini oladi;

investor bilan investitsiya kiritishda ko'maklashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma, u bo'yicha operator investitsiya takliflari bilan tanishish, ularni

qabul qilish (akseptlash) va investitsiya shartnomalarini tuzish uchun investitsiya platformasiga kirish imkoniyatini taqdim etish majburiyatini oladi.

Mazkur shartnomalar qo‘shilish shartnomalari hisoblanadi.

3. Qo‘shilish shartnomalari investor tomonidan investitsiya platformasidagi shaxsiy kabinetda elektron raqamli imzo yoki qoidalarda ko‘rsatilgan boshqa autentifikatsiya vositasi bilan tasdiqlanadigan harakatlarni bajarish orqali tuziladi. Bunda tuzilgan shartnomalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar shartnomalar reyestriga kiritiladi va raqamli elektron guvohnoma shakllantiriladi.

4. Operator investor bilan shartnoma tuzilgunga qadar investitsiya kiritishda investordan investitsiya tavakkalchiliklari, shu jumladan qo‘yilgan mablag‘larni to‘liq yo‘qotish tavakkalchiligi bilan tanishganligini tasdiqlovchi hujjat oladi.

5. Investitsiya platformasida jismoniy shaxslar tomonidan quyidagi miqdorlardan ortiq investitsiya kiritish uchun cheklovlar belgilanishi lozim:

kalendar yil uchun investitsiya platformasi orqali investitsiyalarning umumiy hajmi – bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravari

bitta investitsiya taklifi bo‘yicha investitsiyalar hajmi – bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravari.

Mazkur cheklovlar operator tomonidan jismoniy shaxslarning investitsiya kiritish bo‘yicha bilimlari va tajribasini baholash o‘tkazilganidan so‘ng olib tashlanishi mumkin.

Operator jismoniy shaxsning investitsiyalar, qimmatli qog‘ozlar bozori va tadbirkorlik faoliyati asoslari sohasidagi bilimlari va tajribasi darajasini baholash uchun bepul asosda test sinovlarini o‘tkazadi.

Test o‘tkazish uchun savollar ro‘yxati operator tomonidan mustaqil shakllantiriladi hamda investitsiya platformasida e‘lon qilinadi.

Testdan o‘tkazilayotgan shaxs savollarning umumiy sonidan kamida 75 foiziga to‘g‘ri javob topsa, test sinovi natijasi ijobiy deb baholanadi.

Test sinovi investitsiya platformasida onlayn shaklda o‘tkaziladi hamda test sinovi natijalari sinov yakunlangan vaqtda avtomatik shakllanadi va jismoniy shaxsning

e'tiboriga yetkaziladi. Bunda, har bir savol uchun jismoniy shaxsga kamida 1 daqiqa vaqt berilishi kerak.

Operator cheklovlar olib tashlangan jismoniy shaxslarning alohida reyestrini yuritadi va uni har oyning 5 sanasida vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

Operator test sinovlarini o'tkazish bilan bog'liq barcha materiallarni, shu jumladan elektron ma'lumotlar bazalarini kamida 5 yil davomida saqlashi va vakolatli davlat organi so'roviga ko'ra bir ish kuni ichida taqdim etishi shart.

6. Operator pul mablag'larining hisob-kitoblarini faqat O'zbekiston Respublikasi banklaridagi nominal hisobvaraqlar va (yoki) eskrou hisobvaraqlari orqali amalga oshiradi. Investorlarning pul mablag'larini boshqa hisobvaraqlarga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi, qoidalarda nazarda tutilgan operatorning mukofot puli summasi, shuningdek operator xizmatlariga belgilangan to'lovlar hajmida haq to'lash bundan mustasno.

### **3-bob. Ishtirokchilarni ro'yxatdan o'tkazish va kiritish**

7. Operator mijozlarni identifikatsiya qilish va lozim darajada tekshirishni amalga oshirganidan hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq mijozlar va ularning benefitsiar mulkdorlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirganidan so'ng ishtirokchilarni shaxsiy kabinet orqali platformada ro'yxatdan o'tkazishni ta'minlaydi.

8. Loyiha egasi uchun operator identifikatsiyadan tashqari quyidagilarni so'raydi va tekshiradi:

a) ta'sis hujjatlari, oxirgi benefitsiar mulkdorlar (jismoniy shaxsgacha), mulkchilik shakli va boshqaruv organlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

b) oxirgi hisobot yili uchun moliyaviy hisoboti (auditorlik tekshiruvidan o'tkazish majburiy bo'lganda, auditorlik xulosasi bilan birga);

c) investitsiyalarni jalb qilayotgan shaxslarda to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari mavjud emasligi;

d) investitsiya loyihasini amalga oshirish, uni boshqarishda ishtirok etish va investitsiyalarni qaytarish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar, qo'yilgan investitsiya qaysi

faoliyatga yo'naltirilishi, bu orqali investor bevosita yoki bilvosita egalik qiladigan mulk, investorning huquq va majburiyatlari, shuningdek tavakkalchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar;

e) investitsiya platformasida joylashtirish uchun taklif etilayotgan loyihaning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi PQ-255-son "Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan investitsiya faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 2-bandida belgilangan yo'nalishlarga muvofiqligi;

f) ushbu Nizomning 14-bandida belgilangan cheklovlarning mavjud emasligi.

9. Operator investor–yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishda ularning boshqaruv organlari va vakilining vakolatlarini, oxirgi benefitsiar mulkdorlari va soliq rezidenti maqomini tekshirishi shart.

10. Operator ishtirokchilarning investitsiya platformasidagi operatsiyalarini doimiy monitoringini, shu jumladan ishchanlik obro'si, mablag'larning kelib chiqishi va qoidalarga rioya etilishi monitoringini amalga oshiradi.

Bunda, operator qonunchilik hujjatlari, ushbu Nizom va qoidalar talablarining buzilishi holatlari aniqlanganda, ishtirokchini va vakolatli davlat organini xabardor qilgan holda operatsiyalarga amalga oshirishni to'xtatib qo'yishga haqli.

#### **4-bob. Investitsiya taklifi**

11. Loyiha egasi investitsiya platformasida quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha investitsiya taklifini joylashtiradi:

a) loyiha egasi to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan uning nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, STIR, joylashgan joyi, oxirgi benefitsiar mulkdorlari va boshqaruv organlari to'g'risidagi ma'lumotlar, faoliyatning asosiy turlari, majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim omillar;

b) investitsiyalarni jalb etish maqsadlari, bitim shartlari va investitsiya kiritish usulining tavsifi;

c) investitsiya taklifining amal qilish muddati, investitsiya loyihasiga kiritiladigan umumiy investitsiyalarning minimal miqdori (yopilish chegarasi) va maksimal miqdori (to'xtatish chegarasi);

d) nominal va (yoki) eskrou hisobvaraqlari orqali hisob-kitob qilish tartibi, muddatlari va shartlari, shu jumladan investitsiya taklifining amal qilishi to'xtatilgandan

so'ng mablag'larni loyiha egasiga o'tkazish muddati, shuningdek investitsiyalarning minimal miqdoriga erishilmaganda yoki qaytarish uchun boshqa asoslar yuzaga kelganda investorlarga mablag'larni qaytarish shartlari va tartibi;

e) agar qoidalarda nazarda tutilgan bo'lsa, loyiha egasining investorlar oldidagi majburiyatlarini bajarish jadvali;

f) tavakkalchiliklar, shu jumladan qo'yilgan mablag'larni yo'qotish tavakkalchiligi, jismoniy shaxslar uchun cheklovlar, investorning shartnoma tuzishdan bosh tortish shartlari to'g'risida ogohlantirish;

g) operatorga haq to'lash hamda investor va loyiha egasining boshqa xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar;

h) mablag'larni jalb qilishning jarayoni, majburiyatlarning bajarilishi va investitsiya loyihasining amalga oshirilishi to'g'risidagi axborotni oshkor qilish tartibi.

12. Operator tomonidan investitsiya taklifidagi ma'lumotlarning to'liqligi, aniqligi, ishonchliligi tekshiruvdan o'tkaziladi, shundan so'ng operator investitsiya taklifini investitsiya platformasida joylashtirishga ruxsat beradi yoki bartaraf etilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar ro'yxatini ko'rsatgan holda rad etadi.

13. Investitsiya platformasida quyidagi shaxslarning investitsiya loyihalari joylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi:

iqtisodiy jinoyatlar, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar sodir etganlik uchun sudlanganligi tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar;

terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar;

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

sud tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini cheklash tariqasidagi jazo qo'llanilgan shaxslar.

14. Investitsiya taklifi amal qilish muddati boshlanganidan keyin uning mazmunini va (yoki) shartlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

15. Operator investitsiya platformasida jalb qilingan mablagʻlarning joriy miqdori, minimal va maksimal miqdorgacha boʻlgan qoldiq, shuningdek investitsiya taklifining amal qilishini toʻxtatish sanasi va vaqtini aks ettirishni taʼminlashi shart.

### **5-bob. Investitsiya qilish tartibi**

16. Investitsiya shartnomasini tuzish investor tomonidan oʻzining investitsiya platformasidagi shaxsiy kabineti orqali nominal va (yoki) eskrou hisobvaragʻidagi pul mablagʻlarini kiritgan holda investitsiya taklifini qabul qilish (aksept) orqali amalga oshiriladi. Bunda, shartnoma investorning pul mablagʻlari nominal va (yoki) eskrou hisobvaragʻidan loyiha egasining bank hisobvaragʻiga oʻtkazilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

17. Investor investitsiya taklifini akseptlangandan soʻng operatorga qoidalarda belgilangan muddat davomida, biroq investitsiya taklifining amal qilishi tugagan kundan kechiktirmay investitsiya platformasi orqali investitsiya kiritishni bekor qilish toʻgʻrisida xabarnoma bergan holda investitsiya shartnomasini tuzishdan bosh tortishga haqli. Bunda operator investorning pul mablagʻlarini loyiha egasiga oʻtkazmaydi va uch ish kuni ichida ularni investorga qaytarilishini taʼminlaydi.

18. Investitsiya taklifining amal qilish muddati uning eng kam miqdoriga yetmasdan tugagan taqdirda, investitsiya shartnomalari tuzilmaydi. Operator muddat tugagandan keyingi ish kunidan kechiktirmay bu haqida investorlarni xabardor qiladi va kiritilgan mablagʻlarni investorlarga qaytarishni tashkil etadi.

19. Investitsiyalarning maksimal miqdoriga erishilganda, operator akseptlarni qabul qilishni toʻxtatadi va bu haqidagi axborotni eʼlon qiladi. Mablagʻlarni loyiha egasiga oʻtkazish qoidalarda belgilangan muddatda, biroq investitsiya taklifining amal qilishi toʻxtatilgan kundan eʼtiboran uch ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

20. Investitsiya shartnomasi tuzilganligi fakti raqamli elektron guvohnoma va shartnomalar reyestridan koʻchirma bilan tasdiqlanadi.

21. Investorlarga mablagʻlarni qaytarish operator tomonidan quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

investor tomonidan operatorga investitsiya kiritishni bekor qilish toʻgʻrisida qoidalarda belgilangan muddatda xabarnoma yuborilganda;

investitsiya taklifiga minimal miqdorda mablag'lar kiritilmaganda;

mablag'lar loyiha egasiga o'tkazilgunga qadar vakolatli davlat organi yoki sudning qaroriga asosan investitsiya taklifi to'xtatilganda;

qoidalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Investorga mablag'larni qaytarish uni qaytarish uchun asos bo'lgan holatlar vujudga kelgan kundan e'tiboran uch ish kunidan kechiktirmay investorning bank hisobvarag'iga amalga oshiriladi.

22. Operator har bir investor bo'yicha nominal hisobvaraqdagi pul mablag'larining alohida hisobini yuritadi. Investor operatorndan so'rov bo'yicha o'zining operatsiyalari to'g'risidagi hisobotni qoidalarda belgilangan muddatda, biroq bir ish kunidan kechiktirmay olishga haqli.

23. Investor, agar qoidalarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, nominal hisobvarag'ida turgan va investitsiya shartnomasini tuzishga yo'naltirilmagan pul mablag'larini istalgan vaqtda o'zining bank hisobvarag'iga o'tkazishni talab qilishga haqli.

24. Agar qoidalarda nazarda tutilgan bo'lsa, investorlarning nominal hisobvarag'idagi pul mablag'lariga foizlar hisoblashga yo'l qo'yiladi.

25. Loyiha egasi tomonidan investitsiya shartnomasi bo'yicha majburiyatlar buzilgan taqdirda, loyiha egasi investitsiya shartnomasida nazarda tutilgan mablag'larni bir oy muddatda operatorning tegishli nominal hisobvarag'iga o'tkazadi. Operator kelib tushgan mablag'larni shartnomalar reyestriga muvofiq investorlarga besh ish kuni ichida taqsimlaydi.

26. Investitsiya platformasi orqali investitsiya jalb qilishga ko'maklashish bo'yicha xizmatlar reklamasida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

operator tomonidan axborotni oshkor qilish amalga oshiriladigan Internet jahon axborot tarmog'idagi sayt manzili;

investitsiya qilingan mablag'larning yo'qotish tavakkalchiligi yuqori ekanligi va ularning to'liq hajmda yo'qotilishi mumkinligi.

### **6-bob. Axborotni oshkor qilish va taqdim etish**

27. Operator investitsiya platformasida quyidagi ma'lumotlarni hamma foydalanishi uchun oshkor qiladi:

operator to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan mulkchilik shakli va boshqaruv organlari;

investitsiya platformasi qoidalari;

investitsiya shartnomalarini tuzish va investitsiya kiritish tartibi;

loyiha egasi tomonidan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, investorning harakatlari;

operatorning hisobot davridagi faoliyati natijalari to'g'risidagi yillik hisoboti;

mazkur Nizomda nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar.

28. Operator investitsiya platformasida investorlarga loyihalar egalari va investitsiya takliflari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlaydi:

loyihalar egalari to'g'risidagi ma'lumotlar;

moliyaviy hisobot (auditorlik tekshiruvidan o'tkazish majburiy bo'lganda, auditorlik xulosasi bilan birga);

faoliyatning asosiy turlari;

muhim faktlar;

investitsiya taklifiga jalb qilingan mablag'lar hajmi;

investitsiya taklifiga doir tavakkalchiliklar to'g'risidagi ogohlantirishlar.

29. Investitsiya taklifi to'g'risidagi ma'lumot ko'zlangan maqsadlar va tavakkalchiliklar to'g'risida to'liq va xolisona tasavvur hosil qilish imkonini berishi, operator xizmatlari, vositachilik haqlari, mumkin bo'lgan qo'shimcha xarajatlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, agar qo'llash mumkin bo'lsa, sotib olinadigan qimmatli qog'ozlar, ulushlar yoki boshqa harakatlar mazmunini o'z ichiga olishi kerak.

### **7-bob. Manfaatlar to'qnashuvi va javobgarlik**

30. Operator investitsiya takliflarida ishtirok etishga, shu jumladan o'z investitsiya platformasida loyiha egasi sifatida ishtirok etishga, ayrim shaxslarga axborotdan yoki investitsiya kiritish shartlaridan foydalanishda preferensiyalar taqdim etishga haqli emas.

31. Loyihalar egalari sifatida operatorning 20 foizdan ortiq ulushiga (aksiyalariga) ega bo'lgan shaxslar, uning boshqaruv organlari a'zolari, operator xodimlari, shuningdek, uning affillangan shaxslari ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

32. Operator manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, uni aniqlash, boshqarish va oshkor qilishning ichki qoidalarini tasdiqlaydi hamda uni o'qishga qulay shaklda investitsiya platformasiga joylashtiradi.

33. Operator noto'g'ri, to'liq bo'lmagan yoki chalg'ituvchi ma'lumotlarni oshkor qilish, qoidalarga rioya qilmaslik, investitsiya platformasining ushbu Nizom talablariga muvofiq emasligi, nominal va (yoki) eskrou hisobvaraqlari bo'yicha hisob-kitoblar tartibini buzish oqibatida investorlar va (yoki) loyihalar egalari yetkazilgan zararlar hamda boshqa qoidabuzarliklar uchun qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.

34. Operator loyihalar egalarining investorlar oldidagi majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi, qoidalarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

### **8-bob. Yakuniy qoida**

35. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3754  
2026 - yil 12 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRINING BUYRUG'I

### **O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ- huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi, "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son "Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir  
2025-yil 22-dekabr  
25-2025/B-son



ZAXIDOV BOTIR  
ERKINOVICH

Kelishildi:

Vazir  
2025-yil 5-dekabr



XIDOYATOV SHERZOD  
SAIDJANOVICH

O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni  
qisqartirish va bandlik vazirining 2025-yil  
22-dekabrda 25-2025/B-son buyrug‘iga  
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi  
tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga  
kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 19-noyabrda 190-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2159, 2010-yil 30-noyabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 48-son, 449-modda) bilan tasdiqlangan Qand-shakar ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar qand-shakar ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normalari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5–7-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

6. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha

mutaxassis lavozimini joriy etish to'g'risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o'ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

7. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo'l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo'linmalari bo'lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunadi.”;

4) 9-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog'liq ravishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

5) 11 va 12-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarini tekshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tkazish, o'qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

12. Ishlarni texnologik reglament bo'yicha xavfsiz yuritish yo'riqnomalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

6) 30–34-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“30. Tashkilotda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

31. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo'mitasi va sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzishi hamda xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlashi lozim.

32. Majburiy tibbiy ko'riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o'tkaziladi.

33. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.

34. Davriy majburiy tibbiy ko'riklar o'z vaqtida, sifatli o'tkazilishi va ularning natijalariga ko'ra tavsiyalar bajarilishi uchun javobgarlik tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklanadi.”;

7) 36-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“36. Tashkilot maydonlari va binolarining joylashuvi ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo'lishi kerak.”;

8) 42-banddagi “SanMvaQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” talabiga” degan so'zlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

9) 43-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Tashkilotlarning ma'muriy va maishiy binolari” talabiga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

10) 51-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yoritish” talabiga” degan so'zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

11) 59-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talabiga” degan so'zlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

12) 70-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“70. Oqova suvlarini hosil qilish va suv havzalariga tushirish SHNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish” va ShNQ 2.04.03-24 “Oqova suvlarni chiqarib yuborish. Tashqi tarmoqlar va inshootlar” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo'lishi lozim.”;

13) 85-banddagi “Xonalar, binolar va tashqi o'rnatmalarning portlash va yong'inga qarshi xavfsizlik tizimlarini aniqlash” SHNQ 2.01.19-09” degan so'zlar “ShNQ 2.01.19-22 “Portlab-yonish va yong'in xavfi bo'lgan xonalar, binolar va tashqi qurilmalar toifalarini aniqlash” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

14) 92-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“92. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o'rnatish va ulardan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son

qarori bilan tasdiqlangan Iste'molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste'molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va mazkur Qoidalar talablariga rioya qilinishi kerak.”.

2. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 27-noyabrdagi 192-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2160, 2010-yil 6-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-y., 49-son, 461-modda) bilan tasdiqlangan Bog‘lar hamda madaniyat va istirohat bog‘lari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) 15-banddagi “GOST 17.2.3.02-78” degan so‘zlar “GOST 17.2.3.02-2014” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

2) 88-banddagi “GOST 12.1.004-91 “Yong‘in xavfsizligi. Umumiy talablari”, GOST 12.1.010-90 “Portlash xavfi. Umumiy talablari”ga” degan so‘zlar “GOST 12.1.033-81 “Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Yong‘in xavfsizligi. Atmalar va ta’riflar”ga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 27-oktabrdagi 177-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2177, 2011-yil 5-yanvar) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 1-2-son, 12-modda) bilan tasdiqlangan Tibbiyot texnikasidan foydalanish, montaj qilish, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar tibbiyot texnikasidan foydalanish, montaj qilish, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlashda mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar

salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

5) 10 va 11-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarini tekshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tkazish, o'qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

11. Ishlarni texnologik reglament bo'yicha xavfsiz yuritish yo'riqnomalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

6) 31–34-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“31. Tashkilotda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

32. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo'mitasi va sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzishi hamda xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlashi lozim.

33. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.

34. Davriy majburiy tibbiy ko'riklar o'z vaqtida, sifatli o'tkazilishi va ularning natijalariga ko'ra tavsiyalar bajarilishi uchun javobgarlik tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklanadi.”;

7) 36-banddagi “QMQ II 89-80 “Sanoat tashkilotlarini bosh plani” talabiga” degan so'zlar “SHNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

8) 42-banddagi “QMQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” talabiga” degan so'zlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

9) 43-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Tashkilotlarning ma’muriy va maishiy binolari” talabiga” degan so‘zlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 53-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun’iy yoritish” talablariga” degan so‘zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun’iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

11) 60-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talabiga” degan so‘zlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

12) 71-banddagi “GOST 12.1.004-91 “Yong‘in xavfsizligi. Umumiy talablari” va GOST 12.1.010-90 “Portlash xavfi. Umumiy talablari”ga” degan so‘zlar “GOST 12.1.033-81 “Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Yong‘in xavfsizligi. Atmalar va ta’riflar”ga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

12) 80-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“80. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o‘rnatish va ulardan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va mazkur Qoidalar talablariga rioya qilinishi kerak.”.

4. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 27-dekabrdagi 203-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2180, 2011-yil 12-yanvar) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 1-2-son, 17-modda) bilan tasdiqlangan Psixiatriya kasalxonalarini xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar psixiatriya kasalxonalarini xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5 va 6-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda

mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ichki nazoratning asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

ishlarga rahbarlik qiluvchi va boshqa mansabdor shaxslarning tezkor nazorati;  
ma'muriy-jamoatchilik nazorati (uch bosqichli nazorat);

mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Quyidagilar nazorat qilinishi lozim:

ish joylarining ahvoli;

mehnat qonunchiligiga rioya qilinishi;

mehnatni muhofaza qilishni boshqarish vazifalarini amalga oshirishga doir ishlarni bajarish;

ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni o'z vaqtida to'g'ri o'rganib chiqilishi;  
mehnatni muhofaza qilishga ajratilgan mablag'larning to'g'ri sarflanishi.”;

4) 9-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo'l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo'linmalari bo'lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunadi.”;

5) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarini tekshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tkazish, o'qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo'yicha xavfsiz yuritish yo'riqnomalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

6) 33-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“33. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan yoxud majburiy tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

7) 35-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” talabiga” degan so‘zlar “SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

8) 42-banddagi “QMQ II 89-80 “Sanoat tashkilotlarini bosh plani” talabiga” degan so‘zlar “SHNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

9) 52-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Korxonalarining ma‘muriy va maishiy binolari” talabiga” degan so‘zlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma‘muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 61-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talabiga” degan so‘zlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

11) 62-banddagi “QMQ 2.09.12-98 “Korxonaning maishiy va ma‘muriy binolari” talablariga” degan so‘zlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma‘muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

12) 70-banddagi “GOST 12.1.004-91 “Yong‘in xavfsizligi. Umumiy talablari” va GOST 12.1.010-90 “Portlash xavfi. Umumiy talablari”ga” degan so‘zlar “GOST 12.1.033-81 “Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Yong‘in xavfsizligi. Atmalar va ta‘riflar”ga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

13) 95-band quyidagi tahririda bayon etilsin:

“95. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o‘rnatish va ulardan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste‘molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste‘molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.

5. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 14-iyuldagi 42-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2253, 2011-yil 11-avgust) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 32-33-son, 339-modda) bilan tasdiqlangan Avtomobil yo‘llarini qurish, ta‘mirlash va saqlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar avtomobil yo‘llarini qurish, ta‘mirlash va saqlashda mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son

qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tkazish, o'qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo'yicha xavfsiz yuritish yo'riqnomalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 34–38-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“34. Tashkilotda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

35. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo'mitasi va sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzishi hamda xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlashi lozim.

36. Majburiy tibbiy ko'riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o'tkaziladi.

37. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.

38. Davriy majburiy tibbiy ko'riklar o'z vaqtida, sifatli o'tkazilishi va ularning natijalariga ko'ra tavsiyalar bajarilishi uchun javobgarlik tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklanadi.”;

8) 40-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yoritish” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

9) 54-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” talabiga” degan so'zlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

10) 56-banddagi “SanMvaQ II-89-80 “Sanoat tashkilotlarini bosh plani” talabiga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini

loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

11) 62-banddagi “QMQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” talablariga” degan soʻzlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda maʼmuriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

12) 63-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Tashkilotlarning maʼmuriy va maishiy binolari” talablariga” degan soʻzlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda maʼmuriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

13) 73-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” degan soʻzlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

14) 93-banddagi “GOST 12.1.004-91 “Yongʻin xavfsizligi. Umumiy talablari” va GOST 12.1.010-90 “Portlash xavfi. Umumiy talablari”ga” degan soʻzlar “GOST 12.1.033-81 “Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Yongʻin xavfsizligi. Atmalar va taʼriflar”ga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

15) 106-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“106. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini oʻrnatish va ulardan foydalanishda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.

6. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 25-avgustdagi 54-B-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2266, 2011-yil 22-sentabr) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2011-y., 38-son, 398-modda) bilan tasdiqlangan Sil kasalligiga qarshi muassasalar xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

2) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda

mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

3) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarini tekshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tkazish, o'qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo'yicha xavfsiz yuritish yo'riqnomalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

4) 34–37-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“34. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo'mitasi va sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzishi hamda xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlashi lozim.

35. Majburiy tibbiy ko'riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o'tkaziladi.

36. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.

37. Davriy majburiy tibbiy ko'riklar o'z vaqtida, sifatli o'tkazilishi va ularning natijalariga ko'ra tavsiyalar bajarilishi uchun javobgarlik tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklanadi.”;

5) 40 va 42-bandlardagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilatsiya va konditsiyalash” talabiga” degan so'zlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

6) 47-banddagi “QMQ 2.09.12-98 “Korxonaning maishiy va ma'muriy binolari” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

7) 2-bobning 10-paragrafi nomidagi “kanalizatsiya” degan soʻz “oqova suvlarni chiqarib yuborish” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

8) 49-band quyidagi tahririda bayon etilsin:

“49. Suv bilan taʼminlash va oqova suvlarni chiqarib yuborish tizimi ShNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi kerak.”;

9) 52 va 53-bandlardagi “kanalizatsiya” degan soʻz “oqova suvlarni chiqarib yuborish” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

10) 66-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sunʼiy yoritish” talabiga” degan soʻzlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sunʼiy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

11) 73-banddagi “QMQ II 89-80 “Sanoat tashkilotlarining bosh plani” talabiga” degan soʻzlar “SHNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

12) 84-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Korxonalarining maʼmuriy va maishiy binolari” talabiga” degan soʻzlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda maʼmuriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

7. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2012-yil 14-fevraldagi 7-B-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2339, 2012-yil 15-mart) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2012-y., 11-son, 124-modda) bilan tasdiqlangan Muzeylar, teatrlar va konsert zallari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar muzeylar, teatrlar va konsert zallari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 7 va 8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo‘ysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 34–37-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“34. Tashkilotlarda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

35. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo‘mitasi va sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda har-yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim bo‘lgan xodimlarning ro‘yxatini tuzishi hamda xodimlarning ko‘rikka kelishini ta‘minlashi lozim.

36. Majburiy tibbiy ko‘riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo‘lmagan taqdirda esa korxonada joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o‘tkaziladi. Majburiy tibbiy ko‘riklar davolash-sog‘lomlashtirish tadbirlari belgilangan tekshirish dalolatnomasi bilan yakunlanishi lozim.

37. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan yoxud majburiy tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 38-banddagi “Davriy tibbiy ko‘riklar” degan so‘zlar “Davriy majburiy tibbiy ko‘riklar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

9) 43-banddagi “QMQ II 89-80 “Sanoat tashkilotlarining bosh plani” talablariga” degan so‘zlar “SHNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 53-banddagi “QMQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” talablariga” degan so‘zlar ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma‘muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

11) 54-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“54. Yordamchi binolar va xonalar ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma‘muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi lozim.”;

12) 63-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talablariga” degan so‘zlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

13) 74-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” talabiga” degan so‘zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablarig” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

14) 106-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“106. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o‘rnatish va ulardan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste‘molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste‘molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.

8. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2012-yil 14-fevraldagi 6-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2340, 2012-yil 15-mart) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 11-son, 125-modda) bilan tasdiqlangan Hayvonot parklari (hayvonot bog‘lari) va sirk xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar hayvonot parklari (hayvonot bog‘lari) va sirk xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 7 va 8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo‘ysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 32–35-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“32. Tashkilotlarda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

33. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo‘mitasi va sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda har-yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim bo‘lgan xodimlarning ro‘yxatini tuzishi hamda xodimlarning ko‘rikka kelishini ta‘minlashi lozim.

34. Majburiy tibbiy ko‘riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo‘lmagan taqdirda esa korxonada joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o‘tkaziladi. Majburiy tibbiy ko‘riklar davolash-sog‘lomlashtirish tadbirlari belgilangan tekshirish dalolatnomasi bilan yakunlanishi lozim.

35. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 36-banddagi “Davriy tibbiy ko'riklar” degan so'zlar “Davriy majburiy tibbiy ko'riklar” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

9) 39-bandning uchinchi xatboshisidagi “QMQ 3.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yorug'lik. Loyihalashtirish me'yorlari”ga” degan so'zlar “SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

10) 41-banddagi “QMQ II 89-80 “Sanoat tashkilotlarining bosh plani” talablariga” degan so'zlar “SHNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

11) 52-banddagi “QMQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” talablariga” degan so'zlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

12) 53-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“53. Yordamchi binolar va xonalar ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi lozim.”;

13) 64-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talabiga” degan so'zlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

14) 75-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yoritish” talabiga” degan so'zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

15) 114-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“114. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o'rnatish va ulardan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste'molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste'molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”;

16) 124-band o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2012-yil 25-maydagi 26-B-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2374, 2012-yil 21-iyun) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 25-son, 283-modda) bilan tasdiqlangan Dezinfeksiya stansiyalari, dezinfeksiya bo'limlari,

profilaktik dezinfeksiya bo‘linmalari, sanitariya-epidemiologiya stansiyalari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar dezinfeksiya stansiyalari, dezinfeksiya bo‘limlari, profilaktik dezinfeksiya bo‘linmalari, sanitariya epidemiologiya stansiyalari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 7 va 8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo‘ysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son

qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarini tekshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tkazish, o'qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo'yicha xavfsiz yuritish yo'riqnomalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 33–36-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“33. Tashkilotlarda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

34. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo'mitasi va sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda har-yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzishi hamda xodimlarning ko'rikka kelishini ta'minlashi lozim.

35. Majburiy tibbiy ko'riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa korxonada joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o'tkaziladi. Majburiy tibbiy ko'riklar davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari belgilangan tekshirish dalolatnomasi bilan yakunlanishi lozim.

36. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 37-banddagi “Davriy tibbiy ko'riklar” degan so'zlar “Davriy majburiy tibbiy ko'riklar” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

9) 40-bandning uchinchi xatboshisidagi “QMQ 3.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yoritish. Loyihalashtirish me'yorlari”ga” degan so'zlar “SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy

va sun'iy yoritish" shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

10) 42-banddagi "QMQ II 89-80 "Sanoat tashkilotlarini bosh plani" talablariga" degan so'zlar "SHNQ 2.09.17-21 "Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash" shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

11) 53-banddagi "QMQ 2.09.02-85 "Ishlab chiqarish binolari" talablariga" degan so'zlar "SHNQ 2.09.02-23 "Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari" shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

12) 54-banddagi "QMQ 2.09.04-98 "Tashkilotlarning ma'muriy va maishiy binolari" talablariga" degan so'zlar "SHNQ 2.09.02-23 "Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari" shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

13) 65-banddagi "QMQ 2.04.05-97 "Isitish, shamollatish va konditsionerlash" talabiga" degan so'zlar "SHNQ 2.04.05-22 "Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash" shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

14) 76-banddagi "QMQ 2.01.05-98 "Tabiiy va sun'iy yoritish" talabiga" degan so'zlar "SHNQ 2.01.05-24 "Tabiiy va sun'iy yoritish" shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

15) 102-banddagi "GOST 12.1.004-91 "Yong'in xavfsizligi. Umumiy talablari" va GOST 12.1.010-90 "Portlash xavfi. Umumiy talablari"ga" degan so'zlar "GOST 12.1.033-81 "Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Yong'in xavfsizligi. Atmalar va ta'riflar"ga" degan so'zlar bilan almashtirilsin.

16) 115-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"115. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o'rnatish va ulardan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste'molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste'molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.";

17) 152-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"152. Kamerali yuklash va bo'shatish xonalari o'rtasida xodimlarni sanitariya ishlovidan o'tkazish xonasi va toza buyumlarni berish omborxonasi bilan bog'lanuvchi bino, shuningdek dezinfeksiya vosita va moddalarini saqlash uchun omborxonaga bo'lishi kerak. Kamerali yuklash va bo'shatish xonalarining havo almashtirgichlari Dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazish, dezinfeksiya xizmatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni joylashtirish hamda ularning xonalari va jihozlariga, dezinfeksiya vositalarini saqlash, tashish va ulardan foydalanishga oid

sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (0090-25-son SanQvaN) talablariga mos bo‘lishi lozim.”;

18) 156-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“156. Tashkilotlarning barcha ishlab chiqarish xonalarida almashinuvini ta’minlovchi jihozlar bilan Dezinfeksiya tadbirlarini o‘tkazish, dezinfeksiya xizmatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni joylashtirish hamda ularning xonalari va jihozlariga, dezinfeksiya vositalarini saqlash, tashish va ulardan foydalanishga oid sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (0090-25-son SanQvaN) talablariga mos bo‘lishi lozim.”.

10. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2012-yil 30-iyuldagi 36-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2398, 2012-yil 2-noyabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 45-son, 517-modda) bilan tasdiqlangan Telefon va telegraf stansiyalari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar telefon va telegraf stansiyalari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 7 va 8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta’minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo'lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to'g'risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o'ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo'l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo'linmalari bo'lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog'liq ravishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo'yicha bilimlarini tekshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tkazish, o'qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo'yicha xavfsiz yuritish yo'riqnomalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 34–37-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“34. Tashkilotlarda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

35. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo'mitasi va sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda har-yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzishi hamda xodimlarning ko'rikka kelishini ta'minlashi lozim.

36. Majburiy tibbiy ko'riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa korxonada

joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o'tkaziladi. Majburiy tibbiy ko'riklar davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari belgilangan tekshirish dalolatnomasi bilan yakunlanishi lozim.

37. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 38-banddagi “Davriy tibbiy ko'riklar” degan so'zlar “Davriy majburiy tibbiy ko'riklar” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

9) 41-bandning uchinchi xatboshisidagi “QMQ 3.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yoritish. Loyihalashtirish me'yorlari”ga” degan so'zlar “SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

10) 42-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” talabiga” degan so'zlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

11) 44-banddagi “QMQ II 89-80 “Sanoat tashkilotlarining bosh plani” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

12) 55-banddagi “QMQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” talablariga” degan so'zlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

13) 56-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Tashkilotlarning ma'muriy va maishiy binolari” talablariga” degan so'zlar “SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

14) 69-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talablariga” degan so'zlar “SHNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

15) 80-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yoritish” talablariga” degan so'zlar “SHNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

16) 120-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“120. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o'rnatish va ulardan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste'molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya

qilish qoidalari va Iste'molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.

11. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2012-yil 29-noyabrdagi 75-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2406, 2012-yil 25-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 52-son, 595-modda) bilan tasdiqlangan Poyabzal ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar poyabzal ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 7 va 8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta’minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarning soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo‘ysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 35-banddagi “davriy tibbiy ko‘rikdan” degan so‘zlar “dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘rikdan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

8) 37-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“37. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan yoxud majburiy tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

9) 38-banddagi “tibbiy ko‘rik” degan so‘zlar “majburiy tibbiy ko‘rik” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 44-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“44. Tashkilot maydonlari va binolarining joylashuvi SHNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo‘lishi kerak.”;

11) 55-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“55. Ishlab chiqarish binolari va inshootlari ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma‘muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.”;

12) 69-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“69. Shamollatish va isitish tizimi SHNQ 2.04.05 -22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.”;

13) 80-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“80. Ishlab chiqarish xonalarini tabiiy va sun‘iy yoritish ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo‘lishi lozim.”;

14) 120-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“120. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o‘rnatish va ulardan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste‘molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste‘molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.

12. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2012-yil 29-noyabrdagi 76-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2407, 2012-yil 25-dekabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 52-son, 596-modda) bilan tasdiqlangan Mo‘ynadan va qo‘y terisidan po‘stin ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar mo‘ynadan va qo‘y terisidan po‘stin ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 7 va 8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan

mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud boʻlgan tashkilotda yoʻl harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yoʻl harakati xavfsizligi boʻyicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarning soni ellik nafardan kam boʻlgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish boʻyicha mutaxassis lavozimini joriy etish toʻgʻrisidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining oʻziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yoʻl harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy boʻlinmalari boʻlib, ular bevosita tashkilot rahbariga boʻysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bogʻliq ravishda sodir boʻlgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bogʻliq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish toʻgʻrisidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish boʻyicha bilimlarini tekshirish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻl-yoʻriqdan oʻtkazish, oʻqitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament boʻyicha xavfsiz yuritish yoʻriqnomalari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish boʻyicha yoʻriqnomalarni ishlab chiqish toʻgʻrisidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yoʻriqnomalar bilan taʼminlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 35-banddagi “davriy tibbiy koʻrikdan” degan soʻzlar “dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy koʻrikdan” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

8) 36 va 37-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“36. Majburiy tibbiy koʻriklar tashkilotga tibbiy xizmatlar koʻrsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular boʻlmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan oʻtkaziladi.

37. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

9) 38-banddagi “tibbiy ko'rik” degan so'zlar “majburiy tibbiy ko'rik” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

10) 44-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“44. Tashkilot maydonlari va binolarining joylashuvi ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo'lishi kerak.”;

11) 55-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“55. Ishlab chiqarish binolari va inshootlari ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo'lishi lozim.”;

12) 56-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“56. Yordamchi binolar va xonalar SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo'lishi lozim.”;

13) 69-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“69. Shamollatish va isitish tizimi ShNQ 2.04.05 -22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo'lishi lozim.”;

14) 80-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“80. Ishlab chiqarish xonalarini tabiiy va sun'iy yoritish ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo'lishi lozim.”;

15) 118-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“118. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o'rnatish va ulardan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste'molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste'molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.

13. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2012-yil 01-martdagi 14-B-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2446, 2013-yil 1-aprel) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 14-son, 189-modda) bilan tasdiqlangan Ta'lim muassasalarining o'quv xonalarida mashg'ulotlar o'tkazishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

2) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Ta’lim muassasalarida mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

3) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo‘riqnomalar bilan ta’minlash ta’lim muassasasi rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

4) 35-banddagi “davriy tibbiy ko‘rikdan” degan so‘zlar “dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘rikdan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

5) 36 va 37-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“36. Majburiy tibbiy ko‘riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo‘lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o‘tkaziladi.

37. Ta’lim muassasasi ish beruvchisi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan yoxud majburiy tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

6) 38-banddagi “tibbiy ko‘rik” degan so‘zlar “majburiy tibbiy ko‘rik” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

7) 42-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“42. Noqulay omillar ta’siriga qarshi himoya tadbirlarini tuzishda samarali havo almashinuvi tizimini ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq tashkil qilish lozim.”;

8) 44-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“44. Ta’lim muassasasi maydonlari va binolarini joylashtirish ShNQ 2.01.03-19 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

9) 52-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“52. Yordamchi binolar va xonalar ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.”;

10) 63-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“63. Shamollatish va isitish tizimi ShNQ 2.04.05 -22 “Isitish, ventilatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.”;

11) 75-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“75. O‘quv va laboratoriya xonalarini tabiiy va sun’iy yoritish ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun’iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo‘lishi lozim.”.

14. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2013-yil 24-apreldagi 23-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2455, 2013-yil 8-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 19-son, 246-modda) bilan tasdiqlangan Lok-bo‘yoq materiallari bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar lok-bo‘yoq materiallari bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 7 va 8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarning soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo‘ysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 35-banddagi “tibbiy ko‘rikdan” degan so‘zlar “dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘rikdan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

8) 36 va 37-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“36. Majburiy tibbiy ko‘riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo‘lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o‘tkaziladi.

37. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan yoxud majburiy tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

9) 38-banddagi “tibbiy ko‘rik” degan so‘zlar “majburiy tibbiy ko‘rik” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 42-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“42. Noqulay omillar ta’siriga qarshi himoya tadbirlarini tuzishda samarali havo almashinuvi tizimini ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq tashkil qilish lozim.”;

11) 44-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“44. Tashkilot maydonlari va binolarining joylashuvi ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo‘lishi kerak.”;

13) 54-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“54. Ishlab chiqarish binolari va inshootlari ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.”;

14) 56-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“56. Yordamchi binolar va xonalar ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.”;

15) 69-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“69. Shamollatish va isitish tizimi ShNQ 2.04.05 -22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.”;

16) 85-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“85. Ishlab chiqarish xonalarini tabiiy va sun’iy yoritish ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun’iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo‘lishi lozim.”;

17) 124-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“124. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o‘rnatish va ulardan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste‘molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste‘molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.

15. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2013-yil 14-maydagi 32-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2458, 2013-yil 24-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 21-son, 278-modda) bilan tasdiqlangan Maishiy xizmat ko‘rsatish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar maishiy xizmat ko‘rsatish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrdagi 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 7 va 8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarning soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo‘ysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 36-banddagi “tibbiy ko‘rikdan” degan so‘zlar “dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘rikdan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

8) 37 va 38-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“37. Majburiy tibbiy ko‘riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo‘lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o‘tkaziladi.

38. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan yoxud majburiy tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

9) 39-banddagi “tibbiy ko‘rik” degan so‘zlar “majburiy tibbiy ko‘rik” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 43-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“43. Noqulay omillar ta’siriga qarshi himoya tadbirlarini tuzishda samarali havо almashinuvi tizimini ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq tashkil qilish lozim.”;

11) 45-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“45. Tashkilot maydonlari va binolarining joylashuvi SHNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo‘lishi kerak.”;

12) 57-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“57. Ishlab chiqarish binolari va inshootlari SHNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.”;

13) 67-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“67. Shamollatish va isitish tizimi ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.”;

14) 83-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“83. Tashkilot hududi va ishlab chiqarish xonalarini tabiiy va sun’iy yoritish ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun’iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo‘lishi lozim.”;

15) 94-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“94. Tashkilotlarda maishiy va ovqatlanish xonalari hamda tibbiy punktlar bo‘lishi kerak. Tashkilotlarning maishiy bino va xonalari SHNQ 2.09.02-23 Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi lozim.”;

16) 105-banddagi “GOST 12.1.004-91 “Yong‘in xavfsizligi. Umumiy talablari” va GOST 12.1.010-90 “Portlash xavfi. Umumiy talablari”ga” degan so‘zlar “GOST 12.1.033-81 “Mehnat xavfsizligi standartlari tizimi. Yong‘in xavfsizligi. Atmalar va ta’riflar”ga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

17) 118-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“118. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o‘rnatish va ulardan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.

16. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2013-yil 14-maydagi 31-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2459, 2013-yil 27-may) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 22-son, 286-modda)

bilan tasdiqlangan Metall va no metall noorganik qoplamalar ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar metall va no metall noorganik qoplamalar ishlab chiqarishda mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normalari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Mehnatni muhofaza qilish borasidagi ishlarni tashkil qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”;

4) 7 va 8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarning soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo‘ysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat

vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 12 va 13-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Xodimlarning mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilimlarini tekshirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqdan o‘tkazish, o‘qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

13. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-son qarori bilan tasdiqlangan Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish to‘g‘risidagi nizom talablariga muvofiq ishlab chiqiladi hamda tashkilot xodimlarini va ish joylarini ushbu yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 36-banddagi “tibbiy ko‘rikdan” degan so‘zlar “dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘rikdan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

8) 37 va 38-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“37. Majburiy tibbiy ko‘riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo‘lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o‘tkaziladi.

38. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan yoxud majburiy tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

9) 39-banddagi “tibbiy ko‘rik” degan so‘zlar “majburiy tibbiy ko‘rik” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 43-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“43. Noqulay omillar ta‘siriga qarshi himoya tadbirlarini tuzishda samarali havo almashinuvi tizimini ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq tashkil qilish lozim.”;

11) 45-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“45. Tashkilot maydonlari va binolarining joylashuvi SHNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo‘lishi kerak.”;

12) 57-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“57. Ishlab chiqarish va yordamchi binolar, inshoot va xonalar ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi lozim.”;

13) 67-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“67. Shamollatish va isitish tizimi ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo‘lishi lozim.”;

14) 83-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“83. Tashkilot hududi va ishlab chiqarish xonalarini tabiiy va sun’iy yoritish ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun’iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo‘lishi lozim.”;

15) 94-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“94. Tashkilotlarda maishiy va ovqatlanish xonalari hamda tibbiy punktlar bo‘lishi kerak. Tashkilotlarning maishiy bino va xonalari ShNQ 2.09.02-23 Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi lozim.”;

17) 120-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“120. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o‘rnatish va ulardan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste’molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste’molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGIDA  
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI  
RO'YXAT RAQAMI: 3755  
2026 - yil 13 - Yanvar

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

### **Salomatligi xavfsizlik kamari taqish imkonini bermaydigan kasalliklar ro'yxatini tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son "Yo'l harakati qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi [qaroriga](#) muvofiq **buyuraman:**

1. Salomatligi xavfsizlik kamari taqish imkonini bermaydigan kasalliklar [ro'yxati](#) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan kelishilgan.
3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir  
2025-yil 24-dekabr  
29-son



XUDAYAROV ASILBEK  
ANVAROVICH

Kelishildi:

Vazir  
2025-yil 12-dekabr



TASHPULATOV AZIZ  
ANVAROVICH

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining  
2025-yil 24-dekabrda 29-son buyrug'iga

ILOVA

**Salomatligi xavfsizlik kamari taqish imkonini bermaydigan  
kasalliklar  
RO'YXATI**

| <b>T/r</b> | <b>Kasalliklar nomi</b>   |
|------------|---|
| 1.         | O'mrov va to'sh suyagi sinishi*   |
| 2.         | Yelka kamari sinishi*   |
| 3.         | Qovurg'alar sinishi*  |
| 4.         | Chap o'mrov suyagi chiqishi tufayli o'tkazilgan operatsiyalar*  |
| 5.         | Chap o'mrov suyagining soxta bo'g'imi sinishi*  |
| 6.         | Umurtqa pog'onasining kompression sinishi*  |
| 7.         | O'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari (IV bosqich)  |
| 8.         | Bronxial astma (IV bosqich)   |
| 9.         | O'pkaning interstitsial zararlanishi (fibroz va boshqalar)  |
| 10.        | O'pkaning bir qismi yoki butun qismining (chap yoki o'ng) olib tashlanishi (lobektomiya, pnevmonektomiya)**                           |
| 11.        | Surunkali yurak yetishmovchiligining III bosqichi va dekompensatsiya bosqichi   |
| 12.        | Og'ir yurak-qon tomir kasalliklari (o'tkazilgan infarktlar, ishemiya va boshqalar)  |
| 13.        | III darajali (morbid) semizlik (Tananing massa indeksi $\geq 40$ )  |
| 14.        | Past bo'ylik (nanizm) 150 santimetrdan past**   |
| 15.        | Qo'l yoki yelka harakatini cheklovchi nevrologik kasalliklar  |
| 16.        | Tananing ko'krak qismida joylashgan og'ir allergik yoki dermatologik kasalliklarning og'ir shakllari (ekzema, psoriasis va boshqalar) |
| 17.        | O'mrov, kurak, yelka, to'sh suyaklari va qovurg'alarda ichki va tashqi implantlarning mavjudligi                                      |
| 18.        | Ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'ida o'tkazilgan ochiq turdagi operatsiyalar  |
| 19.        | Stomalar mavjud bo'lishi  |

|     |   |
|-----|---|
| 20. | Ko'krak qafasi sohasidagi yirik hosilalar (o'sma) |
|-----|---|

**Izoh:** Ushbu kasalliklar bilan kasallanganligi bo'yicha QR-kodli (matrik shtrixli kod) elektron tibbiy ma'lumotnoma mazkur ro'yxatga ilovada keltirilgan shaklda "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimi orqali bemor biriktirilgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasasi yoki bemor davolangan davlat tibbiyot muassasasi tomonidan bepul beriladi.

Tibbiy ma'lumotnoma bemor biriktirilgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasasi tomonidan u davolangan nodavlat tibbiyot tashkilotining tegishli xulosasi asosida ham berilishi mumkin.

Tibbiy ma'lumotnoma 1 yil muddatga beriladi, bundan mazkur izohning to'rtinchi va beshinchi xatboshilarida belgilangan muddatlar mustasno.

\* Tibbiy ma'lumotnoma ushbu kasalliklar yuzasidan qo'yilgan tashxislar bo'yicha belgilangan muddatlar (2 oy, 4 oy, 6 oy, 1 yil) doirasida beriladi.

\*\* Tibbiy ma'lumotnoma ushbu kasalliklar uchun doimiy muddatga beriladi.

Salomatligi xavfsizlik kamari taqish imkonini  
bermaydigan kasalliklar ro'yxatiga  
ILOVA

Salomatligi xavfsizlik kamari taqish imkonini bermaydigan  
kasalliklar bo'yicha

**TIBBIY MA'LUMOTNOMA SHAKLI**

| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI |          |      |      |       |
|--|----------|------|------|-------|
| 1. Ma'lumotnoma beruvchi tashkilot nomi              | -        |      |      |       |
| 2. Familiyasi, ismi, otasining ismi                  | -        |      |      |       |
| 3. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami | -        |      |      |       |
| 4. Tug'ilgan sanasi                                  |          |      |      |       |
| 5. Doimiy yashash joyi                               | -        |      |      |       |
| 6. Ma'lumotnoma raqami                               | -        |      |      |       |
| 7. Ma'lumotnomaning amal qilish muddati              | 2 oy     | 4 oy | 6 oy | 1 yil |
|  | doimiy   |      |      |       |
| 8. Ma'lumotnoma tasdiqlangan sana                    | 20__ yil | "__" |      |       |



QR-kod skaner qilinganda, ushbu hujjatning nusxasi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining rasmiy axborot resursidan <https://ssv.uz> generatsiya qilinadi.

Boshqa axborot resurslaridan shakllantirilgan hujjat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga tegishli emas.